O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI

ZAMONAVIY SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR

O‘quv qo‘llanma

“Samarqand” davlat chet tillar instituti nashriyoti
Samarqand – 2022

UDK: 316.25

A.A.Azizqulov. Zamonaviy sotsiologik nazariyalar. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 146 bet.

Zamonaviy sotsiologik nazariya fani jamiyatda ro‘y berayotgan yirik ijtimoiy-siyosiy voqealarni shunchaki qayd etish bilangina cheklanmaydi, balki uning asl mohiyati va mazmuni haqidagi yangi konsepsiyalarning mohiyatini atroflicha ochib beradi. Bu fan o‘zining ilmiy xulosalarini empirik darajada asoslangan holatda ilgari suradi. Fanning nazariy asoslari dolzarb ijtimoiy jarayonlar, sotsial struktura va sotsial tizimlarining mavjud bo‘lishi va rivojlangan muammolari, jamiyat sotsial-madaniy tizim sifatida, shaxs ijtimoiy munosabatlarning obyekti va subyekti sifatida, sotsial munosabatlar, ijtimoiy jamoalar, sotsial aloqalar, sotsial tashkilotlar, guruhlar sotsial institutlar va institutlashgan munosabatlar, jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarni batafsil bayon qilish bilan mos keladi.

O‘quv qo‘llanmadan mustaqil izlanuvchilar, o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim o‘qituvchilari, ilmiy-tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Sh.S.Qo‘shoqov - SamISI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori,

I.Negmatov - SamDU “Sotsiologiya va ijtimoiy ish” kafedrasi mudiri, dotsent.

Mazkur o‘quv qo‘llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O‘quv-uslubiy kengashining 10-yanvar 2022-yildagi №6-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9728-8-1

© A.A.Azizqulov, 2022
© “Samarqand” davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2022

KIRISH

Zamonaviy sotsiologik nazariyalar fani sotsiologiya sohasidagi yangi tadqiqotlar va ular natijasida yuzaga kelgan konsepsiyalarni o‘z ichiga oladi. Ma’lumki sotsiologik bilimlar — insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Mustabid mustamlaka tuzumi davrida sotsiologik bilimlar inkor etilib, jahon xalqlarining durdonasi, ma’naviy va madaniy boyligi bo‘lgan bu fanning va uning namoyandalarining ta’limotlaridan bebahra bo‘ldik. Mustaqillik tufayli sotsiologiya sohasidagi bilimlarga yangi yo‘l ochildi.

Sotsiologiya inson hayotining ijtimoiy jihatlarini o‘rganadi. Agar insonning tom ma’noda ijtimoiy hodisa ekanligini e’tiborga olsak, sotsiologiya kishilik jamiyatining barcha ijtimoiy masalalarini o‘rganuvchi fan sifatida namoyon bo‘ladi.

Jahon iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy globallashuv jarayonlariga tobora jadal sur’atlar bilan kirib bormoqda. Davlatlar va regionlar o‘rtasidagi geografik, etnik, madaniy chegara hamda shartliliklar barham topib bormoqda.

Informatsion, madaniy-estetik umumlashuv, didlar, saviyalar darajalarining standartlashuv jarayonlari esa o‘z navbatida jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar tendensiyalarini maxsus o‘rganish, ularni yaxlit tadqiq etish masalasini aktuallashtirmoqda.

Shuningdek, XX asr insoniyat sivilizatsiyasi silsilasida mustabid kolonial tartibotlardan butunlay xalos bo‘lish asri sifatida tarixda qoldi. Ilgari qaram bo‘lgan xalqlar siyosiy ozodlik, ma’naviy tiklanish, madaniy komilikka intilishning yangi istiqbol bosqichiga qadam qo‘ydi. Milliy yuksalish yo‘lida borayotgan Yangi O‘zbekiston ijtimoiy muhitida yuz berayotgan katta o‘zgarishlarni chuqur idrok etish, sotsiologik tahlil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Zamonaviy sotsiologik nazariyalar kursida XX asrda fundamental sotsiologik tadqiqotlar olib borgan F.Tyonnis, G.Zimmel, E.Dyurkgeym, M.Veber, V.Pareto, F. Znaneskiy, P.Sorokinlar tomonidan ilgari surilgan nazariyalarning mazmun-mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek, zamonaviy g‘arb sotsiologlari ilgari surgan nazariyalar o‘quv qo‘llanmada bayon etilgan.

Hozirgi zamon G‘arb sotsiologiyasida bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan uch yo‘nalishdagi nazariyalar ko‘zga tashlanadi. Bularning birichisi sotsial falsafiy konsepsiyaning Freyd sotsiologiyasi asosidagi talqinlar,

P.Sorokining integral falsafiy sotsiologiyasi hamda, industrial va postindustrial jamiyat nazariyasi va hokazoni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi soha tor ma’nodagi sotsiologik tadqiqotlardan iborat bo‘lib, u akademik sotsiologiyani tashkil etadi. Akademik sotsiologiya uchun fundamental ilmiy muammolarga qiziqish, mafkuralardan xoli bo‘lish (ideologik betaraflik) va empirik faktlarga tayanish xosdir.

Sotsiologik bilimning uchinchi sohasi g‘oyatda keng bo‘lib, u amaliy sotsiologiyani o‘z ichiga oladi. Uning vakillar sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish va ijtimoiy hayotning turli sohalari ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash, ma’muriy organlar uchun tavsiyalar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi.

Hozirgi zamon G‘arb sotsiologiyasi uchun eng umumiy muammo jamiyatning o‘zligini saqlashi, rivojlanishi va uning barqarorligini ta’minlash muammosidir. Mazkur o‘quv qo‘llanmada fuknsional nazariya, konflikt nazariyasi, o‘zaro ta’sir nazariyasi, ayirboshlash nazariyasi, simvolik interaksionizm kabi nazariyalar batafsil yoritib berilgan.

1-MAVZU. SOTSIOLOGIK NAZARIYALARNING VUJUDGA KELISHINING G‘OYAVIY-NAZARIY VA IJTIMOIY-IQTISODIY ZAMINLARI

REJA:

1. Sotsiologiyaning fan sifatida vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.
2. Intellektual kuchlar va sotsiologik nazariyaning rivojlanishi
3. O‘zbekistonda sotsiologik tadqiqotlar rivoji.

Sotsiologiyaning fan sifatida vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.

Har qanday intellektual soha ijtimoiy muhit ta’siri ostida shakllanadi. Bu ayniqsa ko‘proq sotsiologiyaga muvofiq keladi, chunki sotsiologiya nafaqat ijtimoiy muhitdan kelib chiqadi, balki ushbu muhitni asosiy o‘rganish obyekti sifatida qaraydi. Biz qisqacha XIX va XX asr boshlarida sotsiologiyaning rivojlanishi uchun eng katta ahamiyatga ega muhim sotsiologik nazariyalar bilan tanishib chiqamiz.

Siyosiy inqiloblar. 1789-yil Fransiya inqilobi bilan boshlangan va butun XIX asr davomida cho‘zilgan uzoq siyosiy inqiloblar butun ijtimoiy rivojlanishning nazariy asoslari bo‘lgan sotsiologik nazariyalarning paydo bo‘lishiga zamin bo‘ldi. Ushbu inqiloblarning aksariyatini jamiyatlarga ta’siri katta bo‘ldi va ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi. Biroq, nazariyotchilar diqqatlarini ijobiy oqibatlari emas, balki salbiy o‘zgarishlar tomonlari jalb qildi. Eng muhimi, yozuvchilar va barcha ziyoliylar Fransiyada inqilobdan keyingi tartibsizlikdan va xaosdan hayratda qolishdilar. Ular jamiyatda tartibni tiklashga birlashdilar. Ulardan ba’zilari, ekstremal fikrda bo‘lib tom ma’noda o‘rta asrlarning tinch va nisbatan tartibli kunlariga qaytish tarafdori edilar. Ilg‘or yetakchi siyosatchilar esa jamiyatda ro‘y bergan o‘zgarishlar shunday bo‘lishini e’tirof etgan holda orqaga qaytish imkonsiz dedilar. Shunga ko‘ra, ular XIX va XX asrlarda siyosiy inqiloblar natijasida larzaga kelgan jamiyatlardagi barqarorlikning yangi zaminini topishga harakat qilishdi. Ijtimoiy buyurtma masalasiga bo‘lgan qiziqish asosiy tashvishga aylandi. Sotsiologiyaning klassik nazariyotchilaridan Kont va Dyurkgeymlarning tadqiqotlari shu muammoga qaratildi.

Sanoat inqilobi va kapitalizmning ko‘tarilishi. XIX va XX asrlarda ko‘pgina G‘arb mamlakatlarini qamrab olgan sanoat inqilobi ham siyosiy

inqilob singari sotsiologik nazariyalarning shakllanishiga muhim ta’sir ko‘rsatdi. Qishloq xo‘jaligi (katta darajada) asosan sanoat tizimiga o‘tishga asoslangan sanoat inqilobi bitta hududda emas balki G‘arb dunyosining o‘zgarishi bilan yakunlangan hodisa edi. Ko‘p odamlar soni ortib borayotgan fabrikalarda ishlash uchun fermer xo‘jaliklarini tark etishdi. Texnologik takomillashtirish fabrikalarning o‘zida amalga oshirildi. Sanoat va rivojlanayotgan kapitalistik iqtisodiy tizim ehtiyojlarga xizmat qilish uchun iqtisodiy byurokratiya sinfi paydo bo‘ldi. Bunday tizim uchun ideal - erkin bozor bo‘lib, unda katta hajmdagi sanoat mahsulotlarini almashtirish mumkin edi. Bunday tizimda hamma ham katta daromad ola olmas edi, balki, kam ish haqi evaziga uzoq vaqt ishlashga majbur edi. Sanoat tizimiga va umuman kapitalizmga reaksiya sifatida mehnatkashlar harakatining paydo bo‘lishi kapitalistik tuzumni ag‘darishga qaratilgan harakatlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Sanoat inqilobi, kapitalizm va ularga qarshi reaksiyadan G‘arb jamiyatida ziyoliylar jiddiy ta’sirlanadi va bu holat sotsiologlarga ta’sir ko‘rsatadi. Sotsiologik nazariyaning ilk rivojlanish bosqichida Karl Marks, Maks Veber, Emil Dyurkgeym va Georg Zimmel kabi olimlar etishib chiqadi va ular jamiyatda vujudga kelgan muammolarni o‘rganib chiqadilar. Bu olimlar tadqiqotlari davomida mazkur ijtimoiy muammolar bilan shug‘ullanadilar va ko‘pgina holatlar ularni hal qilish dasturlarini ishlab chiqishga harakat qildilar.

Sotsializmning rivoji. Kapitalizm sanoat tizimidagi kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan bir qator o‘zgarishlar "sotsializmning yuksalishi" sarlavhasi ostida uni vujudga kelishiga zamin bo‘ldi. Garchi ba’zi sotsiologlar sotsializmni sanoat muammolarini hal qilish vositasi sifatida ijobiy baholasalar-da, ko‘pchilik esa bunga ham insoniy, ham ilmiy jihatdan qarshi chiqdilar. Bir tomondan, Karl Marks inqilobni faol ravishda himoya qildi hamda kapitalistik tuzumni sotsialistik tuzum bilan almashtirish g‘oyasini ilgari surdi. Garchi u sotsializm nazariyasini rivojlantirmagan bo‘lsa ham lekin kapitalistik tizimni turli jihatlarini tanqid qildi. Bundan tashqari, u jamiyada sotsializmni bunyod etish mumkin degan g‘oya asosida targ‘ibot olib bordi. Marks sotsiologiya nazariyotchisi emas edi. Veber va Dyurkgeym kabi dastlabki sotsiologik nazariya asoschilari sifatida sotsializmga qarshi edilar.

Ular kapitalistik tizim ichida muammolar mavjudligini tan olib, Marks tomonidan ilgari surilgan inqilobdan ko‘ra ijtimoiy islohotlarni afzal deb bilar edilar. Ular kapitalizmdan ko‘ra ko‘proq sotsializmdan qo‘rqishgan. Ushbu vahima sotsiologik nazariyalarning rivojlanishga

ta’sir qildi. Aslida, ko‘rinib turganidek, ko‘p hollarda sotsiologik nazariya marksizmga qarshi va umuman olganda, sotsialistik nazariyaga qarshi reaksiya sifatida shakllangan.

Feminizm. Ma’lum ma’noda feminizmning vujudga kelish istiqboli hamma vaqt mavjud. Qayerda va qachon ayollar bo‘ysunadigan, tobe bo‘lgan holatda bo‘lsa, ular har doim u yoki bu shaklda har doim mavjud vaziyatga qarshi norozilik bildirishdi. Feministik harakati 1630-yillarda boshlangan edi. G‘arb tarixida xotin-qizlar faoliyatining eng yuqori yuksalishi cherkov va davlatni ajratish uchun kurash bo‘lgan paytlarda kuzatilgan. Feministik faollikning birinchi ko‘rinishlarini 1780 va 1790-yillarda Amerika va Fransiya inqilobi sodir bo‘lganda ko‘rish mumkin. Ancha uyushgan qullikka qarshi harakat va 1850-yillar o‘rta sinf uchun siyosiy huquqlarni himoya qilish va ayollar uchun umumiy saylov huquqi uchun siyosiy harakatlarda ko‘rish mumkin. Xarriyet Martino, Sharlott Perkins Gilman, Djeyn Adame, Florens yelli, Anna Djuliya Kuper, Ida Uells-Barnett, Mari-ann Veber i Beatris Potter Veb kabi sotsiologiya sohasidagi tadqiqotchilarni ko‘rish mumkin. Biroq, ularning tadqiqotlari boshqa ta’limotlarning ajralmas qismga aylandi. Feminizm g‘oyalarini radikal nazariyotchi erkaklar va o‘ta ekstremal ayol nazariyotchilar asarlarida topish mumkin. Spenser, Veber va Dyurkgeymdan boshlab sotsiologlar, asosan rivojlanayotgan feministik g‘oyalarga konservativ ahamiyatsiz mavzu sifatida yondashdilar.

Urbanizatsiya**.** Sanoat inqilobi natijasida XIX va XX asrlarda ko‘plab odamlar qishloqlardagi uylarini tashlab, shaharlarga kelib joylashdilar. Ushbu ommaviy migratsiya asosan shahar joylarda sanoat ish o‘rinlari yaratilish tufayli yuzaga keldi. Biroq, shahar hayotiga moslashish ko‘plab qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Bundan tashqari, shaharlarning kengayishi son-sanoqsiz muammolarni keltirib chiqardi: aholining ko‘payishi, atrof-muhitning ifloslanishi, shovqin va boshqalar. Shahar hayoti va uning muammolari mohiyati ko‘plab dastlabki sotsiologlarning ayniqsa Maks Veber va Georg Zimmelning e’tiborini tortdi. Aslida, Amerika birinchi sotsiologiya maktabi, Chikago maktabi, asosan shahar hayotiga bo‘lgan qiziqishi va urbanizatsiya va tegishli muammolarni o‘rganish uchun tashkil etilgan edi. Chikagodan laboratoriya sifatida foydalanish.

Dindagi o‘zgarishlar. Siyosiy inqiloblar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy o‘zgarishlar, sanoat to‘ntarishi va urbanizatsiya aholining diniy e’tiqodlargiga ham ta’sir qildi. Dastlabki sotsiologiya nazariyotchilari o‘zlari diniy bilimlarga ega edi. Ular odamlarning hayotini yaxshilashni

xohlashdi (Vidich va Liman, 1985). Comte singari ba'zilar uchun, sotsiologiya dinga aylandi. Sotsiologik nazariyalarda dinning ta'siri katta edi. Dyurkgeym o'zining din haqidagi asosiy asarlaridan birini yozgan. Veber asarlarining muhim qismi dunyo dinlariga bag'ishlangan. Marks ham din muammolarida asosan tanqidiy nuqtayi nazardan yondashadi.

Ilm-fanning rivoji. Sotsiologiya rivojlanayotgan paytda fanning roli nafaqat kollejlar va universitetlar, balki butun jamiyatda oshib bordi. Ilmiy-texnologik ishlanmalar, mahsulotlar hayotning barcha sohalariga kirib bordi, shu bilan ilm-fanning nufuzi oshdi. Ilm-fanning eng muvaffaqiyatli sohalari bilan bog'langanlar (fizika, biologiya va kimyo), jamiyatda hurmatga ega edi. Sotsiologlar (ayniqsa Konte va Dyurkgeym) fanga qiziqishgan va sotsiologiyani fizika va biologiyadagi model singari modellashtirmoqchi bo'lishgan. Tez orada sotsiologlar o'rtasida munozaralar boshlandi, ayrimlari bu modellarni to'liq qo'llab-quvvatlasalar, Veber singarilar jamiyat hayotining o'ziga xos xususiyatlari tufayli bu modellar shart emas deydilar.

Intellektual kuchlar va sotsiologik nazariyaning rivojlanishi.

Sotsiologik nazariyani shakllantirishda ijtimoiy omillar juda muhim bo'lsa-da, intellektual kuchlar asosiy kuch hisoblanadi.

Intellektual kuchlar ijtimoiy kuchlardan ajralmasdir. Ijtimoiy nazariyalarning rivojlanishiga olib kelgan ko'plab intellektual kuchlar ularning ta'siri eng ko'p seziladigan milliy kontekstda muhokama qilinadi. Biz Fransiyadagi sotsiologik rivojlanishiga ta'siri qilgan ma'rifatparvarlikni tahlil etamiz.

Ta'lim**.** Ko'p tadqiqotchilar nuqtayi nazaridan, ma'rifatparvarlik harakatlari sotsiologiyaning rivojlanishidagi burilish nuqtasi bo'ladi. Ma'rifatparvarlik harakati falsafiy fikrlar taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Ma'rifatparvarlarning yirik vakili fransuz faylasuflari Sharl Monteskyo (1689-1755) va Jan-Jak Russo (1712-1778). Biroq, ma'rifatparvarlarning sotsiologiyaga ta'siri to'g'ridan to'g'i va ijobiyga qaraganda ancha salbiy va bilvosita bo'ldi. Dastlabki sotsiologiya ma'rifatparvarlik g'oyalariga muxolifat sifatida rivojlandi. Ma'rifatparvarlik harakatining shakllanishiga XVII asr falsafasi Rene Dekart, Tomas Xobbs va Jon Lokklarning ta'siri katta bo'lgan.

Saytlin (1981) klassik fransuz sotsiologik nazariyasining asosini tashkil etadigan xulosasini bayon etadi..

1. Ma'rifatparvarlik mutafakkirlari muhimligini ta'kidlashga moyil

edilar, individuallikdan konservativ reaksionerlarning qiziqishi quyidagicha edi, tabiatda ko‘proq ijtimoiy: jamiyatning roli va boshqa katta - ko‘lamli hodisalar ta’kidlandi. Jamiyat ko‘proq sifatida ko‘rildi faqat shaxslar to‘plami. Jamiyat uning o‘z rivojlanish qonunlari va chuqur o‘tmishga qaytib boradigan ildizlar.

2. Jamiyat tahlilning asosiy birligiga aylandi; sifatida qaraldi shaxsga nisbatan muhimroq. Jamiyat yaratgan shaxs, asosan sotsializatsiya jarayonida.

3. Shaxs jamiyat ichidagi asosiy element sifatida qaralmagan. Jamiyat rollar, pozitsiya, munosabat kabi tarkibiy qismlardan iborat edi, tuzilmalar va muassasalar. Shaxsning roli biroz ko‘proq edi ushbu komponentlarning hujayralarini to‘ldirishdan ko‘ra muhimdir.

4. Jamiyatning qismlari o‘zaro bog‘liq va o‘zaro bog‘liq deb hisoblangan. Oqibatda, bu o‘zaro bog‘liqlik jamiyatning asosiy negizini tashkil etdi. Bu nuqta nuqtayi nazar konservativ siyosiy yo‘nalishga olib keldi. Jamiyatning hamma qismlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, birining zaiflashuvi ikkinchisining susayishiga olib keladi va oxir-oqibat, butun tizim. Bu barcha o‘zgarishlarni anglatardi, ijtimoiy tizimni eng ehtiyotkorlik bilan isloh qilish kerak edi.

5. O‘zgarishlar nafaqat jamiyat va uning a’zolari, balki bu jamiyatda yashayotgan shaxslarga. Turli komponentlar jamiyat odamlarning ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan. Institutlarning yo‘q qilinishi inson azob-uqubatlarini keltirib chiqaradi deb taxmin qilingan navbatdagi ijtimoiy buzuqlikka olib keladi.

6. Umumiy tendensiya turli xil me’yorlarni ko‘rib chiqish edi jamiyatning tarkibiy qismlari shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham foydali. Natijada, salbiyni aniqlash va baholash uchun motivatsiya yo‘q edi mavjud ijtimoiy tuzilmalar va institutlarning ta’siri.

7. Oila, mahalla, guruhlar kabi kichik tarkibiy qismlar shakllangan diniy asoslarda yoki kasbda, shuningdek, muhim deb hisoblangan shaxs va jamiyat. Ular yaqin va iliq muhit yaratdilar zamonaviy jamiyatda omon qolish uchun zarur.

8. Zamonaviy jamiyatdagi turli xil o‘zgarishlar, masalan sanoatlashtirish, urbanizatsiya va byurokratizatsiya tartibsizliklarni keltirib chiqarmoqda. Ular qo‘rquv va xavotir bilan muomala qilindi va zarurligini ta’kidladi, ularning destruktiv ta’sirini zararsizlantirish yo‘llarini ishlab chiqish.

9. Bu qo‘rqinchli o‘zgarishlar yanada oqilona olib keldi-da uyushgan jamiyat, konservativ muxolifat muhimligini ta’kidladi, jamiyat hayotidagi

irratsional omillarning (masalan, marosimlar, ibodat xizmatlari).

10. Nihoyat, konservatorlar jamiyatning iyerarxik tizimini himoya qildilar. Differensial tizim bo‘lishi kerakligi muhim deb hisoblandi jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi va ish haqi.

Bu o‘n bayonotlar, ma’rifat uchun konservativ reaksiya bilan, to‘g‘ridan to‘g‘ri intellektual asos uchun ko‘rib chiqilishi kerak. Fransiyada sotsiologik nazariyaning rivojlanishi. Bu g‘oyalar sotsiologik fikr uning rivojlanishining dastlabki bosqichlarida. Shu bilan birga, ba’zi g‘oyalar Ma’rifatparvarlik (masalan, empirizm) ham ta’sir ko‘rsatdi.

Ogyust Kont (1798-1857) fransuz faylasufi, yangi fanga “Sotsiologiya” deb nom berdi. Kont nuqtayi nazariga ko‘ra, Sotsiologiya pozitiv mohiyatga ega fandir. «Pozitiv usul» ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usuli yordamida to‘plangan empirik ma’lumotlarni nazariy tahlil qilishni ifodalaydi.

O.Kont tomonidan 1839-yilda «Pozitiv falsafa kursi» asarining uchinchi tomi nashr etilganligi natijasida birinchi marotaba u jamiyatni ilmiy asosda o‘rganish sifatida Sotsiologiya atamasini qo‘lladi va bu Sotsiologiyaning shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi.

Keyinchalik Sotsiologiya ijtimoiy munosabatlarni nazariy analiz qilishni sotsial faktlarni empirik tadqiq qilish bilan qo‘shib olib boruvchi mustaqil fanga aylandi. O.Kont Sotsiologiyani 2 qismga ajratadi: a) sotsial statika va b) sotsial dinamika. Sotsial statikada ijtimoiy tizimlarning shart-sharoiti va funksional qonuniyatlari o‘rganilishini ko‘rsatadi. Unda ijtimoiy institutlar: oila, davlat, din kabilar tadqiq etiladi. Sotsial dinamikada esa O.Kont ijtimoiy taraqqiyotni nazarda tutib, jamiyatning ma’naviy va aqliy rivojiga insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili, deb qaraydi. Bu tamoyil hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. O.Kont: «Har qanday bilim tafakkur mahsulidir va u insoniyat manfaatlariga xizmat qilishi kerak, aks holda bu bilimlardan g‘arazli maqsadlarda foydalanilsa, jamiyatga katta zarar keltiriladi», degan edi.

O.Kontning ta’biricha, Sotsiologiya inson aqlini va psixikasini ijtimoiy hayot ta’sirida takomillashib borishini o‘rganib boradigan yagona fandir. Bu fikrni Kont butun bir ta’limotga aylantiradi va unga muvofiq individ abstraksiyadir, jamiyat esa voqelik bo‘lib, u tabiiy qonunlarga bo‘ysunadi. Umuman, Sotsiologiyada O.Kont yana quyidagi usullarni asoslab berdi: a) kuzatish usuli; b) eksperimental qiyosiy; v) tarixiy usul; g) qiyosiy usul - bu usullar Sotsiologiyada pozitiv fanlarning usullari ham deyiladi. Kontning fikricha, tarixiylik usuli yordamida olingan har bir

induktiv xulosalar insonni biologik nazariya tushunchalari yordamida qiyoslanib tekshirilishi lozim.

O.Kont tomonidan ta’riflangan inson intellektual rivojlanishining uchta izchillik bosqichi: teologiyaga oid, metafizik va pozitivik haqidagi qonuni ushbu savolga javob berish uchun imkon beradi.

Birinchi - teologik bosqichda insonning g‘ayritabiiy tushunchasi diniy tasavvurlar asosiga qurilgan.

Ikkinchi - metafizik bosqichda inson g‘ayritabiiy kuchdan voz kechib, mavhum mohiyat, sabab va boshqa falsafiy me’yorlar yordamida voqelikni tushuntirishga harakat qiladi. Ikkinchi bosqichning vazifasi - tanqidiy, avvalgi tasavvurlarni vayron etib, u uchinchi - pozitiv yoki ilmiy bosqichni tayyorlaydi. Bu bosqichda inson mavhumiy mohiyatni ifodalashdan voz kechib, ular ustidan kuzatish bilan kifoyalanadi. Bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish hamma fanlarda bir vaqtlarda bo‘lmasa-da, izchillik bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon «oddiydan murakkabga» (yuqoridan quyiga) tamoyili asosida yuzaga chiqariladi.

O‘rganilayotgan obyekt qanchalar oddiy bo‘lsa, u yerda pozitiv bilimlar shuncha tez qaror topadi. Shuning uchun pozitiv bilimlar, avvalo «Matematika», «Fizika», «Astronomiya», «Ximiya»da, so‘ng esa «Biologiya»da tarqaladi.

Sotsiologiya esa bu pozitiv bilimlar cho‘qqisidir. U o‘z tadqiqotlarida pozitiv uslubga suyanadi. Pozitiv uslub kuzatishlardan to‘plangan tajriba va tadqiqotlarni taqqoslash, ishonchli, tekshirilgan, e’tiroz tug‘dirmaydigan empirik ma’lumotlar majmuini nazariy tahlil etishga suyangan. O.Kont tomonidan jamiyat haqidagi fanni shakllantirishda mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashning zarurligi haqidagi qonunning ochib berilishi navbatdagi muhim yakun bo‘ldi. Bu omillar jamiyat tarixida judda katta ijobiy ahamiyatga ega. Shu tufayli sotsial va kasb-korlik guruhlari yuzaga keladi, jamiyatning xilma-xilligi o‘sadi va odamlarning moddiy farovonligi ko‘tariladi.

Turli xil sotsiologik qarashlar jamiyat hayotining ma’lum bir sohalarini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Agar pozitivizm sotsial jarayonlarni tabiiy asosda hosil bo‘lishidan kelib chiqsa, gumanistik oqim sotsial jarayonlarni inson va uning ongli faoliyatidan kelib chiqishini ko‘rsatib beradi. Ular sotsial hodisani ma’naviy munosabatlar natijasi deb qaraydilar. Agar pozitivizm obyektiv hodisalarni o‘rganishda obyektivlashtirishga bo‘ysunadigan rag‘batlantirish, ‘ta’sirlanish xulq-atvor, sharoit kabi hodisalarga e’tibor bersa, gumanistik oqim esa asosiy e’tiborini ongli hayotga qaratadi. Bu oqim Sotsiologiya fanini yangi

bosqichga ko‘tarib, uning nazariy va metodologik asoslarining yangi yo‘nalishlarini ko‘rsatib berdi. M.Veber fikricha, ongli faoliyat eng murakkab jarayondir, bu jarayonni psixologik akt ham, dunyoqarash jarayoni ham qamrab ololmaydi. Shuning uchun u nafaqat naturalizmni rad qiladi, balki Sotsiologiyada muayyan mavqega ega oqim bo‘lgan psixiologizmni ham tanqid qiladi. Uning fikricha, Sotsiologiyaning predmeti individ va individlarning xulq-atvoridan iborat bo‘lgan harakatdir. Sotsiologiya, deb yozadi u, - tahlil va talqin qilishlik bilan sotsial harakatni o‘rganadi va shu tufayli uning sodir bo‘lishi va oqibatlarini konkret omillar vositasida tushuntirmoqchi bo‘ladi. Pozitivizm oqimidan farqli o‘laroq, M.Veber Sotsiologiya fanini bir butun ijtimoiy asosda emas, balki alohida individ asosida yaratmoqchi bo‘ladi. Bu bilan u Yevropa gumanistik an’anasini davom ettiradi. Umuman, Sotsiologiya predmeti muammosini hal qilishdagi (naturalistik, pozitivistik, materialistik va gumanistik) uchinchi tendensiya deb gumanistik oqim rivojlinishini e’tirof etish mumkin.

Rossiyada sotsiologik g‘oyalar umumjahon sotsiologik fanining bir qismi sifatida rivojlangan. Tadqiqotchilar Rossiyada sotsiologik g‘oyalar rivojlanishining 3 bosqichini ajratib ko‘rsatadilar. Birinchi bosqich - XIX asr o‘rtalaridan to 1918- yilgacha, ikkinchi bosqich XX asr 20-yillari boshidan to 50-yillar oxirigacha; uchinchi bosqich esa XX asr 60-yillar boshidan to bizning kunimizgacha bo‘lgan davr.

Birinchi bosqich, avvalo P.Lavrov (1828-1900) va N.M.Mixaylovskiy (1822 - 1904)lar kabi yirik sotsial mutafakkirlar faoliyati bilan bog‘liq. Ular tomonidan rivojlantirilgan sotsial g‘oyalar «subyektiv sotsiologiya» nomini olgan. Bunday yo‘nalishdagi g‘oya P.Lavrovning 1870-yildagi mashhur tarixiy xatida birinchi marta ta’riflab berilgan. «Subyektiv sotsiologiya» namoyandalari ijtimoiy taraqqiyot nazariyasini ishlab chiqishga e’tibor berdilar.

Lavrovning fikricha, ijtimoiy taraqqiyotning mohiyati - madaniyatni qayta tashkil etish: shaxsan an’anaviy tur, qotib qolgan ijtimoiy formalarni o‘zgaruvchan, jo‘shqinlikni ifodalovchi tuzumlar va munosabatlar bilan almashtirish zarur. Subyektiv sotsiologlar andozalarida shaxs, asosan harakatga keltiruvchi kuch sifatidagina emas, shuningdek, ijtimoiy hayotning o‘lchovi hamdir.

Ijtimoiy taraqqiyotning oliy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun xizmat qiladigan munosabatlarni yaratishdan iborat.

Subyektiv sotsiologiya bilan bir qatorda, o‘sha davr sotsial fanida sezilarli rolni M.M.Kovalevskiy (1857-1916) ning asarlari o‘ynadi.

Kovalevskiy sotsiologik nazariyasining mohiyati sotsial guruhlar, sinflar va xalqlar o‘rtasidagi birdamlikdir.

Rossiyada sotsial fikrni rivojlantirishda sezilarli rolni Yu.Yasonning «Rossiya va G‘arbiy Yevropa davlatlarining siyosiy statistikasi» asari o‘ynadi. Sotsiologiyani tavsiflashga, sinflar haqida nazariyalarga bag‘ishlab Rossiya sotsiologlari A. Bogdanov, V. Shumyatnikov, P. Sorokin, K. Taxrayev asarlari yuzaga keldi.

1918-1919-yillarda Peterburg va Yaroslavl universitetlarida sotsiologiya kafedralari tashkil etildi.

P.A. Sorokin (1889-1969) yirik olim va jamoat arbobi bo‘lib, Rossiya sotsiologiyasi rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Ikkinchi bosqichda nazariy sotsiologiyaning rivojlanishi davom etdi. 1920-yillarda P.A.Sorokin «Sotsiologiya asoslari», 1922-yilda M.S.Solinskiyning «Odamlarning sotsial hayoti», 1922-yilda M.M.Xvostovning «Sotsiologiya asoslari» asarlari, 1928-yilda N.A.Buxarinning «Tarixiy materializm nazariyasi» asarlari chop etildi. 1974-yildan boshlab ixtisoslashgan maxsus «Sotsiologik tadqiqotlar» jurnali chiqa boshladi. 1988-yildan boshlab Moskva, Leningrad, Sverdlovsk, Kiyev universitetlarida sotsiologiya fakultetlari faoliyat ko‘rsata boshladi.

Sovet tuzumi davrida tarixni materialistik tushunishga sinfiy va partiyaviy yondashishni absolyutlashtirish oqibatida umumsotsiologik qonuniyat mohiyatiga putur yetkazildi. Jamiyat taraqqiyotini bir tomonlama, bo‘rttirib tushuntirish oqibati subyektivizmga, volyuntarizmga olib keldi. Sotsiologiya falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar singari siyosatga bo‘ysundirilib, uning xizmatkoriga aylantirildi. Sotsiologiyaning asosiy ijtimoiy vazifasi muayyan andozaga solingan, oldindan qat’iy belgilangan siyosiy buyurtmani bajarishdan iborat bo‘lib qoldi. Mavjud mafkura doirasidan chiqish qat’iy taqiqlandi.

Shunday qilib, o‘sha davr ijtimoiy fanlari uchun metodologik asos qilib olingan tarixni materialistik tushunishdan chetlashildi. Ijtimoiy ong ijtimoiy hayotni emas, balki ijtimoiy borliq ijtimoiy ongni belgilaydi, degan materialistik mohiyatga ega bo‘lgan umumsotsiologik qonuniyatga xilof ravishda ish yuritildi.

Sovet Ittifoqi davrida sotsiologiyaning fan sifatida rivojlanishi uchun to‘la imkoniyat bo‘lmadi. Buning asosiy sababi demokratiyaning yo‘qligi, ijtimoiy munosabatlarga faqat sinfiylik, partiyaviylik nuqtayi nazaridan qaralganligi bo‘ldi. Sotsiologiya esa faqat to‘laqonli demokratiya bo‘lgandagina fan darajasida amal qiladi. Chunki, sotsiologiya mohiyat

e’tibori bilan jamiyat hayotining o‘zaro bog‘liq bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va ijtimoiy turmush sohalari rivojlanishi va funksional qonunlarini obyektiv jihatdan umumiy tahlil qiladi.

Binobarin, empirik tadqiqot darajasida olingan ma’lumotlar o‘rganilayotganda obyektning salbiy jihatlarini ham ifodalash mumkin.

Kishilarning davlat siyosatiga, mavjud siyosiy rejimga munosabatini, moddiy turmush darajasini, kayfiyati, intilishlari va shu kabi munosabatlarini sotsiologik tadqiq qilish orqali majud ijtimoiy - siyosiy holat yuzaga chiqariladi. Faqat to‘laqonli demokratik tuzumdagina mavjud siyosiy kuchlarning fikrlar xilma-xilligiga yo‘l qo‘yiladi.

Sotsiologiyada tadqiqot natijasi qanday bo‘lishidan qat’i nazar ilmiy asoslangan va obyektiv xarakterda bo‘lishi talab qilinadi. Agar davlat demoktratik asosda boshqarilmasa, hokimiyat tepasidagi siyosiy kuchlar manfaatiga xizmat qilmaydigan har qanday ilmiy sotsiologik tadqiqotdan voz kechiladi va u taqiqlanadi. Siyosiy ideologiyaga bo‘ysundirilgan sotsiologiya o‘zining ilmiyligini yo‘qotib, subyektiv, sun’iy va soxta xususiyatga ega bo‘lib qoladi.

O‘zbekistonda sotsiologik tadqiqotlar rivoji.

XX asr 20-30-yillaridagi jadidchilik harakati g‘oyalari muhim rol o‘ynaydi. Ma’rifatparvar jadidlar shartli ravishda 3 ta guruhga bo‘lingan holda (ijtimoiy - siyosiy, madaniy-ma’naviy, diniy-ma’rifiy) diniy va mahalliy urf-odatlarni keng yoyishning ijtimoiy - ma’naviy jihatlari bilan bir qatorda sotsial jihatlarini ham atroflicha tahlil qilganlar. Ularning bu g‘oyalari respublikamizda keyingi davrlarda sotsial qarashlar rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma’muriy-buyruqbozlik tizimi bag‘rida bo‘lishiga qaramasdan O‘zbekistonda XX asr 60-90-yillairda sotsiologiya fanining bir qancha sohalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, sotsial sinfiy struktura (S. Tursunmuhamedov, A.Valiyev), boshqarish sotsiologiyasi (A.S.Tamkin), oila sotsiologiyasi (U. Toshtemirov, G.Hamidova, B. Umarov, M. Sangilov) sohalarida e’tiborga molik ishlab amalga oshirildi.

1989-yilda Moskvada tashkil qilingan Jamoatchilik fikrini o‘rganish Butunittifoq markazining O‘zbekiston bo‘limi ish boshladi. Bo‘lim sotsiologlari respublikamiz viloyatlari va tumanlarida xilma-xil mavzular bo‘yicha sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazib, ular asosida kishilarning ruhiyati va kayfiyatidagi o‘zgarishlarni aniqlashga muvaffaq bo‘ldilar. Ma’lum ma’noda, bu holat respublikamizda milliy ongning o‘sishiga va

buning natijasida milliy mustaqillikka erishishning tezlashuviga turtki bo‘ldi.

O‘zbeksitonda dastlab 1989-yilda Toshkent davlat universiteti falsafa fakulteti tarkibida sotsiologiya bo‘limi va kafedrasi tashkil qilindi. Shu yildan boshlab sotsiologlar tayyorlana boshlandi va 1994-yili 40 nafar mutaxassis bitirib chiqdi. 1995-yilda 30 nafar, 1996-yilda 21 nafar talaba sotsiolog mutaxassisligiga ega bo‘ldilar. Bugungi kunda har yili o‘rtacha 20-25 nafar sotsiolog mutaxassislar bitirib chiqmoqda. Respublikamizdagi 4 ta oliy o‘quv yurtida: M.Ulug‘bek nomli O‘zMU, FarDU, SamDU, BuxDUlarida sotsiologiya mutaxassisliklari tayyorlanayotgan fakultet va bo‘limlar mavjud.

O‘zMUning sotsiologiya kafedrasida 8 nafar mutaxassis professor N.S.Aliqoriyev rahbarligida faoliyat ko‘rsatmoqda. 1996-yili kafedra dotsenti A.J.Xolbekovning «Sharq va G‘arb mutafakkirlarining sotsiologik ta’limoti» kitobi «Universitet» nashriyotida 350 nusxada chop etildi.

Farg‘ona davlat universitetida dastlab 1990-yilda sotsiologiya kafedrasi tashkil etildi. 1992-yilda esa shu kafedra asosida «Umumiy sotsiologiya» va «Amaliy sotsiologiya» kafedralari tashkil topdi. «Amaliy sotsiologiya» kafedrasi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi - yoshlar faoliyatida mehnat omilini faollashtirish yo‘llari bo‘lib, bu borada aniq tadqiqotlar olib borilmoqda. 1991-yilda sotsiologiya bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash bo‘limi ochilib, unga qabul qilingan dastlabki talabalardan 17 kishi 1996-yilda sotsiologiya bo‘yicha mutaxassis sifatida bitirib chiqdi.

O‘zbekiston FA Falsafa va huquq instituti qoshida 1993-yilda O‘zbekiston sotsiologlarining assotsiatsiyasi tuzildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 18-iyul 1994-yil 87-01-242-sonli buyrug‘i bilan 1995-1996-o‘quv yilidan boshlab respublikaning barcha oliy o‘quv yurtlarida Sotsiologiya fani o‘qitilishi joriy qilindi. Ammo, respublika ijtimoiy hayoti muammolarini barcha o‘quv yurtlari olimlari tomonidan o‘rganilishi sust bormoqda. Sotsiologik tadqiqotlarning jamiyatimiz ijtimoiy hayotini o‘rganishdagi salmog‘i hali juda past darajada.

Respublikamiz milliy mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatimizda Sotsiologiya fanini rivojlantirishga jiddiy e’tibor berila boshlandi. Toshkent davlat universiteti hozirgi O‘zMU falsafa fakulteti tarkibida sotsiologiya bo‘limi va kafedrasi tashkil qilindi. Farg‘ona davlat universitetida ham sotsiologiya kafedrasi tashkil etildi.

1992-yilda Mehnat vazirligi qoshida sotsiologik tadqiqotlar markazi tashkil qilinib, bu markaz tomonidan respublikamizda keng sur’atda tadqiqotlar o‘tkazilib, unda aholining iqtisodiy islohotlarga, demokratlashtirish jarayonlariga bo‘lgan munosabatlari atroflicha o‘rganila boshlandi.

Hozirgi kunda respublikamizda «Ijtimoiy fikr» (1999) jamoatchilik fikrlarni o‘rganish markazi faoliyat ko‘rsatmoqda. Uning barcha viloyatlarda va tumanlaridagi shoxobchalarida mutasaddi ilmiy xodimlar, sotsiologlar jamiyat hayotini o‘rganish, aholi ichiga tobora chuqurroq kirib borishda jonbozlik ko‘rsatmoqdalar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sotsiologiyaning fan sifatida vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari haqida ma’lumot bering.
2. Siyosiy inqiloblarni sotsiologik fikrlarning vujudga kelishidagi ahamiyatitini yoritib bering.
3. Sanoat inqilobi va urbanizatsiyaning sotsiologik fikrlar rivojidagi o‘rnini bayon eting.
4. Sotsiologiyaning fan sifatida vujudga kelishida ilmiy-nazariy omillar to‘g‘risida gapirib bering.
5. Intellektual kuchlar va sotsiologik nazariyaning rivojlanishini izohlab bering.
6. O‘zbekistonda sotsial fikrlar rivojining xususiyatini yoritib bering.
7. Respublikamizda sotsiologiya fanining rivojlanish istiqbollarni bayon eting.
8. Yangi O‘zbekistonda sotsiologiya fani taraqqiyoti xususiyatlarini yoritib bering.

2-MAVZU. OGYUST KONT VA POZITIV SOTSIOLOGIYANING PAYDO BO‘LISHI

REJA:

1. O. Kont fanlar klassifikatsiyasi xususida.
2. Sotsiologiya metodlari.
3. O.Kontning sotsial statika va sotsial dinamika nazariyasi.
4. O.Kont pozitiv siyosat xususida.

1. Falsafa va sotsiologiyada pozitivizm asoschisi bo‘lmish Ogyust Kont 1798- yil Monpeleda davlat arbobi oilasida tavallud topgan. Ma’lumki, XIX asrning birinchi yarmi Fransiya tarixida muhim davr hisoblanadi. Kapitalizmning tez rivojlanishi va jamiyat sotsial strukturasini yangi sinflar asosida tarkib topishi siyosiy tizimning jadal o‘zgarishi bilan birga kechadi. Burjua va uning moddiy boyligining ortishi ishchi sinfning qarama-qarshiligi va kambag‘allik darajasining hisobiga asoslandi. Bu davrda tabiiy fanlar va texnikaning rivojlanishi borasida an’anaviy qarashlar inqirozi va falsafiy izlanishlarning taranglashuvi ko‘rina boshladi. Direktoriya, Konsullik, Imperiya, Restavratsiya, 1830-yil revolyutsiyasi, Iyul monarxiyasi, 1948-yil revolyutsiyasi, Ikkinchi respublika, Ikkinchi imperiya mazkur davrining asosiy voqealari hisoblanadi. Bu voqealarning barchasi olim dunyoqarashining shakllanishiga ta’sir etgan. U oilasida hukmron bo‘lgan katolitsizm va monarxizmdan voz kechib, an’anaviy dinga agnostik yondashuvini namoyon qildi. Parij muhandislik maktabida olgan bilimlari, shuningdek, Napaleon va Burbonlarga qarshi respublikachilik kayfiyatida shakllangan g‘oyalar uning dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

O‘zgacha fikrlagani uchun maktabdan haydalgach, u matematika bo‘yicha uyida dars o‘tishni boshlaydi. Kontning ilk kichik asarlari aynan matematikaga bag‘ishlangan edi. U XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida faoliyat olib borgan Lui Lagranj, Gaspar Monj kabi matematiklarning ishlarini o‘rganib, falsafiy bilim muammolari bilan yaqindan tanishadi.

Monteske va Kondorselarning ishlari unga kuchli ta’sir etgan. U Monteskedan siyosiy-huquqiy hodisalarning tabiiy qonunlarga bog‘liqligini olgan bo‘lsa, Kondorsening insoniyat progressiv rivojlanishi qonuni va jamiyatda g‘oyalar, institut va munosabatlar evolyutsiyasi o‘zining pozitivistik ta’limoti uchun g‘oyaviy asos qilib oldi.

Kont siyosiy iqtisodiyot bilan ham qiziqib, burjua liberal iqtisodchilarning ta’limotlariga tanqidiy yondashdi. Ularning erkin

raqobat ozod va alohida individlarning ijtimoiy uyg‘unligiga olib kelishi kerak degan g‘oyasiga qarshi ijtimoiy birlik, ya’ni individ va sinflarning siyosiy birdamligi g‘oyasini ilgari surgan.

1817-1824- yillar davomida Kont Sen-Simonning kotibi bo‘lib ishlaydi va uning ko‘plab g‘oyalarini o‘ziga qabul qiladi. Ammo, siyosiy masalalar bo‘yicha tubdan qarama-qarshi fikrlar ularning aloqalarini uzilishiga olib keladi. Sen-Simonning ekspluatator va ishlab chiqaruvchi sinflar o‘rtasidagi kurashi, shuningdek, mehnatga yuqori baho berish g‘oyalarini Kont ma’qullamagan. Sen-Simon erkin va teng huquqli ishlab chiqaruvchilar jamiyati haqida gapirsa, Kont iyerarxik tuzilishdagi markazlashgan jamiyat g‘oyasini ilgari surgan. Sen-Simon birinchi o‘ringa ijtimoiy progressni qo‘ysa, Kont sotsial statikani muhim bilgan. Kontning pozitiv falsafa tizimi ba’zi qirralari bilan Sen-Simon konsepsiyasini eslasa-da, umuman olganda u boshqa nazariy asoslar va g‘oyalarga asoslangan. Uning asosiy asari bo‘lmish «Pozitiv falsafa kursi» kitobi 1838-1842- yillarda nashrdan chiqgan bo‘lib, unda fanlar klassifikatsiyasi, pozitiv falsafa va sotsiologiya tamoyillari ishlab chiqilgan. Kont o‘zining ikkinchi yirik asarini siyosat va din asoslari tahliliga bag‘ishlagan. Bu asar «Pozitiv siyosat tizimi yoki insoniyat dinini o‘rnatuvchi traktat» deb nomlanib, u 1851-1854- yillarda nashr etilgan . Olim hayotligida uning «Mashhur astronomiya bo‘yicha falsafiy traktat» (1844), «Pozitiv falsafa ruhi haqida mushohada» (1844), «Umuman pozitivizm haqida mushohada» (1848—1851), «Pozitivistik katexizis» (1851), «Konservatorlarga chorlov» (1855) va «Subyektiv sintez» (1856), o‘limidan so‘ng esa to‘rt tomli «Ogyust Kont vasiyati» nomli asarlari chop etilgan .

Kontning hayotining asosiy davri turli qiyinchiliklarda kechgan. Sen-Simon bilan aloqalarni uzgandan so‘ng, u doimiy daromad keltiruvchi muqim ish joyiga ega bo‘lmagan. O‘zining pozitiv falsafa g‘oyasini yaratish borasidagi ishini ilohiy burch deb bilgani uchungina ilmiy faoliyatini olib borishga o‘zida kuch topa oldi.

Muhandislik jamiyatida ma’ruzalari bilan chiqishlar qilib, Kont ular bilan aloqalar bog‘laydi va shu tinglovchilar, talabalar va ularga qo‘shilganlar bilan birgalikda 1848-yil «Pozitivistik jamiyat» ga asos soladi. Mazkur jamiyatning asosiy vazifasi xalqni pozitivistik dunyoqarash asosida tarbiyalash edi. Shu bilan birgalikda Kont va uning partiyasi Parij revolyutsion proletariati harakatiga qarshi chiqqan. Revolyutsion vaziyatda kurashuvchi ikki tomondan hech biri uni qo‘llab-quvvatlamaydi va Kont yolg‘izlanib qoladi. Uning intellektual elitaga

«tartib va progress partiyasi»ni tuzish borasidagi murojaati ham e’tiborsiz qoladi. Kont 1857- yil yolg‘izlikda vafot etadi.

Kont ijodining birinchi va ikkinchi davri orasida qarama-qarshiliklar borligiga qaramay, oxirgisi bir xil g‘oyalarga asoslanadi. Insonlarning ma’naviy birlashuvi, yangi «din» va pozitivizm nazariyasi asosida jamiyat hayotini qayta tashkil qilish g‘oyalari Kont faoliyatini tashkil etadi. U «ilmiy», «haqiqiy» din va shunga monand jamiyatni birlashtiruvchi din vazifasini bajaruvchi axloqiy fanni yaratmoqchi bo‘lgan.

Fanning metafizika va teologiyadan ajratish Kont pozitiv usulining asosiy g‘oyasi hisoblanadi.

Kont «pozitiv» (positive) so‘zini bir necha ma’noda sharhlagan:

1) mavhumlikka qarama-qarshi real;

2) befoydalikka qarshi foyda;

3) shubhaliga qarshi ishonchlilik;

4) noaniqqa qarshi aniqlik;

5) salbiyga qarshi ijobiy.

«Pozitiv» tushunchasining organik, aniq, ma’lum kabi ma’nolari Sen-Simon tomonidan kiritilgan va uning asrlarida ko‘p uchraydi. Uning fikricha, haqiqiy fan kuzatish orqali olingan ma’lumotlar asosida tasdiqlash yoki rad etishning imkoni bo‘lmagan, «echilmaydigan» savollardan voz kechadi.

Kont shunaqa «metafizik», noilmiy savollar qatoriga predmetlarning mohiyati va sabablari borasidagilarni kiritgan. Uningcha, fanning asosiy vazifasi hodisalar o‘rtasida doimiy, takrorlanadigan qonuniyatlarni aniqlashdir. Shu orqali aniq bilimlarga yerishilib, kelajakni bashorat qilish imkoni paydo bo‘ladi.

Kont falsafa o‘zining alohida predmeti va boshqa fanlardan ajralib turadigan tadqiqot usullariga ega emas deb bilgan. «Pozitiv falsafa» fanlarning tizimlashtirilgan holatidir. Uni idrok etish uchun barcha fanlar predmetlari, qonuniyatlari, o‘xshashlik va farqlari tahlilini o‘z ichiga olgan butun fanlar tizimini tahlil qilish kerak.

O‘zining fanlar klassifikasiyasini ishlab chiqayotganida Kont ularning obeyktiv xususiyatlariga e’tibor qaratgan. Birinchi navbatda u fanlarni mavhum va aniqlariga ajratadi. Birinchilari, hodisalarning ma’lum kategoriyalari va qonuniyatlarini o‘rganadi, ikkinchilari esa mazkur qonunlarni alohida sohalarga tatbiq qiladi. Misol uchun biologiya hayot haqidagi abstrakt fan, medisina esa aniq fan bo‘lib, biologiyaning umumiy qonuniyatlaridan foydalanadi.

Kont beshta abstrakt, nazariy fanlarni ajratgan: astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, sotsiologiya. Tabiiy hodisalarning asosiy kategoriyalari — astronomik, fizik, kimyoviy va biologik hisoblanib, Kont unga ijtimoiy kategoriyani qo‘shadi. Bu bilan u o‘z klassifikatsiyasiga «tugal konstruksiya yaratish uchun kerak bo‘lgan umumiy xarakter»ni bergan. Kontning fanlar tizimi fanlar o‘rganuvchi hodisalarning murakkabligiga ko‘ra joylashtirilgan. Ijtimoiy hodisalar nisbatan murakkab, shu bilan birga boshqalariga bog‘liqligi bilan ajralib turadi va keyinchalik ular sotsiologiyaning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Jamiyat to‘g‘risidagi pozitiv fanga Kont avvaliga sotsial fizika, keyinchalik, sotsiologiya nomini bergan. Uning fikricha, sotsiologiya A. Ketlening tasvirlovchi «sotsial fizikasi»dan farqli ravishda nazariy fan bo‘lishi kerak. Sotsiologiyaning pozitiv fanga aylanishi pozitiv falsafa tizimini yakunlab, insoniyat ongi va jamiyati rivojlanishidan dalolat beradi. Bu haqiqiy pozitiv revolyutsiya bo‘lib, oldingi davrlar sxolastikasi ustidan fanning g‘alabasi edi. Ammo, Kont o‘z fanlar klassifikasiyasida psixologiyaga o‘rin qoldirmagan va shu bilan Millning tanqidiga sabab bo‘ladi.

Kontning qarashlari XIX asr birinchi yarmida tabiiy fanlarda kuzatilgan metafizik dunyoqarash usuliga (antidialektik) to‘g‘ri kelgan. Metafizik dunyoqarash usuli fanlarni yaralish paytiga ko‘ra emas, balki tizimlashtirgan tartibiga tayanadi. Kont ular orasidagi genetik bog‘lanishni emas, tizimli bog‘lanishni aniqlagan. Uning klassifikatsiyasi asosini subordinatsiya emas, koordinatsiya tamoyili tashkil etgan.

Kont ta’limotida umumiy metafizik dunyoqarash mavjudlidan tashqari unga mos bo‘lgan tipik dunyoqarash elementlari mavjud. U bir-biridan alohida bo‘lgan omillarni o‘rganish mumkinligini rad etgan holda ularning aloqadorligi va butun tizim sifatida (funksionalizm) faoliyatini o‘rganish zaruiyatini ta’kidlagan. Shunday qilib, alohida organlarni o‘rganishda butun organizm xususiyatini e’tiborga olish kerak. Butun jamiyat hayotining har bir hodisasi esa davr, sivilizatsiya, insoniyat kabi butunliklar bilan taqqoslanishi zarur.

Jamiyatni bir butun sifatida o‘rganish Kont metodologiyasining asosiy qoidasi edi. Shu nuqtayi nazardan u psixologiya va siyosiy iqtisodiyotni tanqid qilgan. Uning fikricha, butunlik (organizm, jamiyat) undagi alohida hodisalardan ko‘ra o‘rganishga moyilroq bo‘ladi. Shu bilan birga notirik tabiatni o‘rganuvchi fanlarning bilimlari nisbiiy va to‘liq emas. Biologik va ijtimoiy fanlar nisbatan mukammalroq bo‘ladi, zero ular aniq va o‘rganish mumkin bo‘lgan qadriyatlarni tadqiq etadi.

Insoniyat kabi qadriyat odamga tegishli va uni o‘rganish mumkin. Shuning uchun u mantiqiy to‘liqlikka erishib, absolyut bo‘ladi.

Kontning pozitiv usuli spiritualizmga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etgan. U ilmni birinchi o‘ringa ko‘yib, uning avtonomiyasini talab etgan, uni rasmiy din va metafizik spekulyasiyaga qarshi qo‘yilishi idealizmga qarshi oshkor kurash edi. Falsafadagi «antifalsafiy» yo‘nalish sifatida pozitivizmning paydo bo‘lishi bilan feodal ma’naviy madaniyatining inqirozi va uning chuqurlashishi taqozo etilardi.

Polsha, Rossiya, Turkiya, Yaponiya, Xitoy, Braziliya va boshqa bir nechta mamlakatlarda XIX asr oxiri Kont, Spenser, Ten va boshqa fikrlari asosida pozitivizm nazariyasi keng tarqalgan.

2. Kont sotsiologiyani pozitivistik fan sifatida jamiyat va inson to‘g‘risdagi teologik va metafizik spekulyatsiyalarga qarshi qo‘ydi. Bir tomondan u teologlarni tanqid qilib, ularning insonni xudo yaratgan degan fikriga qarshi chiqqan. Boshqa tomondan «metafizik» faylasuflarning «sotsial utopiya»larini, ya’ni jamiyat inson ongi va individlar irodasi mahsuli ekanini rad etgan. Kontning nazarida, sotsiologiya inson ongi va jamiyat ta’sirida uning psixikasidagi o‘zgarishlarni o‘rganuvchi yagona fandir. Bu fikr Kontning butun konsepsiyasiga asos bo‘lib, unga ko‘ra, individ abstraksiya, jamiyat esa tabiiy qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Jamiyat hodisalari doimiy o‘zgarish va taraqqiyotda bo‘ladi. Ularning mohiyati tarixiylikdadir. Shuning uchun Kont jamiyatni tarixiy jihatdan o‘rgangan Kondorsega hurmat bilan qaraydi.

Kont volyuntarizm va «buyuk shaxslar» rolini yuqori qo‘yishga qarshi chiqib, jamiyat taraqqiyotini siyosiy rejim va sivilizatsiya rivoji darajasi bilan baholaydi. Iqtisodiy omilni e’tiborga olgan xolda, u sivilizatsiyani birinchi navbatda ma’naviy-psixologik birlik, g‘oyalar birligi sifatida ko‘rgan. «G‘oyalar dunyoni boshqaradi va ag‘dar-to‘ntar qiladi… oxir oqibat u butun ijtimoiy mexanizm fikrlar asosiga qurilgan», deydi Kont. Ilmiy taraqqiyot jamiyat rivojining asosidir. Shu asosida jamiyat taraqqiyoti tarixiy haqiqat sifatida namoyon bo‘ladi.

Kontning fan sifatida sotsiologiya, uning predmetni qamrab oluvchi muammolar doirasi to‘g‘risidagi fikrlari yetarlicha abstrakt xarakterga ega. Sotsiologik tadqiqot doirasi juda keng va Kont klassifikasiyasiga kiritilgan fanlar doirasidan chetda qolgan barcha muammolarni qamrab oladi. Tadqiqotchi tadqiqotining obyekti eng avvalo jamiyat bo‘lib, shundan kelib chiqqan holda u har bir muammoni bir butunlik asosida o‘rganishi lozim. Kont jamiyat «umumiy kelishuv» (consensus omnium)

asosidagi organik birlik ekanini ta’kidlagan. U tarkibidagi elementlarining garmonik funksionizmi asosida mavjud bo‘ladi. Jamiyat, yoki Kont uni ataganiday insoniyat — bu eng yuqori borliq sui generis, yuqori mavjudot. Kont qarashlari jamiyat hayotiga tizimli yondashuvning asosi hisoblanadi. Ammo u sotsial elementlar va tizim dialektikasini tushunmagan. Olim sotsial hayot elementlarini oddiy, doimiy va o‘zgarmas sanab, jamiyat rivojini mazkur elementlarning turli kombinatsiyasida ko‘rgan. Kont sotsiologiyasi falsafaning idealistik tarixi bo‘lib, ko‘plab metafizik spekulyativ elementlarga ega bo‘lgan.

3. Kont sotsiologiyasining e’tiborli qismi jamiyatni o‘rganuvchi metodlar yaratilishiga bag‘ishlangan. Bir tomondan abstraktlikka, ikkinchi tomondan empirizmga qarshi chiqqan Kont sotsiologiyaga kuzatish, shuningdek, eksperiment, taqqoslash va tarixiy metodlarni kiritgan.

Matematikani mantiq sanagan holda Kont doimo uning metodlaridan foydalanishni to‘g‘ri bilmagan. Uningcha, matematika tadqiqot vositalaridan biridir.

Kuzatish sotsiologik tadqiqotning asosiy usullaridan biri. U kuzatish orqali to‘g‘ri ma’lumotlarni olish imkonini shubha ostiga qo‘yishni rad etgan. Mazkur usulni qo‘llagan fanlar tajribasidan kelib chiqib, undan foydalanish mumkinligi asoslangan. Ammo, Kont sotsial kuzatish ishonarli bo‘lishi uchun qanday talablarga javob berishi kerakligini aniqlay olmagan. Olingan faktlar sotsiologiyaga obyektivlik xarakterini berishi kerak edi. Empirik ma’lumotlar nazariy bilimlar asosida olib borilishi kerak. Aks holda ma’nosiz, o‘zaro bog‘lanmagan ayrim faktlar olinadi.

«Har qanday sotsial kuzatishlar, u statik yoki dinamik bo‘lsin, doimo fundamental nazariyalarni taxmin qilishi kerak». Tadqiqotchini noilmiy xarakterdagi ma’lumotlardan saqlab turishda ilmiy nazariya muhim ahamiyatga ega. Ammo, pozitiv nazariyani yaratish mushkul. Chunki tadqiqot o‘tkazilishi uchun nazariya qanchalik kerak bo‘lsa, nazariyani yaratishda kuzatish shu qadar muhimdir.

Kont bevosita kuzatish bilan birga bilvosita dalil bo‘lmish tarixiy va madaniy yodgorliklar, an’analar, urf-odatlar, tillarni taqqoslash va tahlil qilish pozitiv tadqiqotda foydali vositalar bo‘ladi degan xulosaga keldi.

Kont eksperiment usulini muhimligi jihatidan ikkinchi o‘ringa qo‘ygan. Sotsiologiyadagi bevosta eksperiment tadqiqot deb, maqsadidan kelib chiqib, ataylab yaratilgan sharoitlar asosida hodisalarning o‘zgarishini kuzatishga aytiladi. Bilvosita eksperiment esa Kont nazarida

asosan jamiyat silsilalari, ko‘pincha revolyutsion xarakterdagi ta’sirlar oqibatida jamiyatdagi patologik og‘ishlarini o‘rganishdir. Sotsial organizmni gangituvchi ijtimoiy tartibsizliklar Kontning nazarida individual organizm kasalliklariga monand hisoblanadi. Ularda ijtimoiy organizm qonuniyatlari yorqin ko‘rinadi.

Sotsiologiyada qo‘llaniladigan uchinchi usul - taqqoslash usulidir. U orqali yer yuzining turli qismlarida yashovchi xalqlar hayoti solishtiriladi va natijada jamiyat mavjud bo‘lishi va rivojining umumiy qonuniyatlari ishlab chiqiladi. Kontning nazarida hatto insonlar jamiyatini jonivorlarniki bilan taqqoslab, o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash fan uchun foydali bo‘lishi mumkin. Bir jamiyatning sinflarini o‘zaro solishtirish ham muhim. Ammo ularga sivilizatsiyaning qay darajada ta’sir etishi davr ruhi va talabiga bog‘liq.

Kont taqqoslash usulining asosiy kamchiligi uning sotsial holatlar ketma-ketligini emas, birga namoyon bo‘lishini ko‘rsatishida deb bilgan. Bu esa yevolyutsiya bosqichlari to‘g‘risida noto‘g‘ri fikr shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun taqqoslash usulini insoniyat rivoji ma’lum nazariyasiga bo‘ysungan holda olib borilishi kerak.

Tarixiy usul, ya’ni insoniyat tarixini ketma-ketlikda taqqoslash sotsial hodisalar tabiatiga eng mos tushuvchi usul. Tadqiqotchi sotsial hodisalarni tarixiy ketma-ketlikda o‘rgangan holatdagina qandaydir fizik, intellektual, axloqiy yoki siyosiy holatlarning o‘zgarish tendensiyasini aniqlashi va shunga asoslanib, oqibatni ilmiy bashorat qilishi mumkin. Tarixiy usulda sotsiologiyaning umumiylikdan xususiylikka borish xususiyati namoyon bo‘ladi. Kontning fikricha, tarix va sotsiologiya o‘rtasida deyarli farq yo‘q.

Kont sotsiologiyani ikki yirik bo‘lim: sotsial statika va sotsial dinamikaga bo‘lgan. Sotsial statika jamiyat tizimining mavjudligi va faoliyati qonuniyatlarini o‘rgansa, sotsial dinamika sotsial tizimning rivojlanish va o‘zgarish qonuniyatlarini tadqiq etadi. Birinchisi ijtimoiy tartib, tashkil etilganlik, uyg‘unlik nazariyasidir. Jamiyatni Kont organik butunlik sifatida ko‘rib, uning qismlari birgalikda o‘rganilsagina tushunilishi mumkin degan. Oilaviy munosabatlarni Kont simpatiya va ruhiy yaqinlik orqali bog‘langan axloqiy-emosional ittifoq sifatida ko‘rgan. Oila shaxs ma’naviy tarbiyasi va siyosiy qarashlarining shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Birinchi vazifasi bilan u kelajakdagi jamiyat hayotini ta’minlasa, ikkinchisi bilan hozirgisiing umrini uzaytiradi. Kont oilada qarama-qashi jinslar va avlodlar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rib chiqqanda oilaning o‘zgaruvchan ekanini tan oladi.

U ko‘proq o‘z davridagi burjua oilalarini tahlil qilgan va ularni ideallashtirgan. Patriarxal ruhda bo‘lgan olim ayollarning teng huquqliligiga keskin qarshilik bildirgan. Uning fikricha, ayol erkakdan intellektual jihatdan ortda qolib, uning irodasi ham nimjonroqdir. Jamiyatda ayolning o‘rni uning emotsional-axloqiy xususiyatlari bilan belgilanadi, ya’ni odamlarni birlashtirish va ma’naviyatini oshirish. Ularning asosiy vazifasi esa qo‘pol erkak tabiatini yumshatish, ularda birdamlikka asoslangan ijtimoiy tuyg‘ularni shakllantirishdan iborat. Ayollarning yosh avlod tarbiyasida ham o‘rni katta.

Oila an’ana va qadriyatlarni asrovchi va yetkazuvchi dargohdir. Inson oilada sotsial izasiyani boshdan kechirib, jamiyatga qo‘shilish ko‘nikmalarinii oladi. Avlodlar o‘rtasidagi samimiy munosabatlar jamiyat muvozanati, an’analar va yangiliklar o‘rtasidagi balansni saqlaydi.

Kooperatsiya oilaviy munosabatlarning nisbatan keng ko‘lamdagi shakli bo‘lib, ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslanadi. Unda har bir a’zo o‘zi istagan vazifani bajarib, bir-biridan manfaatdor bo‘lgani uchun «umumiy rozilik» (consensus omnium) va individlarning mos harakatlariga erishiladi. Kont emotsional va axloqiy jihatlarni birinchi o‘ringa qo‘ysa-da, iqtisodiy munosabatlar ahamiyatini alohida e’tirof etgan.

U laissez-faire tamoyilini insonning eng yomon, yegoistik tomonlarini chiqaruvsi deb bilgan. Chunki jamiyatdagi uyg‘unlik holati raqobat va ekspluatatsiya hukmron bo‘lgan jamiyatlarda mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Kont mehnat taqsimotining salbiy tomonlarini ham ko‘rgan. U har bir odamning shaxsiy xususiyatlarini shakllantirib, umumiy xususiyatlarini bosadi va tor doirada ixtisoslashadi. Bu esa bir kasbdagi insonlarni birlashtirib, boshqalariga nisbatan dushmanlik kayfiyatini uyg‘otishi mumkin. Mehnat taqsimotining haddan tashqari ko‘payishi jamiyatni mayda koorporasiyalarga bo‘lib, uning birligiga putur yetkazishi, raqobatni kuchaytirib, eng tuban instinktlarni uyg‘otishi mumkin.

Jamiyatning parchalanish va organik birligining buzilishi tahdidi tufayli Kont hukumatning siyosiy hokimiyatini «ijtimoiy ruh» namoyondasi sifatida ko‘rsatgan. Hukumatning sotsial mohiyati bu - insoniyat rivojining shartli jihati bo‘lgan g‘oyalar, tuyg‘ular va qiziqishlar birligi yo‘qolishining oldini olishdir. Shunday qilib, davlat sotsial birdamliklik organi, unga bo‘ysunish esa individning muqaddas burchiga aylanadi. Ijtimoiy tartib kafolatchisi bo‘lmish davlat iqtisodiy, siyosiy, axloqiy vazifalarni bajaradi. Kont ularning so‘nggisini eng muhim deb

bilgan. U axloqiy va siyosiy hokimiyatning bir-biridan ajralishi tarafdori bo‘lgan va o‘rta asr Yevropasida hokimiyat cherkov hamda davlat o‘rtasida o‘zaro bo‘linganini yuqori baholagan. Uning nazarida faqat shundagina yakka hukmdorning intellektual va «axloqiy terrori» dan qutilish mumkin. O‘rta asr cherkovining ruhiy vazifalarini u anologik ravishda pozitivizm g‘oyalari, tamoyillari va nazariyalarida ko‘radi. Ular eski an’ana va cherkov udumlarini ijtimoiy hayotdan siqib chiqarishi kerak edi. Kontning ma’naviy hayot muammolari yechimi, boshqalar uchun yashash shiori va burchlar yetikasi o‘zining ko‘p tarafdorlariga ega bo‘lmadi. Kont eng muhim ijtimoiy muammolarni aniqlab, ularning yechimini topishga qodir emasdi. U iqtisodiy munosabatlarni yetarlicha baholay olmadi, ma’naviy, ruhiy munosabatlarni esa haddan tashqari ideallashtirdi. Mehnat taqsimotini iqtisodiy institut sifatida emas, balki axloqiy-psixologik aloqa sifatida ko‘rdi va ishlab chiqaruvchi kuch rivoji, ishlab chiqarish munosabatlarining xarakterini e’tiborga olmadi. Mulkchilik munosabatlarini ham nazaridan chetda qoldirdi.

«Jamiyat taraqqiyotining pozitiv nazariyasi»ni Kont sotsial dinamika deb atadi. Bu «ismlar, shaxslar va xalq nomlari bo‘lmagan mavhum tarix» edi. Olim Yevropa xalqlari tarixidan olingan misollar asosida ularni mavhumlashtirib, muayyan tizim yaratadi. Kontning fikricha, progress rivojlanishni nazarda tutadi. Fan jamiyat taraqqiyotining axloq progressi bo‘la oladimi, yo‘qmi, u bilmaydi. Ammo, Kont shu fikrni bildirgan holda jamiyat taraqqiyotining axloq taraqqiyoti bilan birga kechishiga ishongan.

Jamiyat taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillarni Kont birlamchi va ikkilamchilarga ajratgan. Birlamchi va hal qiluvchi omillarga ma’naviy va aqliy rivojlanish kiradi. Ikkilamchilariga esa iqlim, irq, inson umrining o‘rtacha davomiyligi, aholining o‘sishi, mehnat taqsimoti va inson intellektual, axloqiy rivojini ta’minlaydigan omillar kirgan. Ikkilamchi faktorlar faqatgina jamiyat rivojini sekinlatishi mumkin, lekin uning bosqichlarining ketma-ketligini o‘zgartira olmaydi. Kont taraqqiyotni quyidagi turlarga ajratgan:

- moddiy taraqqiyot (hayotning tashqi sharoitlarini yaxshilash);
- fizik taraqqiyot (inson tabiatining mukammallashuvi);
- intellektual taraqqiyot (intellekt rivoji, teologik va metafizik dunyoqarashdan pozitiv dunyoqarashga o‘tish);
- axloqiy taraqqiyot (guruhiy birlik va axloqiy munosabatlarning rivojlanishi).

Kont asosan intellektual va axloqiy taraqqiyotni birinchi o‘ringa qo‘ygan. U inson ongi uch bosqich, ya’ni teologik, metafizik, pozitiv

bosqichlarni bosib o‘tadi degan g‘oyani ilgari suradi. Uch bosqichli qonuni bir vaqtning o‘zida tarixiy va mantiqiy qonun hisoblanadi.

Teologik bosqich tarixda qadim va ilk o‘rta asrlarni (1300- yilgacha) o‘z ichiga olib, Kont uni fetishizm, politeizm va monoteizmga ajratgan.

Fetishizm davrida insonlar atrofdagi narsa-buyumlarni jonlantirib, ularda xudolar ramzini ko‘rishgan.

Politeizmda esa (ko‘proq Yunoniston va Rimda tarqalgan) «fiktiv mavjudotlar» qiyofasidagi ilohlarga sig‘inishgan. Shu tufayli bu davrda ayniqsa tasviriy san’at rivojlangan.

Monoteizm – xristianlik davri. Bir xudolikka asoslangan din dunyo qiyofasini, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar, odatlar, axloqning o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Kont aynan o‘rta asrdagi davlat va cherkov uyg‘unligini yuqori baholab, o‘sha paytda katolisizm «insoniyat donoligi buyuk siyosiy durdonasi» ni yaratganini e’tirof etgan. Bu paytda ayrim sotsial tashkilotlar tashkil topgan.

Metafizik bosqich 1300-1800-yillarni o‘z ichiga olib, Kont uni o‘tish bosqichi deb ham atagan. Unda eski qadriyatlar inqirozga yuz tutdi va yangilari shakllana boshladi. Reformatsiya, Ma’rifatchilik falsafasi, revolyutsiya kabilar bu bosqichning asosiy voqealaridir. Kont fransuz revolyutsionerlariga qarshi chiqqan. Ularning revolyutsiya doktrinasini tarix va uning qonuniyatlarini bilmagan holda ishlab chiqilgan deb atagan. Zero revolyutsiya orqali o‘zgarishlarga erishish yo‘li tarix qonunlariga qarshi chiqishdir. Bu jamiyatni «nosog‘lom» holatga keltiradi.

Bu davrda vujudga kelgan «metafizik ruh», falsafiy gumonlar, axloqiy buzuqlik va siyosiy tartibsizliklarga olib keldi. Anarxiyaga chulg‘angan jamiyat uni qayta birlashtirish kuchiga ega bo‘lgan yangi mafkura va g‘oyaga muhtoj edi.

Fanlarning tarqalishi, ularning jamiyat hayotidagi ahamiyatini ortishi va pozitivizm nazariyasining yaratilishi jamiyatning pozitiv bosqichga o‘tishidan dalolat beradi. Sanoatlashgan tizim teologik bosqichga xos bo‘lgan harbiy tizimni almashtiradi. Hayot jabhalarining barchasi uyg‘un va bir maromda rivojlanishi fan kashfiyotlarini butun insoniyat foydasi uchun ishlatish imkonini beradi. Pozitiv bosqichning yana bir xususiyati egoizm ustidan alturizmning g‘alabasi, moddiy madaniyatning jadal rivojlanishi, adolat va tinchlikdir.

Kont uch bosqich qonunini o‘zining sotsial dinamikasi asosiga qo‘ygan. Shu bilan birgalikda u xalqlar tarixiy rivojlanishining aniq shakllarini tahlil qilmagan va faqat o‘zi tashkil etgan tizimni isbotlovchi faktlarnigina ko‘rsatib o‘tgan. Kontning ijtimoiy rivojlanish sxemasida

jamiyat hayotining haqiqiy mohiyati, tarixni harakatlantiruvchi kuchlar va jamiyatning kelajakdagi rivoji haqida batafsil fikrlar, afsuski yetarlicha berilmagan.

4. Pozitiv siyosatning o‘zagini haqiqatni ochishga qaratilgan obyektiv usul emas, balki subyektiv qadriyatlar, inson qiziqishlari va ideallari tashkil etishi kerak. Shunga monand Kont siyosatda subyektiv usulni targ‘ib etadi. Olimning o‘zi shunday yozadi: «Bir asar (ya’ni «Pozitiv falsafa kursi») fandan boshqasining falsafasini chorlaydi, ikkinchi asar esa («Pozitiv siyosat») falsafani mukammal va so‘nggi dinga aylantirdi».

Bu yangi dinda xudoning o‘rnini jamiyat egallaydi. Individ unda mavjud bo‘lgan barcha narsa uchun jamiyatdan minnatdaor bo‘lishi va uni yuqori mavjudot (Grand Yetre) deb tan olishi kerak. Pozitivizm «insoniyat e’tiqodi» sifatida shaxsning jamiyatga butkul singib ketishini, barchaga muhabbat va birodarlikni targ‘ib qilgan. Kont yangi dinning ruhoniylari sifatida olim va san’atkorlarni ko‘rsatgan. Ular pozitivistik dogmalarni saqlab, yangi diniy kultni targ‘ib qilishlari kerak edi.

Kont hatto yangi dinning udum va otalik, birodarlik, nikoh marosimlarini ishlab chiqadi. Ba’zi shogirdlarini cho‘qintirib, nikohlagani holatlari ham kuzatilgan. Olim pozitivistik cherkov g‘oyasini ham ilgari surgan. Unga ko‘ra cherkov avvaliga bir dindagilarni, keyinchalik butun insoniyatni birlashtirishi kerak edi.

Mazkur vazifani bajarishda proletariat muhim o‘rin tutishi kerak edi. Ammo buning uchun proletariat sotsial istik ta’limotlardan butkul voz kechishi lozim. Kont kommunizm g‘oyalari va «inson faoliyatining nazorati mulkchilik shakllariga bog‘liq» degan fikriga qarshi chiqqan. Pozitivistik jamiyatda mulk jamiyat boyligining akkumulyatsiyasi, mulkini ko‘paytirishga erishgan insonlar esa insoniyatga xizmat qiluvchilar sifatida tan olinadi.

«Pozitivizmning butunligi to‘g‘risida mushohada» nomli asarida Kont sanoatchilar patrisiati, ya’ni sanoatchilar va texnik xodimlardan tarkib topgan guruhdan uch a’zosi saylanib (triumvirat), ular diktator sifatida butun qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatni egallaydi va sanoat, qishloq xo‘jaligi, moliya sohalarini boshqarishini aytgan.

Ma’naviy hayot va axloqiy hokimiyat esa siyosatdan ajratilgan bo‘lishi lozim. Bu sohani faylasuf va san’at xodimlari rivojlantirishi, boshqarishi kerak. Kontning ishchilar «spontan (o‘z-o‘zidan) sotsial izm»iga qarshi qo‘ygan «sistemali sotsial izm»i utopiya edi. Barchaning bir-biriga bo‘lgan muhabbati, tartib va progress kabi fikrlar ortida aslida korporativ tizim g‘oyasi yotardi. Unga muvofiq ma’naviy hayotda

faylasuflar avtoritet bo‘lsa, moddiy imkoniyatlar va hokimiyat kapitalistlar qo‘lida mujassam bo‘lgan. Proletariat bo‘ynida esa unga qoniqish keltiradigan mehnat va jamiyat e’tirof i bo‘lgan. Kont o‘z qarashlarida xususiy mulk tufayli vujudga kelgan antogonistik ijtimoiy munosabatlarni yo‘qotishga emas, balki insonlar ongining axloqiy, intellektual jihatlarini o‘zgartirishga qaratgan.

Kont hayotligi paytida uning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari u qadar qadrlanmagan. Ammo XIX asrning 60-yillaridan pozitivizmga bo‘lgan qiziqish ortadi. Tabiiyshunoslarning ko‘pchiligi o‘zini pozitivistlar deb e’lon qilishdi. Pozitivistik tarixshunoslik (Genri Tomas Bokl, Ippolit Ten), pozitivistik madaniyat nazariyasi (Ernst Renan), pozitivistik kriminologiya (Chezare Lombrozo), pozitivistik mantiq va psixologiya, adabiyot va san’at nazariyasi, hatto pozitivistik «metafizika» (Vashero, Fule) paydo bo‘ldi.

Kont tarixiy jarayonlar qonuniyatlarini tan olib, sotsial institutlar va jamiyat strukturasini o‘rganishga e’tibor qaratgani jamiyashunoslik rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Shunga ko‘ra 1957yil Umumjahon Tinchlik Ittifoqi qarori bilan Kontning yuz yilligi keng nishonlandi. Kont asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab turmoqda. Haqiqatan ham uning ko‘plab fikr va tushunchalari ayniqsa G‘arb sotsiologiyasida keng qo‘llaniladi. Keyinchalik uning jamiyatni bir butun organizm sifatida ko‘rish g‘oyasini E. Dyurkgeym, T. Parsons kabi olimlar davom ettirishgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O. Kont ilmiy dunyoqarashini shakllanishiga ta’sir etgan omillarni bayon eting
2. O.Kont tomonidan fanlar qanday tasniflanadi?
3. Fanlar tasnifida sotsiologiyani o‘rnini tushuntirib bering
4. O. Kont sotsiologiyaning predmeti qanday izohlaydi?
5. O. Kont sotsiologiyaning vazifalari tushuntirishda nimaga e’tibor qaratadi?
6. O. Kont tomonidan ilgari surilgan sotsiologiyaning metodlarini bayon eting
7. O. Kont Sotsial statikani qanday tushuntiradi?
8. Sotsial dinamikani O. Kont tomonidan talqin etilishini tushuntirib bering
9. O. Kont ta’limotida pozitiv siyosat qanday izohlanadi?
10. O. Kont ilmiy merosiga nisbatan qanday yondashuvlarni bilasiz?

3-MAVZU. GERBERT SPENSER VA UNING TARIXIY EVOLYUTSION SOTSIOLOGIK SISTEMASI

REJA:

1. G.Spenser ilmiy ta’limotida sotsiologiyaning tutgan o‘rni.
2. G.Spenser jamiyat differensiatsiyaning o‘sishi va tuzilishini haqidagi nazariyasi.
3. G.Spenserning sotsial tiplar: harbiy va industrial jamiyatlar haqidagi ta’limoti.
4. G.Spenserning evolyutsiya nazariyasini jamiyatga tatbig‘i.

1. Evolyutsionizm asoschisi va sotsiologiyada organik maktab namoyondasi Gerbert Spenser 1820- yil 27- aprelda Angliyaning Derbi shahrida o‘qituvchi oilasida tug‘iladi. Bolalikdan nimjon va kasalmand bo‘lgani uchun 13 yoshgacha maktabga bormagan. 1833-yilda esa Kembridj universitetida o‘qishni boshlaydi. Ammo uch yildan so‘ng uyiga qaytib ketadi va o‘z ustida ishlashni boshlagan. Keyingi faoliyati davomida u hech qanday ilmiy daraja olmagan va akademik lavozimlarda ishlamagan.

Lekin bundan aslo afsuslanmagan ekan. Yoshligida Spenser ko‘proq matematika va tabiiy fanlarga qiziqqan. 1837- yildan u temir yo‘lda muhandis bo‘lib ishlaydi. Shu kezlardayoq Spenserning qobiliyati namoyon bo‘ladi. U lokomotivlar tezligini o‘lchaydigan asbob ixtiro qiladi. Tanlagan kasbi uni moddiy va ma’naviy tomondan qoniqtirmagani uchun 1841- yildan boshlab ikki yil davomida o‘z ustida ishlashni boshlab, 1843- yil muhandislik byurosi boshlig‘i bo‘ladi. 1846- yil Spenser o‘zi yaratgan asbob uchun patent oladi. Ammo kutilmaganda yaxshi rivojlanayotgan muhandislik karerasini to‘xtatib, ilmiy jurnalistikaga kirib ketadi. Bu paytda u keyinchalik chop ettirgan asarlarini parallel ravishda yozib borgan. 1848- yil Spenser «Iqtisod» jurnali muharriri yordamchisi lavozimiga ko‘tariladi. 1850- yilda esa o‘zining asosiy asari «Sotsial statika»ni yozib tugatadi. Bu asar olimga qimmatga tushadi. Unda uyqusizlik muammosi paydo bo‘ladi. Salomatligi bilan bog‘liq muammolar ko‘payaverib, u asab kasalligiga chalinadi. 1853- yil unga amakisidan mo‘maygina meros qoladi. Bu Spenserga ishlamay, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish imkonini beradi. Endi u faqat asarlarini chop etish va yangilari ustida ishlay boshlaydi. Olimning asosiy maqsadi ko‘p tomlik «Sintetik falsafa», ya’ni barcha ilmiy bilimlar tizimini yaratish va uni kitob qilib chop etish edi. Olim maqsadiga etadi. Ammo nashrni

to‘xtatishga to‘g‘ri keldi. Bunga Spenserning haddan tashqari toliqishi va asarga kitobxonlarning qiziqishi yo‘qligi sabab bo‘ldi. Olim deyarli qashshoqlik darajasiga tushib qolgan edi.

Amerikalik noshir bilan tanishuvi va asarlarining AQShda nashrdan chiqa boshlashi unga omad keltiradi. AQShda Spenserning ishlari Angliyadan avvalroq mashhurlikka erishdi. Sekin-astalik bilan uning kitoblariga bo‘lgan talab ortib, 1875- yil olim yo‘qotishlarini butkul qopladi va daromad ola boshladi. Bu paytda uning «Biologiya prinsiplari» (1864-1867), «Psixologiya asoslari» (1855, 1870-1872) va «Sotsiologiya asoslari» (1876-1896) nomli bir necha tomlardan iborat kitoblari dunyoning ko‘plab mamlakatlarida nashrdan chiqdi. Gerbert Spenser 1903 yil 8 dekabrda Braytonda vafot etgan.

2. Gerbert Spenser ijtimoiy birliklarni organiklari misoli hajmdagi o‘zgarishlari asosida xarakterlagan. Uning nazarida jamiyat ham tirik mavjudot embriondan boshlangani kabi kichik hajmdagi guruhlar asosida paydo bo‘lgan. Jamiyatning o‘sib, yiriklashib borishini ikki yo‘l bilan kechadi.

Birinchisi, aholining tabiiy o‘sishi, ikkinchisi, avval bir jamiyatga tegishli bo‘lmagan guruhlarning birlashuvi orqalidir. Mazkur ikki yo‘l birgalikda va turli vaqtda sodir bo‘lishi mumkin. Jamiyat a’zolari sonining o‘sishi, mazkur jamiyat tizimi murakkablashuvini taqozo etadi. Spenser o‘sish jarayonini integratsiya jarayoni bilan aynanlashtirgan. Intergratsiya esa o‘z navbatida organizm yoki jamiyat yashab qolgisi kelsa, tizimi va vazifalarining jadal differensiatsiyasini nazarda tutadi. Jamiyat a’zolari qanchalik turli-tuman bo‘lsa, ularning o‘zaro bir-biriga muhtojlik darajasi ortadi.

Demak, differensiasiyaning o‘sishi insonlarning bir-biriga bo‘lgan ehtiyoji ortishiga sabab bo‘ladi. Primitiv jamiyatlarda hamma harbiy, ovchi yoki dehqon bo‘lgan va har bir inson o‘z ehtiyojlarini o‘zi qondirib, boshqaga muhtoj bo‘lmagan.

Jamiyat rivojlanib borishi bilan uning qismlari ham turli-tuman bo‘lib boradi. Bunda jamiyat tizimining o‘sishi, ya’ni turli xildagi faoliyat turlari bilan shug‘ullangan indvidlar paydo bo‘ladi. Bu faoliyat turi har xil bo‘lgani bilan boshqalar yashashini ta’minlashga qaratilgan. Natijada murakkab jamiyatlarda insonlar alohida va bir-biri uchun yashaydi. Jamiyat evolyutsiyasi davomida vazifalarni kelishib bajarish, ya’ni murosaga - konsensusga kelish muhim bo‘lib qoladi.

Chunki primitiv jamiyat birliklari o‘xshash bo‘lgani uchun bir-birining vazifasini bajarishi mumkin. Murakkab jamiyatlardagi har xil

vazifani bajaruvchi birliklar esa bir-birining vazifasini qiyinchilik bilan yoki butkul bajarolmaydi. Ularning hayoti birgalikdagi faoliyatga asoslanadi. Shu jihatdan olib qaragandi sodda jamiyatlar tizimi murakkablarinikiga qaraganda nimjonroq sanaladi.

Murakkab jamiyat birliklarining o‘zaro muhtojligi va shu orqali vujudga keladigan jamiyat strukturasining nimjonligi mazkur jarayonni boshqaruvchi «nazorat tizimi»ni yaratilishiga olib keladi. Ijtimoiy evolyutsiyaning ilk bosqichlarida nazorat markazlari atrof muhit, ya’ni «dushman va o‘lja» bilan bog‘liq munosabatlarni boshqarish uchun kerak. Keyinchalik esa ular davlatning ichki va ijtimoiy nazoratini o‘z bo‘yniga oladi.

Spenser jamiyatlarni ichki boshqaruv va nazoratning qattiqqo‘lligi va ko‘lami orqali turlarga ajratgan. Shuningdek, bunda evolyutsion murakkablik kriteriysini ham qo‘llagan.

3. Rivojlanish bosqichlariga ko‘ra, Spenser jamiyatlarni quyidagicha tasniflagan: oddiy, murakkab, ikki va uch karra murakkab jamiyatlar. Oddiy jamiyatlarni olim o‘z navbatida boshlig‘i bor, yepizodik ravishda boshlig‘i paydo bo‘ladigan, beqaror va barqaror boshqaruvga ega jamiyat turlariga ajratgan.

Murakkab va ikki karra murakkab jamiyatlar siyosiy tashkilotlarining murakkabligi jihatidan turlarga bo‘lingan. Anologik ravishda turli turdagi jamiyatlar a’zolarining o‘troq hayotga o‘tishi jihatidan: ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi va o‘troq turlarga ajratilgan. Umuman olganda jamiyatning o‘zini Spenser oddiydan murakkabga ketma-ket tarzda rivojlanuvchi tizim sifatida ko‘rsatgan.

Yuqoridagilardan tashqari Spenser ichki va ijtimoiy nazorat shakli tufayli sotsial tashkilotda vujudga keladigan farq asosida jamiyatlarni harbiy va industrial turlarga ajratgan. Jamiyatning uni o‘rab turgan boshqa jamiyatlarga munosabati turli xil bo‘ladi. Tinchlik payti va do‘stona munosabatlarda ichki nazorat tizimi u qadar kuchli rivojlanmaydi, dushmanlik munosabatlarida esa markazlashgan va majburiy nazorat hukm suradi. Jamiyatning ichki tizimi rivojlanganlik darajasiga emas, balki qo‘shni jamiyatlar bilan mavjud munosabatlarga bog‘liq bo‘ladi.

Majburlash harbiy jamiyatlarning asosiy belgisi hisoblanadi. Bunday jamiyatlardagi barcha tashkilotlar majburlash vositasida birlashib, faoliyat olib boradi. Askar irodasiga bu holat shu qadar sindiriladiki, u butkul ofiser buyruqlariga bo‘ysunadi. Fuqarolar esa hukumat irodasi asosida shaxsiy va ijtimoiy hayotlarini olib borishadi. Harbiy jamiyatlardagi hamkorlik ham majburiy bo‘lib, u mazkur jamiyat hayotini ta’minlab

turadi. Spenser buni inson tanasidagi tashqi a'zolari markaziy asab tizimiga butkul bo'ysunishiga qiyoslaydi.

Industrial turdagi jamiyat esa aksincha, ixtiyoriy hamkorlik va individual o'zini cheklashga asoslanadi. Uning asosida har bir shaxsning individual erkinligi yotadi. Bunday jamiyatlarda nazorat qiluvchi organ tarqoq va markazlashmagan bo'ladi.

Spenserning nazarida, jamiyatlarning murakkablik darajasi ularning industrial yoki harbiy bo'lishiga ta'sir yetmaydi. Murakkab jamiyatlar industrial va harbiy bo'lgani kabi oddiylari ham shunday ko'rinishda bo'lishi mumkin. Ularni harbiy va industrial turlarga bo'lishda murakkablik darajasi emas, balki jamiyatning atrofdagilar bilan dushmanlik yoki do'stona munosabatlari asos bo'ladi.

4. Spenser dastlab insoniyatning bir chiziqli rivojlanishi konsepsiyasini ilgari suradi. Unga ko'ra insoniyat taraqqiyoti (progress) aniq belgilab berilgan. Xuddi individning bolalikdan yetuklikka evolyutsiya bosqichlari ketma-ket bo'lgani kabi bayon etiladi. Spenser yozadi: «bolalik va yetuklik o'rtasida o'sish va rivojlanish yo'lini chetlab o'tishning imkoni bo'lmagani kabi, ijtimoiy hayotning quyi shakllaridan yuksagiga o'tishning boshqa yo'li yo'q… Bu jarayonni qisqartirib bo'lmaydi, uni chidab o'tish lozim». Spenser ilk asarlarida evolyutsiya jarayonini nimjonlashmaydigan, o'zgarmas va doimiy mavjud jarayon sifatida ko'rsatadi. «Bir xillikdan har xillikka tomon bo'lgan o'zgarishlar sivilizatsiya progressi, shuningdek, har bir millat progressi natijasida paydo bo'ladi; u hozirga qadar o'suvchi tezlikda davom yetmoqda».

Ammo, Spenser o'zining keyingi asralarida insoniyat evolyutsiyasi qat'iy bor bo'lsa-da, ayrim jamiyatlar nafaqat rivojlanishi (progress), balki ortga qaytishi (regress) ham mumkin deydi. «Jamiyatlarni umumiy olganda evolyutsiyadan qochib qutilishning iloji yo'q… shunga qaramay uni har bir alohida jamiyat uchun taqozo etilgan deb bo'lmaydi».

«Sotsial organizm individual organizm kabi atrof-muhit bilan muvozanat holatiga kelgunga qadar qator o'zgarishlarga uchraydi; shundan keyingina u boshqa strukturaviy o'zgarishlarsiz hayotini davom yettiradi». Shunday muvozanatga yerishilgan taqdirda evolyutsiya o'zini progressiv integratsiyada namoyon qiladi. U oxir oqibat qattiqqo'llikka olib keladi va deyarli yakun topadi.

Spenser jamiyatlar o'zlarining ijtimoiy va tabiiy atrof-muhitiga qarab mos ravishda rivojlanadi deb bilgan. «Progressning boshqa turlari kabi sotsial progress ham bir chiziqli bo'lmaydi, balki tarqaladi va yoyiladi... Yer yuzida insoniyat tarqalishi bilan turli atrof–muhit ta'sirida yangi

sotsial hayot paydo bo‘lgan. U oldingi hayot asosida va yangi sharoitlar tufayli yaralgan; ko‘payuvchi guruhlar ba’zan ko‘rinarli, ba’zan ko‘rinarsiz farqlarga ega bo‘ladi: jamiyatda urug‘lar va stereotiplar shakllanadi».

Spenser o‘z evolyutsiya nazariyasini Kont kabi olimlarning bir chiziqli konsepsiyasidan farqlagan. U yovvoyi odamlar to‘dasi va sivilizasion dunyodagi jamiyatlar bitta evolyutsion shaklning turli bosqichlari ekanligi to‘g‘risidagi fikrga qarshi chiqadi. Olim sotsial turlar individual organizmlar kabi bir chiziqda turmaydi, ya’ni tarqaluvchi va yoyiluvchi guruhlarga tasniflanadi, deb ta’kidlaydi.

Spenserning ijtimoiy institutlar borasidagi qarashlari funksional terminlarda o‘z ifodasini topgan. U sotsial institutni insonlar birgalikdagi faoliyatini boshqaruvchi mexanizmlar deb bilgan. Ularni ko‘rib chiqish davomida olim inson faoliyati kutilmagan natijalarga olib keladi degan.

Chunki mazkur faoliyat subyektning rejalashtirgan maqsad va motivatsiyalari emas, balki funksional va strukturaviy ehtiyojlar natijasida vujudga keladi. Spenser ijtimoiy institutlarni evolyutsion bosqichlari va funksiyalari nuqtayi nazaridan o‘rganishni taklif qilgan.

Spenser Kontdan farqli o‘laroq ko‘proq individualizm tarafdori bo‘lgan. Kont har bir individ jamiyatga to‘la bo‘ysunadi desa, Spenser jamiyat paydo bo‘lishini individlarga bog‘lab, jamiyatni shaxs maqsadlari takomillashuvi vositasi deb biladi. Unga ko‘ra, insonlar avval boshdan manfaat yuzasidan hayotlarini o‘zaro bog‘lashgan. Natijada jamiyat paydo bo‘lib, insonlarning yashash sharoitlari yaxshilanadi. Bu esa jamiyat barqaror mavjudligini ta’minlaydi. Spenser individualistik yondashuv tarafdori sifatida jamiyat xususiyatlari uni tashkil etuvchi individlar xususiyatlariga bog‘laydi. «Inson to‘plami bilan ifodalangan istalgan hodisa oqibatda insonning o‘zidan kelib chiqadi».

Spenser ijtimoiy va biologik organizmni qiyoslaydi. Biologik organizm teri ichiga mahkum qilingan bo‘lsa, ijtimoiy organizm esa til vositasida bog‘langan. Hayvon organlari konkret butunlikni, jamiyat qismlari noaniq butunlikni tashkil etadi. Ijtimoiy organizm birliklari o‘zaro til orqali muloqotga kirishishadi. Bu fizik jihatdan insonlarning bir-biriga ta’sirini nazarda tutmasa-da, boshqa turli vositalarni nazarda tutadi. Misol uchun telefon, xat, internet, kitob, gazeta kabilar.

Biologik organizmda ong uning bir qismida mujassamlashgan. Ijtimoiy organizmda esa u butun to‘plam bo‘ylab tarqalgan bo‘ladi. Har bir jamiyat a’zosining o‘z fikrlari, qarashlari, qayg‘u va emotsiyalari

mavjud bo‘ladi. Jamiyat o‘z a’zolarining farovon hayotini ta’minlashi kerak, aksincha emas.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Spenser ilmiy ta’limotida sotsiologiyaning tutgan o‘rnini tushuntirib bering
2. G.Spenser jamiyat differensiasiyaning o‘sishi va tuzilishini qanday izohlab beradi?
3. G.Spenser ilgari surgan jamiyat tasnifini izohlab bering
4. G.Spenserning sotsial tiplar: harbiy va industrial jamiyatlar haqidagi qarashlarini tushuntirib bering
5. G.Spenser evolyusiya nazariyani jamiyatga tatbiq etar ekan, uni qanday bayon etadisi?
6. G.Spenserning ijtimoiy institutlar nazariyasini tushuntirib bering
7. G.Spenser ijtimoiy va biologik organizmni qanday qiyoslaydi?

4-MAVZU. SOTSIOLOGIYADA POZITIVISTIK-NATURALISTIK MAKTABLAR

REJA:

1. Evolyutsionizm-naturalistik maktablarning negizi sifatida.
2. Sotsiologiyada mexanistik maktab vakillarining nazariyalari.
3. Sotsiologiyada geografik maktab.
4. Sotsiologiyada irqiy-antropologik nazariyalar.

1. XIX asr o‘rtasi va ikkinchi yarmida G‘arb ilmiy tafakkuri tabiiy fanlar muvaffaqiyati va pozitivistik-naturalistik dunyoqarashning gullab-yashnashiga erishdi. Bu davrda vujudga kelgan evolyutsionistik nazariya ko‘pgina olimlarning dunyoqarashining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.. Evolyutsion nazariya tabiat va jamiyat qonunlarini, tabiiy va ijtimoiy fanlar metodlarini umumiyligini keng targ‘ib etgan.

Evolyutsionizm sotsiologiyani yetnologiya bilan chambarchas bog‘lashni nazarda tutadi. Shu yo‘l bilan jamiyat va madaniyat genezisi muammolari hal qilina boshlandi. Shu tufayli o‘sha davr sotsiologiyasini ibtidoiy tarixga va imlosiz xalqlarning ijtimoiy institutlarini paydo bo‘lishi va rivojining qiyosiy tadqiqotlariga qiziqishi juda baland edi.

Biologik-evolyutsion maktablarda sotsial evolyutsiya biologik evolyutsiyaning davomi yoki bo‘lmasa tarkibiy qismi deb talqin qilina boshlandi. Bu maktablar vakillarining fikricha, organizmning o‘sish

qonuniyatlariga o‘xshab ijtimoiy institutlarning qandaydir organik rivojlanish qonuni ham mavjuddir va u o‘zgarishlarni bosqichma-bosqich hamda doimiy xarakterini belgilaydi. Shuningdek, naturalistik-evolyutsion sotsiologiya sotsial falsafadan tarixni «harakatlantiruvchi dastlabki kuch» metafizik muammosini meros qilib oldi.

Pozitivistik-naturalistik yo‘nalishlar jamiyatni tabiatning bir qismi deb tan olib, bu tushunchani ma’lum bir ma’noda empirik holatga olib kelmoqchi bo‘ldilar. Jamiyat rivojini ular tabiiy obyektiv kuchlar sifatida tushunuvchi, ma’lum bir diterminatsiya qiluvchi omillar harakati bilan bog‘lamoqchi bo‘ldilar.

Ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy qonunlarini izlash va obyektiv ma’lumotlarni fanga taqdim etishining ijobiy ahamiyatiga qaramay naturalistik-pozitivistik evolyutsion sotsiologiyaning sust joyi - bu bir yoqlamalik naturalizm (asosan biologik) bo‘lib, u tarixni insonning faollik jarayoni deb e’tirof etishga yo‘l bermaydi.

U yoki bu tabiiy omillarni sotsial taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchi sifatida birinchi pozitsiyaga ko‘tarish, ayrim hollarda ma’lum bir tabiiy fanning metodologik namunasi naturalistik maktablarni tasniflashga asos bo‘lib xizmat qildi.

2. Sotsiologiyadagi klassik tabiiy fan metodologiyasi obro‘- e’tibori va undagi mexanistik dunyoqarash, vulgar-materialistik tendensiya xususiyatlarini mexanistik maktab faoliyatida yaqqol ko‘rish mumkin. Bu maktab ta’limoti boshqa ko‘pgina naturalistik maktablar uchun yashirin g‘oyaviy baza vazifasini o‘tadi.

Mexanistik maktabga shartli ravishda shunday sotsiologik konsepsiyalarni taalluqli hisoblash mumkin: ular sotsial jarayonlarni va voqealarni jismoniy jarayon va voqealar bilan tenglashtiradilar.

Shuningdek, sotsial olamni tushuntirish uchun keng ma’noda mexanika, fizika, energetika va hokazolarning tushunchalaridan foydalanadi. Mexanisistlar jamiyatni statistik qismlardan tashkil topgan agregat degan tushunchani keng rivojlantirdilar. Jamiyatning «agregat» konsepsiyasi sotsiologiyada statistik metodni qo‘llashga asosiy omil bo‘ldi.

XIX asr sotsiologiyasida mexanistik nazariyani keng ishlab chiqqan olim – bu amerikalik iqtisodchi va sotsiolog Genri Charlz Keri. Uning asosiy asarlari - «Sotsial fanlar asosi», «Jismoniy, sotsial , psixik va axloqiy fanlar munosabatidagi qonun birligi». U o‘zining bu asarlarida Spenserning mexanistik evolyutsiyasini yoqlab chiqadi.

Mexanikaning umumiy mantig‘idan kelib chiqib, Keri materiyaning hamma shakllarini boshqaradigan umumiy oddiy qonunlarni izlaydi. Uning uchun inson – bu jamiyatning molekulasi, insonlar assotsiatsiyasi esa «molekulyar tortilish buyuk qonuni» ning bir ko‘rinishidir.

Sotsial voqelikni miqdorli-mexanistik ravishda tushuntirishga intilgan yana bir taniqli olim – Vilgelm Fridrix Ostvald. O‘zining «Madaniyat haqidagi fanlarning energetik asoslari» asarida shuni alohida ta’kidlaydiki, energetika ijtimoiy fanlar uchun yevristik tamoyillarni ishlab chiqishga qodirdir. Energetik nuqtayi nazardan madaniy jarayon – bu yenergiyani bog‘langanlikka aylanishidir. Qanchalik ko‘p miqdorda bog‘langan, foydali energiya olinsa, shunchalik madaniyat taraqqiyoti salmoqli bo‘ladi. Energiyaning yoyilish qonuniga asoslangan bu universial mezon nafaqat ijtimoiy taraqqiyotning ko‘lamini o‘lchaydi, balki, organizm yashovchanligining uzayishini ham kuzatib borish imkonini beradi.

O‘zlarining bir qator jiddiy kamchiliklariga qaramay mexanisistlarning ayrim xatti-harakatlari sotsiologiya fanining rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, ular sotsiologiyada o‘lchov va statistika nazariyasini tatbiq etilishiga baholiqudrat o‘z hissalarini qo‘shdilar.

3. Jamiyat hayotida geografik muhitning u yoki bu shaklidagi roli masalasini deyarli barcha mutafakkirlar o‘z tadqiqotlarining kun tartibiga qo‘yganlar. Ijtimoiy-falsafiy tafakkur jamiyat va tabiatni bir-biriga qarshi qo‘yib, muhitni (iqlim, relef, tabiiy boyliklar va h.z.lar) alohida bir sotsial jarayon va hodisalar (aholini o‘sishi, ishlab chiqarish, siyosiy tuzum) ga ta’sirini keng miqyosda tahlil qilishga harakat qilib keldi.

Kishilik jamiyati uchun geografik muhitning ahamiyati haqidagi fikrlar 2 xil mantiqiy yo‘nalishda vujudga keldi:

1. Mexanik geografik determinizm – shuni alohida ta’kidlaydiki, insonning butun faoliyati faqat tabiiy atrof muhit bilan belgilanadi.

2. Absolyut madaniy determiznizm – shunday tavsiya beradiki. muhitni idrok qilish va uni inson uchun ahamiyatini madaniyat belgilaydi va shuning uchun inson faoliyati faqat kulturologik xususiyatga ega bo‘lishi kerak.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ijtimoiy tafakkurdagi geografik yo‘nalishni tor ma’nodagi geografik determinizm bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Vaholanki, u faqat shu yo‘nalishning bir qismigina xolos. Inson – tabiat, madaniyat – muhit degan qarama-qarshiliklar tufayli vujudga kelgan qiyinchiliklardan chiqish uchun tizimli tadqiqotlar XIX asrdayoq boshlanib ketdi, ya’ni inson, madaniyat, va muhitni yaxlit va

geografik mintaqaning yagona xususiyati degan qarashlar quloch yoza boshladi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Ch.Darvinning «Tabiiy tanlov» nazariyasining kuchli ta’siri ostida geografik determinizm g‘oyasi keng ma’nodagi mavqega erishdi. Sotsial geografiyaning e’tiboriga sotsiologiyadagi geografik yo‘nalishlar ixtiyoridagi shunday tabiiy omillar – iqlim, tuproq, relef, suv resurslarining taqsimoti, foydali qazilmalar, flora va fauna, geofizik va kosmik jarayonlar, yil fasllarining o‘zgarishi va h.z.lar kirib keldi.

Yuqorida ko‘rsatilgan omillarga bog‘liq bo‘lgan asosiy sotsial hodisalar bo‘lib, quyidagilar namoyon bo‘lishadi:

1. Aholining yer sharida joylashishi va zichligi, uni salomatligi va ko‘payishi;
2. Tanadagi jismoniy va psixik irqiy shakllaridagi turlanish, temperamentdagi axloq;
3. Mashg‘ullik turlari va xo‘jalik yuritish faoliyati, uni tashkil etish, odamning farovonlik darajasi;
4. Sotsial -siyosiy institutlar, muassasalar va nikohlar turlari;
5. Madaniy aloqolar va o‘zaro aloqalar imkoniyatlari, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot turlari;
6. Din, san’at, adabiyot kabi ijtimoiy hayotning barcha boshqa ko‘rinishlari.

Geografik determinizm tamoyilini klassik tabiatshunoslikka asoslanib, fransuz olimi Viktor Kuzen (1792-1867) shakllantirib berdi.

«Menga mamlakatning kartasi, uning tuzilishi, iqlimi, suvi, havosini bering va men bu mamlakat odami qandayligi, tarixda bu mamlakat qanday rol o‘ynashini tasodif sifatida emas, balki qonuniyatga asoslanib, hamma davrdagi holatini aytib berishga jur’at etaman» - deb yozgan edi, Viktor Kuzen.

Ingliz pozitivisti Genri Tomas Bokl (1821-1862) tarixiy taraqqiyotning obyektiv qonunlarini asoslash maqsadida ko‘p sonli misollar keltirib, maxsus landshaft, iqlim, to‘proqning unumdorligi, hatto ovqatlanish ko‘rsatkichlari yordamida xalqlar orasidagi ongli farqni, ularning gavdasini, boyliklar orttirishga intilishini, so‘ngra qanday sotsial muassasalar tashkil etishini anglamoqchi bo‘ldi. Lekin, u shuni ham nazarda tutdiki, ijtimoiylashuvning oliy darajadagi taraqqiyoti davrida ongli omillar jismoniy omillardan ustuvorlikka yerishadilar.

Mashhur sosiogeograflardan yana biri bu - nemis olimi Karl Ritter (1779-1859). U Aleksandr Gumbold bilan birgalikda zamonaviy

geografiyaning asoschisi hisoblanadi. Ritter uchun yo‘naltiruvchi metodologiya bo‘lib, tabiat va madaniyatning o‘zaro harakat g‘oyasi xizmat qiladi.

Riter ta’limotining ijtimoiy fanlar uchun ahamiyati shundaki, uning geografiyasida muhim o‘rinni inson va tarix egallaydi. Geografiya Ritterning fikricha qanday qilib inson o‘zini o‘rab turgan makonga ta’sir qiladi va o‘zi qulay yoki og‘ir sharoitlarda qanday qilib tarbiya topish mumkin degan savollarga javob berishi kerak.

Ijtimoiy hodisalarni geografik omillar bilan tushuntirish ta’limotlarini yana bir qator mashhur olimlar – nemis Fridrix Rasel (1844-1904), shved Yuxan Rudolf Chellen (1864-1922), amerikalik Yelsuort Xantington (1876-1947), fransuzlar Frederik Le Ple (1806-1882), Anri de Turvil (1843-1903), Yedmon Demolen (1852-1907), Pol Vidal la Blash (1845-1918) va boshqalar o‘z ilmiy faoliyatlarida keng tadqiq qilib, bu soha rivojiga o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shdilar.

4. Sotsiologiyadagi naturalizmning g‘oyaviy ma’nodagi eng reaksion ko‘rinishi bo‘lib, irqiy–antropologik yo‘nalish namoyon bo‘ladi.

Rasizm (irqchilik) sotsial –psixologik fenomen sifatida o‘zining tarixiga ega, lekin fan va uning obro‘–e’tiboriga tayanishini esa XIX asrdan boshlaydi.

O‘zining xilma–xil konsepsiyalariga ega bo‘lgan bu yo‘nalish bir necha negizli postulatlarga egadir:

1) Sotsial hayot va madaniyat irqiy–antropologik omillar hosilidir.
2) Irqlar bir–birlari bilan teng emasdirlar va bu esa madaniyatlar teng emasligidan darak beradi.
3) Irqlarning sotsial xulq–atvorlari to‘liqligicha asosan biologik vorislik bilan determinatlangandir.
4) Irqlarni aralashtirish zararlidir.

Ushbu hamma tezislarni kengaytirilgan shaklda ilk bor fransuz faylasufi, yozuvchisi va diplomati Artyur de Gabino (1816–1882) o‘zining to‘rt jildlik «Inson irqining tengmasligi haqidagi tajriba» asarida bayon qilgan. Gobino sotsial institutlar irqning hayot faoliyatini belgilamasligini, balki, aksincha bo‘lib, bu faoliyat ularni belgilashini isbotlashga urindi.

Pessimist sifatida u butun sivilizatsiyani, hususan Yevropa sivilizatsiyasining halokatga uchrashini bashorat qiladi.

Rasizm (irqchilik) Gobinoning elita nazariyasining davomidir. U sotsial tenglikning barcha shakllariga qarshi bo‘lib, «haqiqiy» iyerarxiya

va bu iyerarxiya ichidagi haqiqiy elitani kashf etmoqchi bo‘ldi. Irqiy iyerarxiyani Gobino uch pog‘onali narvon sifatida ko‘radi:

yuqori pog‘onada «oq» irq, o‘rta pog‘onada «sariq» irq, quyi pog‘onada esa «qora» irq joylashgan bo‘ladi.

Gobino «oq» irqning ustuvorligini ta’kidlab, bu irq go‘yoki hamma sivilizatsiyani yaratish va rivojlantirishda bosh rolni o‘ynashi kerak. Yana Gobino fikricha «oq» irqning ichida ham o‘ziga xos iyerarxiya bo‘lib, uning cho‘qqisida «oq suyak»lar joylashgan bo‘ladi.

Boshqa bir irqiy ta’limotni ingliz (kelib chiqishi nemis) Xauston Styuart Chemberlen (1855–1927) ishlab chiqqan. Uning asosiy asari – «XIX asr asoslari» bo‘lib, u Germaniyada bir necha bor nashr etildi.

Chemberlenning fikricha, Yevropa tarixining eng buyuk yutug‘i – bu «Tevton» madaniyatining yaratilishi bo‘lib, u mavjud madaniyatlarning eng yuqori cho‘qqisidir. «Tevton» irqi «oq suyak» irqining merosxo‘ridir.

Chemberlen german fashizmini g‘ayri-insoniy afsonalarini yaratishga o‘zining «ahamiyatli hissasi»ni qo‘shdi. Bekordan–bekorga nasizm nazariyotchilari unga «Xalq mutafakkiri» degan unvon bermaganlar.

Irqiy–antropologizmning yana bir ko‘rinishi sifatida antroposotsiologiya deb ataladigan yo‘nalish mavjud bo‘ldi. Bu yo‘nalishning asosiy vakillari fransuz Jorj Vashe de Lyapuj (1854–1936) va nemis Otto Ammon (1842–1916).

Lyatuj Gabinoni irqiy antropologiyaning asoschisi deb hisoblab, Chemberlenni esa karikaturist deb e’tirof etadi.

Uningcha antroposotsiologiyaning tadqiqot predmeti bo‘lib, irq va sotsial muhitning o‘zaro ta’siri namoyon bo‘ladi.

Lyatuj sotsial darvinizm ta’siri ostida o‘z ta’limotiga sotsial tanlov tushunchasini qo‘llaydi. U bu tanlovning oltita asosiy shaklini ajratib ko‘rsatadi:

1) Harbiy
2) Siyosiy
3) Diniy
4) Axloqiy
5) Huquqiy
6) Iqtisodiy

Bu shakllarning barchasi ijtimoiy taraqqiyotga halokatli ta’sir ko‘rsatib, uning natijasida «qimmatli» irqiy tur - oq–mala boshicho‘ziqlik kamayib ketayapti.

Bu antropologda biz inson bosh miya ko‘rsatkichi hajmi va uni sinfiy tabaqasi o‘rtasidagi universal aloqa haqidagi «qonuni»ni ko‘rishimiz

mumkin. Xuddi shunday tezisni Otto Ammon maktabida ham uchratish mumkin.

Shuningdek, Lyudvik Valtman asarlarida ham sotsial darvinizm va irqiy–antropologizm sintezini ko‘p uchratish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, irqiy–antropologik yo‘nalish «Oliy» irqlar, «Tanlangan» xalqlar uchun nazariyot bo‘lib xizmat qilib, nafaqat sotsiologiyaning ichidagi reaksion ta’limot bo‘ldi, balki mohiyatga ko‘ra antisotsiologiya bo‘lib, mazmun kasb etadi. Chunki, agarda biz sotsiologiyaning predmeti deb – jamiyatni e’tirof etsak, irqiy–antropologizm esa irqni ijtimoiy tarix, jarayon, harakatning bosh hamda asosiy subyekti deb talqin qildi. O‘zining g‘ayriinsoniy mazmuni tufayli bu reaksion ta’limot sotsiologiya tarixida salbiy ma’no kasb etdi va hech qanday istiqbolga ega bo‘lmadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Evolyutsionizm sotsiologiyani nima bilan chambarchas bog‘lashni nazarda tutadi?
2. Biologik-evolyutsion maktablarning asosiy g‘oyalari nimadan iborat edi?
3. Pozitivistik-naturalistik yo‘nalishlar jamiyatni qanday tushuntiradilar?
4. Naturalistik-pozitivistik evolyutsion sotsiologiyaning sust joyi nimada?
5. Mexanistik maktablar jamiyatni qanday tushuntiradilar?
6. XIX asr sotsiologiyasida mexanistik nazariyani keng ishlab chiqqqan olim kim edi?
7. Qaysi olim sotsial voqelikni miqdorli-mexanistik ravishda tushuntirishga intilgan edi?
8. Mexanik geografik determinizmning mohiyatini tushuntirib bering
9. Geografik determinizm tamoyilini klassik tabiatshunoslikka asoslanib, shakllantirgan kim edi?
10. Ingliz pozitivisti Genri Tomas Bokl qanday g‘oyani ilgari suradi?
11. Mashhur sosiogeograflardan kimlarni bilasiz?
12. Ijtimoiy hodisalarni geografik omillar bilan tushuntirish ga harakat qilgan mashhur olimlar kimlar edi?
13. Artyur de Gabinoning qarashlarini bayon eting.
14. Lyatuj antroposotsiologiyaning tadqiqot predmetini qanday izohlaydi?

15. Lyudvik Valtman asarlarida sotsial darvinizm va irqiy–antropologizm qanday bayon etiladi?

5-MAVZU. PSIXOLOGIK SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR

REJA:

1. Sotsiologiyada psixologik oqimlarning vujudga kelishi.
2. Psixologik evolyutsionizm ta’limotining mohiyati.
3. Sotsiologiyada instinktivizm nazariyasi.
4. Xalqlar psixologiyasi nazariyasining mohiyati.
5. Sotsiologiyada guruhiy psixologiya va taqlid nazariyasi.
6. Interaksionizm nazariyasi.

1. XIX asr oxirida biologik-naturalistik nazariyaning inqirozga yuz tutishi sotsiologiyada psixologik oqimning kuchayishiga olib keldi. Lokk, Yum, fransuz ma’rifatchilari, ingliz utilitaristlari ko‘pdan beri mazkur g‘oyani targ‘ib qilishgan. Mill va Kont sotsial qonunlar «individual inson tabiati qonunlari»ga kelib taqalishi kerak deyishgan. Shuning uchun sotsiologiya «guruhlar, to‘plamlar harakatlari va ijtimoiy hayotni tashkil yetuvchi turli hodisalar» haqidagi fan sifatida psixologik asosga ega.

Eksperimental psixologiyaning paydo bo‘lishi va fan sifatida institutlashuvi uning fanlar orasidagi e’tiborini ko‘tardi va psixologizmni boshqa fan sohalariga kirishini ta’minladi. XIX asr oxirida psixologizm turli hodisalar va fanlar doirasidagi muammolarni yechishda qo‘llanilib, keng tarqaldi. Gnoseologiya, mantiq, estetika, lingvistika, tarix va boshqa fanlarni psixologik jihatdan asoslash urfga aylandi. Psixologizm — «ikkinchi pozitivizm» (maxizm, empiriokrititsizm) xarakteristikasi hisoblanadi. Bu sotsiologiyaga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

XIX asr boshidagi psixologiyaga oid tadqiqotlarda shubhasiz individ psixologiyasi asosiy e’tibor berilib, sotsial jarayonlar inobatga olinmasdi. XIX asrning uchinchi choragida esa vaziyat tubdan o‘zgaradi. Psixolog olimlar yuksak psixologik funksiyalarni faqatgina fiziologik jarayonlar bilan izohlab bo‘lmasligini aniqlashdi va buning uchun sotsial omillarni ham o‘rganish kerakligi xulosasiga kelindi. Sotsiologlar esa motivasiya muammolari va sotsial harakatning psixologik mexanizmiga katta e’tibor qarata boshlashdi. Bu ikki harakat natijasida sotsiologiyada psixologik yo‘nalishning paydo bo‘lishiga zamin yaratildi.

Mazkur davrda kuzatilgan boshqa fandagi g‘oyaviy oqimlar singari psixologik sotsiologiya ham yaxlit holda shakllanmagan edi. Uni oqim

sifatida birlashtiruvchi yagona xususiyati garchi har doim ongli bo‘lmasada sotsial xususiyatga ega bo‘lgan hodisa jarayonni psixologikka monandlashtirishdir. Ammo bu intilish va psixologiya turlari hamma olimlarda bir xil emas. Ilgari surilayotgan muammo turi va uni tushuntirish kategoriyalari asosida mazkur oqimda bir nechta mustaqil yo‘nalishlarni ko‘rsatish mumkin. Bular: psixologik evolyutsionizm; instinktivizm; «xalqlar psixologiyasi»; guruhiy psixologiya; interaksionizm.

2. Sotsial jarayonlarni psixologik tushuntirish biologik-evolyutsion maktab bilan darhol aloqalarni uzishni taqozo yetmadi. Birlamchi maqsad evolyutsionistik sxemani jamiyat rivojlanishi va faoliyatining psixologik mexanizmlarini o‘rganish orqali to‘ldirishdan iborat bo‘lgan. Spenserdan keyin psixologik evolyutsionizm vakillari bo‘lmish amerikalik sotsiologlar L.F.Uord (1841—1913) va F.G.Giddings (1855—1931) jamiyat rivojlanishini fazoviy evolyutsiyaning bir bo‘lagi deb bilishgan. Bunda keyingi rivojlanish bosqichi avvalgisining yutuqlari asosida paydo bo‘ladi. Ammo, biologik konsepsiya tarafdorlari sotsial evolyutsiyani bevosita organik evolyutsiya davomi va uning bir qismi deyishgan. Ular uning avtomatizm xususiyatini e’tirof etishgan. Psixoevolyutsionistlar esa jamiyat hayoti shakllarining murakkablashuvida ongning rivoji, ya’ni sotsial jarayonlarning ongli boshqaruvini ko‘rishgan.

Mazkur yo‘nalishning yirik vakili - Lester Frank Uord boy bo‘lmagan oila farzandi, AQSh fuqarolar urushi qainashchisi bo‘lgan. Uning asl kasbi geolog va paleobotanik. Sotsiologiya bilan esa keyinchalik shug‘ullangan. Asosiy asarlari: «Dinamik sotsiologiya», «Sivilizatsiyaning psixik omillari», «Sotsiologiya bo‘yicha ocherklar», «Sof sotsiologiya», «Amaliy sotsiologiya» va «Sotsiologiya darsligi». 1906 yil Amerika sotsiologik jamiyatining birinchi prezidenti yetib saylangan.

U Spenserning insoniyat fazoviy evolyutsiyasi tamoyilini progress g‘oyasi bilan to‘ldirish tarafdori edi. Sotsial institutlarni u ko‘proq psixologik kuchlar natijasi deb bilgan. Shu asosda u sotsiologiyaning asosini biologiya emas, balki psixolgiya tashkil etishi kerak deb ta’kidlagan. «Dinamik sotsiologiya» va boshqa ishlarida Uord birlamchi sotsial kuch sifatida xohish-istakni ko‘rsatgan, jumladan, ochlik, chanqoqlik va jinsiy ehtiyojlar. Mazkur birlamchi xohish-istaklar asosida nisbatan murakkab, intellektual, axloqiy va estetik istaklar paydo bo‘ladi va ular jamiyat rivoji, ijtimoiy hayot yaxshilanishini ta’minlaydi.

Uord guruhiy maqsad va istaklar mavjudligini tan olib, bunga davlatni misol qilgan. Hozirgi kunda sotsial ong faoliyati talonchilikka teng va jamiyat hayoti uchun salbiy bo‘lgan xususiy monopoliyalar kabi kuchlarni

hali bartaraf yeta olmaydi. Ammo, keyinchalik raqobat va monopoliya ongli kooperasiyalarga o‘z o‘rnini bo‘shatib berishiga to‘g‘ri keladi. Demokratizm va Uordning antimonopolistik chiqishlari unga nisbatan reaksionerlarning salbiy kayfiyati va nafratini uyg‘otgan. «Dinamik sotsiologiya»ning rus tilidagi nusxasi 1891 yil uni xavfli deb topgan chor hukumatining maxsus qaroriga ko‘ra, yoqib tashlangan.

Franklin Genri Giddings Uordning qarashlari quvvatlagan. U 1894 yil AQShning Kolumbiya universitetida birinchi sotsiologiya kafedrasiga asos soladi. Giddings «Sotsiologiya tamoyillari», «Sotsiologiya elementlari», «Induktiv sotsiologiya», «Insoniyat jamiyatini o‘rganish», «Jamiyatni ilmiy tadqiq etish» kabi bir qator asarlar muallifi. U sotsiologiya jamiyatni bir butun holatda o‘rganib, uni fazoviy qonunlar va sabablar asosida tushuntirishga harakat qiladigan fan deya ta’riflagan. Spenserning fiklariga qo‘shilgan holda uni jamiyat nafaqat organizm, balki ko‘pincha ongsiz evolyutsiya va ba’zan «ongli reja» asosida paydo bo‘lgan tashkilot degan g‘oya bilan to‘ldirgan. Giddings jamiyatni fizik jarayon bilan ifodalangan psixik hodisa deb atagan. Shuning uchun sotsiologiya o‘zida ham subyektiv, ham obyektiv tushuntirishlarni mujassam etishi kerak.

Giddingsning o‘zi ko‘proq subyektiv, ya’ni psixologik tomonga e’tibor qaratadi. U «urug‘ ongi»ni «birlamchi va elementar» subyektiv sotsial fakt sifatida baholaydi. Bu bir tirik jonzotning boshqasini o‘z urug‘doshi sifatida tan olishini anglatadi. Giddings mazkur hodisani «sotsial ong» deb ataydi. U individlarning ruhiy birligini ta’minlagan holda o‘zaro munosabatlarda ularning individual xususiyatlarini cheklamaydi. Mazkur ong natijasida jamoatchilik fikri, madaniy odat, an’analar, guruhiy kayfiyat va sotsial qadriyatlar shakllanadi.

Birinchi jahon urushidan so‘ng yozilgan asarlarida Giddings o‘z fikrlarini bixeviorizm g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirmoqchi bo‘lgan va sotsiologiyada miqdoriy metodlar ahamiyatini ta’kidlab o‘tgan.

3. Uord va Giddingsning psixologik evolyutsionizmi sotsiologik qarashlar tarixida muhim iz qoldirdi. Lekin, instinktivizmning ta’siri nisbatan kuchsizroq bo‘ldi. Ma’lumki, individual va guruhiy xatti-harakatni tushuntirib bera oladigan inson shaxsidagi ichki bir yoki bir nechta determinantani aniqlash instinktivizmning asosi hisoblanadi.

XIX asrning ikkinchi yarmi G‘arb falsafasida inson harakatlarini irratsional va ongsiz asosga ko‘ra tushuntiruvchi irratsionalizm oqimi kuchaydi. Biologiya hayvonlarning instink asosidagi faoliyati mexanizmlarini ochib berish bilan mazkur tendensiyaga tabiiy-ilmiy asos

yaratgandi. Inson psixikasini tadqiq etish natijasida unda kuchli anglanmaydigan jarayon va tizimlar mavjudli aniqlandi.

Teodyul Ribo inson emotsiyalarini eksperimental usulda o‘rganishga asos soldi. Vyursburg maktabi psixolog olimlari (Karl Marbe, Iogannes Ort) ongning noaniq va qiyin tadqiq etiladigan holatini ko‘rsatib, u aqliy operasiyalar saralanishi va dnamikasi, shuningdek, inson ta’sirlanishini nazorat qilishi aniqlandi. Gipnoz holati va psixopatologiyani tadqiq etish ham olimlarni ongsizlik muammosi oldida qiyin ahvolga qo‘yardi.

Natijada XIX asr oxirida sotsial hodisalar ko‘pincha ongsiz «instinktlar», «intilishlar» va «impulslar» tushunchalarida interpritatsiya qilingan. «Instinkt» tushunchasi esa keng ma’noda qo‘llanilgan va organizm biologik ehtiyojlari, nasliy xatti-harakat dasturi va hatto istaklarni ifodalagan. Individ biologik instinktlari bilan bir qatorda guruhiy «sotsial » instinktlar aniqlangan.

Instinktivizmning yirik namoyondasi ingliz psixologi Uilyam Mak-Dugall (1871—1938) bo‘lib, u «Sotsial psixologiyaga kirish» (1908) kitobining muallifidir. Mak-Dugall barcha ijtimoiy fanlarning asosi sifatida «instinkt psixologiyasi»ni ko‘rgan. U instinkt deganda tug‘ma yoki tabiiy psixofizik moyillikni tushungan. Mazkur moyillik insonlarning e’tiborini ma’lum obyektlarga tortadi va individ o‘ziga xos emotsional holatga tushib, o‘sha obyektga nisbatan harakat qiladi yoki shunga impuls sezadi.

Har qanday birlamchi instinktning asosida ma’lum emotsiya yotadi. Misol uchun qochish instinktiga qo‘rquv emotsiyasi, qiziqish instinktiga hayratlanish emotsiyasi, urushish instinktiga g‘azab emotsiyasi, ota-onalik instinktiga mehr berish emotsiyasi asos bo‘ladi.

Jamiyat darajasida esa urushlarni olib borish insonlarning urushishga bo‘lgan moyilligi, boylik yig‘ish istagi kabilar asosida misol bo‘ladi. Dinning asosida qiziqish, jon fidolik va qochish kabi instinktlar kombinasiyasi va ota-onalikka xos emotsional reaksiyalar uyg‘unligi yotadi. Mak-Dugall to‘da instinktiga alohida e’tibor qaratgan. Chunki aynan shu instinkt ko‘pchilik jamiyat institutlarining asosida yotadi. To‘da instinkti shaharlarning o‘sishi, insonlar hayotining guruhlarda kechishi, ommaviy yig‘inlar kabilarda ko‘rish mumkin.

Ingliz jarrohi Uilfrid Trotter (1872—1939) o‘z asarida barcha sotsial hodisalar oxir oqibat to‘da instinkti bilan izohlanishini yozib, katta shuhrat qozongan. Ingliz sotsial isti Grem Uollas (1858—1932) esa psixologik tahlilni siyosat sohasiga kiritishga uringan va bunda loyallik instinktiga

katta e’tibor qaratgan. Chunki u davlat hokimiyatining faoliyatini ta’minlashi kerak.

Avstriyalik psixiatr Zigmund Freyd (1856—1939) esa inson xatti-harakatining universal determinantasi sifatida jinsiy mayl — libidoni ko‘rsatgan. Nevroz va individual psixika ichki konfliktlarini o‘raganishni boshlagan Freyd, keyinchalik «Totem va tabu» (1913) asaridan o‘z nazariyasini madaniyat tarixiga ham yoyaadi. Birinchi jahon urushi tajribasidan so‘ng esa u inson psixologiyasining ikki asosi o‘rtasidagi kurash haqida gapi radi. Bular Yeros – yashash, hayot instinkti va Tanatos – ongsiz ravishda o‘limga intilish.

4. Tilshunoslik va etnografiya ma’lumotlarini Iogann Fridrix Gerbartning psixologik nazariyasi bilan sintezlab o‘rgangan nemis olimlari Moris Lasarus (1824—1903) va Geyman Shteyntal (1823—1899) 1860 yilda yangi fan - «xalqlar psixologiyasi» yaratilganini ye’lo qilishdi. Shteyntalning e’tirof icha, kelib chiqishi bir va yagona yashash muhitiga ega bir xalq individlari «tanasi va ruhida o‘sha xalq tabiatiga xos belgilarga ega bo‘ladi». Tananing ruhga ta’siri ma’lum moyilliklar, istak, xohishlar, barcha individlarda bir xil bo‘lgan ruh xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Natijada ularning barchasi bir xil xalq ruhi, ya’ni psixologiyasiga ega bo‘lishadi. Shteyntal xalq ruhini bir millatga tegishli individlarning psixologik o‘xshashligii va shu bilan birga o‘zini anglashi deb tushunadi. Xalq ruhining tarkibi esa «tarixiy xalq psixologiyasi» va «psixologik etnologiya» doirasida o‘sha xalqning tili, afsonalari va madaniyati orqali ochib beriladi.

Shteyntal va Lasarus o‘z maqsadlarini amalga oshirib, mazkur sohada yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirolmagan bo‘lishsada ularning g‘oyasini Vilgelm Vundt davom ettirib, rivojlantirdi. Uning fikricha, yuqori psixologik jarayonlar, eng avvalo tafakkur insonlar jamiyatining tarixiy rivojlanishi natijasi va shuning uchun ular maxsus fan doirasida o‘rganilishi zarur.

Vundt avvalgi olimlar ilgari surgan individ va xalqning narsalarni anglashi (ongi) o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘xshashlik g‘oyasini inkor etadi. Individning hodisalarni anglashi jarayoni sezgining birlamchi elementlari emas, balki ularning sintezidan iborat bo‘ladi. Shunga ko‘ra, xalqning narsalarni anglashi ham individual anglashlar ijodiy sintezi natijasi bo‘lib, yangi reallik namoyon bo‘ladi.

Mazkur reallik til, afsonalar va axloq kabilarda o‘z ifodasini topadi. Ularni tadqiq etish uchun Vundt umrining so‘nggi 20 yilini ajratgan ekan.

Uning bu mashaqqatli mehnati 10 tomlik «Xalqlar psixologiyasi» asarida aks etdi.

5. XIX asr oxirida na individ psixologiyasi va na mavhum «xalq ruhi» sotsial hodisalarni o‘rganishdagi asosiy kalit bo‘la olmasligi aniq bo‘ldi. Bu o‘z navbatida guruhiy va ommaviy xatti-harakatni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni orttirdi.

Sotsiolog olimlarning omma psixologiyasiga bo‘lgan qiziqishi o‘zining g‘oyaviy asosiga ham ega bo‘lgan. Aniqroq qilib aytganda 1789, 1830, 1848 va 1871- yillarda bo‘lib o‘tgan revolyutsiyalar tufayli paydo bo‘lgan xavotir tuyg‘usi XIX asr boshlaridayoq mazkur xatti-harakat individning ijodkorligi va madaniyatga tahdid solishi ta’kidlangan edi.

Italiyalik kriminolog olim L. Sigele (1868—1913) «Jinoyatchi omma» va «Sektalar psixologiyasi» nomli asarlarida mazkur fikrni psixologik jihatdan asoslab bergan edi. U insonni tabiatan shafqasiz va jinoyatga moyil deb baholagan. Ommada mana shu moyillik yana ham yorqin namoyon bo‘ladi. Chunki insonning ratsional jihatdan o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishi susayadi va bu instinktlar uning atrofdagi yomonlikni yuqori darajada qabul qilishini ta’minlaydi.

XX asr arafasida fransuz shifokori Gyustav Lebon (1841—1931) ning «Omma psixologiyasi», «Xalqlar evolyutsiyasining psixologik qonunlari» kabi asarlari katta mashhurlikka erishdi. Lebonning fikricha, Yevropa jamiyati rivojlanishning yangi bosqichi - «omma asri»ga qadam qo‘ymoqda. Bunda shaxsning aqliy va tanqidiy fiklash xususiyati irratsional omma ongi tomonidan bostiriladi. «Omma» yoki «olamon» — bu insonlar guruhi bo‘lib, ular yagona makonga umumiy tuyg‘ulardan ruhlangan holda yig‘ilishgan va o‘z sardori ortidan istalgan joyga borishi mumkin.

Jumbushga kelgan ommaviy ongni hech qanday ratsional kuch bo‘ysundira olmaydi. Lebon ommadagi har bir insonning fikrlash tarzi uning umumiy kayfiyati asosida yo‘naltirilishini ta’kidlagan. Shaxs ommaning ichida qanchalik ko‘p qolsa, uning reallikni his qilish tuyg‘usi shu qadar kamayib boradi.

Demak, u omma sardoriga shu qadar moyil bo‘ladi va uning buyruqlarini bajaradi. Omma sardolari orasida psixologik og‘ish xususiyatlari yorqin namoyon bo‘lgan inosnlar ko‘p uchraydi. Shunga asosan Lebon har qanday revolyutsion harakatni, ayniqsa, sotsial izmni qattiq qoralagan. «Omma psixologiyasini bilish hukumat a’zosi qo‘lidagi so‘nggi qurol bo‘lib qoldi. Insonlarni boshqarishning imkoni yo‘q, shuning uchun bu qurolning maqsadi ommani boshqarish emas, balki

ularga o‘zlari ustidan haddan tashqari ko‘p erkinlik berib yubormaslikdir».

Lebon ko‘rsatgan anonimlik, psixologik zararlanish va insonning ommada ta’sirchanligining ortish kabi nazariy muammolar keyingi muhim ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarga turtki bo‘ldi.

Fransuz yuristi va sotsiologi Gabriyel de Tard (1843—1904) mazkur maktabning yirik namoyondasi bo‘lib, «Taqqoslama kriminologiya», «Taqlid qonunlari», «Sotsial mantiq», «Sotsial qonunlar», «Sotsial psixologiya bo‘yicha etyudlar», «Fikr va omma», «Iqtisodiy psixologiya» kabi bir qator kitoblar muallifidir. Faylasuf va sotsiolog olimlardan Monteske, Kont, Spenser, Mill va Kurno, shuningdek, Italiya kriminalistik maktabi (Chezare Lombrozo, Rafayel Garofalo, Enriko Ferri va boshqalar) Tard fikrlarining shakllanishida o‘z hissasini qo‘shishgan.

Ammo jinoyatchilikni irqiy va geografik sharoit asosida izohlovchi Italiya kriminalistlaridan farqli ravishda Tard uning ijtimoiy va psixologik omillariga asosiy e’tiborni qaratgan.

Tardning fikricha, sotsiologiya – bu «guruhiy psixologiya» va u quyidagi savollarga javob berishi kerak:

1) Kashfiyotlar, muvaffaqiyatli tashabbuslar va biologik adaptatsiyalarga anologik ravishdagi sotsial adaptatsiyalarning sababi nima?

2) Nega aynan shu tashabbuslar, boshqasi emas taqlidga sabab bo‘ldi? Boshqacha aytganda taqlid qonunlari qanaqa?

Tard bo‘yicha, elementar sotsial munosabatlar e’tiqod va hohishni birovga o‘tkazish hisoblanadi. Gipnozdagi uyqu buning eng sodda ko‘rinishidir. «Jamiyat - bu taqlid, taqlid esa o‘ziga xos gipnotizm».

U har qanday yangilikni individual ijod mahsuli deb biladi. Yangilikning muvaffaqiyatli adaptasiyasi «taqlid» ko‘rinishini oladigan qaytarishlar to‘lqinini paydo qiladi. Tard yangiliklarning taqlid asosida tarqalishini sxematik tarzda tasvirlaydi. Sxema markazdan uzoqlashayotgan doiralardan tashkil topgan. Taqlid doirasi boshqa taqlid markazidan boshlangan qarama-qarshi to‘lqinga uchragunga qadar to‘xtovsiz kengayish xususiyatiga ega. To‘qnashgan taqlid to‘lqinlari o‘rtasida kurash boshlanib, takrorlash taqlidlar qarama-qarshiligiga aylanadi. Bahsdan tortib, urushgacha bo‘lgan istalgan konfliktlar bunga xususiy misol bo‘la oladi. Keyinchalik qarama-qarshilik yangi adaptasiyaga joy beradi va yuqoridagi sotsial jarayonlarning butun sikli qaytadan boshlanadi.

Adaptatsiya, takrorlash va qarama-qarshilikdan iborat uch asosiy sotsial jarayonni qamrab olgan sotsiologiyaning umumiy qonunlarini Tard mantiqiy va mantiqiy bo‘lmagan turlarga ajratgan. Mantiqiy qonunlar sababli nima sababdan ba’zi yangiliklar tarqaladi, ayrimlari esa yo‘q, mazkur yangilikka bo‘lgan talab qanchalik etilgan, u mavjud bilimlar va tasavvurlar bilan uyg‘unlashganmi yoki ular bilan ziddiyatga kiradi kabi savollarni tushuntirib berishga intiladi. Mantiqiy bo‘lmagan qonunlar esa taqlid jarayoni qay tarzda kechishini ko‘rsatib beradi. Misol uchun jarayon markazdan chetga tomon rivojlanishi, yuqoridan pastga tomon siljishi, maqsadlardan vositalarga o‘tishini ko‘rsatishi mumkin.

Tardni sotsial psixologiyaning fan sifatidagi shakllanishining asoschilaridan biri deb tan olishgan. Taqlid nazariyasi intrapsixik jarayonlar doirasidan chiqadi va sotsiologik tadqiqot predmet va birligi sifatida alohida individni emas, balki shaxslararo o‘zaro ta’sirni ko‘rsatadi.

6. Interaksionizm[1] AQShda psixologizm va organisizm qo‘shilishi oqibatida paydo bo‘lgan. Uning diqqat markazida individlarningt o‘zaro munosabatlari yotadi. Mazkur harakatning subyekti sifatida namoyon bo‘luvchi shaxs ma’lum sotsial guruhga tegishli va ma’lum sotsial rollarni bajaruvchi sotsial mavjudot sifatida ko‘riladi. Jamiyat va individni qarama-qarshi qo‘yish g‘oyasi ularni bir butun va bir-birini ichiga kirib ketishi fikri bilan almashadi.

Mazkur yo‘nalishning yirik vakili hisoblangan Uilyam Djeyms (1842— 1910) shaxs «men»ining amaliy tarkibini aniqlab, unda uch elementni ko‘rsatgan:

1) O‘z ichiga tana, kiyim, oila va mulkni olgan moddiy «Men»;

2) Individning atrofdagilar e’tirof ini olishi, ya’ni ijtimoiy «Men»; bizni o‘rab turgan atrof muhitimiz bir xil bo‘lmagani va biz uchun fikri qadrli bo‘lgan insonlar guruhlari ham turlicha bo‘lgani uchun ijtimoiy «Men»ning ham turi ko‘pdir;

3) Ruhiy «Men», ya’ni indvidning psixik xususiyatlari va afzal ko‘rishlaridir.

Michigan universiteti professori Charlz Xorton Kuli (1864—1929) mazkur masaladagi o‘z yondashuvini «organik» deb nomlagan, ammo bunda u biologik organisizmni nazarda tutmagan. U avval boshdan jamiyat va shaxsning bir kelib chiqishga egaligi tarafdori edi. «Shaxs» va «jamiyat» ikki alohida mohiyat emas, balki insonlarning o‘zaro aloqasidan tashkil topgan tirik jarayonning ikki aspekti hisoblanadi. Mazkur

[1] Интеракционизм – инг. interaction – ўзаро таъсир

jarayonni shaxs, uning o‘zini anglashi yoki jamiyat institutlari va muloqot shakllarini qayd qilgan holda o‘rganish mumkin.

«Jamiyatni individlar yig‘indisidan ko‘proq narsa deyish mumkinmi? Ma’lum ma’noda, ha. Sotsial butunlikda alohida individlarning ba’zilarida ko‘rinmaydigan hayotiy jarayonning hosilalari mavjud. Ularni alohida o‘rganib, so‘ng umumlashtirgan holda jamiyatni bir butun holicha o‘rganish tadqiqotchini berk ko‘chaga olib kirib qo‘yadi. Kuli buni «individualizm» deb atagan.

«Ko‘zgudagi Men» konsepsiyasiga muvofiq inson «Men»i birinchidan, «boshqa odamlarda qanday taassurot qoldiraman», ikkinchidan, «mazkur boshqa inson mening obrazimni qanday baholaydi» va uchinchidan, yuqoridagi tasavvurlar oqibatida kelib chiqadigan g‘urur yoki tahqirlanish hissini sezadi.

Kulining fikricha, har bir sotsial anglash eng avvalo o‘zini anglashni bildiradi. Individ o‘z shaxsining sotsial aspektlari orqali jamiyatga baho beradi. Ammo individning sotsial anglashi butun jamiyatni anglashiga muvofiq kelmaydi. Chunki jamiyatni anglashi inson ichki dunyosidan tashqariga chiqadi. U nisbatan kengroq anglash (larger mind) bo‘lib, Kuli uni individual ongga qarshi holda «ijtimoiy ong» (public mind) tushunchasida ifodalagan. «Ijtimoiy ongning birligi uning o‘xshashaligida emas, balki tarkibiy elementlarining tashkillashtirilishi, o‘zaro ta’siri va sababiy bog‘liqligidadir». Sotsial tashkilotning asosi esa birlamchi guruh hisoblanadi.

Kuli birlamchi guruh sifatida bevosita aloqada bo‘lgan individlar kooperatsiyasi va assotsiatsiyasini ko‘rsatadi. Birlamchi guruhga kiruvchi insonlar o‘zlarini «Biz» deb atay oladi. Unga miso qilib oila, do‘stlar, qo‘shnichilik munosabatlarini ko‘rsatish mumkin. Aynan shu muhitda individ sotsial tegishlilik hissini sezadi va umumiy ideallarga ega bo‘ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Sotsiologiyada psixologik oqimlarning vujudga kelishining sabablarini tushuntirib bering
2. Qaysi sotsiologlar jamiyat rivojlanishini fazoviy evolyutsiyaning bir bo‘lagi deb bilishgan?
3. Lester Frank Uordning sotsiologik nazariyasini bayon eting
4. Psixologik evolyutsionizm ta’limotining mohiyati nima?
5. Sotsiologiya da instinktivizm nazariyasini mazmunini tushuntirib bering
6. Instinktivizm nazariyasining yirik namoyondasi kim edi?

7. Xalqlar psixologiyasi nazariyasining mohiyati nimadan iborat?
8. Sotsiologiyada guruhiy psixologiya va taqlid nazariyasi nima?
9. Interaksionizm nazariyasini asosiy g‘oyasi nimadan edi?

6-MAVZU. F.TYONNISNING SOTSIOLOGIK NAZARIYASI

REJA:

1. Ferdinand Tyonnisning sotsiologiyaga oid tadqiqotlari.
2. Tyonnis tomonidan jamoaviy va ijtimoiy munosabatlarning tahlili.
3. Tyonnis sotsiologik nazariyasida iroda talqini.
4. Tyonnisning shakllar sotsiologiyasiga oid nazariyasi.
5. Tyonnis ta’limotida formalizm va tarixiylik talqini.
6. Tyonnis sotsiologiya va siyosatning munosabati xususida.

1. Tyonnis 1855-yil 26-iyunda Oldensvort shaharchasi yaqinidagi Shlezvig degan joyda, boy dehqon xonadonida tug‘ilgan. U 1872 yil Strasburgdagi universitetga o‘qishga qabul qilinadi va universitet ta’limini 1875 yil Tyubingenda klassik filologiya bo‘yicha dissertatsiya ishini yoqlab, tamomlaydi. Keyinchalik uning ilmiy qiziqishi ortib, ko‘p sohalarni qamrab oldi.

1880-90-yillarda Tyonnis XVIII—XIX asr ijtimoiy falsafasini o‘rgandi. Natijada 1896- yil Gobbsga bag‘ishlangan asarini nashr qiladi.

Shuningdek, Leybnis, Spinoza, Nitsshe, Spenser, Marks va boshqa olimlar to‘g‘risida bir qator maqolalar yozdi. Uning bu izlanishlari keyinchalik ham davom etdi. Uning mahsuli bo‘lmish «Marks hayoti va ijodi» asari 1921 yilda dunyo yuzini ko‘rgach, ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan .

Gobbs merosini o‘rganish Tyonnisning tarix va huquq falsafasiga bo‘lgan qiziqishini orttirdi. Uning o‘z nazariyasi 1881 yilda yozilgan «Jamoa va jamiyat» asarida ifodasini topdi. Tyonnisning bu kitobi keyinchalik bir necha bor qayta to‘ldirilib, nashr etilgan . Aynan u olim sotsiologik konsepsiyasining asosini tashkil etadi.

Tyonnis sotsial statistikaga ham qiziqqan. Jumladan, jinoyatchilik, qashshoqlik, o‘z-o‘zini o‘ldirish kabi muammolarni o‘rgangan. 1909-yilda «Jinoyatchilik sotsial hodisa sifatida» nomli kitobini nashrdan chiqaradi. Shuningdek, nazariy sotsiologiya sohasida esa «Axloq» (1909), «Jamoatchilik fikrining tanqidi» (1922), «Mulkchilik» (1926), «Progress

va sotsial rivojlanish» (1926), «Sotsiologiyaga kirish» (1931) kabi kitoblar yaratgan.

Keng nazariy, empirik va publitsistik faoliyatiga qaramay Tyonnis akademik maqomga kech erishdi. U 1913-yilda Kil universiteti professori bo‘ldi. 1910-yil Frankfurtda nemis sotsiologik jamiyatini tuzish borasidagi yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Tyonnis mazkur jamiyat asoschilaridan biri sanaladi. 1921- yilda esa u nemis sotsiologik jamiyatining prezidenti yetib saylanadi va 1933-yil natsistlar bu tashkilotni yopmaguncha uni boshqargan.

Sotsial -demokratik siyosat ruhida shakllanagan Tyonnis Veymar respublikasi tarafdori bo‘lgan va natsional-sotsializm bilan kurashgan. U jamiyat a’zolarini «varvarlik girdobiga tushish» xavfidan ogohlantirish niyatida omma oldida chiqishlar qilgan.

Tyonnis 1936 yil 11 aprelda Kil shahrida vafot etgan.

2. Tyonnisning «Jamoa va jamiyat» asari asosiy g‘oyasi jamoaviy (gemeinschaftliche) va ijtimoiy (gesellschaftliche) munosabatlarni tahlil qilishdan iborat. Birinchi turdagi munosabatlarga emotsiya, ruhiy yaqinlik, bog‘liqlik kabilar xos bo‘lib, faoliyat ongli va emotsiyalar ta’sirida ongsiz bo‘lishi mumkin.

Tyonnis jamoaviy munosabatlarning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatgan:

1) urug‘-aymoqchilik munosabatlari;

2) qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari;

3) do‘stlik munosabatlari.

Ijtimoiy, ya’ni jamiyat munosabatlari esa o‘zgacha xarakterga ega. Uning asosini ratsionallik, bosh tamoyilini esa ratsional ayirboshlash tashkil etadi. Bu turdagi munosabatlar jamoa a’zolari o‘rtasida kam bo‘lishi mumkin. Ammo ular bir-biriga begona bo‘lgan individlar, hatto dushmanlar o‘rtasida ham bo‘lishi mumkin. Jamiyat munosabatlari o‘zaro manfaat mavjud bo‘lganda bog‘lanadi.

Mazkur ikki turdagi munosabatlar nafaqat insonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati, balki ularning jamiyatga bo‘lgan munosabati bilan ham farqlanadi. Jamoada sotsial butunlik mantiqan qismlarga sabab bo‘ladi, jamiyatda esa aksincha, u qismlardan tashkil topadi. Turli jamoa va jamiyatlar – bu sotsial butunlikni tashkil etuvchi qismlarning organik va mexanik birligi.

3. Yuqoridagi ikki tur munosabatlarining asosini ikki turdagi iroda tashkil etadi. Tyonnis ularni **Wyesenwille** va **Kurwille** deb nomlagan. Birinchisi — bu mohiyat irodasi, ya’ni butunlik irodasi bo‘lib, ijtimoiy

hayotning istalgan jihatini aniqlab beradi. Ikkinchi irodada esa integratsiyalovchi omil o‘zgacha ko‘rinishda bo‘lib, ijtimoiy iroda nimjonlashadi va bir qancha alohida shaxsiy irodalarga bo‘linib ketadi.

Tyonnis inson xatti-harakati psixologik iroda ishtirokisiz bo‘lmaydi desa ham uning konsepsiyasi psixologik ma’noga ega emas. U sotsiologiyani ratsionalistik jihatdan tushuntirgan va bu uning individ sotsial xatti-harakatini tushuntirishida ham o‘z ifodasini topdi. Tyonnis sotsial harakatni tahlil qilishda Maks Veber kiritgan sotsial harakat tipologiyadan (maqsadga yo‘naltirilgan, qadriyatli ratsional, affektiv, an’anaviy) foydalangan. Unga ko‘ra, maqsadga yo‘naltirilgan sotsial harakat asosida Kurwille irodasi, qolgan uch sotsial harakat turida esa Wyesenwille namoyon bo‘ladi. Demak, Tyonnis ikki turdagi irodani ongning ratsional faoliyati orqali ajratgan.

4. Tyonnisning asosiy asari bo‘lmish «Jamoa va jamiyat» olimning o‘zi tomonidan bekorga «Madaniyat falsafasi nazariyasi» deb atalmagan. Unda ishlab chiqilgan «jamoa» va «jamiyat» tushunchalari uning formal sotsiologiyasi konsepsiyasining yaratilishidagi ilk qadam edi. Olimning o‘zi formal sotsiologiyani sof sotsiologiya deb nomlagan. Tyonnis individlar manfaatlari va qiziqishlaridan xoli, ya’ni formal sotsiologiya universal va umumahamiyatga ega bo‘lgan sotsial bilishga etish imkonini beradi deb o‘ylagan.

Ratsionalistik metodologiyaning birinchi talabi mantiqiy qat’iy tadqiqotni ta’minlash maqsadida sotsial hodisalarni obyektivlashtirish edi. Obyektivlashtirish qurollari sifatida mavhumlashtirish, ideallashtirish, ideal tiplarni yaratish namoyon bo‘lgan. Olingan tiplar absolyutlashtirilmagan, balki ular o‘ziga xos «namuna» sifatida ko‘rilib, real hayot unga ko‘ra taqqoslangan va sotsiologik jihatdan o‘rganish imkoni paydo bo‘lgan.

Tyonnis o‘z sotsiologiyasini asoslagan boshlang‘ich idealizatsiya o‘z ichiga ikki mavhum tushunchani olgan. Jamoa va jamiyat olimning sotsial formalari tasnifining asosiy mezonlariga aylangan. Umuman olganda, Tyonnis shu kabi mezonlarning tartiblangan tizimini yaratmoqchi bo‘lgan.

Shunga ko‘ra, sotsial hayot shakllari va ijtimoiy mohiyat uch tipga ajratilgan:

1) sotsial munosabatlar;

2) guruhlar;

3) korporatsiya yoki birlashmalar.

Sotsial munosabat faqatgina munosabat ishtirokchilari tomonidan anglangan yoki his qilinganida emas, balki uning zaruriyat ekanligi

tushunilib, oqibatda ishtirokchilarning o‘zaro huquq va majburiyatlari aniqlanganida mavjud bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, sotsial munosabatlar – bu obyektiv xarakterga ega bo‘lgan munosabatlar.

Ikkidan ortiq inson ishtirokidagi sotsial munosabatlar «sotsial davra»ni tashkil etadi. Sotsial davra munosabatlardan guruhga o‘tish bosqichini tashkil etadi. Guruh uning a’zolari mazkur individlar birlashuvini ongli ravishda ma’lum maqsadga etishish yo‘lida zaruriy deb topganida tashkil topadi. Keyinchalik mazkur guruhda ichki tashkillashtirish, ya’ni a’zolar funksiyalarining taqsimlanishi jarayoni kechib, mazkur sotsial formani korporatsiya yoki birlashma deb atash mumkin.

Munosabat, guruh va birlashmaga tasniflashda inson munosabatlarining «hukmronlik - birodarlik» mezonini qo‘llangan. Shundan keyingina tasniflash natijasida olingan tiplar nisbatan yirik «jamoa» va «jamiyat»ga xoslik mezonlari bo‘yicha ajratiladi.

Tyonnis sotsial normalarni ham tasniflagan. Unga ko‘ra, sotsial normalar quyidagi turlarga ajraladi:

1) sotsial normalar
2) huquqiy normalar
3) axloqiy normalar.

Sotsial normalar kelishuv va konvenisiyaga asoslangan eng umumiy tartibdagi normalardan tashkil topadi. Tartib normalari faktlarning normativ kuchiga tayanadi. Tyonnis huquqni odatlar yoki formal qonunchilik asosida tashkil topadi deydi. Axloq esa din yoki jamoatchilik fikri asosida paydo bo‘ladi. Ko‘rsatilgan barcha normativ normalar o‘z navbatida «jamoa» va «jamiyat»ga xos bo‘lganlarga bo‘linadi. Barcha turdagi normalarning farqlari «ideal-tipik» yoki analitik xarakterga ega. Real hayotda ular sof holda uchramaydi. Barcha sotsial formalarning normativ tizimlari normalar, tartib, huquq va axloqdan tashkil topadi.

5. Doimiy ravishda ajratib ko‘rsatilgan formalar jamoa va jamiyatga xosligi jihatidan ajratilmaganida, yuqorida keltirib o‘tilgan barcha tiplar notarixiy va mavhum xarakterga ega bo‘lardi. Mazkur tamoyilning aniq sotsial hodisalar tahlili uchun qo‘llanilishi tarixiy rivojlanish voqealarini payqash va konseptual yoritish imkonini berdi. Yuqorida keltirilgan tasniflarning, jumladan, jamoa va jamiyat tushunchalarining amaliy ahamiyati anna shundan iborat edi.

Sotsial fenomenlarni ularning rivojlanishi nuqtayi nazaridan tahlil qilishni Tyonnis amaliy sotsiologiya deb atagan. Amaliy sotsiologiya Tyonnis davomchilari tomonidan «tarixning ilmiy falsafasi» sifatida

o‘rganiladi. Olimning o‘zi esa amaliy sotsiologiyaning maqsadini nisbatan tor doirada ifoda etgan.

Agar sof sotsiologiya sotsial hodisa, jarayonlarni tinch, ya’ni statik holatda tushunish va tasvirlash bilan shug‘ullansa, amaliy sotsiologiya dinamik holat, ya’ni ularni harakatda tadqiq etadi. Tyonnis amaliy sotsiologiyaning usuli sifatida tushunchalar antinomiyasi tamoyilini ko‘rsatgan. Sotsial munosabatlarning asosida yotuvchi iroda va aqlning dialektik aloqadorligida Tyonnis ko‘proq aqlni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Chunki jamiyat rivoji ratsionallikning o‘sib borishi evaziga sodir bo‘ladi. Ijtimoiy rivojlanishning jamoadan jamiyatga tomon borishi shu bilan izohlanadi.

«Ratsionallikning paydo bo‘lishi, deb yozadi Tyonnis, - jamoa yoki birgalikda yashashning nisbatan qadim shakli asosida jamiyatning paydo bo‘lishiga olib keladi». Shu nuqtayi nazardan, Tyonnis muhim tarixiy materialni turli sotsial tizimlarning rivojlanish dinamikasi orqali o‘rganadi, zamonasining sotsial muammolarini tadqiq qiladi.

6. Fanni pozitivistik jihatdan tushunish uning siyosatdan mustaqil bo‘lishini taqozo etardi. Tyonnis o‘z ijodida sotsiologiya va siyosat munosabatlariga keng e’tibor qaratgan. Muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarnii bekitish yoki ulardan qochish sotsial qadriyatlarni o‘rganishdan bosh tortish degani emas. Tyonnis aynan ma’lumotlarning sotsiologik, ilmiy, obyektiv o‘rganilishi siyosatga siyosiy faoliyatning ilmiy ishlab chiqilgan va asoslangan shaklini taqdim qiladi, deb hisoblagan. «Inson ma’lum natijalarga erishishi uchun nima qilishi kerakligi ilmiy asosda ko‘rsatib berilishi lozim. Bunday ta’limotlar mustaqil fan hisoblanmaydi. Ular aynan fan emas, balki hunar, texnologiyadir», deb yozadi Tyonnis. Siyosat ana shunday hunarlardan biri. U boshqa fanlar olgan ma’lumotlarni o‘z doirasida ishlatadi. Ularning farqi shundaki, fan qadriyatlarni o‘rganish obyektiga aylantiradi, siyosat uchun esa qadriyatlar faoliyat asosi hisoblanadi.

«Ilmiy nuqtayi nazardan qandaydir aniq maqsad qo‘yilgani yoki qo‘yilmagani u qadar muhim emas. Amaliyotchi esa aniq bir maqsadga yo‘nalgan bo‘ladi va unga etishish mumkinligini, uning yo‘llarini ilmiy asoslangan holda bilgisi keladi. Tadqiqotchi sabab va oqibatlar bilan ish ko‘radi. Inson fanlarni faqatgina o‘rganadi. Amaliyotdagi odam esa faoliyatda bo‘lishni istaydi».

Tyonnis fanni siyosatdan ajratishga intilgan bo‘lsa-da, siyosatni fandan ajratmagan. U aksincha siyosatni ilmiy asosga ega bo‘lishi tarafdori edi. Tyonnisning siyosatchi sifatidagi faoliyati, tanlagan

yo‘nalishi, maqsad va ijtimoiy ish vositalari to‘laligicha uning sotsiologik ta’limotiga asoslangan edi.

Amaliy sotsiologiya doirasida ifoda etilgan ijtimoiy rivojlanish natijasidagi tabiiy ravishda ratsionallikning ortishi demokratiya uchun va tabaqalar, feodal qarashlarga qarshi kurashni taqozo etgan. Tyonnis proletariatning ma’rifatli bo‘lishini XVII—XVIII asrlarda bo‘lib o‘tgan burjua qatlamining ma’rifatlashuvining davomi sifatida qabul qilgan. Shuning uchun olim sotsial -demokratik va ishchilar harakatlarida faol ishtirok etgan, so‘z erkinligi uchun kurashib, kasaba uyushmalari tashkil etishni qo‘llab-quvvatlagan. 1896-97- yillarda bo‘lib o‘tgan mashhur Kil shahridagi stachkada esa qo‘zg‘olonchilar tarafida kurashgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Ferdinand Tyonnisning sotsiologiyaga oid tadqiqotlarining xususiyatini bayon eting
2. Tyonnisningi “Jamoa va jamiyat” asarida qanday g‘oya ilgari suriladi?
3. Tyonnis tomonidan jamoaviy va ijtimoiy munosabatlarning qanday tahlil qilingan?
4. Tyonnis sotsiologik nazariyasida iroda qanday talqin qilinadi?
5. Tyonnisning shakllar sotsiologiyasi oid nazariyasini tushuntirib bering.
6. Sotsial normalar tasnifi xususida Tyonnisning yondashuvini tushuntirib bering
7. Tyonnis ta’limotida formalizm va tarixiylik munosabati qanday talqin qilinadi?
8. Tyonnis sotsiologiya va siyosatning munosabati xususidaga mulohazalarini izohlab bering

7-MAVZU. G.ZIMMELNING FORMAL SOTSIOLOGIK NAZARIYASI

REJA:

1. Georg Zimmelning sotsiologik tadqiqotlari.
2. Zimmel tomonidan ishlab chiqilgan sotsiologiyaning usuli, predmeti va vazifalari.
3. Zimmelning formal sotsiologik nazariyasi.

1. Zimmel sotsiologiyasi tarixchi va nazariyotchi olimlar tomonidan turlicha baholanadi. Kimdir uning g‘oyalarini butkul rad yetsa, boshqalar uning nazariyalari sotsiologiya rivojiga yetarli darajada turtki bergan degan xulosaga kelishgan.

Georg Zimmel 1858-yilning 1-martida Berlin shahrida dunyoga kelgan. Gimnaziyani bitirgach, u Berlin universitetiga o‘qishga kiradi. Mazkur bilim dargohida mashhur tarixchi olimlar Mommzen, Droyzen va Treychke, psixologlar Lasarus, Shteyntal va Bastian, faylasuflar Xarm va Seller dars berishgan. Ular Zimmelning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

1881- yil u I. Kantga atalgan dissertatsiyasi tufayli falsafa bo‘yicha doktorlik darajasini olgan. To‘rt yil o‘tib esa Zimmel privat-dosent etib tayinlangan. 15 yildan keyin u ekstraordinar (noshtat) professor sifatida faoliyatini olib boradi. 1914-yildagina Zimmel Strasburg universitetida to‘liq professorlik lavozimida ishlashni boshlaydi.

U bu yerda mantiq, falsafa tarixi, metafizika, etika, din falsafasi, san’at falsafasi, sotsial psixologiya, sotsiologiya va Kant, Shopengauyer, Darvinlarning ta’limoti bo‘yicha maxsus kurslarni o‘qitgan. Zimmel 26-sentabr 1918- yilda vafot etgan.

Zimmel ijodini adekvat tushunishda uch narsa to‘sqinlik qiladi. Bular olimning fikrlar evolyutsiyasining o‘ta murakkabligi, qiziqishlarining kengligi va xilma-xilligi, ko‘p asarlarini sistematik emas, balki esse shaklida bitilgani bilan izohlanishi mumkin.

Zimmel nafaqat sotsiolog, madaniyat falsafasining yirik namoyondasi, balki san’at nazariyotchisi ham bo‘lgan. U sotsial psixologiya, etika, siyosiy iqtisod, shahar, din va jins sotsiologiyasi kabi sohalarda ijod qilgan. Zimmel izlanishlar olib borgan har bir sohasida o‘z sotsiologik qarashini to‘ldirgan va aniqlashtirgan jihatlarni topgan. U o‘z fikrlarini kamdam-kam tarzda sistemalashtirgan. Shuning uchun uning

sotsiologik konsepsiyasi turli maqola, esse va asarlari bo‘yicha yoyilgan desa ham bo‘ladi.

Aslini olganda Zimmel ko‘rib chiqqan barcha muammolar va uning qiziqishlari sotsiologiyaning predmeti, usuli va vazifalari borasidagi tasavvurlari orqali bir butunga birlashtirilgan.

Georg Zimmelning asosiy asarlari:

1. «Sotsial differensiasiya. Sotsiologik va psixologik tadqiqot» (1890)
2. «Tarix falsafasi muammolari» (1892—1893)
3. «Axloqshunoslikka kirish» (1892—1893)
4. «Pul falsafasi» (1900)
5. «Din» (1906)
6. «Sotsiologiya» (1908)
7. «Madaniyat sotsiologiyasi» (1911)
8. «Gyote» (1913)
9. «Rembrandt» (1916)
10. «Sotsiologiyaning fundamental savollari» (1917).

2. Zimmelning fikricha, sotsiologiya ijtimoiy fanlar bugungi kunga qadar o‘rganmagan tadqiqot obyektini tadqiq etmaydi, ammo u barcha fanlar uchun yangi yo‘l – fan usulini aniqlaydi. Boshqacha aytganda u boshqa fanlar usullari vositasida tahlil qilib bo‘lmaydigan qonuniyatlarni aniqlash va anglashni o‘ziga maqsadi qilib olgan. Turli fanlarda ishlatiladigan sotsiologik usulning tugal maqsadi ijtimoiy fanlarning umumiy predmetidan sotsiologiyaning predmetiga aylanadigan o‘ziga xos omillar- «sosiasiyalar sof shakli»ni aniqlashdan iborat. Sosiasiyalarning sof shakli aniqlangach, ularning tartiblanishi va sistemalashtirilishi, tarixiy rivojlanish sharoitida ularning psixologik asoslanishi va tasvirlab berilishi bosqichi amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Turli ijtimoiy fanlar doirasida sotsiologik usulnig qo‘llanilishi, ya’ni ularning an’anaviy predmeti doirasida o‘ziga hos qonuniyatlarni aniqlashni Zimmel umumiy sotsiologiya deb atagan.

Sosiasiyalarning sof shaklini tasvirlash va sistemalashtirishni esa sof yoki formal sotsiologiya deb nomlagan. Sof sotsiologiya turli ijtimoiy soha tadqiqotchilariga o‘rganish predmetlariga sotsiologiya nuqtayi nazardan yondashish, muammolarni qo‘yish va ularni yechishda yo‘nalish ko‘rsatishi kerak edi. U «alohida sotsial fanlarning bilish nazariyasi» sifatida boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan metodologik vazifani bajarishi lozim. Sotsial bilish tizimi o‘z ichiga ikki falsafiy fan: sotsiologik bilish nazariyasi va sotsial «metafizika»ni qamrab olgan.

Shunday qilib, Zimmel umumiy, formal va falsafiy sotsiologiyadan iborat uch bosqichli sotsial bilish konsepsiyasini yaratdi. Uning mazkur dasturi o‘z davri uchun yetarlicha progressiv xarakterga ega edi. Uning paydo bo‘lish davri sotsiologiyaning institutlashuvi va kasb sifatida shakllanayotgan davriga to‘g‘ri keldi. Shuning uchun sotsiologiyaning o‘rganish predmeti dolzarb masala hisoblangan.

Zimmelning fikricha, uning konsepsiyasi ijtimoiy fanlar va sotsiologiya o‘rtasidagi fanlararo munosabatlarni qat’iy belgilash imkonini bergan. Shu bilan birgalikda u sotsiologiyaning fan sifatida bir butunligi va ijtimoiy fanlar birligini ta’minlagan.

3. Forma (shakl) va u bilan chambarchas bog‘liq tarkibi Zimmelning sof, ya’ni formal sotsiologiyasining asosiy tushunchalari hisoblanadi. U o‘zining nisbatan erta yozilgan asarlaridan birida jamiyat tarixini psixik hodisalar tarixi sifatida baholagan. Shu bilan birgalikda u har bir psixik hodisani ikki jihatan ko‘rib chiqqan: psixik akt sifatida (istak, xotirlash, tasdiq) va har bir akt nima bilan bog‘liqligi, ya’ni nima yeslanishi, tasdiqlanishi va hokazolar. Zimmelning fikricha, psixik aktning oxirgi jihati e’tiborga olinmasa, ongning obyektiv, ya’ni psixologik bo‘lmagan mazmunini olish mumkin.

O‘z navbatida shakl u bajaradigan vazifalarga ko‘ra aniqlanadi. Zimmel shu o‘rinda quyidagi vazifalarni ko‘rsatgan:

1) shakl bir butunni tashkil etuvchi bir nechta tarkibiy elementni o‘zaro nisbatlaydi, bog‘laydi;

2) bir shaklga kirgan tarkibiy elementlar o‘zaro birikishi bilan boshqa shakllardan ajralib turishadi;

3) shakl uning tarkibiga kirgan elementlarni bir strukturaga keltiradi.

Sotsiologiyada esa shakl va tarkib nisbatini «materiya»ning sotsial munosabatlar, ya’ni individning maqsadlari, intilishlari, ehtiyojlariga va o‘zaro sotsial munosabatlar tuzilishi nisbatida qo‘llanilgan.

Formal sotsiologiyaning vazifasi yaxlit sotsial hodisani ikkiga ajratish emas, balki jamiyatni insonlararo, individlararo hodisa sifatida o‘rganishdir. Boshqacha qilib aytganda, sotsiatsiya shakli qiyoslangan holda tarixiy jihatdan tarkibiy tasvirlash obyektiga aylanishi kerak edi.

Zimmelning maqsadi sotsial shakllarning umumiy tasnifini yaratish emasdi. Ammo u sotsial hayotning ko‘p jihatlarini o‘rganib, ularni «real» hayotdan olingan shakllar sifatida ajratib ko‘rsatdi: hukmronlik, bo‘ysunish, raqobat, mehnat taqsimoti, partiyalarning tashkil topishi kabilar shunga misol bo‘ladi. Aytib o‘tilgan barcha shakllar Zimmelning nazarida, o‘ziga xos guruh va sotsial tashkilotlarda ishlab chiqiladi va

o‘ziga xos ma’no bilan yo‘g‘riladi. O‘z navbatida sotsial tashkilot va guruhlar ham shakl sifatida talqin qilinishi mumkin. Davlat yoki diniy tashkilot, iqtisodiy uyushma, fitnachilar guruhi, oila va maktab kabilar bunga misol bo‘ladi. Zimmel mazkur shakllarni o‘rgangan holda olingan bilimlarni «Sotsiologiya» nomli asariga birlashtirgan.

Zimmelning sotsial jarayonlarni shakl sifatida tahlil qilganini uning moda hodisasini o‘rganishida ko‘rishimiz mumkin. Uning nazarida moda bir vaqtning o‘zida ham taqlid, ham individualizasiyani taqozo etadi. Modaga rioya qiladigan odam o‘zini boshqalardan ajratishi bilan shu paytning o‘zida biror – bir tabaqa yoki guruhga tegishli ekanini namoyish etadi. Olim modaning individualizatsiyasiz mavjud bo‘lmasligini aytadi va buni primitiv jamiyatlar misolida isbotlaydi. Bunday jamiyatlarda maksimal darajada bir xillik kuzatilgan. Demak, o‘zini boshqalar orasidan ajratib ko‘rsatishga intilish bo‘lmas ekan, moda ham mavjud bo‘lmaydi.

Xuddi shunga monand ravishda nisbatan kichik guruh vakillari tomonidan boshqariladigan jamiyatlarda boshqaruvchi oligarxiya vakillari bir xil va odmi kiyimlar kiyishadi. Chunki o‘zlarini omma oldida ko‘z-ko‘z qilishdan qochishadi. Modaning taqlid va guruhga tegishli bo‘lish xususiyatini esa guruhiy normalar inqirozga yuz tutgan jamiyatlarda modaning yo‘qligi bilan isbotlangan. Misol uchun Florensiyada XIV asrda har bir odam o‘zining kiyinish uslubiga ega bo‘lgan. Chunki guruh bo‘lib birlashishga intilishning yo‘qligi, modaning vujudga kelishini taqozo yetmagan.

Zimmel modaning borgan sayin keng tarqalishini eski va e’tiqod deb qabul qilingan qarashlar va an’analarning tanazzulga uchrashi bilan izohlagan. Natijada vaqtincha va o‘tish davri shakllari ularning o‘rnini bosmoqda. Ammo u yoki bu aniq modaning vaqtinchalik bo‘lishiga qaramay u sotsial shakl sifatida o‘ziga xos doimiylikka ega, ya’ni moda har doim ma’lum shaklda mavjud bo‘ladi.

Zimmel tadqiq etgan ikkinchi sotsial shakl sotsial tip bo‘lib, u insonning ma’lum munosabatlarga kirishib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishini nazarda tutadi. Mazkur xususiyatlar inson mohiyatini belgilab, munosabatlar qanday bo‘lishidan qat’iy nazar doim namoyon bo‘ladi. Zimmel kambag‘al, orsiz, engiltag ayol, aristokrat kabi sotsial tiplarni o‘rgangan.

Misol uchun aristokrat sotsial tipi ikki bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan xarakteristikalarni birlashtirgan. Bir tomondan u butunligicha o‘z guruhiga, sulolasi an’analariga bo‘ysunadi. Chunki u mazkur sulolaning

a’zosi va davomchisi hisoblanadi. Boshqa tomondan esa u mustaqillikka intiladi.

Zero, kuch, erkinlik va shaxsiy mas’uliyat aristokratiyaga xos bo‘lgan an’anadir. Zimmel o‘rgangan uchinchi sotsial shakl rivojlanish modeli bo‘lib, unda guruh a’zolarining ko‘payishi natijasida uning a’zolarining individualligi ortib boradi. Olimning yozishicha, guruhning borgan sari kengayishi, uning a’zolari o‘rtasidagi o‘xshashlikning tobora kamayib, yo‘qolib borishiga olib keladi. Individuallikning o‘sib borishi esa o‘z navbatida guruh degradasiyasiga sabab bo‘ladi. Va aksincha, guruh qanchalik kichik bo‘lsa, a’zolarining individuallik darajasi shu qadar past bo‘ladi.

Insoniyatning tarixiy rivojlanish jarayoni individuallikning ortib borishi bilan izohlanadi. Yirik oilalar teng huquqli individlar va nuklear oilalar, sexlar va qon-qarindoshlik tashkilotlari esa yuqori individuallikka asoslangan fuqarolik jamiyatlari bilan o‘rin almashadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Georg Zimmelning sotsiologik tadqiqotlarining asosiy xususiyatlarini tushuntirib bering

2 Zimmel tomonidan ishlab chiqilgan sotsiologiyaning usuli, predmeti va vazifalarini mohiyatini ttushuntirib bering

3. Zimmelning formal sotsiologik nazariyasini ng mazmuni nimadan iborat?

4. Zimmel umumiy, formal va falsafiy sotsiologiyasini mohiyatini yoritib bering.

5. Zimmel shaklning vazifalarini qanday tushuntiradi?

6. Zimmelning sotsial jarayonlarni shakl sifatida tahlil qilishda nimaga e’tibor qaratadi?

8-MAVZU. E.DYURKGEYMNING SOTSIOLOGIK NAZARIYASI

REJA:

1. Emil Dyurkgeymning sotsiologik tadqiqotlari va asarlar
2. Emil Dyurkgeym sotsiologiyaning predmeti xususida.
4. «Sotsiologizm» nazariyasi – Dyurkgeym sotsiologiyasining falsafiy asosi.
5. Dyurkgeymning «O‘z – o‘zini o‘ldirish» asaridagi asosiy g‘oyalar.

1. Emil Dyurkgeym fransuz sotsiologi va faylasufi, pozitivist sifatida Kontga ergashgan olim. U fransuz sotsiologiya maktabining asoschisidir. Dyurkgeym sotsiologiya jamiyatni alohida ma’naviy reallik sifatida o‘rganishi kerak deb bilgan. Uning fikricha, har qanday jamiyat guruhiy tasavvur va tushunchalarga asoslanib yashaydi. Dyurkgeym bu borada sotsial faktlar tushunchasini kiritib, uni sotsiologiyaning o‘rganish obyekti sifatida ko‘rsatgan.

Emil Dyurkgeym 1858 yil 15 aprelda Fransiyaning shimoli-sharqidagi Epinale shahrida, u qadar boy bo‘lmagan ruhoniy (ravvin) oilasida tavallud topgan. Dyurkgeym ajdodlarining barchasi ruhoniy o‘tgani bois yoshligida bu nomni olish uchun diniy bilimlarni egallagan. U qadim yahudiy tili, Tavrot va Talmudlarni yaxshi bilgan. Ammo, u o‘z aqli bilan ish ko‘ra boshlagach, ruhoniy bo‘lishdan voz kechgan.

Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, uning bu qarorga kelishida katolik bo‘lgan maktab o‘qituvchisining ta’siri bor. Chunki Dyurkgeym qanchadir payt mistik xarakterga ega katolisizmga katta qiziqish bildirgan. Lekin u katolik ham, ateist ham bo‘lmagan. U bir umr agnostik qarashda bo‘lib qoldi. Doimiy ravishda dinning axloqiy va ijtimoiy o‘rni to‘g‘risida ta’kidlab, o‘z e’tiqodi sifatida fanlarni umuman va alohida sotsiologiya fanini ko‘rgan.

U 1882- yil Normal maktabini bitirib, bir necha yil davomida viloyat liseylarida falsafadan dars bergan. 1887- yil Dyurkgeym «ijtimoiy fan va pedagogika»dan dars beruvchi sifatida Bordo universitetining filologiya fakultetiga ishga tayinlangan. Mazkur ilm dargohida 1896 yildan boshlab, u Fransiyadagi ilk sotsiologiya kafedrasi - «Ijtimoiy fan» ning mudiri bo‘lgan. Emil Dyurkgeym 1898–1913 yillar davomida «Sotsiologik yilnoma» jurnalini chiqargan. Bu sotsiologiya bo‘yicha dunyodagi ilk ixtisoslashgan ilmiy jurnal edi. Mazkur nashr xodimlari «Fransuz

sotsiologik maktabi» jamiyatini tuzib, uning markaziy muammosi sifatida sotsial birdamlik to‘g‘risidagi ilmiy savolga javob berish edi.

1902 yildan Dyurkgeym Sarbonnada dars bera boshlagan. U bu yerdagi «Tarbiya va sotsiologiya fanlari» kafedrasini boshqargan. Yemil Dyurkgeymning eng mashhr asarlari sarasiga «Sotsiologiya elementlari» (1889), «Ijtimoiy mehnat taqsimoti» (1893), «Sotsiologning usul qonunlari» (1895), «O‘z-o‘zini o‘ldirish» (1897), «Diniy hayotning elementar shakllari» (1912), «Sotsiologiya va falsafa» (1924) va h.z.lar kiradi.

Olim hayotligida uning «Ijtimoiy mehnat taqsimoti» (1893), «Sotsiologiya usuli (metodi)» (1895), «O‘z-o‘zini o‘ldirish» (1897) va «Diniy hayotning elementar shakllari» (1912) nomli to‘rt asari nashrdan chiqqan.

Uning so‘nggi asari eng sermahsul va yirik hajmli ishi hisoblanadi. Dyurkgeym din – bu jamiyatning ramziy namoyon bo‘lishi, shuning uchun u yoki bu muqaddas obyektlarga e’tiqod qilgan banda aslida jamiyatga e’tiqod qiladi degan. U diniy va fuqaroviy marosimlar o‘xshashliklarini e’tirof yetib, sotsial jarayon sifatida sakralizasiyaning umumiy xususiyatlariga e’tibor qaratgan. Shuning uchun uning ishi nafaqat din sotsiologiyasi, balki fuqarolar e’tiqodini o‘rgangan. Avvalgi ishlari kabi «Diniy hayotning elementar shakllari» asari sotsiologik fikrning katta yutug‘iga aylandi.

2. Dyurkgeymning asosiy maqsadi XIX asr so‘nggi choragida inqirozga yuz tutgan fransuz jamiyatini qutqarish edi. U monarxiyaning qayta o‘rnatilishi, reaksion klerikallar va nasionalistlarga qarshi bo‘lgan. Dyurkgeym sotsiologiyada pozitivizm tarafdori va ratsionalistik yondashuvi namoyondasidir. U o‘zining sotsiologik nazariyasini materializm va spiritualizmdan xoli bo‘lgani uchun ratsionalizm, keyinchalik esa pozitivizm nomi bilan atalishini istagan.

Dyurkgeym tarixni materialistik nuqtayi nazardan tushunishga qarshi bo‘lib, ko‘proq idealizm va e’tiqodga yaqin bo‘lgan. Garchi Dyurkgeym Kont sotsiologiyasining bir qancha tomonlariga qarshi chiqqan bo‘lsada, uning sotsiologiya «otasi» nomini tan olgan. U Kontning intellektual va ijtimoiy evolyutsiya uch bosqichi (teologik, metafizik, pozitiv) qonunini rad etgan. Kontdan farqli ravishda Dyurkgeym sotsial hodisalar mohiyatini o‘rganishda nazariy bilimlarni amaliysi bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Dyurkgeym sotsiologik qarashlarining shakllanishida G.Spenserning fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ko‘plab konsepsiyalari Spenserniki asosida shakllangan. Spenserdan

keyin Dyurkgeym murakkab jamiyat turlarini oddiylarining kombinasisi sifatida ko‘rib chiqqan.

U Marksning ijtimoiy hayot uning ishtirokchilari tasavvuri bilan emas, balki o‘zaro birlashgan individlarning guruhlanish turidan kelib chiqqan chuqur sabablar orqali tushuntirilishi kerak degan fikrini qo‘llagan. Ammo, Marksdan farqli ravishda «sotsial izm» va «kommunizm» tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘ygan. Kommunizm davrida sotsial funksiyalar umumiy hisoblanib, sotsial massa bir xil birliklardan tashkil topsa, sotsial izm aksincha, mehnat taqsimotiga asoslanadi va turli funksiyalarni turli organlar bilan va oxirgilarini o‘zaro bog‘lashga intiladi. Dyurkgeym demokratik va liberal dunyoqarashga ega bo‘lib, islohotlarning evolyutsion yo‘l bilan amalga oshishi tarafdori edi. U revolyusion sotsial izmga qarshi bo‘lib, har qanday asl sotsial o‘zgarishlar uzoq muddatli, uzluksiz ijtimoiy va axloqiy evolyutsiya natijasida amalga oshadi degan. Shuningdek, islohotlar ilmiy asoslanishi lozim edi.

Dyurkgeym sotsiologiyani fan sifatida hali to‘liq shakllanmagan, Kont va boshqa olimlarning konsepsiyalarini esa juda mavhum va sxematik deb bilgan. Dyurkgeym sotsiologiyaning predmeti sifatida individdan tashqarida bo‘lgan va normativ majburlash kuchiga ega sotsial faktlarni ko‘rsatgan. Fanning maqsadi esa insonlarni nima birgalikda yashashga majbur qiladi, nega ular uchun barqaror sotsial tartib yuqori qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi va shaxslararo munosabatlarni qanday qonuniyatlar boshqaradi kabi savollarga javob topishdir. Sotsiologiya metodologiyasi intellektual, ilmiy haqqoniylik, ilmiy tadqiqotning har qanday siyosiy, diniy va boshqa ta’sirlardan xoli bo‘lishi kabi talablarga asoslanishi lozim degan fikrlarni bildirgan.

3. Dyurkgeym sotsiologiya sotsial reallikni o‘rganishi kerak deb o‘ylagan. Sotsial reallikning elementlari esa sotsial faktlar hisoblanib, ularning yig‘indisi jamiyatni tashkil etadi. Demak, sotsial faktlar sotsiologiyaning predmeti sifatida namoyon bo‘ladi.

Individ tug‘ilganida unga bog‘liq bo‘lmagan holda shakllanib, amaliyotda bo‘lgan qonun va an’analar, o‘zini tutish qoidalari, diniy e’tiqod va marosimlar, pul tizimiga duch keladi. Mazkur obyektiv sotsial faktlar individlarga o‘z bosimini ko‘rsatadi. Demak, har qanday inson o‘zida sotsial faktlar bosimini his qilib, o‘z harakatlarini shunga muvofiqlashtiradi.

Sotsial faktlar individdan tashqari, ya’ni obyektiv tarzda mavjud bo‘lgan xatti-harakat namunalari, tafakkur tarzi va hissiyotlar bo‘lib, unga

nisbatan majburlash munosabatida bo‘ladi. Ular guruhiy ong faktlari va morfologik faktlarga ajraladi. Guruhiy ong faktlari umumiy g‘oyalar va tuyg‘ular, axloqiy qoidalar va e’tiqod, umumiy xatti-harakat qoidalari, insonlarning iqtisodiy motivlari va qiziqishlari kabilarda namoyon bo‘ladi. Morfologik faktlar esa individlar o‘rtasidagi tartib va bog‘liqlikni o‘rnatadi va aholi soni va zichligi, turmush shakli, geografik joylashuv kabilarda o‘z ifodasini topadi.

Dyurkgeym konsepsiyasida sotsiologiya ijtimoiy fanlar orasida markaziy o‘rinni egallaydi. Sotsiologiya boshqa fanlarni turli sohalarda tadqiqot olib borishda ko‘maklashadigan usul va nazariya bilan ta’minlaydi. Mazkur fanning falsafa bilan alofqasini esa Dyurkgeym qarama-qarshiliklarda namoyon etadi. Bir tomondan u sotsiologiya falsafadani butkul ajralganidagina sotsial reallikni o‘rganishi mumkinligini ta’kidlasa, ikkinchi tomondan ikki fan o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ko‘rsatadi. Dyurkgeymning fikricha, sotsiologik tadqiqot rivojlanishi natijasida eng mushkul va baxsli metafizik savollar o‘z yechimini topadi.

4. Dyurkgeym nazariyasi «sotsiologizm» nomi bilan ataladi. Uning sotsiologik tamoyillari butun fransuz sotsiologik maktabiga asos bo‘lgan. Mazkur tamoyillarning ikki jihati mavjud: ontologik va metodologik.

«Sotsiologizm»ning ontologik tomoni quyidagi asoslardan tashkil topgan:

1. Sotsial reallik boshqa realliklar kabi qat’iy, asosli va «real» bo‘lib, ular kabi ma’lum qonunlar asosida rivojlanadi.

2. Jamiyat – o‘ziga xos reallik, ya’ni sotsial reallikning individual reallik, ya’ni individlarda gavdalangan biopsixik reallikka nisbatan avtonomligini bildiradi. Mazkur fikr Dyurkgeymning butun ilmiy merosida kuzatiladi.

«Sotsiologizm»ning metodologik jihati uning ontologik jihatiga simmetrikdir:

1. Jamiyat tabiatning bir bo‘lagi bo‘lgani uchun jamiyat haqidagi fan – sotsiologiya metodologik jihatdan boshqa tabiiy fanlarga o‘xshaydi; uning asosiy maqsadi qat’iy sabab-oqibat aloqadorliklari va qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat. Dyurkgeym sotsiologiyada tabiiy fanlarga monand (anologik) obyektiv metodlardan foydalanish kerakligi aytgan. Dyurkgeym metodologiyasining asosiy tamoyili «sotsial faktlarni narsa-buyumlar kabi ko‘rib chiqish kerak» degan g‘oyadan iborat bo‘lgan.

2. Sotsial reallikning o‘ziga xosligi e’tirof yetilgach, sotsiologiyaning fan sifatida mustaqilligi, metodoliyagiyasi va tushunchalarining o‘ziga xosligi kelib chiqadi.

3. Lekin, Dyurkgeym «sotsiologizm»i mazkur metodologik tamoyil chegarasidan chiqadi. Chunki uning «sotsial realizm»i bo‘yicha jamiyat dominant va yuqori reallik sifatida namoyon bo‘ladi. Sotsiologiya nafaqat o‘ziga xos fan, balki falsafa, gnoseologiya, mantiq, yetika, tarix, iftisod kabi turli sohalarni yangilovchi fandir. Shuning uchun Dyurkgeym uni «ijtimoiy fanlar tizimi, korpusi» deya atadi. Dyurkgeym tadqiqot olib borgan axloq, din va boshqa sohalarda sotsiologik muammolardan tashqariga chiqib, falsafiy mohiyatga ega bo‘lgan. Bu yerdan olimning faylasuflarga bo‘lgan ikki xil munosabati kelib chiqqan. U bir tomonlan sotsiologik metodlarning har qanday falsafadan xoliligini e’tirof esa, ikkinchi tomondan esa uning o‘zi qaysidir ma’noda faylasuf bo‘lgan.

«Sotsiologizm» ning mazkur tamoyillari asosida Dyurkgeym sotsiologiyaning muhimligi va mustaqil fan ekanligini asoslagan. Uning fikricha, sotsiologiyaning predmeti sotsial faktlardir. Sotsial faktlar ikki muhim alomatiga ega: ular individdan tashqari mavjud bo‘ladi va unga majburlovchi ta’sir ko‘rsatadi. U shuningdek, sotsiologiyani institutlar, ularning paydo bo‘lishi va rivojlanishi to‘g‘risidagi fan deya aniqladi. Dyurkgeymning sotsiologiyaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha tasavvurlari ijtimoiy hayot sohalari bo‘yicha bilim darajasini namoyon qiladi.

5. Dyurkgeym «O‘z o‘zini o‘ldirish» asarida sotsial faktlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va turli guruh, hudud, mamlakat va turli turlardagi insonlar o‘rtasida sodir bo‘lgan o‘z o‘zini o‘ldirish holatlari ko‘rsatkichlarini o‘rtasidagi farqni o‘rgandi. Shunga ko‘ra, u yegoistik, altruistik, anomik va fatal o‘z o‘zini o‘ldirish turlarini ajratdi. Ulardan birinchi uchtasini Dyurkgeym asosiy va keng tarqalgan deb ko‘rsatgan.

Yegoistik o‘z o‘zini o‘ldirish holatida inson qasddan, boshqalar bilan o‘z sotsial aloqalarini uzadi. Yolg‘izlikda yakkalanib qolgan individ hayotining mazmunini yo‘qotadi va o‘z joniga qasd qiladi.

Altruistik o‘z o‘zini o‘ldirish esa individning jamiyatga to‘la qo‘shilib, kirib ketishi natijasida paydo bo‘ladi. Misol uchun kema xalokati paytida or-nomus va burch kodeksiga muvofiq kapitanning kemani eng oxirida tark etishi yoki u bilan g‘arq bo‘lishi holati. Boshqacha aytganda inson boshqalar uchun o‘z jonidan kechadi.

Anomik o‘z o‘zini o‘ldirish jamiyatda qadriyatlar tizimi yo‘qotilishi, ijtimoiy norma va aloqalar zaiflashuvi oqibatida paydo bo‘ladi.

Fatalistik o‘z o‘zini o‘ldirish esa individning jamiyat tomonidan o‘ta darajada nazorat qilinishi tufayli vujudga keladi. Mazkur to‘rtinchi tur anomik o‘z o‘zini o‘ldirishning simmetrik qarama-qarshiligi bo‘lib, u qadar ko‘p uchramaydi.

Dyurkgeymning mazkur asari boshqa asarlaridan farqli o‘laroq aniq statistik ma’lumotlarni tahlil qilish asosida yaratilgan. Shu bilan u sotsiologiyada miqdoriy tahlil (kontent analiz) usulini rivojlantirib, amaliy sotsiologiyaning asoschisi hisoblanadi. Mazkur kitobda Dyurkgeym «anomiya» tushunchasini qo‘llagan va uni o‘z o‘zini o‘ldirishdagi asosiy ta’sir yetuvchi omil sifatida ko‘rsatgan.

Anomiya - bu jamiyat normalari va qadriyatlarining buzilishi natijasida paydo bo‘ladigan ijtimoiy holat.

O‘z o‘zini o‘ldirish holatini iqlim, georgrafik joylashuv, biologik xususiyatlar, fasllar, psixologik va psixopatologik omillar orqali tushuntiriluvchi nazariyalarni rad etish maqsadida Dyurkgeym turli Yevropa mamlakatlaridagi o‘z o‘zini o‘ldirish holatlari dinamikasini ko‘rsatuvchi ma’lumotlarni tahlil qilgan. U faqatgina sotsiologiya turli mamlakat va har xil davrlarda kuzatilgan o‘z o‘zini o‘ldirish holatlari sonidagi farqni tushuntirib bera oladi deb o‘ylagan. Shunga mos ravishda Dyurkgeym o‘z o‘zini o‘ldirishni sotsial fakt sifatida ko‘rib, u insonlar o‘zaro muloqoti natijasidagi ma’no, kutishlar va roziliklar natijasi hisoblanadi.

Dyurkgeyining tadqiqot natijalariga ko‘ra, protestantlar orasida katoliklarga nisbatan o‘zini o‘ldirish holati ko‘p uchraydi. Turmush qurmaganlar o‘rtasida ham bu holat yuqori ekan. Harbiylar oddiy fuqarolarga nisbatan ko‘proq o‘z joniga qasd qilishadi. Undan tashqari tinchlik paytida o‘zini o‘ldirish holatlari revolyutsiya yoki urush paytidan ko‘ra yuqoriroq. Iqtisodiy yuksalish davrida o‘zini o‘ldirish holatlari iqtisodiy beqarorlik davridan ko‘ra ko‘proq bo‘larkan. Turar joyiga ko‘ra esa qishloq joylarda bu holat shahardagiga nisbatan pastroq.

Dyurkgeym olingan ma’lumotlar asosida zamonaviy jamiyatlarda o‘z o‘zini o‘ldirishning tipik sababi sotsial aloqalarning zaiflashuvi va individning o‘zini yakkalash deb ko‘rsatgan. Jamiyatning integratsiya darajasi, ya’ni birligi, birdamligi qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘z joniga qasd qilish holatlari shu qadar kam bo‘ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Yemil Dyurkgeymning sotsiologik tadqiqotlarining xususiyatini yoritib bering

2. Yemil Dyurkgeymning asosiy asarlari haqida ma’lumot bering
3. Yemil Dyurkgeym sotsiologiyaning predmetini qanday izohlaydi
4. Dyurkgeym sotsiologiyasining falsafiy asosi bo‘lgan «Sotsiologizm» nazariyasini mohiyatini yoritib bering
5. Dyurkgeymning «O‘z – o‘zini o‘ldirish» asaridagi qanday konsepsiyani ilgari suradi?
6. Dyurkgeym dinning mohiyatini qanday bayon etadi?
7. Dyurkgeym tarixni qanday tushunadi?
8. Dyurkgeym sotsial reallik xususida qanday fikrda bo‘lgan.
9. «Sotsiologizm» nazariyasining asosiy tamoyillarini bayon eting

9-MAVZU. M.VEBERNING SOTSIOLOGIK NAZARIYASI

REJA:

1. Maks Veberning sotsiologik tadqiqotlari.
2. Veberning sotsiologik nazariyasida ideal tip tushunchasi.
3. Tushunish muammosi va «sotsial harakat» tushunchasi Veber talqinida
4. Veber sotsial harakat tuzilishi va turlari haqida.
5. Veberning sotsiologik nazariyasida ratsionallik tamoyili.
6. Veber jamiyatda hukmronlik tiplari xususida.
7. Veberning din sotsiologiyasi.

1. Maks Veber 1864- yil 21- aprelda Germaniyaning Erfurt shahrida dunyoga kelgan. Uning otasi yurist bo‘lib, kelib chiqishi jihatidan Vestfaliyalik savdogar va tijoratchilar oilasidan edi. 1869- yil M. Veber va uning oilasi Berlinga ko‘chishadi. Mazkur shaharda u keyinchalik munisipalitet seymi, Prussiya seymi va reyxstagga saylangan. M. Veber o‘ng liberallar guruhi a’zosi edi. Uning onasi Elen Vallenshtayn-Veber madaniyatli va ma’naviyati kuchli ayol bo‘lib, sotsial va din muammolariga alohida e’tibor bergan. 1919-yil, ya’ni o‘limiga qadar o‘g‘li bilan yaqin intellektual aloqada bo‘lgan va unda dinga nisbatan talab, muhabbatni shakllantirgan.

1882-yil M. Veber Geydelberg universitetining huquq fakultetiga o‘qishga kiradi. U huquq bilan birgalikda tarix, iqtisod, falsafa va dinshunoslik fanlaridan saboq olgan. 1883-yil universitetda uch semestr o‘qib, Strasburgda harbiy xizmatni o‘taydi. Veber oddiy askarlikdan imperiya armiyasi ofiseri darajasigacha ko‘tarilib, butun umri davomida bu sharafli unvondan faxrlangan. Bo‘lajak olim 1884-yilda Berlin va

Gyottingen universitetlarida o‘qishni davom yettiradi. 1886-yilda esa yuriprudensiya bo‘yicha birinchi universitet imtihonini topshiradi.

1887-1888- yillarda Veber Sotsial siyosat Ittifoqi[2]ga a’zo bo‘ladi va uning talabi bilan Sharqiy Prussiyada dehqonlarning ahvolini aniqlash maqsadida so‘rov o‘tkazadi. 1889-yil Berlinda «O‘rta asrlar savdo jamoalari tarixiga oid» nomli ilmiy ishini yoqlaydi. Italyan va ispan tillarini qunt bilan o‘rganishga kirishadi. Berlin advokatlik korpusiga a’zo bo‘ladi. 1891- yil esa «Rim agrar tarixi va uning davlat va shaxsiy huquq uchun mohiyati» nomli dissertatsiya ishini yoqlash paytida professor Mommzen bilan bo‘lib o‘tgan suhbat Veberni Berlin universitetining huquq fakultetiga kafedra professori sifatida taklif yetilishiga sabab bo‘ldi.

Veber 1893 yil Marianna Shnitger bilan turmush quradi. Keyinchalik Shotlandiya va Irlandiyaga safarlar qiladi. Friburg universitetining professori sifatida «Milliy davlatchilik va iqtisodiy siyosat» mavzusida kurs ma’ruzalarini o‘qiydi. 1896-yil Geydelberg universitetida kafedra mudiri yetib taylanadi. Bir yil o‘tib esa asablarining toliqishi tufayli pedagogik faoliyatni to‘xtatishga majbur bo‘ladi. Veber bu davr mobaynida Italiya, Korsika va Shveysariyaga sayohat uyushtiradi. Garchi Veber keyinchalik Geydelberg universitetiga qaytgan bo‘lsa-da, oldingi faoligiga qayta olmagan. U 1903 yilda Verner Zombart bilan birgalikda «Ijtimoiy fan va sotsial siyosat arxivi» nomli jurnal joriy etadi.

AQShning Sent-Luis shahrida ijtimoiy fanlar bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro konferensiyasida ishtirok yetib, Germaniyaning qishloq joylarida kapitalizmning tarqalishi borasidagi fikrlarini bildiradi. 1904- yilda «Protestant axloqi va kapitalizm ruhi» asarining birinchi qismini chop yettiradi. Rus revolyutsiyasi Veberning diqqatini o‘ziga jalb etadi. U haqdagi ma’lumotlarni bevosita o‘qish uchun olim rus tilini o‘rgandi.

1905-yil «Protestant axloqi va kapitalizm ruhi»ning ikkinchi qismi chop etiladi. 1907-yil Veber katta meros egasiga aylanadi. Bu unga butun vaqtini ijodga bag‘ishlash imkonini berdi. 1909-yilda «Xo‘jalik va jamiyat» asarini yoza boshlaydi. Nemis sotsiologlar assosiasiyasi kengashida ishtirok yetib, 1910-yildayoq irqchilik g‘oyalarini rad yetuvchi pozisiyada ekanligin aniq bayon etadi. 1914-yil urushining boshlanishi bilan M. Veber xizmatga ketadi. U 1915-yilga qadar Geydelberg hududidagi gospitalllarning nazoratini olib borib, 1916-1917-

[2] Бу иттифоқ 1872 йил Г. Шмоллер томонидан ташкил этилиб, унга университет интеллигенциясининг дунёқараши фарқланувчи, аммо социал муаммоларга қизиқувчи салмоқли қисми аъзо бўлган.

yillarda Bryussel, Vena, Budapeshtda bir qator davlat buyruqlarni bajaradi.

Veber Germaniya boshliqlarini urushni kengaytirmaslikka chaqiradi. Ammo shu bilan birga dunyo siyosatida Germaniyaning asosiy o‘rin tutishi kerakligini ta’kidlab, mazkur maydonda uning eng katta dushmani deb Rossiyani ko‘rsatadi. 1919 yil Veber Myunxen universiteti kafedra mudiri bo‘ladi. Bu paytda davlat tuzumida o‘zgarishlardan u xursand emasdi. Veber respublikani xayrihohlik bilan qabul qilmagan. U Veymer konstitusiyasini tuzish kommissiyasi a’zosi bo‘lgan. Olim «Xo‘jalik va jamiyat» asarini yozishda davom etgan. Afsus, mazkur asar oxiriga yetkazilmagan. M. Veber 1920-yil 14-iyun kuni Myunxenda vafot etadi. Uning rafiqasi Marianna Veber «Xo‘jalik va jamiyat» asarini olimning vafotidan so‘ng chop yettirgan.

2. Veber sotsiologiyasining metodologik tamoyillari XIX asr G‘arb jamiyatshunosligi bilan nazariy jihatdan bog‘liq. Madaniyatni o‘rganuvchi fanlar Veber tadqiqotlarida markaziy o‘rinni egalladi. U tarixchi olimlar subyektiv fikrlarini emas, balki ular qo‘llagan tushunchalarning vujudga kelishini mantiqan o‘rganish kerakligini ta’kidlagan. Chunki «mantiqan anglangan» narsalarning tushunchalarda aks etishigina subyektiv olamni tarix fanining obyektiv olamiga aylantiradi.

Veber qadriyatlarni u yoki bu davr taqozosi sifatida ko‘rsatgan. Shu borada davr qiziqishi tushunchasini kiritib, u ma’lum inson qiziqishidan farqli ravishda qat’iyroq va obyektiv bo‘lishini aytgan.

Veberga ko‘ra, qadriyatlar o‘z davrining umumiy talabi va taqozosi bo‘lib, har bir davrning o‘z absolyuti (mutloq) mavjuddir. Shunday qilib, absolyut tarixiy, demak, nisbiy hisoblanadi. Veber «ideal tip» tushunchasini kiritadi. Ideal tip «davr qiziqishi» bo‘lib, nazariy konstruksiya sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, ideal tip empirik reallikdan olinmaydi, balki nazariy jihatdan tuziladi. Shu ma’noda Veber ideal tipni «utopiya» deb ataydi. «Ideal tip qanchalik qat’iy belgilanib, dunyoga begona bo‘lsa, u tushuncha, turkumlanish va evristik[3] jihatidan o‘z vazifasini shunchalik yaxshi bajaradi».

Veberning ideal modeli tabiiy fan vakillari qo‘llaydigan ideal modelga o‘xshaydi. Ideal tip nomini olgan nazariy konstruksiyalar «butkul bo‘shliq holatda mavjud bo‘ladigan fizik reaksiyalar kabi reallikda kam uchraydi». Veber ideal tipni «hayolan yaratilgan fantaziyamiz mahsuli» deb atab, yana bir karra uning noempirik kelib chiqishini ta’kidlaydi.

[3] . Унумли ижодий фикрлаш.

Tabiiy fan vakillari tabiatni anglashda ideal modeldan foydalangani kabi ideal tip tarixiy realllikni anglash maqsadida yaratiladi.

Veber ideal tiplarni «realistik» ruhda talqin qilish, ya’ni mazkur aqliy konstruksiyalarni tarixiy-madaniy reallikka aynanlashtirishni asosiy xato deb bilgan. U 1904-yilda yozgan ishlarida ideal tip tushunchasini ilk bor qo‘llab, uni tarixni anglashning asosiy quroli sifatida ko‘rgan va shu jihatdan u tarixiy ideal tip edi. Shuning uchun u ideal tip bilish maqsadi emas, balki vositasi deb ta’kidlaydi.

Veberning ideal tipi utopiya xarakteriga ega bo‘lib, reallikning ma’lum elementlarini bo‘rttirish, kuchaytirish orqali hosil bo‘ladi. Mazkur holatda ideal tip tushunchasini sharhlashdagi qarama-qarshilikka duch kelamiz. Veber uni bir tomondan «utopiya», «fantaziya» deb atab, boshqa tomondan u reallik asosida paydo bo‘lishini e’tirof etadi. Ammo bu reallikning qaysidir ma’noda «deformatsiya»si, ya’ni ba’zi elementlarining kuchaytirilishi, bo‘rttirilishi orqali sodir bo‘ladi.

Veber ideal tipining o‘ziga xosligi u metodologik tamoyilga ko‘ra, ham sotsiologik, ham tarixiy bilishga tegishli. Veber merosini o‘rgangan olim Valter ta’kidlaganidek, «Veberning individualiziya va generaliziya tendensiyalari doim chambarchas bog‘liq», chunki unda «tarix va sotsiologiya ko‘pincha ajralmas» hisoblanadi.

Veberning o‘zi ideal tipning sotsiologiya va tarixdagi o‘rnini quyidagicha ifodalaydi: «Sotsiologiya tarixdan farqli o‘laroq tiplar tushunchalarini yaratadi va hodisalar umumiy qonuniyatlarini izlaydi. Tarix esa kauzal (sababiy) analizni qo‘llab, individual, ya’ni madaniy ahamiyatga ega shaxslar hosilalarini o‘rganadi». Demak, tarix individual tarixiy hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlikni o‘rganadi. Bu yerda ideal tip tarixiy hodisalarning genetik bog‘liqligini ochib beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Veber genetik ideal tiplar sifatida «o‘rta asr shahri», «kalvinizm», «metodizm», «kapitalizm madaniyati» va boshqalarni ko‘rsatgan.

Sotsiologik ideal tipning mohiyati nimadan iborat? Tarix fani vaqt va hududda chegaralangan individual hodisalarni kauzal tahlil qilsa, sotsiologiya mazkur hodisalarni vaqt va hududda cheklamasdan ularning umumiy qonuniyatlarini o‘rnatadi. Shu ma’noda ideal tiplar sotsiologik tadqiqot instrumenti sifatida umumiy bo‘lishi va «sof ideal tiplar» deb atalishi mumkin.

Veber barcha davr va yer yuzining istalgan qismida uchraydigan hukmronlikning uch ideal modelini (xarizmatik, ratsional va patriarxal) ishlab chiqadi. «Sof tiplar» qanchalik toza, ya’ni mavjud empirik

hodisalardan uzoq bo‘lsa, sotsiologik tadqiqot uchun shu qadar yaroqlidir. Genetik tip qo‘llanilganda vaqt va hududda chegaralanadi, «sof tip» esa aksincha; genetik tip bir marta sodir bo‘lgan bog‘liqlikni aniqlash vositasi, «sof tip» esa doimiy mavjud bog‘liqlikni aniqlash vositasidir. Tarixiy ideal tipni bilish maqsadi emas, vositasi deb atasak bo‘ladi. Ammo, sotsiologik ideal tip har doim ham bunday bo‘lmaydi. Undan tashqari ideal tip tarixga umumiylik elementini kiritsa, sotsiologiyada u qonuniy bog‘liqlikni tipik ko‘rinish bilan almashtiradi. Ideal tip vositasida Veber sotsiologiya va tarix o‘rtasidagi farqni e’tiborli darajada qisqartirdi.

3. Veberning fikricha, o‘z tadqiqotining predmetini tushunish zaruriyati sotsiologiyani boshqa tabiiy fanlardan farqlaydi. «Har qanday jarayon singari inson xatti-harakatining kechishida ham ma’lum bog‘liqlik va qonuniyatlar aniqlanadi. Ammo inson xatti-harakatining farqli jihati shundaki, uni tushunarli tarzda bayon qilish mumkin».

Veber «tushunish»ni sababiy «tushuntirish»ga qarama-qarshi qo‘ymaydi, aksincha ularni uzviy bog‘laydi. «Sotsiologiya izohlash yo‘li bilan sotsial harakatni tushunib, uning kechishi va oqibatlarini sababiy tushuntirishni maqsad qilgan fandir». Veber tushunishni tushuntirishdan avval qo‘yadi va tushunuvchan sotsiologiyani psixologiyaning bir qismi deb hisoblamaydi.

Sotsiologiya, Veberning fikricha, tarix singari tadqiqot markaziga individ yoki individlar guruhining xatti-harakatini olishi lozim. Alohida individ va uning xatti-harakati sotsiologiya va tarixning birlamchi «hujayrasi» hisoblanadi. Psixologiya ham individ xatti-harakatini o‘rganadi, ammo sotsiologiya va psixologiya turli maqsadlarni ko‘zlaydi.

Veberning yozishicha, individ o‘z xatti-harakatlariga ma’lum ma’no bergani uchun sotsiologiya uning mazkur faoliyatini o‘rganadi. Mazmun va ma’noga ega bo‘lgan xatti-harakatgina sotsiologni qiziqtirishi mumkin. Psixologiya uchun esa bu asosiy maqsad hisoblanmaydi.

Shunday qilib, Veber sotsiologik xatti-harakat tushunchasini mazmun tushunchasi orqali uyg‘unlashtiradi. «Harakatlanayotgan individ yoki individlar guruhi harakat bilan subyektiv ma’no (mazmun) orqali bog‘langan taqdirda u inson xatti-harakati deyiladi». Veber bu yerda individning o‘zi o‘z xatti-harakatiga bergan mazmunini nazarda tutgan. Shundan kelib chiqib, u subyektiv nazarda tutilgan mazmunga ega xatti-harakat sotsiologik tadqiqot predmeti hisoblanishini aytgan. Sotsiologiya «tushunuvchan» bo‘lishi zarur, chunki individ xatti-harakati anglangan bo‘ladi.

Ammo bu tushunish psixologik emas, chunki mazmun psixologiya sohasiga tegishli emas va uning predmeti hisoblanmaydi. Veberning asosiy sotsiologik kategoriyalaridan bo‘lgan «sotsial harakat» tushunish tamoyili bilan uzviy bog‘liq. Olim sotsial harakatni sotsiologiyaning predmeti sifatida e’tirof etgani mazkur kategoriyaning Veber ijodidagi ahamiyati darajasini ko‘rsatadi.

Veber sotsial harakatni quyidagicha tariflagan: «harakat deb uni bajaruvchilar unga ma’lum subyektiv mazmun berishganidagi inson xatti-harakatini (tashqi, ichki qilmishlar, faoliyatsizlik yoki toqatlilik) aytish mumkin. Ammo, sotsial harakatda uni bajaruvchilar tomonidan harakat mazmuni boshqalar xatti-harakatiga yo‘naltirilgan va kechishi aniqlangan bo‘ladi.

Veber sotsial harakatning ikki shartini ko‘rsatgan: individ yoki guruhning subyektiv motivatsiyasi va boshqa(lar)ga yo‘naltirilgani. Individ yoki individlar guruhining motivasiyasi bo‘lmasa, harakat ham mavjud bo‘lmaydi. Harakat boshqa individ yoki individlarga yo‘naltirilmagan sharoitda (Veber mazkur jarayonni «kutish» deb ham atagan) esa mazkur harakat sotsial harakat sanalmaydi. Sotsiologiya individ motivlarini e’tiborga olgan holdagina sotsial jarayonning obyektiv ko‘rinishini yarata oladi.

Veber jamiyat va boshqa guruh shakllari harakat subyektlari sifatida tan olinishiga qarshi chiqadi, chunki harakat subyekti sifatida alohida individalrgina namoyon bo‘la oladi. «Boshqa maqsadlar yo‘lida (misol uchun yuridik) esa sotsial hosilalarni («davlat», «qardoshlik», «aksioner jamiyatlari», «tashkilot») o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ammo harakatlarni tushunuvchan bayon qiluvchi sotsiologiya nuqtayi nazaridan mazkur hodisalar alohida individlarning o‘ziga xos xatti-harakati aloqalari va jarayoni hisoblanadi».

Veber sotsiologiyada oila, millat, davlat, armiya kabi tushunchalar qo‘llanilishiga qarshi chiqmaydi. Ammo, shu bilan birgalikda mazkur guruhlar sotsial harakat subyektlari emasligini ta’kidlab, ularga guruhiy ong va guruhiy tafakkur tushunchalari ishlatilishini qoralaydi.

4. Veber maqsadga yo‘naltirilgan harakatni ideal tip sifatida ko‘rib, u borliqning o‘zi emas, balki uni tahlil qilish vositasi deb bilgan. U maqsadga yo‘naltirilgan harakatni sotsiologiyaning metodologik asosi sifatida talqin qilib, ijtimoiy «totallik»larni («xalq», «jamiyat», «davlat», «iqtisodiyot») boshlang‘ich reallik deb bilgan sotsiologik nazariyalarga qo‘shilmaydi. Veber bu borada individni ma’lum sotsial organizmning bir qismi deb bilgan «organik sotsiologiya»ni qattiq tanqid qiladi. U jamiyatni

biologik model nuqtayi nazaridan o‘rganishga qarshi chiqdi. Chunki inson ongli tarzda harakatlanadigan mavjudot. Individ va organizm hujayrasi (yoki organ) onglilik faktorini e’tiborga olmagan taqdirdagina o‘xshash bo‘lishi mumkin. Veber aynan shu jihatdan biologik qarashga qarshi chiqqan, zero u sotsial harakatda onglilik faktorini yuqori qo‘ygan.

Veber metodologiyasining asosiy g‘oyasi – inson nimani istashini o‘zi biladi. Albatta real hayotda inson har doim ham nimani istashini bilmaydi. Chunki maqsadli ratsional harakat ideal holat hisoblanadi. Ammo, sotsiolog aynan mana shu ideal holatdan nazariy-metodologik ko‘rsatma sifatida kelib chiqishi kerak.

Sotsial harakatning ikkinchi xususiyati esa uning biror individ yoki individlar guruhiga yo‘naltirilganligidir. Veber yozadi: «Sotsial harakat… o‘tmish, hozir yoki kelajakda sodir bo‘ladigan individ harakatlariga yo‘nalgan bo‘lishi mumkin (o‘tmishdagi hujum uchun qasos olish, hozirgi paytdagi hujumdan mudofaalanish, kelajakdagi hujumga qarshi himoyalanish choralarini ko‘rish).

Veberning «boshqaga yo‘nalganlik» kategoriyasi huquqshunoslik va huquq falsafasining asosiy tushunchalaridan bo‘lmish «tan olish»ning sotsiologik sharhi sifatida tahlil qilingan. U tan olishni har qanday sotsial harakatning tarkibiy elementi deb e’tirof etgan.

Veber inson xatti-harakatlarini to‘rt turga ajratgan:

1. maqsadga yo‘naltirilgan (zwyeckrationale),
2. qadriyatli ratsional (wyertrationale),
3. affektiv
4. an’anaviy.

Maqsadga yo‘naltirilgan harakat individ xatti-harakatiga nisbatan boshqalarning javobini kutishni nazarda tutib, maqsad aniq va harakatlar qat’iy ravishda individning o‘zi tomonidan nazorat qilinadi.

Maqsadli ratsional harakatda esa axloqiy, estetik, diniy yoki boshqa qadriyatlarga bo‘lgan individning ongli e’tiqodi harakatning asosi bo‘ladi.

Affektiv harakatda yemosional holat va his tuyg‘ular bosh o‘rin egallaydi.

An’anaviy harakatlar esa odatlar natijasida vujudga keladi.

So‘nggi ikki harakat turi — affektiv va an’anaviy — mazmuniga ko‘ra sotsial harakat sanalmaydi. Chunki ularda individ o‘z xatti-harakatining mazmunini ko‘pincha anglamaydi. Veberning o‘z an’anaviy harakatni mazmunga ega bo‘lgan harakatlar chegarasida va undan tashqarida turishini aytgan. Chunki u odatiy takrorlash yoki taqlid sifatida shakllangan ko‘nikma sifatida bajariladigan harakatdir.

Faqat maqsadga yo‘naltirilgan va qadriyatli ratsional harakatlar haqiqatan sotsial harakat mohiyatiga to‘g‘ri keladi. Kelib chiqadigan oqibatlar bilan hisoblashmay, faqat o‘z ishonchi, maslagi asosida va o‘z burchi, e’tiqodi, g‘ururi, hayotiy pozisiyalari taqozo etganda amalga oshirilgan harakatlarni Veber qadriyatli ratsional harakat deb baholaydi. Bunday harakatlar doim «e’tiqod amri» yoki «talabi»ga muvofiq bajariladi. Bu xususiyat esa faqatgina insonlarga xosdir.

Veber insonning real bajarilayotgan xatti-harakati odatda ikki va undan ortiq harakat turlariga xos bo‘ladi. Unda maqsadga yo‘naltirilgan, qadriyatli ratsional, affektiv va an’anaviy harakat momentlari kuzatilishi mumkin. Turli tipdagi jamiyatlarda u yoki bu harakat turi nisbatan ko‘p kuzatilishi mumkin. Misol uchun an’anaviy jamiyatlarda an’anviy va affektiv, industrial jamiyatlarda esa aksincha, maqsadga yo‘naltirilgan va qadriyatli ratsional harakatlar ustunlik qiladi.

5. Maks Veber sotsiologiyaga ratsionalistik[4] tamoyilni kiritgan. U yuqorida keltirilgan sotsial harakatlarini bekorga ratsionallikning o‘sib borishi tartibida joylashtirmagan edi. Veber sotsial harakatning ratsionallashuvini tarixiy jarayonning tendensiyasi deb bilgan. Mazkur jarayon «to‘siq» va «og‘ishlar» bilan kechadi. Biroq so‘nggi yuz yilliklardagi Yevropa tarixi va boshqa sivilizatsiyalarning industrializasiya yo‘liga o‘tishini ko‘rsatib, Veber ratsionalizatsiyani xalqaro-tarixiy jarayon deb atagan. U o‘zi yashagan davrdagi kapitalistik davlat va munosabatlarni ratsional boshqaruv, ratsional byurokratiya, ratsional moliyaviy munosabatlar, ratsional din bilan izohlagan.

Bir tomondan, Veber ratsionallikning o‘sib borishini real tarixda mavjud jarayon sifatida ko‘rib chiqqan; boshqa tomondan esa tarixiy rivojlanishni inson hayoti barcha jabhalarining ratsionallashuvi jihatidan qarash tadqiqotchining metodologik usuli, reallikka bo‘lgan dunyoqarashi deb izohlagan.

Hayotning barcha sohalarida (iqtisod, siyosat, fan, madaniyat) xo‘jalik yuritish shakli, boshqaruv ratsionallashadi. Chunki inson tafakkur tarzi, hissiyotlari va yashash tarzi butunligicha ratsionalizatsiyaga uchraydi. Natijada ratsionallikning sof namunasi bo‘lmish fanning jamiyatdagi sotsial roli ortadi. Fan eng avvalo ishlab chiqarish, so‘ng boshqaruv va kundalik hayotga kirib keladi. Veber aynan shunda zamonaviy jamiyatning universal ratsionalizasiyasini ko‘rgan. Uning nazarida ratsionalizatsiya nafaqat tarixiy jarayon, balki insoniyat taqdirdir.

[4] Рационализм-лотинча rationalis-онгли, ratio-онг, ақл сўзларидан олинган.

6. Veberning ratsionalizasiya tamoyili uzviy ravishda uning sotsial harakat tushunchasi bilan bog‘liq. Olimning hokimiyat sotsiologiyasi ham bundan mustaso emas. Sotsial harakat Veberning legitim hokimiyat turlari ta’limotida muhim o‘rin egallaydi. «Hokimiyat, — deb yozadi u, — buyruqqa bo‘ysunish yehtimolini yaratadi». O‘z metodologiyasiga muvofiq Veber davlatning legitim tiplari tahlilini «bo‘ysunish motivlari»dan boshlaydi. U bundan motivlarning uch turini aniqlab, shunga mos ravishda hukmronlik turlarini ajratadi.

Hukmronlikning birinchi turi «legal» bo‘lib, uning asosida maqsadga yo‘naltirilgan harakat yotadi. Veber o‘z zamonasining g‘arb burjua davlatlari: Angliya, Fransiya va AQSh kabilarni legal turdagi hukmronlikka misol qilgan. Bunday jamiyatlarda shaxslarga emas, o‘ranatilgan qonunlarga hamma birdek bo‘ysunadi. Boshqaruv apparati maxsus o‘qitilgan davlat arboblaridan tarkib topib, ular adolatli bo‘lishlari, ya’ni rasmiy va ratsional harakatlanishlari talab etiladi. Rasmiy va qonuniy munosabatlar «legal davlat» asosida yotuvchi asosiy tamoyildir. Aynan mazkur tamoyilni Veber zamonaviy kapitalizmga turtki sifatida aytib o‘tgan.

Byurokratiyani Veber legal hukmronlikning eng sof ko‘rinishi deb atagan. Ammo, hech qaysi davlat butkul byurokratik bo‘lolmaydi: «Zinapoyaning yuqorisida merosiy monarxlar yoki xalq saylagan prezidentlar yoki parlament aristokratiyasi saylagan liderlar turadi». «Ratsional» davlat tipiga mos bo‘lgan davlat arbobidan yuqori malaka talab etilgan i uchun u yuridik bilimlardan tashqari maxsus ma’lumotga ham ega bo‘lishi kerak.

Veber ratsional-byurokratik boshqaruvning sof tipini quyidagicha tasvirlaydi: «Boshqaruv shtabi... alohida davlat arboblari birligidan tashkil topadi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishadi:

1) shaxsan erkin va faqat kasbiy burchga bo‘ysunishadi;

2) qat’iy xizmat iyerarxiyasiga ega;

3) qat’iy belgilangan kasbiy malakaga ega;

4) shartnoma asosida o‘z xohishi va malakasiga ko‘ra ishlashadi;

5) doimiy ravishda pul mablag‘lari bilan rag‘batlantiriladi;

6) o‘z ishlarini yagona va asosiy kasb sifatida ko‘rishadi;

7) kasbiy «o‘sish»ni boshliqlar yoki ularning iltifotisiz ko‘ra oladi, etisha oladi;

8) «boshqaruv vositalaridan ajralgan» va xizmat lavozimini o‘zboshimcha egallamay ishlashadi;

9) yagona va qat’iy o‘rnatilgan xizmat intizomiga bo‘ysunishadi.

Legitim hukmronlikning ikkinchi turi «axloq»qa asoslanib, Veber uni an’anaviy deb atadi. An’anaviy hukmronlik nafaqat qonunchilik, balki ilohiylik asosida mavjud bo‘ladi va uning negizida an’anaviy harakat yotadi. Bunday turdagi davlatning sof shakli Veberning fikricha, patriarxal hukmronlikda namoyon bo‘ladi. Unda hukmdorlar jamoa (Gemeinschaft) ga uyushib, unda boshliq - «xo‘jayin», boshqaruv shtabi - «yordamchilar», xizmatchilar - «xizmatkorlar» deb atalib, barchasi xo‘jayinga bo‘ysunishadi. Veber patriarxal tipdagi hukmronlikni ko‘p ma’noda tuzilishi jihatidan oila tuzilishiga o‘xshatgan.

Veber an’anaviy hukmronlikning sof patriarxal va tabaqali boshqaruv tizimiga ajratgan. Birinchi holda xizmatkorlar xo‘jayinga to‘liq qaram bo‘lishadi. Misol qilib, qadimgi Vizantiyani keltirish mumkin. Ikkinchi holatda esa «xizmatkorlar» hukmdorga shaxsan qaram bo‘lmaydi, ularning boshqarilishi qaysidir ma’noda avtonom hisoblanadi. Bu yerda tabaqa obro‘si, izzati tamoyili muhim rol o‘ynaydi. G‘arbiy Yevropaning feodal davlatlarini bunga misol qilish mumkin.

Veber uchinchi sof hukmronlik tipii sifatida xarizmatik[5] hukmronlikni ko‘rsatgan. Xarizma insonga tabiat, xudo, taqdir tomonidan berilgan ekstraordinar qobiliyati bo‘lib, bu xususiyat uni boshqa individlardan farqlab turadi. Xarizmatik xususityalarga Veber sehrgarlik iste’dodi, payg‘ambarlik qobiliyati kabi ruh va so‘z qudratini ko‘rsatuvchi xususiyatlarni kiritgan. Qahramonlar, buyuk sarkardalar, sehrgarlar, payg‘ambarlar va bashoratchilar, rassomlar, buyuk siyosatchilar, dunyo dinlari asoschilari — Budda, Iso, Muhammad payg‘ambar, buyuk sarkardalar — Iskandar, Sezar, Napoleon kabilar xarizma egalari sanaladi.

Affektiv sotsial harakat turi xarizmatik hukmronlikning asosiy tayanchi hisoblanadi. Veber xarizmani an’anaviy jamiyat turida mavjud bo‘lgan «buyuk revolyutsion kuch» sifatida baholab, u mazkur jamiyatlarning nodinamik tuzilishiga o‘zgartirishlar kiritishga qodir. Xarizmatik liderga bo‘lgan e’tiqod manbai shaxsning emosional tuyg‘ulari asosidagi ishonchi va sodiqligi bo‘ladi. Aynan shuning uchun xarizmatik sardor doimiy ravishda o‘zining xarizmasini yeslatib turishi kerak. Boshqaruv apparati boshqaruvchining xarizmasi va sardorga shaxsiy sodiqligi asosida tashkil etiladi. Bu yerda ratsional yoki an’anaviy tarzda o‘rnatilgan qonunlar yo‘q: barcha masalalar irratsional tarzda yechim topadi. Xarizmatik legitimlik tamoyili formal-ratsionalga qaraganda avtoritar bo‘ladi.

[5] Харизма – (юн. charisma – илтифот, худо лутфи) – худо лутфи ҳисобланган бошқаларга ўхшамайдиган юксак қобилият ёки ноёб истеъдод.

Legal hukmronlik an’anaviy va xarizmatikka nisbatan barqaror legitimlashtirish kuchiga egadir. Veber legal hukmronlik tipi maqsadga yo‘naltirilgan harakat asosida shakllanishini aytgan. Legal hukmronlikda aynan shu vazifani formal va ratsional byurokratiya bajaradi.

Ratsional hukmronlikdagi munosabatlarni Veber xususiy tadbirkorlik sohasi bilan anologik ravishda o‘rganib, legal tipdagi hukmronlik shakllanishining ilk «hujayra»si deb iqtisodiyot sohasidagi munosabatlarni ko‘rsatgan.

Veber ratsionallikni formal va funksional ratsionallik sifatida tushungan. Uning to‘la rivojlanishi uchun erkin fnksional boshqaruv tipi paydo bo‘lishi kerak. Legal hukmronlikni Veber shunga misol qiladi. Ammo maqsadga yo‘naltirilgan sotsial harakat tipidan kelib chiqqan hukmronlik maqsad emas, balki vosita. Shuning uchun legal hukmronlik yetarlicha legitim kuchga ega emas va an’ana hamda xarizma bilan mustahkamlanishi kerak.

Veber zamonaviy G‘arb jamiyati uch bir-birini to‘ldiruvchi elementlarga ega bo‘lishi kerak deb hisoblaydi. Bular boshqaruv apparati («mashina»), siyosiy xarizma lider va parlament. Boshqaruv apparati hokimiyatni amalga oshiruvchi ratsional vosita, lider-xarizmatik siyosiy dastur va «qadriyatlar» ni shakllantirib, uni ijro qiluvchi hokimiyatga ega. Parlament esa apparat va qisman liderni tanqid va nazorat qiladi.

Birinchi holatda legal hukmronlik legitimligi an’analar, ikkinchi holatda esa xarizma orqali amalga oshiriladi. Veber ijodining so‘nggi yillarida parlamentar legallikni plebissitar legitimlik bilan to‘ldirish kerakligi haqidagi fikrga keldi. Uning nazarida faqatgina plebissit[6] siyosiy liderga o‘z siyosatini to‘laqonli olib borish, davlat byurokratik tizimini yo‘naltirish imkonini beradi.

Veber «ratsionallik» tushunchasini o‘zi uchun muhim bo‘lgan qadriyat – ozodlik bilan uzviy bog‘lagan. U inson xatti-harakatining ratsionallik darajasi uning ozodlik, erkinlik darajasini belgilaydi degan. Insoning «ozodlik tuyg‘usi» ratsional harakat amaliyotda namoyon bo‘lganida o‘z ifodasini topadi. Harakat jismoiniy yoki psixik «majburlov»lar, ehtirosli «affekt»lar va «tasodifiy» ongning ta’sirisiz va maqsadli, anglangan bo‘lsa ratsional sanaladi. Veber inson harakatlari ratsional bo‘lganida, u ozod bo‘ladi degan.

[6] Плебисцит – халқнинг фикрини олиш, алоҳида муҳим масалаларни аҳоли ўртасида овозга қўйиш (референдум)

Veber «Protestant axloqi va kapitalizm ruhi» asarida ratsionallik tamoyilini protestant axloqi asosidagi iqtisodiyotdagi bog‘liqligini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan.

7. Veberning din sohasidagi tadqiqotlari «Protestant axloqi va kapitalizm ruhi» (1904) asaridan boshlangan va yirik tarixiy-sotsiologik ekskurslar bilan yakunlangan. Mazkur asar hinduizm, buddizm, konfusiylik, daosizm, iudaizm va boshqa dinlar tahliliga bag‘ishlangan. Veberning din borasidagi izlanishlarini ikki bosqichga ajratsa bo‘ladi. Bu davrlar nafaqat tadqiqot predmeti, balki tadqiqot maqsadiga ko‘ra ham farqlanadi.

Birinchi bosqichda, ya’ni «Protestant axloqi va kapitalizm ruhi» asari ustida ishlash davomida Veber protestantizm vujudga kelishi natijasida diniy axloqning o‘zgarishi kapitalizmning yaratilishi va keng ma’noda ratsionalizm tamoyilining hayotga kiritilishiga qay darajada ta’sir etganini aniqlashga harakat qilgan. Shuning uchun tadqiqot predmeti sifatida diniy, axloqiy tamoyillar va iqtisodiy faoliyat shakllari o‘rtasidagi bog‘liqlik hisoblangan. Bu asarida mavjud bo‘lgan din va iqtisodning o‘zaro bog‘liqligi va ta’siri mavzusi Veberning boshqa dinga oid asrlarida ham mavjud. U iqtisodiy faoliyatning ratsionallik darajasiga asoslangan holda taqqoslashni tahlil qilishning asosiy vositasi deb bilgan. Veberga ko‘ra ratsionallik darajasi ilohiylik elementiga teskari proporsional bo‘lib, u har bir dinda kuzatiladi. «Ratsionallik-ilohiylik» qarama-qarshilik juftligi bo‘lib, «Dunyo dinlari xo‘jalik axloqidagi asosiy o‘rganish vositasi hisoblanadi.

Aynan din sotsiologiyasi orqali Veber sotsial harakat kategoriyasini ochib bermoqchi bo‘lgan. Real sotsial harakat momentlarini bir-biridan ajratish qiyin bo‘lgani kabi din va davlat, axloq va qonun chegaralarini qat’iy belgilash qiyin. Zero, tarixan ular o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lishgan.

Ammo tadqiqoti davomida Veber ongli ravishda ularni ajratib, shu orqali bog‘liqlik «mexanizm»larini ochishga intiladi. Shuning uchun «Dunyo dinlarining xo‘jalik axloqi» asarida nafaqat xo‘jalik va din munosabatlari, balki din va hukmronlik shakllari, din va san’at, din va fanlar, din va falsafa kabi masalarga to‘xtalgan.

Ammo, mavzuning kengayishi va chuqurlashishiga qaramay Veberning din axloqini o‘rganishda qo‘llagan metodologik tahlil usuli o‘zgarishsiz qoladi. U avvalgiday taqqoslash etaloni sifatida maqsadga yo‘naltirilgan harakatni qo‘yib, uning sof ko‘rinishi sifatida iqtisodiy harakatni ko‘rsatgan.

Veber dinlarni o‘rganishda alohida individ va uning motivlari, ya’ni kechinmalari, tasavvuri, maqsadidan kelib chiqqan. U har qanday, hatto primitiv dinlarda topinish va sajda qilish harakatlarini e’tiborga olib, ular ilohiy maqsadlarni ko‘zlanishini ko‘rsatgan. Aynan topinish va sajda qilish harakatlari aniq ilohiy maqsadlarni ko‘zlagani uchun ratsional deb baholanishi mumkin. Veberning o‘z ushbu harakatni «nisbatan ratsional» xarakterga ega deb aytgan.

Veber din sotsiologiyasining ikkinchi muhim jihati uning individ ilohiy qobiliyatlari tufayli, ya’ni kohin, shaman, payg‘ambar, afsungar kabi bo‘la olishini e’tiborga olishidir. Mazkur xususiyatlar, ya’ni individual xarizma muhim sotsial kuchga ega, ammo u irratsional hisoblanadi. Veber tadqiqot predmeti sifatida rivojlangan mamlakatlar dinlarini oladi. Chunki ular nisbatan yuqori sotsial differensiasiyaga ega bo‘lib, yetarlicha intellektual rivojlanish va o‘z-o‘zini aniq anglovchi shaxs paydo bo‘lishi bilan izohlanadi. Dunyo dinlarida ilohiylik, topinish va sajda elementlari kuzatilsa-da, guruhiylikdan individuallik xususiyati ortadi va odat, urflarga nisbatan dogmatik va axloqiy qarashlar kuchi ortadi.

Shunga ko‘ra ilohiylik elementi o‘troq aholi - dehqonlar qatlamiga; taqdir, qismatga ishonch - istilochi xalqlar va harbiy qatlamga; ratsionalistik xarakter - shahar qatlami, jumladan hunarmandlarga xosdir. Ammo dunyo dinlari faqat bitta qatlam orasida tarqalmagani uchun unda turli xilma-xillikda, har xil momentlar birlashadi.

Veber dinlarni ularning dunyoga bo‘lgan turlicha munosabati asosida tasniflaydi. Misol uchun konfutsiylik dunyoviylikni; buddaviylik esa tarkidunyochilikni targ‘ib qiladi. Veber Hindistonni dunyoni rad etuvchi diniy-axloqiylik ta’limotlar beshigi deb atagan. Islom, xristianlik, zardushtiylik kabi ba’zi dinlar esa dunyoni doimiy taraqqiyot va rivojlanish asosida qabul qiladi.

Dinning dunyoviylikni qay darajada tan olishi uning siyosat sohasiga va umuman hukmronlik va zo‘ravonlikka bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Dunyoni rad ye’tuvchi dinlar odatda siyosatdan yiroq turadi va zo‘ravonlikni inkor etadi. Buddaviylik bunga yorqin misol bo‘ladi. Ammo, siyosatdan yiroq bo‘lmagan holda zo‘ravonlikni inkor etuvchi dinlar ham mavjud.

Veber diniy-axloqiy ko‘rsatmalarni ular taqdim yetayotgan gunohlardan xalos bo‘lish, qutulish yo‘llari orqali tahlil qiladi. U shaxsiy harakatlar (buddaviylik) va vositachi-xaloskor orqali (iudaizm, xristianlik) qutilish yo‘llarini ko‘rsatgan.

Birinchi usulda odat, marosimlar yoki sotsial harakatlar (konfutsiylikda yaqindagilarga yordam berish, xayriya qilish) va komillikka intilish tarzida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi holatda esa xaloskor orqali inson o‘z jonini qutqarishi ko‘zda tutilgan. Buning o‘ziga xos uch turi mavjud: birinchisi, guruhga a’zo bo‘lish (cherkovga a’zo bo‘lish); ikkinchisi, e’tiqod orqali (iudaizm, lyuteranlik); uchinchisi, taqdir, qismat iltifoti va lutfi orqali (islom, kalvinizm).

Veber uchta ideal tipni ko‘rsatgan:

1) birodarlar muhabbati axloqi («ezgulik»);

2) formal ratsionallik, ya’ni qadriyatlardan xoli va sof funksional «aql»;

3) stixiyali ekstaz boshlanishi, xarizma, ilohiy dinlar asosi (eng irratsional hayotiy kuch - jinsiy muhabbat tomonida bo‘lgan irratsional «kuch», stixiyali «qudrat», «nafosat»). Shubhasiz, real hayotda mazkur ideal tiplar sof holatda uchramaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Maks Veberning sotsiologik tadqiqotlarini xususiyatini bayon eting
2. Veberning sotsiologik nazariyasida ideal tip tushunchasi qanday ifodalanadi?
3. Tushunish muammosi va «sotsial harakat» tushunchasini VEber qanday talqin etadi?
4. Veber sotsial harakat tuzilishi va turlari haqida qanday fikrlarni ilgari suradi?
5. Veberning sotsiologik nazariyasida ratsionallik tamoyili qanday o‘rin tutadi?
6. Veber jamiyatda hukmronlik tiplari xususida qanday g‘oyalarni ilgari suradi?
7. Veberning din sotsiologiyasini mohiyatini yoritiib bering

10-MAVZU. V.PARETO SOTSIOLOGIK TA’LIMOTI

REJA:

1. Paretoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari va sotsiologik tadqiqotlari.
2. Sotsiologiya metodologiyasi Pareto talqinida.
3. Jamiyat individlarning o‘zaro munosabatlari Pareto tomonidan tizim sifatida ifodalanishi.
4. Paretoning sotsiologik nazariyasida psixologik reduksionizm.
5. Sotsiologiyada Pareto ishlab chiqqan elita nazariyasi.

1. Vilfredo Pareto italiyalik muhandis, iqtisodchi va sotsiolog olim. U elita nazariyasining asoschisi sanaladi. Uning fikricha, jamiyat piramidaga o‘xshash tuzilishga ega bo‘lib, uning yuqorisida elita, jamiyat hayotini boshqaruvchi va yo‘nalturuvchi sotsial qatlam joylashadi. Jamiyatning istiqbolli rivojlanishi elitaning o‘z vaqtidagi almashinuvi natijasidir.

Italiyaning pozitivistik sotsiologiyasi yeklektik hisoblangan. U o‘zida mexanisizm, evolyutsionizm, vulgar biologizm va boshqa oqimlarning elementlarini birlashtirgan. Chezare Lombrozo (1836—1909), Enriko Ferri (1856—1929) va boshqa olimlarning konsepsiyalari bunga misol bo‘ladi. Italiyalik siyosiy sotsiologiya sohasida ijod qilgan mashhur olimlari Gayetano Moska (1858—1941), Robert Mixels (1876—1936) va boshqalarning qarashlari ham e’tiborga molikdir. Vilfredo Paretoning ko‘p qarashlari ularnikiga monand hisoblanadi.

Vilfredo Pareto 1848-yil 15-iyulda Parijda italiyalik zodagon – markiz xonadonida tavallud topgan. Uning otasi asli Genuya shahridan bo‘lib, liberal va respublikachilik qarashlari tufayli emigrant holiga tushgan. Paretoning onasi esa fransuz edi. Olim yoshligidan fransuz va italyan tillarini birday yaxshi bilgan. Ammo butun umr o‘zini eng avvalo italyan deb his qilganini aytib o‘tgan.

1858-yil Paretoning oilasi Italiyaga qaytishadi. U shu yerda yuqori darajada gumanitar va texnik ma’lumot oladi. Shu kezlarda u matematikaga alohida e’tibor qaratgan. 1869-yilda esa Turindagi Politexnika maktabini tugatgach, «qattiq jismlar muvozanatining fundamental tamoyillari» mavzusida dissertasiya yoqlaydi. Muvozanat masalasi uning iqtisod va sotsiologiya sohalarida yozgan asarlarida asosiy o‘rinni egallaydi. Ko‘p yillar davomida Pareto temiryo‘l boshqarmasi va metallurgik kompaniyasida yirik lavozimlarda ishlagan.

XIX asrning 90-yillarda u siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanadi. Ammo bu urinishi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Shu paytning o‘zida u

publitsistik faoliyatga katta urg‘u beradi. Mumtoz adiblarning asarlarini o‘qib, tarjima qiladi. 90-yillarning birinchi yarmida Pareto iqtisodiy nazariya va matematik iqtisodiyot sohalarida bir qator tadqiqotlar o‘tkazib, ularni ommaga taqdim qiladi. 1893-yildan umrining so‘nggi yillariga qadar u Shveysariyadagi Lozanna universitetining siyosiy iqtisodiyot bo‘yicha professori bo‘lib qoladi.

Pareto umrining oxirgi yillarida Italiyada fashistik rejim o‘rnatilayotgan edi. Mazkur rejimning ba’zi ko‘zga ko‘ringan namoyondalari va, eng avvalo, Duchening o‘zi o‘zlarini Lozanna universiteti professorining shogirdlari deb o‘ylashgan. Shu tufayli Pareto 1923-yil Italiya senatori maqomini olishga sazovor bo‘lgan. Olimning o‘zi yangi rejimga nisbatan vazmin munosabatda bo‘lgan va uni liberal bo‘lishga, fanga erkinlik berishga chaqirgan.

Pareto 1923-yil 20-avgustda Selinyada (Shveysariya) vafot etdi. U umrining so‘nggi yillarini shu shaharda o‘tkazgan va shu yerda dafn qilingan.

2. Paretoning nazarida, uning sotsiologik tizimi XIX asr ijtimoiy-siyosiy qarashlarida asosiy o‘rinni egallagan jamiyat to‘g‘risidagi metafizik va spekulyativ qarashlarga chek qo‘yishi kerak edi. U pozitivizm asoschilari Kont, Mill va Spenserning sotsiologik nazariyalarini umuman olganda qo‘llab-quvvatlagan. Ammo, olim ularni haqli ravishda bilimni amaliy asoslash tamoyilini tartibsiz qo‘llaganini tanqid qilgan. Uning fikricha, sotsiologiya huquq, siyosiy iqtisodiyot, siyosiy tarix, din tarixi kabi har xil maxsus fanlarning sintezi bo‘lib, asosiy maqsadi jamiyatni yaxlit holatda o‘rganishdan iborat.

Jamiyatning tashkil topishi, faoliyati va o‘zgarishlarining asosiy tamoyillarini ochib berishda Pareto mantiqiy-eksperimental usuldan foydalangan. U sotsiologiyani fizika, kimyo va astronomiya kabi aniq fanlar darajasiga ko‘tarishni istab, faqatgina amaliy asoslangan fikrlarni bildirishni taklif qilgan. Kuzatishlar esa mantiqiy qoidalarga qat’iy rioya etilgan holda umumlashtirilishi zarur bo‘lgan.

Paretoning fikricha, nazariyada axloqiy va umuman qadriyat elementlari doim faktlarni buzib ko‘rsatishga olib keladi. Shuning uchun ulardan imkon qadar voz kechish talab etiladi.

Paretoning nazarida har bir nazariyani uch jihatdan ko‘rib chiqish mumkin:

1) obyektiv - muallif va uni qabul qiluvchidan (resipiyent) qat’iy nazar;

2) subyektiv - muallif va resipiyentni e’tiborga olgan holda (odatda muallif nima sababdan o‘z nazariyasini yaratgani va ma’lum individ uni qabul qilayotganini aniqlash kerak bo‘lganida qo‘llaniladi);

3) utilitar - uning ijtimoiy yoki individual foydaliligi nuqtayi nazaridan.

Foydalilik nazariyaning obyektiv yoki subyektivligiga bog‘liq emas. Haqiqat neytral bo‘lib, o‘zining ijtimoiy sifatini ma’lum maqsad yo‘lida ishlatilganida topadi. Natijalar jamiyat uchun foydali bo‘lib chiqsa, nazariya ham foydali sanaladi. Aks holatda esa nazariya zararli hisoblanadi. Shu bilan birga Pareto hamma nazariyalarni teng ravishda murakkab, cheklangan, deformatsiyaga uchragan deb hisoblaydi. Chunki unga qadar biror sotsiolog mantiqiy-eksperimental usuldan foydalanmagan.

Pareto «sotsial fakt» tushunchasini sharhlaganida obyektivlik va subyektivlik o‘rtasidagi farq yaqqol ko‘ringan. U gnoseologik, moddiy yoki g‘oyaviy jihatdan, shuningdek, haqqoniyligi va murakkabligiga ko‘ra faktlar o‘rtasidagi farqni ko‘rmagan.

Pareto monokauzallik (yagona sabab) tamoyiliga qarshi chiqqan. U sabab-oqibat munosabatlarining o‘rniga o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro aloqadorlikni (funksionalizm) taklif qilgan. Chunki, sotsial nazariya jamiyatda mavjud bo‘lgan barcha omillarni e’tiborga olishi va ular o‘rtasida doimiy bog‘liqlik munosabatlarini o‘rnatishi lozim. Shu asosga ko‘ra, Pareto bir chiziqli evolyutsiya tushunchasini rad etgan. U evolyutsiya bitta uzluksiz chiziq bo‘ylab rivojlanmasligini ta’kidlagan.

Pareto ilmiy terminologiyaning aniq bo‘lishiga katta e’tibor qaratgan. Ammo o‘zi qo‘llagan tushunchalarga qat’iy ta’riflar bermagan.

3. Paretoning asosiy g‘oyalaridan biri jamiyatning sekinlik bilan parchalanadigan va qayta tiklanadigan muvoznat holatidagi tizim ekanidir. Muvozanat tushunchasini Pareto Valrasning iqtisodiy nazariyasidan olgan bo‘lib, unga mexanistik xarakter baxsh etgan. Tizimning bir qismida sodir bo‘lgan o‘zgarish boshqa qismiga ham, albatta, o‘tadi va «dinamik muvozanat» tiklangunga qadar butun tizim harakatga keladi.

Pareto iqtisodni sotsial tizim ichidagi tag tizim sifatida ko‘rgan. Uning fikricha, iqtisodiy tizim ehtiyojlari va ratsional manfaatlari tufayli harakatga kelgan insonlardan tashkil topadi. Sotsial tizim esa murakkabroq sanaladi. Sotsial harakatda his tuyg‘uga ega bo‘lgan individlar ishtirok etadi. Individlarning psixik tuzilishiga bog‘liq bo‘lgan hissiyotlari butun tizimni harakatga keltiruvchi asosiy muruvvat

hisoblanadi. Hissiyotlarni boshqa ratsional kechinmalarga qaraganda tushunish qiyinroq bo‘ladi.

Pareto sotsial harakatning mantiqiy va mantiqiy bo‘lmagan turlarini ko‘rsatgan. Ular o‘rtasidagi farqni anglash uchun esa olim sotsial harakatni tarkibiy yelemenlariga ajratgan. Bular tashqi kuzatilgan harakat, uning ratsional asoslanishi va harakatlanuvchi shaxsning psixik holati. Pareto individning psixik holatini sotsial fenomenning «obyektiv» asosi deb bilgan. Uning subyektiv asosi esa harakatlanuvchi shaxsning ratsional tarzda keltirgan dalil-isbotlaridir.

Paretoning fikricha, sotsiologlarning asosiy xatosi ularning voqelikning obyektiv tomonidan ko‘ra subyektiv tomonini o‘rganishlaridir. «Obyektiv» sotsiologik tadqiqot esa shaxsning psixik ko‘rsatmalarini va ular asosida kelib chiqqan «mantiqiy bo‘lmagan» harakatlarni o‘rganishi kerak. Aynan shunday harakat inson hayotida ko‘p uchraydi.

Paretoga ko‘ra, «Mantiqiy bo‘lmagan» harakat o‘ziga xos tuyg‘ular mantiqiga asoslanadi. Mantiqiy harakatdan farqli o‘laroq ular insonning ongli mushohadasi va mulohazasi, balki hissiyotlari, ya’ni irratsional psixik jarayon mahsuli sanaladi. Misol uchun ilohlarning marhamatiga erishish uchun qilingan qurbonlik va boshqa diniy marosimlar orqali o‘z maqsadiga etishdir. Bu kabi vositalar maqsad bilan obyektiv tarzda bog‘liq emas, shuning uchun unga etishtira olmaydi.

«Mantiqiy» harakat esa, aksincha, aql va normalar bilan boshqariladi. His-tuyg‘u va irratsional holatlar unga yotdir. Iqtisodiyot, fan va qisman siyosat sohasi uchun bunday harakatlar odatiy hisoblanadi. Mazkur holatda vosita va maqsad o‘zaro obyektiv mantiq bilan bog‘lanadi. Shuning uchun ham maqsadga etishishni ta’minlaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda vositalar maqsadga muvofiq (adekvat) sanaladi.

Pareto individning mantiqiy bo‘lmagan va irratsional tabiatini inobatga olib, insonning xatti-harakati hech qachon mohiyatan ko‘rinishiga muvofiq kelmaydi. Insonlar hisiyotli va ongli mavjudot bo‘lgani uchun hissiyot va aql o‘rtasidagi ziddiyat kelib chiqadi. Pareto hech ikkilanishsiz hislarni birinchi o‘ringa qo‘ygan. Chunki u insoniyat tarixini harakatga keltiruvchi asl kuch sifatida inson hissiyotlarini ko‘rgandi.

4. Pareto inson faoliyatining yemosional sohasini sotsiologik tizimining asosiy bo‘g‘ini ekanini ta’kidlagan holda u faqatgina ma’lum harakatlarda namoyon bo‘lgan va shu asosda tasniflanadigan emotsiyalarni e’tiborga molik deb aytgan. Ular o‘zgarmas, doimiy va

shuning uchun «sotsial muvozanatni aniqlovchi» elementlar hisoblanadi. Pareto bu elementlarni o‘ziga xos tarzda nomlagan va ularni tarjima qilish yetarlicha mushkul — «rezidui» (residui). Bu so‘z kimyo fanida «qoldiq» yoki «cho‘kindi» ma’nolarini ifodalaydi.

«Qoldiq»lar his-tuyg‘u, emotsiya, ehtiros, instinkt, psixik holatlar va moyilliklarning asosi sifatida tug‘ma, tabiiy va tashqi omillar ta’siriga berilmaslik xarakteriga egadirlar. Ular ichki biologik impulslar sanalib, inson sotsial harakatini aniqlab beradi. Bir qancha tag guruhlarga bo‘lingan olti asosiy «qoldiq» guruhlar asosida Pareto insonning turli-tuman harakatlarini tushuntirib berishga intilgan. U tarixiy harakatlarni yanada tizimlashtirish oqibatida birinchi ikki «qoldiq»ning o‘rnini yuqori baholagan.

Birinchi guruh - «kombinatsiyalar instinkti». Paretoning fikricha, u barcha sotsial o‘zgarishlarning asosida yotadi. Bu insonning terish, joyini almashtirish, narsalarni kombinatsiyalashga bo‘lgan ichki psixologik moyilligi bo‘lib, mazkur harakatlarni inson birinchidan, qoniqish olish, ikkinchidan, bundan tiyilib turolmagani uchun bajaradi.

Ikkinchi guruh - «agregatlar doimiyligi». Qachonlardir qaror topgan aloqalarni quvvatlash va saqlashda namoyon bo‘ladi. Bu konservativ tuyg‘u yangilikka qarshilik, istalgan o‘zgarishlarni nisbatan dushmanlik kayfiyatida kutib olish kabilarda namoyon bo‘ladi.

«Qoldiq»larning boshqa guruhlariga Pareto insonning ijtimoiy harakatlarda o‘z tuyg‘ularini ko‘rsatish, ijtimoiylik, mulkka egalik tuyg‘usi va jinsiy instinkni kiritgan.

U inson psixikasining hissiyotga doir sohasini asosiy o‘ringa qo‘yib, shu asosida o‘zining ideologiya, sotsial stratifikasiya va elita nazariyalarni yaratdi.

5. Paretoga ko‘ra, sotsial tizimning jiddiy elementi sotsial geterogenlik bo‘lib, individlarning avval boshdan notengligi bilan aniqlanadi. U yoki bu sotsial guruhning xususiyatlari uning a’zolarining qobiliyati va iste’dodiga bog‘liq, bu esa guruhning jamiyatda tutgan u yoki bu pog‘onaisni belgilaydi. O‘z sohasida yuqori natijalarga ega bo‘lgan guruhni Pareto elita nomi bilan ataydi. Elita - bu aholining tanlangan qismi bo‘lib, aholining qolgan qismi ularga moslashib, uning rag‘batiga intilishadi. O‘z navbatida elita ikki qismga ajraladi. Birinchisi bevosita yoki bilvosita jamiyatni boshqarishda ishtirok yetib, «hukmron elita» nomini olgan. Boshqa qismi esa boshqaruvda ishtirok yetmaydi, balki san’at va ilmiy sohalarda faoliyat olib boradi. («boshqarmaydigan elita»).

Elita va noelita mos ravishda jamiyatning yuqori va quyi qatlamlarini tashkil etadi. Quyi qatlam vakillarining eng iqtidorlilari «yuqori»ga ko‘tarilishadi va boqaruvchi elita qatlamini to‘ldiradi. O‘z navbatida elita vakillari «quyi»ga tushishadi. Bu yerda Paretoning fikrlari Tard, Lebon, Moskalarning jamiyatni ixtirochi va taqlidchilar, sardorlar va omma, hukmdorlar va bo‘ysunuvchilarga ajratuvchi nazariyalariga o‘xshashligi yaqqol ko‘rinadi.

Elita sirkulyasiyasi - bu geterogen jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar jarayoni bo‘lib, Pareto buni piramida shaklida tasvirlagan. Bunda elita piramidaning yuqorisida joylashadi. Elita istalgan vaziyatda o‘zini sovuqqon tuta bilishi, hisob-kitob, boshqalarning nimjon va ta’sirlanuvchi tomonlarini ko‘rsatish va o‘z manfaati yo‘lida ishlata olish kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Oddiy omma esa odatda emotsiya va hissiyotga beriluvchan bo‘ladi. Bu jamiyatning ikki qismga ajralishini asoslab beradi. Bilimga ega bo‘lganlar hissiyotni birinchi o‘ringa qo‘yuvchilarni boshqarishadi. Chunki ularning harakatlari aql asosida bo‘lgani uchun dono sanaladi.

Pareto boshqaruvchilarning ikki asosiy sifatini ko‘rsatadi: ishontirish, o‘z fikriga og‘dirish, inson emotsiyalarini manipulyatsiya qilish va kerak bo‘lgan vaziyatlarda kuch ishlata olishdir. Mazkur qobiliyatlar bir-birini inkor etadi. Hukmdorlar kuch yoki kelishuv, ishontirish orqali boshqarishadi. Kelishuv va kuch butun tarix davomida boshqaruv quroli sifatida namoyon bo‘lgan.

Hukumat emotsiyalarni qanchalik yaxshi ishlata olsa, uning siyosati shunchalik muvaffaqqiyatli bo‘ladi. Pareto bo‘yicha, mazkur tamoyil istalgan siyosiy muvaffaqqiyatni ta’minlaydi. Kuch ishlata olmagan elita o‘ziga nisbatan kuchliroq, jur’atli va zo‘ravonlik ishlata oladigan elitaga o‘rinini beradi.

Tinch davrda hukmron elitaning almashish mexanizmi sotsial mobillik sanaladi. Boshqaruvchi sinf qanchalik «ochiq» bo‘lsa, uning «sog‘ligi» kuchli bo‘ladi va o‘z hukmronligini saqlaydi.

Elita sirkulyasiyasi sekin kechsa, yuqori qatlamda kuchsizlik, nimjonlik, tanazzul va tushish elementlari ko‘rina boshlanadi. Mazkur qatlamlar elitar holatni ta’minlovchi psixik xususiyatlarni yo‘qota boshlaydi va zo‘ravonlik qilishda ojizlik bildiradi. Quyi qatlam orasida jamiyatni boshqarishga qobiliyati bo‘lgan individlar paydo bo‘ladi. Ular zo‘ravonlik vositasida hokimiyatni egallashi mumkin. Ammo yangi shakllangan sinf ham o‘z navbatida kuchsiz, nimjonlashadi va boshqarish xususiyatini yo‘qotadi. Mazkur elita yo‘qotgan qudratini quyi sinfdan

qobiliyatlilarini olish yoki keraksiz bo‘lib qolgan a’zolarini jismonan yo‘qotish orqali qayta tiklashi mumkin. Ammo bu amallar ham foyda bermasa, quyi qatlam vakillari orasida yuqori sinf maqomiga munosiblar paydo bo‘ladi. Natijada inqilob davri boshlanadi. Uning asosiy maqsadi hukmron elita tarkibini o‘zgartirishdan iborat. Elitaning ko‘tarilish va tushish, yuksalish va pasayish davrlari kerak va ilojsiz holatdir. Elitaning almashishi insoniyat jamiyati mavjudligining qonuniyati sanaladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Paretoning ijtimoiy siyosiy qarasharini bayon eting
2. Paretoning sotsiologik tadqiqotlari va asarlarini haqida ma’lumot bering
3. Pareto sotsiologiya metodologiyasini qanday talqin qiladi?
4. Jamiyatning tashkil topishi, faoliyati va o‘zgarishlarining asosiy tamoyillarini ochib berishda Pareto qanday usuldan foydalangan?
5. Jamiyat individlarning o‘zaro munosabatlarini Pareto qanday tushuntiradi?
6. Paretoning sotsiologik nazariyasida psixologik reduksionizm qanday bayon etilgan?
7. Sotsiologiyada Pareto ishlab chiqqan elita nazariyasini mohiyatini yoritib bering
8. Pareto sotsial harakatning qanday turlarini ko‘rsatgan?

11-MAVZU. SOTSIOLOGIYADA NEOPOZITIVISTIK YO‘NALISh

REJA:

1. Sotsiologiyada neopozitivizmning yuzaga kelishi
2. XX asr AQSh sotsiologiyasida empirizm nazariyasi
3. Chikago maktabi vakillarining sotsiologik nazariyalari
4. Kolumbiya maktabida sotsiologik nazariyalar

1. Sotsiologiyada neopozitivizm – falsafaning mantiqiy pozitivizmiga tayanuvchi nazariy-metodologik yo‘nalishdir. Neopozitivizmning asosiy tamoyillari quyidagilardan iboratdir:

1) Ijtimoiy voqea-hodisalar butun bir borliq uchun umumiy bo‘lgan tabiiy va ijtimoiy-tarixiy qonunlarga bo‘ysunadi (naturalizm);

2) Sotsial tadqiqot usullari tabiatshunoslik fanlari usullari kabi aniq, qat’iy va obyektiv bo‘lishi lozim (ssiyentizm);

3) Inson xulq-atvorining “subyektiv jihatlari” faqatgina ochiq xulq-atvor orqali tadqiq etilishi lozim (bixeviorizm);

4) Barcha ilmiy tushunchalar operatsional tarzda aniqlanishi lozim (operatsionalizm);

5) Barcha ijtimoiy voqea-hodisalar miqdoriy jihatdan qayd yetilishi va o‘rganilishi lozim (kvantifikatsiya);

6) Sotsiologiya fan sifatida qadriyatli hukmlardan va mafkuradan xoli bo‘lmog‘i lozim (metodologik obyektivizm);

Ushbu tamoyillar asosida neopozitivizm vakillari inson xulq-atvori motivlarini faqatgina konkret xatti-harakatlarni kuzatish orqaligina tadqiq etish mumkinligini ta’kidlaydilar. Shuningdek, bu xatti-harakatlarda faqatgina moddiy-texnik omillarning rolini aynanlashtiradilar. Quyidagi talablarga javob bergandagina sotsial voqea-hodisalar tadqiqoti o‘zining haqqoniyligini namoyon etadi:

a) miqdoriy jihatdan, matematik usullar asosida qayd etish mumkin bo‘lganda;

b) hissiy ma’lumotlarga asoslanganda;

v) empirik jihatdan tekshirish mumkin bo‘lganda.

Shuni ta’kidlash lozimki, ijtimoiy hayotning barcha voqea-hodisalarini ham (masalan, psixik jarayonlar) miqdoriy jihatdan qayd etish va o‘rganish, ijtimoiy qonuniyatlarni ratsional tafakkur tushunchalarisiz tadqiq etish, ko‘pgina nazariy mushohadalarning (masalan, jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti istiqbollari haqidagi) haqqoniyligini bevosita verifikatsiya orqali tekshirish mumkin emas.

2. Neopozitivizm o‘zlarini “ilmiy sotsiologiya” vakillari yoki sotsiologiyada “tabiiy-ilmiy” yo‘nalish vakillari deb hisoblovchi umumiy bir g‘oyada birlashgan alohida bir necha maktablardan tashkil topgan yo‘nalishdir. Vena to‘garagi tarkibida shakllangan bu oqim keyinchalik AQSh sotsiologiyasiga kuchli ta’sir o‘tkazib, XX asr boshlaridan empirik sotsiologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Natijada, bevosita amaliy ishlarga e’tiborning kuchayishi oqibatida, sotsiologiya ijtimoiy ish bilan tenglashtirildi. Nazariy va metodologik bazaning etishmovchiligi – ushbu davr kamchiligi sifatida empirizm va pragmatizm kabi xususiyatlarni namoyon qildi.

Amerika sotsiologiyasida psixologik yo‘nalish asoschilaridan biri Lester Frank Uord (1841-1913) boshchiligida XX asr boshlaridan AQShda ilk empirik tadqiqotlar o‘tkazila boshlandi. L. Uord kapitalistik jamiyat doirasida ijtimoiy islohotlarning nazariy bazasini ta’minlab berishga qaratilgan empirik tadqiqotlar tamoyillarini shakllantirdi.

L.Uord g‘oyalarining davomchisi, AQSh psixologik sotsiologiyasining yirik vakili Franklin Genri Giddins (1855-1931) ham empirik sotsiologiya rivojiga katta hissa qo‘shdi, u sotsiologiyada empirik tadqiqotning statistik usulini ishlab chiqdi. Uning fikriga ko‘ra, sotsiologiya individlarning xulq-atvorlarini ularning atrof-muhit ta’siriga reaksiyasi yig‘indisi sifatida talqin etiluvchi “plyuralistik xulq-atvor”ni statistik usullar orqali o‘rganishi lozim.

Amerika sotsiologiyasining empirik sotsiologiya rivojiga qo‘shgan hissasi bilan bir qatordagi yana bir o‘ziga xos o‘rni shu bilan belgilanadiki, aynan AQShda sotsiologiya fanini institutsionallashtirishga to‘liq erishildi, ya’ni ilk “Sotsiologiya” kafedrasi AQShning Chikago universitetida ochildi. Chikago va Kolumbiya universitetlarida sotsiologik maktablar shakllandi.

3. Chikago maktabi vakillariga U. Tomas, F. Znaneskiy, R. Park, U. Ogbornlar kiradi.

Uilyam Ayzek Tomas (1863-1947) – Chikago universiteti sotsiologiya professori (1900-1918), sotsiologiyada psixologizm vakili, sotsiologiya fanining ilk ilmiy jurnali “American Journal of Sociology ”ning redaktori (1895-1917), shuningdek, Chikago maktabining asoschisi hisoblanadi. Uning fikriga ko‘ra, sotsiologiya keng doiradagi muammolarni, ya’ni individ va ijtimoiy guruh, individ va madaniy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni, ijtimoiy holatlarda individ xulq-atvorlari qonuniyatlarini, individning guruhga va bir ijtimoiy guruhning boshqa bir guruhlarga moslashuvi jarayonlarini o‘rganish bilan shug‘ullanishi lozim, bunda tabiiy fanlar usullariga tayanish zarur.

Ijtimoiy holat tushunchasi – U. Tomas nazariyasining asosiy tushunchasi hisoblanib, u uchta elementdan tashkil topadi:

A) obyektiv shart-sharoitlar (sotsial norma va qadriyatlar);

B) individ va guruh maqsad va qadriyatlari;

V) individ tomonidan holatning aniqlanishi.

U. Tomasning F. Znaneskiy bilan birgalikda yozgan “Polshalik dehqon Yevropa va Amerikada”(1918-1920, 1-5 t.) nomli kitobida ikkinchi elementning tahliliga asosiy e’tibor qaratilgan. Individ tomonidan holatning aniqlanishi guruh qadriyatlari bilan mos kelmasa, kapitalistik jamiyatni ko‘pgina kasalliklarga duchor yetuvchi ziddiyat va ijtimoiy dezintegratsiya yuzaga keladi. Bu asarda konkret hodisani tadqiq etish (case-study) usuli qo‘llanilgan va to‘liq bayon etilgan . U. Tomas tomonidan shakllantirilgan holatni aniqlash teoremasi quyidagicha:

“Insonlar holatni real deb baholar ekan, ular o‘z oqibatlariga ko‘ra ham realdir”.

Ijtimoiy hayotning va insonning shaxsiy maqsad va qadriyatlari asosida yotuvchi, sabablar va harakatlantiruvchi kuchlarni tahlil qilib, U. Tomas psixoanaliz ta’siri ostida insonning to‘rtta asosiy xohish-istaklari haqidagi ta’limotni yaratadi: yangi tajriba, xavfsizlik, e’tirof va hokimiyat. Uning fikriga ko‘ra, inson xohish-istaklarini temperament belgilab beradi.

U. Tomas ijtimoiy hayot va madaniyat taraqqiyotida ijod bilan shug‘ullanuvchi insonlarning roliga hal qiluvchi ahamiyat berib, faqatgina ularning qobiliyati, yangilik va kashfiyotlari, shuningdek, psixologik xususiyatlari, belgilangan temperamenti ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlaydi, deb hisoblaydi.

Sotsiologik tadqiqotlar texnikasi rivojida U. Tomas tomonidan ilgari surilgan usul, ya’ni inson faktorini o‘rganishda shaxsiy hujjatlar (xat, kundalik, avtobiografiya, xotiralar va h.)dan foydalanish usuli sotsiologiya va sotsial psixologiya fanlarida muhim ahamiyat kasb etdi.

Florian Znaneskiy (1882-1958) sotsiologiyani sotsial tashkilotlar to‘g‘risidagi fan sifatida baholaydi. Unga ko‘ra, sotsiologiya nafaqat guruhning alohida a’zolari o‘rtasidagi, balki uning har bir a’zosi va, umuman, butun bir guruh tarkibidagi o‘zaro munosabatlarni ham belgilab beruvchi xulq-atvor qoidalarini o‘rganishi zarur. Sotsial tashkilotning asosini sotsial institutlar tashkil etadi. Jamiyatning o‘zgarishi atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirlashuv natijasi sifatida talqin etiladi. Jamiyat muhitga moslashish natijasida o‘zgaradi, insonlar esa – jamiyatga. F. Znaneskiy sotsial xatti-harakatni boshqa insonlarga ta’sir qilishga intiluvchi xulq-atvor sifatida talqin qiladi, uning ikkita asosiy tipini ajratadi – moslashuv va muxolifat.

Chikago maktabining yana bir yetakchi vakili Robert Park (1864-1944) sotsiologiya fanining predmetini tanlashda ijtimoiy tizimni global yekotizimning bir elementi sifatida talqin etish zarurligini ta’kidlaydi. Sotsiologiya va ekologiya fanlari tizimlarni o‘rganishda aynan bir tamoyilga tayanadi, ekologiya o‘z vazifalari va tadqiqot usullari bilan sotsiologiyaga juda yaqin fan hisoblanadi. Jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlar, R. Park fikriga ko‘ra, yashash muhitidagi shart-sharoitlarga bo‘ysunadi va undagi o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatadi. Bu tamoyil jamiyatga uning tabiat bilan birligi sifatidagi tizimli qarashning chuqurlashib borishiga olib keldi. Jamiyatning muhit bilan mutanosibligiga raqobat shakllari evolyutsiyasi vositasida yerishiladi:

hayvonlarga xos raqobat ijtimoiy raqobat bilan almashadi. R. Parkning bu g‘oyasi tabiatdagi yashash uchun kurash va jamiyatdagi raqobatning biryoqlamaliligi haqidagi xulosaga olib keladi. Sotsiologiya jamiyatning organizm va “biologik fenomen” sifatidagi evolyutsiya davomida shakllanuvchi kollektiv xulq-atvor namunalarini o‘rganadi. Sotsial evolyutsiya to‘rt bosqichda amalga oshadi, har qaysi ijtimoiy organizm shunga mos ravishdagi to‘rt tartibotni boshdan kechiradi:

-ekologik (atrof-muhit bilan bog‘liq, jismoniy ta’sirlashuv);

-iqtisodiy;

-siyosiy;

-madaniy.

R. Park jamiyatga ijtimoiy nazorat tashkiloti sifatida qaraydi. Ijtimoiy nazorat esa o‘zaro ta’sirlashuvda kollektiv xulq-atvorni qayta shakllantiruvchi ramzlar, belgilar va ahamiyatlar jamiyatidir. Tartibotlar jamiyatdagi dinamik muvozanatni ushlab turadi, erkinlik darajasi kamayadi.

O‘zining “Shahar” nomli asarida R. Park ijtimoiy yekologiya muammolarini yoritib o‘tadi: ijtimoiy yekologiya shaharni tarkibiy tuzilishga ega bo‘lgan, har bir alohida institut va guruhlarga ma’lum bir funksiyalarni biriktirgan o‘ziga xos organik birlik sifatida o‘rganish imkonini beradi. Ushbu asarda yashash uchun kurash tamoyili asosidagi tarqalish tamoyili ko‘rsatib o‘tilgan. (“Eng yaxshi narsalar eng yaxshilar uchun”).

“Sotsiologiya faniga kirish” (1921) asarida esa ijtimoiy jarayonni musobaqa, ziddiyat, moslashuv va assimilyasiyadan tashkil topgan jarayon sifatida baholaydi. Musobaqa – insonning yashash uchun kurash shaklidir, u ongsiz ravishda amalga oshiriladi va ziddiyatga aylanadi. Ziddiyat esa o‘z navbatida moslashuvga o‘tadi va assimilyasiya – sotsial guruhlar munosabatlarining chuqurlashuviga va ular o‘rtasidagi chuqur ziddiyatlarga olib keladi.

Uilyam Ogborn (1886-1959) Amerika sotsiologiyasida psixoanalizni tatbiq etishda o‘z hissasini qo‘shgan. Z. Freydning nevrozlar va K. Parkerning industrial psixozlar nazariyalaridan foydalangan. Texnologik determenizm konsepsiyasini yaratgan. Sotsiologiyada moslashuv, urbanizasiya, tartibot va nazorat muammolarining ishlab chiqilishi ham uning nomi bilan bog‘liq.

Sotsiologiyada Chikago maktabining o‘ziga xos jihatlarini quyidagilardan iborat: uslubiyoti – shaxs tahlili, davlat buyurtmasi, konkretlilik va pragmatizm.

4. Empirik sotsiologiyaning rivojiga Kolumbiya maktabi vakillari ham katta hissa qo‘shganlar. Ulardan P. Lazarsfeld, S. Stauffer va E. Morenolarni misol qilish mumkin.

Paul (Pol) Feliks Lazarsfeld (1901-1976) sotsiologiyada miqdoriy va sifatiy usullarni ishlab chiqqan olim hisoblanadi. Uning fikriga ko‘ra, sotsiologlar umuman insonlarni o‘rganadilar, uslubiyotchi esa sotsiologni ish jarayonida o‘rganadi. Bunday uslubiyotga faqatgina sotsiologiya taraqqiy etgandagina erishish mumkin. P. Lazarsfeld nazariya bilan amaliyotni bir-biridan ajratmaslik uchun miqdoriy va sifatiy usullar birligini talab qilib chiqqan.

XX asrning 40-yillarida P. Lazarsfeld S.Stauffer va Ye. Gutmanlar bilan birgalikda Amerika askarlarining ijtimoiy maqsad va qadriyatlarining o‘zgarishini tadqiq etgan. Ikkinchi jahon urushi davrida ular 200 ga yaqin tadqiqotlarda yarim million askarlarni qamrab olgan so‘rovnomalar o‘tkazadilar. Bu tadqiqotlar natijasida harbiy qismlarda boshqaruv prinsiplari va metodlariga bir qator o‘zgarishlar kiritiladi. P. Lazarsfeld sotsiologik tadqiqotlar usullari va texnikasini tanqidiy tahlil qilishga va baholashga, foydalanilayotgan tushunchalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aniqlashga, sotsiologik nazariyalarning ilmiy mohiyatini ochib berishga alohida e’tibor qaratgan. U sotsiologik tadqiqotlarda panel usulni, ya’ni aynan bir sotsial obyektni ma’lum bir vaqt intervalida aynan bir dastur va uslubiyot bilan qayta tadqiq etish usulini ilk marotaba 1940 yil AQSHda saylov kampaniyasi natijalarini qayta ishlash jarayonida qo‘llagan, shuningdek, latent tahlil usulini ham birinchi bo‘lib taqdim etgan.

Samuyel Staufferning (1900-1960) “Amerika askari” (1949) asarida harbiy qismlardagi ahvolni o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan tadqiqotlar bayon etiladi. Bu tadqiqotlar natijasida insonlarning harbiy harakatlar davridagi xulq-atvorlari qonuniyatlarini, askarlarning janglardagi xulq-atvoriga ijobiy ta’sir yetuvchi omillarini ochib berdi. Shuningdek, askarlarning harbiy tayyorgarligi darajasi bilan ijtimoiy maqsad va qadriyatlari o‘rtasidagi aloqalar, qadriyat va maqsadlari bilan janglardagi affektiv xatti-harakatlari o‘rtasidagi aloqalar o‘rnatildi. S. Stauffer tomonidan taqdim etilgan yondashuv quyidagilar xususiyatlar bilan ifodalanadi:

1. Intervyu o‘rniga anketali so‘rovlarni o‘tkazish.

2. Respondentlarning subyektiv fikrlari va baholariga asoslangan ma’lumotlarni statistik tekshirish.

3. Ijtimoiy voqea-hodisalarni o‘lchashda matematik usullarga alohida e’tibor qaratish.

4. Shkalalar tahlili usuli taqdim etilgan .

5. Omillar tahlili usulidan foydalanilgan.

Mavzuni mustahkalash uchun savollar

1.Sotsiologiyada neopozitivizm nazariyasining asosiy tamoyillari nimadan iborat edi?

2. Amerika sotsiologiyasida psixologik yo‘nalish asoschilari kimlar edi?

3. L.Uord g‘oyalarining kim davom ettiradi?

4. AQSh sotsiologiyasida empirizm nazariyasi qachon vujudga keldi?

5. Chikago maktabi vakillari kimlar edi?

6. Chikago maktabi vakillari qanday sotsiologik nazariyalarini ilgari surdilar?

7. U. Tomas sotsiologik nazariyasining asosiy tushunchasi nimadan iborat edi?

8. Chikago maktabining yana bir yetakchi vakili Robert Park qanday g‘oyani ilgari suradi?

9. Uilyam Ogborn (1886-1959) Amerika sotsiologiyasi rivojiga qanday hissa qo‘shgan?

10. Kolumbiya maktabi vakillari kimlar edi?

11. Kolumbiya maktabida sotsiologik nazariyalarning mohiyatini tushuntirib bering

12-MAVZU. F. ZNANESKIYNING SOTSIOLOGIK NAZARIYASI

REJA:

1. Znaneskiy sotsiologiyasining falsafiy asoslari
2. Sotsiologiyaning predmeti va vazifalari Znaneskiy talqinida
3. Znaneskiy sotsiologiyaning metodologik muammolari xususida
4. Znaneskiyning sotsiologi nazariyasida madaniyatni o‘rni

1. Florian Vitold Znaneskiy – yirik faylasuf va sotsiolog, gumanistik sotsiologiya namoyondalaridan biri. U 1882-yil 15-yanvarda Polshaning Vloslavek shahri yaqinidagi Svyatniki degan joyda tug‘ilgan. Uning ota-onasi kelib chiqishi XVI asrga borib taqaladigan dvoryanlar avlodidan bo‘lishgan. Florian ilk ta’limni uyida muallim (guvernyor) ko‘magida olgan. Chet tillarni o‘rganishga bo‘lgan e’tibor o‘sha davrlarda juda keng

tarqalgani uchun, shuningdek, oilasi yashagan joylar Germaniya tarkibiga kirganligi uchun u yoshligidanoq nemis va fransuz tillarini ham o‘z ona tilidek o‘rgangan. Keyinchalik ingliz va rus, yunon va lotin tillarini ham o‘rganadi. 1894-yil o‘g‘lini gimnaziyaga yuborish kerakligi tufayli Znaneskiylar oilasi doimiy yashash joyi Varshavaga ketishdi. Gimnaziyada o‘qish yillari yosh Znaneskiy uchun o‘zligini anglash va o‘z yo‘lini topish davri bo‘ldi. Shu bilan birga polyak jamiyati hayotidagi realliklar guvohi bo‘lishi tufayli u uchun ilk ijtimoiy tajriba davri ham bo‘ldi.

Bu davrda Florianning yana bir qiziqishi she’riyat bo‘ldi. U 17 yoshida Varshava adabiy jurnallari uchun yoza boshladi va shoir sifatida ancha tanildi. 1900-yilda uning ilk she’rlari nashr etiladi, 1903-yilda esa fantastik poemasi nashrdan chiqadi. Deyarli uch yil davomida, olimning o‘z so‘zi bilan aytganda, hayotidagi asosiy maqsadi Polsha uchun kerakli bo‘lgan buyuk shoir bo‘lib etishish edi. Shu bilan uning adabiyot sohasidagi faoliyatiga yakun yasaladi.

1902-yilda Varshava universitetining Falsafa bo‘limiga o‘qishga kirdi. Bu yerda Polsha falsafiy ta’limotlari tarixi va bilish nazariyasi bo‘yicha professor N.Struvedan ta’lim oldi. Universitetda tahsil olayotganida F.Znaneskiy rus ma’muriyatiga qarshi namoyishda ishtirok etganligi sababli 1903-yilda o‘qishdan haydaladi va chet yelga ketadi. Uning ilk muhojirligi 6 yil davom etadi. 1903-yil u Polsha qirolligini tark etdi va Shvetsariyaga, keyin Fransiyaga jo‘nadi, u yerda fransuz xorijiy qo‘shinlari tarkibida Aljir (Jazoir) ga ketdi. Xizmati uzoq davom etmadi, jarohatidan so‘ng Znaneskiy Fransiya janubiga davolanish uchun jo‘natildi, u yerda bir muddat istiqomat qildi. 1905-yil noyabrda Florian yana Shvesariyaga jo‘nadi, u yerda Jeneva universitetining gumanitar bo‘limida 1907-yil oktabrigacha ta’lim oldi. Bu davrda u fransuz tili bilan shug‘ullandi, qadimgi tarix, falsafa tarixi, fan nazariyasi, siyosiy iqtisod, iqtisodiyot va ijtimoiy institutlar tarixi kabi fanlarni o‘rgandi.

1907-1908-yillarda bo‘lajak olim Syurix universitetida din falsafasi, etika, estetika, pedagogika va sotsiologiya fanlaridan ta’lim oldi. Znaneskiyning universitetdagi ustozlaridan biri, unga katta e’tibor qaratgan taniqli nemis faylasufi V.Vundning o‘quvchisi va hamkasbi G.V.Storring edi. Uning yordami tufayli Znaneskiyda ijtimoiy psixologiyaga qiziqish uyg‘ondi. Bundan tashqari, u taniqli nemis pedagogi F.V.Forster ma’ruzalariga qatnashdi, shu sabab polyak olimida, keyinchalik, ta’lim muammolariga qiziqish paydo bo‘ldi. O‘qish bilan birga Syurixdan uncha uzoq bo‘lmagan Rappersvil shaxridagi polyak

muhojirlari hayotidagi madaniy markaz hisoblangan Polsha milliy muzeyida kutubxonachi sifatida faoliyat yuritdi. U yerdagi faoliyati davomida Znaneskiy muzey kolleksiyasidagi hujjatlarni o‘rganish, polyak madaniy elitasining G.Senkevich, S.Grabskiy, S.Jeromskiy kabi vakillari bilan uchrashish orqali polyak emigrantlari hayoti bilan bevosita tanishdi.

Bir qancha muddatdan so‘ng semestrni Sorbonnada yakunlash va falsafa fanlari doktori darajasini olish uchun Znaneskiy Parijga ketishga qaror qildi. U yerda 1908-yil oktyabridan 1909-yil martiga qadar bo‘ldi. Bu vaqt olimning navbatdagi ilmiy faoliyati uchun katta ahamiyat kasb etdi. Znaneskiy qatnashgan ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarining o‘qituvchilari orasida E.Dyurkgeym, S.Bugle, L.Levi-Bryul, A.Bergson kabi nomlarni uchratish mumkin. Sorbonnada bo‘lgan vaqti davomida u “hayot falsafasi” va neokantchilikning vakillari bo‘lmish V.Diltey, G.Rikkert, V.Vindelbandlarning asarlari bilan tanishdi.

Znaneskiyning o‘quv faoliyati “Fransuz dvoryanligi muhitida sharaf g‘oyasi” nomli doktorlik dissertatsiyasi bilan tugallanishi kerak edi. Lekin ilmiy rahbarining vafoti va Parijda yashashi uchun moliyaviy qiyinchiliklar tufayli u o‘z yurtiga qaytishga qaror qildi. Xorijdagi 6 yillik faoliyatini baholash shuni tasdiqlaydiki, bu davr Znaneskiyning ham faylasuf, ham sotsiolog sifatida shakllanish davri bo‘ldi. Uning keyingi tadqiqot faoliyatini Garbiy Yevropa universitetlarida tanishgan ilmiy-uslubiy bilimlarning rivojlanishi (qayta anglashi) bilan baholash mumkin. Bular: olimning psixologik sotsiologiya bilan tanishishi taqlid nazariyasi va jamoatchilik fikrini empirik tadqiq etishga bo‘lgan qiziqishiga sabab bo‘ldi; Dyurkgeym maktabi g‘oyalari asosida kichik ijtimoiy guruhlarga e’tibor va kollektiv ong bilan sotsial muhit o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tadqiq etish; jamiyatni g‘oyalar, e’tiqodlar, an’analardan shakllangan voqelik sifatida, jamiyatdagi munosabatlarni esa – assotsiatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlar sifatida e’tirof etish; o‘z gipotezasini empirik (tajribaviy) malumotlarga asoslangan holda isbotlashga intilish.

Znaneskiy 1909-yilgi bahorgi-yozgi semestrni eski Polsha universiteti – Yagellonskda o‘qib, yakunlashga qaror qiladi. 1910 yilning aprelida “Falsafada qadriyat muammosi” mavzusidagi dissertatsiyasi asosida “falsafa doktori” darajasini olish uchun olimning nomzodi ko‘rsatildi. Shu mavzuda uning birinchi ilmiy asari ham nashr etiladi. Shu bilan bir vaqtda u yashash uchun mablag‘ topish maqsadida Ayollar pedagogik kurslarida dars beradi, tarjima bilan shug‘ullanadi, falsafadan o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlashda ishtirok etadi. 1911 yilda muhojirlarni qo‘llab-quvvatlash byurosiga ishga kiradi. Qisqa muddatda u direktor

lavozimiga ko‘tariladi, “Polyak yemigranti” jurnalida muharrir bo‘ladi. 1910 yilda Polsha falsafa jamiyatiga a’zo bo‘ladi, 1913 yilda esa vitse-prezident lavozimiga ko‘tariladi. Shu davrda u “Gumanizm va bilish” kitobini hamda A.Bergsonning “Ijod evolyutsiyasi” kitobini polyak tiliga tarjima qilib nashr yettirdi.

Polshalik yemigrantlarni himoya qilish Assotsiatsiyasi ma’muriyatida ishlash davomida u 1913 yilda amerikalik sotsiolog U.Tomas bilan tanishadi va uning yevropalik emigrantlarning AQShdagi hayoti haqidagi tadqiqotida qatnashadi. Aynan shu davrda Znaneskiy va Tomaslarning keyinchalik 5 jildlik kitobga aylangan “Polyak dehqoni Yevropada va Amerikada” nomli kitobining birinchi jildi nashr etiladi. Bu asar 1937-yil ijtimoiy fanlar sohasidagi tadqiqotlar bo‘yicha Amerika kengashi tomonidan AQSHdagi ilmiy salohiyatni oshirishga katta hissa qo‘shgan oltita asardan biri deb topilgan. U.Tomas bilan Chikago universiteti qoshida hamkorlikda ishlashga AQSHga taklifnoma oladi. Ishning maqsadi polyak yemigrantlarini o‘rganishni taqozo qilar edi. Natijada Tomasning taklifiga muvofiq polyak dehqonlarini Vatanida va muhojirlikda sotsial guruh sifatida tadqiq etishga hamkorlik qilish uchun AQShga keladi. Amerikada Znaneskiy Chikago maktabi sotsiologlari bilan bevosita aloqa o‘rnatadi va konkret tadqiqotlar bilan shug‘ullanadi.

Chikago universitetida Znaneskiy shtatdan tashqari o‘qituvchi sanalib, 1917 yildan boshlab ikki yil davomida Polsha tarixi va sotsial strukturasi muammolariga bag‘ishlangan ma’ruzalarni o‘qib keldi. Lekin uning asosiy ishi dars berish faoliyatidan emas, balki Polshadan emigrasiya qilingan dehqonlarni va ularning Amerikada sotsial moslashuvini tadqiq etishdan iborat edi. Amalga oshirilgan ishlar asosida 1918-yilda U.Tomas va Znaneskiylar “Polyak dehqoni Yevropada va Amerikada” nomli kitobini nashr etishni davom yettirdilar. 1919-yilda kitobning uchinchi, 1920-yilda esa to‘rtinchi va oxirgi beshinchi jildlarini nashr yettiradilar. Bu asar sotsiologiya fani bo‘yicha mumtoz ishlar qatoriga kiritilgan. Chikagoda ishlab turib, Znaneskiy ingliz tilida yozgan birinchi ishini, “Madaniyat realligi” (1919) asarini ham nashr yettiradi. Tadqiqotchilik ishi va ilmiy asarlari unga amerikalik olimlar ichida taniqlik va mashhurlik olib kelish barobarida ko‘p imkoniyatlar ochib berdi.

1920-yilda Znaneskiy 1918-yilda ozodlikni qo‘lga kiritgan Polshaga qaytib keladi, u yerda yangi ochilgan Poznan universitetida professor lavozimida ishlaydi. Uning tashabbusi bilan madaniyat sotsiologiyasi va falsafasi kafedrasi ochiladi, sosioloigya sohasida empirik tadqiqotlarni

o‘tkazish maqsadida ilmiy tadqiqot instituti tashkil etiladi (1927-yilda Polsha sotsiologiya instituti deb qayta nomlandi va hozirgacha faoliyat ko‘rsatmoqda), Polshaning sotsiologiya bo‘yicha ilk jurnali (“Sotsiologik sharh”) chiqa boshlaydi. Bundan tashqari faoliyati davomida Znaneskiy keyinchalik ismlari polyak sotsiologiyasining oltin fondiga kiritilgan bir qator shogirdlarni etishtirdi. Ular orasida I.Xalashinskiy, Ya.Shepanskiy, S.Orsini-Rozenberg, 3.Dulchevskiy Ye.Piotrovskiy, Ya.Bistron, T.Abel va boshqa ko‘plab sotsiologlar bor. Shunday qilib, Poznan universiteti Polshada sotsiologiya fanining markaziga aylandi (keyinchalik u “Znaneskiy maktabi” nomini oladi).

“Poznan davri” olim ilmiy ijodida ancha samarali bo‘ldi. Bu davr mobaynida u polyak va ingliz tillarida 8 ta monografik tadqiqotlarini (“G‘arb sivilizatsiyasining inqirozi”, “Zamonaviy odamlar va kelajak tamadduni”, “Ta’lim sotsiologiyasi”, “Sotsiologiyaga kirish” va h.k.) va ko‘plab maqolalarni nashr ettirdi. Ularda olimni qiziqtirayotgan va tashvishga solayotgan bir qator ijtimoiy va madaniy muammolar – Yevropa sivilizatsiyasi, zamonaviy jamiyatda ta’limning o‘rni, millatlararo munosabatlar, shaharlar va qishloqlar rivojlanishi muammolari haqidagi qarashlari bayon etilgan .

Poznanda u 1939-yilgacha ishlaydi, lekin ora-orada bir necha marta AQShga chiqib keldi. 1931-1933-yillar oralig‘ida u Nyu-Yorkning Kolumbiya universitetida ham dars berdi, turli ilmiy markazlar taklifi bilan dokladlar qildi. Bundan tashqari olim “Amerika sotsiologiya jurnali”, “Sotsiologiya va sotsial tadqiqot”, “Amerika Sosilogiya Jamiyati nashri” kabi yetakchi Amerika jurnallarida maqolalarini muntazam berib bordi. Ayni o‘sha paytda mazkur universitetning Sotsiologiya fakultetini uning yaqin do‘sti Robert Makayver boshqarardi va u Znaneskiyni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab keldi.

1939-yilda Kolumbiya universiteti Znaneskiyga yana AQShda yozgi semestrda ma’ruzalar o‘qish taklifini beradi. Bu taklif unga qo‘l keladi. Ikkinchi jahon urushinining boshlanishi bilan Polsha fashistik Germaniya tomonidan okkupatsiya qilingan edi. Bu AQShga ketgan Znaneskiyning oilasiga ham ta’sir o‘tkazdi: okkupatsiya davrida uning xotini konsentratsion lagerga tushib qoladi; o‘g‘li Yuliush Polsha tarafdorlari safida faqatgina Amerika qo‘shinlari kelganidan so‘ng ozodlikka chiqdi.

1942-yil Znaneskiy AQSh fuqaroligini oladi. Illinoys shtati universitetida doimiy professorlik lavozimida ishlay boshlaydi. Bu yerdagi faoliyati davomida Nyu-York shtati Polsha masalalari bo‘yicha

departamentida ekspert lavozimida ishlab, jamoatchilik hayotiga faol kirib bordi.

Urush tugagandan so‘ng, 1946 yilda Znaneskiy Poznan universitetida sotsiologichya kafedrasini boshqarish taklifini oldi, lekin Vataniga qaytishni rad etadi, chunki u yangi kommunistik rejimni ham qabul qilmagan edi.

1941-yildan tortib to 1952-yilgacha Znaneskiy Illinoys shtati universitetida professor lavozimida ishlaydi, shu yerda nafaqaga chiqadi. Uning ishlari P.Sorokin, T.Parsons, G.Blamer, G.Bekkerlar tomonidan e’tirof etilib, tabriknomalar oladi. 1952-yilda Amerika sotsiologiya jamiyatining raisi, 1953-1954-yillar mobaynida esa uning prezidenti lavozimida ishlaydi. O‘zining Amerikadagi hayoti davomida u faqat ingliz tilida o‘z asarlarini nashr ettiradi. “Madaniyat haqidagi fan”, “Zamonaviy millatlar” nomli kitoblarni yozdi.

F.Znaneskiy 1958-yil 23-martda AQShning Illinoys shtatining Shampeyn hududida vafot etadi. Hayotining so‘nggi kunlarida u “Sistematik sotsiologiya” kitobi ustida ishladi, lekin uni yakunlay olmadi. Bu asar “sotsial munosabatlar va sotsial rollar” nomi bilan 1965-yilda uning qizi tomonidan nashr yetildi.

Znaneskiyning ijodi uchta madaniy doirada – Polsha, G‘arbiy Yevropa va AQSh madaniyatlari doirasida kechdi. Bu madaniyatlar XX asrning boshidan bir-biridan keskin farq qilardi. Polsha o‘sha paytda jamoaviy an’analar hukmronlik qilgan agrar jamiyat edi. AQSh esa aksincha tadbirkorlik ruhiyati kuchli bo‘lgan dinamik rivojlanayotgan industrial jamiyat sanalardi. Haqiqatan ham hayotining 26 yilini u AQSh da o‘tkazdi. Nashr ettirgan 18 ta asarlarining teng yarmi ingliz tilida yozilgan. Nihoyat, G‘arbiy Yevropa universitetlarida u zamonaviy falsafa va qisman sotsiologik bilim bilan tanishadi. Jumladan, neokantchilik “qadriyat falsafasi”, gumanizm prinsipi va avtobiografik metodining yaratilishiga ta’sir ko‘rsatdi; “Dyurkgeym maktabi” bilan tanishuvi kichik sotsial guruhlarni o‘rganishga qiziqish uyg‘otdi; A.Bergson g‘oyalarining ta’sirida erkin ijodiy faoliyatni progressning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qabul qildi, intellektual va ijod elitasining jamiyatdagi rolining yuksakligini e’tirof etdi. Aynan AQShda u sotsiolog sifatida tanilgan bo‘lsa-da, uning ijodi asoslari sotsiologiyani madaniyat haqidagi fan sifatida talqin qilishda Yevropa gumanitar bilimiga borib taqalishini ko‘rish mumkin. Nihoyat, o‘zining tarixiy Vatani – Polshada Znaneskiy olim, pedagog, jamoatchilik arbobi sifatida shakllandi.

G‘arbda Znaneskiyning sotsiologiya fani rivojiga qo‘shgan hissasi yuksak baholandi, ammo o‘z Vatanida, kommunistik Polshada, 1940-1950-yillarda uning ishlari tan olinmadi. Keyinchalik esa uning nafaqat jahon sotsiologiyasiga, balki Polsha sotsiologiyasiga qo‘shgan hissasi ham e’tirof etildi.

Asarlari: “Madaniyat realligi” (1919); “G‘arb sivilizatsiyasining inqirozi” (1921); “Sotsiologiyaga kirish” (1922); “Sotsial psixologiya qonunlari” (1926); “Ta’lim sotsiologiyasi” (1930); “Shahar uning aholisi ongida” (1932); “Sotsiologiyaning kelib chiqishi ma’lumotlari” (1934); “Sotsiologiya metodi” (1934); “Metodologik qaydnomalar” (1934); “Zamonaviy odamlar va kelajak tamadduni” (1934); “Sotsial harakat” (1936); “Bilim odamining sotsial roli” (1940); “Zamonaviy millatlar” (1952); “Madaniyat haqidagi fan” (1954); “Sotsial munosabatlar va sotsial pollap” (1965 yilda qizi tomonidan nashr ettirilgan).

Ilmiy hayotda F.Znaneskiy asosan sotsiolog, faylasuf sifatida esa kamroq tanilgan. Bu holatni uning falsafiy asarlarini sotsiologik ishlariga nisbatan Polsha hududidan tashqarida deyarli nashr etilmaganligi bilan izohlash mumkin. Bu ma’noda istisno tariqasida “Madaniyat realligi” kitobini keltirish mumkin. Bu kitob 1919-yilda AQShning Chikago shahrida nashrdan chiqqan. Ammo bu manba asosida uni haqiqiy faylasuf sifatida tan olish mumkin emas. Bu yerda uning dastlabki falsafiy qarashlaridan keskin farq qiladigan radikalizmni topish qiyin. Keyinroq F.Znaneskiy bu falsafiy qarashlarini sotsiologiyada jamiyatni o‘rganishdagi naturalistik yondoshuvga nisbatan keskin tanqid sifatida namoyon etadi.

Sotsiologlar Znaneskiy qarashlarining “falsafiy” bosqichini sotsiolog ilmiy darajasiga erishishda sotsiologik nazariyaning yaratilishini ta’minlashdan ko‘ra ko‘proq uni kechiktirgan bosqich sifatida baholaydilar. Faylasuflar uchun esa, aksincha, uni faylasuf sifatida tan olish muhim sanaladi. Znaneskiyning falsafiy ishlarida bayon etilgan g‘oya va fikrlar sotsiologik mazmundan yiroq emas, uning sotsiologik ishlari esa ko‘pincha falsafa deb sanaladigan bo‘limlarni o‘z ichiga oladi (masalan, uning “Sotsiologiya metodi” (1934-y.) nomli kitobi naturalizmni falsafiy yondoshuv sifatida vaziyatli tahlil qilishni o‘z ichiga oladi, lekin bu tahlilning asosi uning dastlabki falsafiy ishlarida o‘z ifodasini topgan). Olimning ilmiy ijodida muammoni falsafiy tushunishdan ko‘ra, muammoni sotsiologik nuqtayi nazardan asoslash va hal qilishga yo‘naltirilganlik mantig‘i mavjudligini aytib o‘tish lozim.

Znaneskiyning ilk asarlari chiqqan paytda O.Kont tomonidan tamal toshi qo‘yilgan sotsiologiyaning fan sifatida instituallashayotganining oxirgi bosqichi edi, bu vaqt gumanitar fan doiralarida antipozivitizm kayfiyati oshgan paytga to‘g‘ri keldi. “Ikkinchi” pozitivizm (Max, Avenarius) va uning «psixologizmi» o‘zining dolzarbligini yo‘qotdi, lekin pozitivistik falsafada uchinchi bosqich paydo bo‘ldi. Bu davrda asosiy e’tibor fan metodologiyasi va ilmiy nazariyalar tuzishning mantiqiy tahliliga qaratila boshlandi. Garchi Znaneskiyning asarlarida pozitivistik atamalarni uchratish mumkin bo‘lsa-da (masalan, u ko‘pincha Maxdan meros bo‘lib qolgan “his qilish kompleksi” tushunchasini ishlatadi), Znaneskiy antipozitivistik “lager”ga tushib qoldi. Uning falsafiy qarashini shakllanishiga bir nechga maktab va mualliflar sezilarli ta’sir ko‘rsatishdi. Eng avvalo pozitivizmga qarshi bo‘lgan irratsionalistik yo‘nalishdagi Diltey va Bergsonlarni alohida sanab o‘tish kerak bo‘ladi. Znaneskiy asarlarida pragmatizm va neokantchilikning ta’sirini ko‘rish ham mumkin. Bundan tashqari u sotsial psixologlarning tadqiqotlariga, jumladan, ommaviy xulq-atvor va olomon xatti-harakati namoyandalari Zigel, Lebon va Tard ta’limotlariga e’tiborini qaratdi. Talabalik paytida Parijda E.Dyurkgeymning ma’ruzalariga qatnashgan.

Znaneskiying ilk ijodlarida antipozitivistik kayfiyatni ko‘rish mumkin. Znaneskiynig ta’kidlashicha, anglash subyekti faqatgina tajriba bilan bog‘liq emas va u voqelikni bevosita emas, balki shaxsiy tushunchalar. tasavvur va dunyoqarash ko‘rsatmalari prizmasi bilan idrok etadi, shuning uchun ham tajribaning har bir elementi ikki tarkibiy elementdan: obyektiv (moddiy) va subyektiv (ma’naviy) elementdan iborat bo‘ladi. Keyinroq u o‘zining “Sotsiologiyaga kirish” kitobida shunday yozadi: “Anglash bu konkret ma’lumotlar tajribasi yoki nisbatan ularning ichki mohiyatining intuisiyasi emas. U anglanadigan voqelikka ratsionallashgan tajribaga nisbatan qandaydir prisipial yangilikni ifodalaydi.”

Uning ishlarida tajribani ratsionallashtirish to‘g‘risidagi masala ma’lum ma’noda neokantchilik an’anasi bilan bog‘langan. U tajribani tartibga solishning ikki: kundalik va ilmiy darajasini ajratib ko‘rsatadi. Odatiy daraja amaliy faoliyatdagi ratsionallik va oriyentasiyalarning past darajaligi bilan xarakterlanadi. Ilmiy darajaga tajriba ma’lumotlarini umumlashtirishning yuqoriroq darajasi, materialni mantiqiy ishlab chiqilganligi, amaliy faoliyatga nisbatan munosabatning bilvosita ekanligi xos. Har ikki darajaga ham tajribani ratsionallashtirishning ko‘plab mumkin bo‘lgan vositalari mavjud. Falsafaning vazifalaridan biri –

xususiy fanlarda ishlatiladigan ratsionallashtirish mezonlarini aniqlashdir. Har bar fanda mavjud bo‘lgan voqelikni qabul qilishni boshqa fanlar kompetensiyasiga kirmaydigan sohalarga tatbiq yetmaslik kerak.

Tajribani ratsionallashtirish haqidagi tezis asosida F.Znaneskiy naturalizmni jiddiy tanqid qiladi. Uning fikricha, gumanitar bilim sohasiga tegishli bo‘lgan hodisa va jarayonlarga nisbatan naturalistik yondoshuvni tatbiq yetib bo‘lmaydi. Uning ta’kidlashicha: “Biz umuman na insonning boshqa hayvonlardan kelib chiqqanligi to‘g‘risidagi nazariyani, na biologik evolyutsiyaning tabiiy omillari haqidagi nazariyani, na insonni farqlaydigan psixik xususiyatlarni rivojlanishi to‘g‘risidagi nazariyani tanqid qilmoqchimiz. Biz tabiat to‘g‘risidagi bilim sohalaridagi biror bir ta’limotni tanqid qilamiz, chunki ular mos keluvchi maxsus fanlar chegarasida ba’zi obyekt va faktlarni sistematik tushunish asosi sifatida namoyon bo‘lishadi. Bizning tanqid, birinchidan, tabiiy fanlar nazariyalarini insoniyat dunyosidagi jarayonlarni tizimlashtirish asosi sifatidagi foydalanishga bo‘lgan urunishlarga, ikkinchidan, bu nazariyalarga falsafiy mazmun berishga, ularni butun dunyoning, hatto bu dunyoning alohida konkret qismlarining oxirgi mazmuniga nisbatan ishonchli va haqqoniy sifatida qarashlarni tanqid qilamiz.”

Tabiiy fanlar tomonidan o‘rganiladigan tabiiy voqelikni Znaneskiy insonning tafakkuri va uning tajribasiga bog‘liq bo‘lmagan voqelik sifatida qaraydi. Undan farqli ravishda gumanitar fan vakillari tomonidan o‘rganiladigan “kishilik dunyosi” – bu madaniyat dunyosi, kishilarning ongli harakatlari sohasi, ularning xulq-atvori esa kishilar amal qiladigan qadriyatlar tizimiga bog‘liq bo‘ladi. Polyak olimi nuqtayi nazaricha, sotsiologiyada qadriyatlar qandaydir mutlaqlik sifatida qaralmasligi kerak, ular inson singari o‘zgarishlarga mahkum.

Znaneskiy insondagi ratsionallik bilan birga, unda faoliyatidagi ijodiy komponent bilan bog‘liq bo‘lgan irratsionallik ibtidosini mavjudligini ham ko‘rsatib o‘tadi. Ijodiy faoliyat munosabatlar tizimiga harakatni amalga oshirishdan oldin mavjud bo‘lmagan yangi elementni kiritishi bilan tabiiy jarayondan farqlanadi. Znaneskiy har qanday ijodiy akt noyob deb takidlagan Diltey va Bergsonlarning fikrlariga qo‘shiladi. Unga intuitsiya va san’atda ishatiladigan metodlar asosida erishish mumkin. Bu yerda hech qanaqa sababiy tushuntirishlar “ishlamaydi”, chunki ijodiy faoliyat tashqi omillar bilan belgilanmaydi. “Har bir ijodiy akt g‘ayriixtiyoriy va erkindir”. Znaneskiy fikricha, aynan shu holat kishilik dunyosining tartibli bir xil munosabatlardan iborat emasligini ko‘rsatadi,

bu esa uning keyingi taraqqiyotini oldindan belgilanganligini istisno etadi va hayotga noaniqliklar olib kiradi.

2. F.Znaneskiyning ilmiy faoliyati pozitivizmning asoslariga qarshi chiqishdan iborat edi. Znaneskiy jamiyatga tabiiy-ilmiy jihatdan qarashga ham, sotsiologiyani jamiyat haqidagi universal fan sifatida qabul qilishga ham qarshi edi.

Uning insoniy jamiyatni o‘rganishga yondoshuvi, birinchidan, sotsial dunyoni tabiiy muhitdan ajratib olishdan iborat edi. Tabiiy olamning asosiy tarkibini insondan mustaqil bo‘lgan narsalar tashkil qiladi, sotsiumni esa qadriyatlar tashkil qiladi. Tabiat olamining fenomenlaridan farqli ravishda, qadriyatlarni insondan alohida tasavvur qilish mumkin emas, shuning uchun insoniy jamiyatni konkret-tarixiy subyektlar bilan muvofiqlashtirmasdan turib o‘rganish mumkin emas. Shunday qilib, har qanday sotsial voqea-hodisada ikki xil tarkib bor – obyektiv mohiyat va uning alohida insonlar va ularning guruhlari tomonidan subyektiv qabul qilinishi. Ikkinchi element pozitivistlar tomonidan hisobga olinmagan edi.

“Madaniyat sohasi” ijtimoiylikning haqiqiy “substansiyasi” sanalar ekan, boshqa fanlar bilan tadqiqot obyekti madaniy jarayonlar olami hisoblanadigan sotsiologiya o‘rtasidagi chegarani aniqlab olish zaruriyati paydo bo‘ladi. Madaniyatni sotsiologik tadqiq etish masalasi to‘g‘risidagi savol kun tartibida paydo bo‘ldi. Znaneskiy sotsiologiyani xususiy fanlar doirasiga kiritadi. Uning fikricha, sotsiologiyani jamiyat haqidagi universal va yensiklopedik fan sifatida talqin etgan O.Kont, G.Spenser va ularning izdoshlarining qarashlari tarixan o‘tab bo‘lingan va xato yondoshuvdir. XIX asrdagi naturfalsafiy nazariy yondoshuvlar, “Sotsiologiya metodi” kitobida ta’kidlanishicha, mantiqiy qarama-qarshilikka ega. XIX asr sotsiologlari jamiyatni tasvirlashda uchta komponentlar (“uchta qoida”) ga: 1) jamiyat joylashgan geografik territoriya; 2) irqiy gomogenlik; 3) “madaniy ma’lumotlar”ga e’tibor qaratishgan. Agar dastlabki ikki “qoida” to‘laqonli naturalistik bo‘ladigan bo‘lsa, uchinchisi esa “naturalistik yondoshuvning ketma-ketligi” ni buzadi, ya’ni madaniyatni tabiiy muhitga (hayvonlar olamiga nisbatan) nisbatan qo‘llash to‘g‘risida gapirish mazmunsizdir.

Znaneskiy sotsiologiyaga ijtimoiy fanlarning insoniy hamjamiyatlarning ma’lum bir jihatlarini o‘rganuvchi qismi sifatida qaraydi. Jamiyatning tabiiy tarkibiy elementi, uning fikriga ko‘ra, tabiiy fanlarning (bularga antropologiya va etnografiyani ham kiritadi) predmeti hisoblanadi, sotsiologiya esa madaniy tizimlarni o‘rganishi lozim. Bu esa o‘z navbatida sotsiologiyani universal fan statusidan mahrum qiladi. Biroq

ijtimoiy fanlar o‘rtasidagi “ta’sir doirasi”ni taqsimlash jarayoni ba’zi fanlarning “begona sohaga” bostirib kirishi bilan murakkablashdi. Xususan, “ba’zi geograflar va antropologlar madaniy fenomenlarni “tushuntirish” tendensiyasiga intilishdi, bu vaqtning o‘zida ko‘pgina sotsiologlar irqiy va geografik masalalar bilan qiziqishdi”. Keng qamrovli ilmiy sintezning etishmasligi sababli sotsiologiyaning predmet doirasini epistemologik “chegaralash” hollari ham mavjud. Insoniyat hamjamiyatining madaniy hayoti boy va xaotik, bir-biri bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan va madaniy tizimlarning to‘satdan o‘zgarishlariga moyil bo‘lgan xususiyatlarga ega. Shuning uchun ham yaqin orada “asoslangan ilmiy sintezni amalga oshirish imkoniyati bo‘lishi juda qiyin”.

Sintetik ilmiy model yaratishga nisbatan skeptisizm kayfiyatini ifodalab, Znaneskiy o‘z e’tiborini fanning fanlararo dastlabki tadqiqotlariga qaratmaydi. Vaholanki, ilmiy bilimda bu kabi yo‘nalishlar XX asrning 20-yillarida kerakli darajada ko‘zga tashlangandi. Masalan, gumanitar tadqiqotchilar tomonidan tarixiy, arxeologik va yetnografik tadqiqotlar natijasida “madaniy kompleks”larning mavjudligi to‘g‘risidagi xulosalar Znaneskiyda ikki xil fikr hosil qiladi. Znaneskiyning ta’kidlashicha, mazkur tushuncha turli “madaniy komplekslarning kesishuvini o‘z ichiga oladigan barcha tamaddumlar (sivilizatsiyalar) bilan mos kelmaydi, madaniyatlar tarixida takrorlanishlar bo‘lmaydi. “Har qanday madaniy kompleksning mavjudligi va uni madaniy hamjamiyatlar tomonidan to‘la yoki qisman qabul qilinishi faqat tarixiy faktlar sanaladi. Ular bir marta ro‘y beradi va hech qachon takrorlanmaydi”. Shu bilan birga, Znaneskiy tarixiy fan bo‘lib hisoblanadigan zamonaviy etnologiyani birgalikda mavjud bo‘lgan madaniy tizimlarning o‘zaro aloqasi va “bir tipdagi tamaddundan ikkinchisiga o‘tishini doimo boshqaradigan universal qonunlar mavjudligi” tan oladigan datlabki evolyutsion etnologiyadan ustunligini qayd etib o‘tadi.

Ilmiy qonunlarni sharhlashda sotsiologik realizmning mavqeini e’tiborga olmaslik va tamaddunlar taraqqiyotida takrorlanishlarni inkor etish sotsiologiyani madaniy hamjamiyatlar haqidagi umumiy fan sifatidagi rolini inkor yetilishi uchun asos bo‘lishiga olib keladi. Znaneskiy G.Zimmelning barcha madaniy jarayonlarni umumiy sotsial «shakl» sifatida qarashiga ham qarshi chiqadi. Uning fikricha, madaniyatning turli sohalari (iqtisodiy, diniy va boshqa) madaniyat

obyektiv dunyosining qismlarini yaqinlashtiradi, ularni ijtimoiy hayot deb tushuntirish mumkin emas.

“Metodologik qaydnomalar” kitobida sotsiologiya “sotsial tashkilot to‘g‘risidagi fan” sifatida sharhlanadi. U ham guruhning alohida a’zolari, ham uning har bir a’zosi va guruh o‘rtasidagi faol munosabatlarga taalluqli bo‘lgan xatti-harakat qoidalarini o‘rganadi. Bu qoidalar oila, qabila, hamjamiyat, erkin uyushma, davlat singari institutlarda tizimlashgan bo‘lib, sotsial tashkilotning yadrosini tashkil etadi.

“Sotsiologiya metodi” kitobida Znaneskiy sotsiologiya shaxsiy empirik maydonga ega madaniyat haqidagi xususiy fan degan konsepsiyasini rivojlantiradi.

Sotsiologiyada Znaneskiy to‘rtta asosiy kategoriyalarga mos keluvchi bo‘limlarni (madaniy tizimlar) ajratib ko‘rsatadi:

“sotsial harakatlar”;

“sotsial munosabatlar”;

“sotsial shaxslar”;

“sotsial guruhlar”.

Keyinroq u “sotsial shaxs” tushunchasini “sotsial rol” tushunchasi bilan almashtiradi hamda “jamiyat” degan kategoriyani takomillashtirdi.

U “sotsial harakat” kategoriyasini puxta ishlab chiqadi, uni sotsiologiyaning markaziga qo‘yadi. Harakatning bu turida o‘zini anglagan va anglagan holda harakat qiluvchi alohida individlar yoki guruhlar obyekt va subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Sotsial harakat subyektiga obyekt qadriyat sanalib, unda biron-bir o‘zgarish yasash lozim bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, bu harakat turi boshqalaridan o‘zining insonga (insonlan guruhiga) uning xulq-atvorini o‘zgartirish maqsadida qaratilganligi bilan farq qiladi. Shunga mos ravishda sotsial harakatlar moslashuv (o‘zgarishlar tahdidlarsiz va qiynoqlarsiz amalga oshadi) va oppozitsiya, ya’ni muxolifatga (o‘zgarishlar qo‘rqituv va repressiyalar ta’sirida amalga oshiriladi) ajratiladi.

Znaneskiy sotsial munosabatlarga faqat barqaror me’yoriy sotsial tizimlar (nikoh, do‘stlik, qarindosh-urug‘chilik) bilan bog‘liq va subyektiv jihatdan bu munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish ishtiyoqi bilan bog‘liq munosabatlarni kiritadi.

Sotsial shaxsning asosiy xususiyatlari – uning ma’lum bir muhitda shakllanishidir, buning natijasida mavjud huquq va majburiyatlar modellari unga singdirilgan holda qayta ishlab chiqarilishi ro‘y beradi. Sotsial munosabatlar va sotsial harakat doirasida bunday shaxsga sotsial qadriyat sifatida qaraladi.

Nihoyat, sotsial guruh shunday madaniy tizimni ifodalaydiki. Unda inson ma’lum bir rollarni bajaradi, shuningdek, madaniy namunalar orqali aniqlanadigan huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

3. Sotsiologiyaning vazifasi – empirik ma’lumotlar asosida ijtimoiy voqelik haqida obyektiv ma’lumotlarni olish. Znaneskiy statistik metodni sotsial voqelikni subyektiv qabul qilinishini o‘zida aks ettirmaganligi uchun tan olmaydi. Metodologik nuqtayi nazardan sotsial voqea-hodisalarni o‘rganishda unda ishtirok yetayotgan shaxslarning tasavvurlarini, ya’ni nuqtayi nazarlarini, bu voqea-hodisa haqidagi tushunchalarini o‘rganish lozim. Bundan kelib chiqib, analitik induksiya, ya’ni har bir alohida hodisaning mohiyatini tahlil qilish eng ma’qul metod bo‘ladi. Shaxsiy hujjatlarni tahlil qilish metodini (biografik metod) gumanistik sotsiologiyaning maqsadlariga ko‘proq mos keladigan metod sifatida baholab, Znaneskiy uni o‘zining U.Tomas bilan o‘zgan besh tomlik “Polyak dehqoni Yevropada va Amerikada” nomli tadqiqotida qo‘llaydi.

Bu asar XX asrning boshlari uchun yangilik edi. Konkret faktlarga asoslangan sifatli xarakter kasb etuvchi materiallardan qurilgani uchun u sotsiologiyada yangi so‘z sifatida qabul qilindi. Olingan ma’lumotlar “sotsial xulq-atvorning barqaror namunasi” ning universal tipologiyasini qurishga yordam berdi.

Znaneskiy va Tomaslar sotsial xarakterning uchta turini ajratib ko‘rsatdilar. Birinchisi – “filistayn” – barqarorlikka yo‘nalgan, an’anaviy vaziyatlarni xush ko‘ruvchi, konformist va tashqi muhitda o‘zgarishlarga aktiv qarshilik ko‘rsatuvchi insonlar turi. Ikkinchisi – “bogemian” – kutilmagan reaksiya va xulq-atvorlarni namoyon etuvchi, yangi sharoitlarga tez vo oson moslanuvchi insonlar turi. Oxirgi tur – “kreativ” – aktiv faoliyat yurituvchi, xilma-xillikka moyil va maqsadga intiluvchan insonlar turi.

“Metodologik qaydnomalar” kitobi hamda “Polyak dehqoni Yevropada va Amerikada” asarining asosiy qismlari birinchi jahon urushi yillari davrida yozilgan va ular o‘zining muayyan mazmunga ega ekanligini va o‘sha davrda Yevropada irratsional kuchlarning hukmronligini yaqqol ko‘rsatadi. Biroq “Metodologik qaydnomalar” kitobining birinchi sahifalaridanoq mualliflarning optimistik kayfiyati va ularning ijtimoiy taraqqiyotni ratsional boshqarishga shubhasiz o‘tilishiga ishonchlari borligini his qilish mumkin. “Ijtimoiy hayotda sotsial va ratsional metodlar katta rolga ega bo‘lmoqda. Endi biz sotsial taraqqiyot ishtirokimizsiz rivojlanishi mumkinligiga yanada kamroq ishonamiz:

insonning talabi yoki uning ahloqiy umumlashmasiga asoslanadigan har qanday aralashuvlardan ko‘proq qoniqmaslik hissini sezamiz”. Znaneskiy va Tomasning ta’kidlashlaricha, “buyruq va ta’qiqlar”ga, boshqaruv ta’sir metodlariga asoslangan tizimlarda boshqaruv ratsional texnologiya bilan almashadi. Bunday ishonchning paydo bo‘lishi “moddiy voqelikni o‘rganish paytida ratsional metodlarni qo‘llash orqali olingan hayratga soladigan natijalar sabab bo‘ladi”. Znaneskiy bo‘yicha, fizik fanlar texnika va moddiy texnologiyalarning rivojilanishiga nisbatan qanday rol o‘ynagan bo‘lsa, sotsial amaliyotlar ham sotsial bilimning nazariy sohasi rivojiga shunchalik hissa qo‘shadi. Ma’lumki. bunday fan sifatida sotsiologiya namoyon bo‘ladi.

Garchi bu yerda polyak sotsiologining qandaydir pozitivizm bilan yaqinligini ko‘rish mumkin bo‘lsa-da, gap pozitivizmning faqat “ayrim joylashgan” qismlari haqida borishi mumkin. Uning tadqiqot to‘g‘risidagi fikrlari gumanitar fanlar orqali erishilgan natijalarni tushunib etishga yo‘nalgan. (aniqroq aytganda, sotsial munosabatlarni va madaniyat sohasini o‘rganish bilan bog‘liq sohalarda). Pozivitizm ta’siri bo‘lmagan tadqiqotning bu sohalarida u asosiy e’tiborni qadriyatlar va yo‘l-yo‘riqlarga qaratadi. Qadriyatlar tushunchasi uning dastlabki falsafiy asarlarida ham uchraydi. Bu yerda asosiy e’tibor yo‘l-yo‘riqlar rolini o‘rganishga qaratiladi. (sotsial ma’noda shaxsning qadriyatli yo‘nalishlariga nisbatan).

“Polyak dehqoni Yevropada va Amerikada” kitobida qadriyat va yo‘l-yo‘riqlar sotsiologik kategoriya va empirik instrumentariyalarga xos ma’noga ega bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, Znaneskiy Tomas bilan birgalikda mutlaq qadriyatlar to‘g‘risidagi neokantchilik (falsafiy) kategoriyalarini “yerga tushirib qo‘yadi”, ya’ni ularni sotsial amaliyotda (huquqshunos, siyosiy faol, sotsial xizmatchilar va boshqa sotsial sohalarda band) tushunishga harakat qiladi.

Znaneskiy nuqtayi nazaricha, ijtimoiy hayotda qadriyatlar omili rolini hisobga olmasdan, sotsial nazariyalar empirizmga “bog‘liq bo‘lib qolishadi”, bu esa o‘z navbatida fikrlarni kengroq talqin etishga va yangi qarorlar taklif qilishga xalaqit beradi. Sotsiologiyaning ustunligi yaqqol namoyon bo‘lib tursada, sotsial harakatlarni amaga oshirishda uni oriyentir sifatida moddiy sharoitlardan foydalanish vositasi sifatida odamlarning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan holda allaqachon mavjud bo‘lganda». Ikkala muallifning ta’kidlashlaricha, Italiyada spirtli ichimliklar sotish do‘konlari ko‘p bo‘lgan, ammo u yerda ichkilikbozlik darajasi spirtli ichimliklar bilan savdo qilishga qat’iy chegaralar qo‘yilgan AQSh dagiga

nisbatan yuqori bo‘lmagan; og‘ir moddiy sharoitlarda kun ko‘radigan oilalar polyak dehqonlari jamoasida ko‘p uchragan, qulay moddiy va yashash sharoitlarida yashaydigan polyak aristokratiyasi orasida, aksincha, oilalarning barham topishi oddiy holga aylangandi.

Znaneskiy va Tomas tomonidan to‘plangan hujjatli manbalarning ko‘rsatishicha, polyak dehqonlarini iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatga ko‘chirilishi ular doirasida axloqiy muhitning yaxshilanishiga olib kelmadi. Moslashuv (adaptatsiya) davrida – aksincha, axloqning yomonlashuvi va oilaviy aloqalarniig susayishi ko‘zga tashlangan. «Polyak dehqonlari Yevropada va Amerikada» kitobining mualliflari fikricha, kishilar hayotining moddiy sharoitlari bilan ular tomonidan axloqiy me’yorlarga amal qilish o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud emas. Bu xulosalar bilan bog‘liq ravishda yozuvchi A.N.Strugasskiyning 1976-yildagi chiqishlaridan jumla keltirib o‘tish joiz: “Nisbatan yaqinda mastitik axloqshunoslar inson moddiy jihatdan to‘laligicha ta’minlashi bilanoq u shubhasiz avtomatik ravishda o‘zining barcha kuchini chegarasiz ma’naviy rivojlanishga qaratadi, deb hisoblab kelishardi. Ma’lum bo‘ldiki, bu unaqa emas ekan. “Ish – moddiy qondirilish – ma’naviy o‘sish” sxemasida eng muhim jihat e’tiborga olinmagan. Masala shundaki, moddiy qoniqish chegaralari nafaqat fiziologiyaning, balki psixologiyaning funksiyasi sanaladi. Inson tug‘ilishi bilan moddiy ne’matlarga nisbatan ishtahaga ega bo‘ladi. Ma’naviyat ne’matlariga nisbatan ehtiyoj to‘g‘ri tarbiyalash asosida shakllanadi. FTI (Fan texnika inqilobi) tufayli kelib chiqqan moddiy ta’minot darajasidagi o‘sish og‘ir va mashaqqatli tarbiyaviy ish bilan mustahkamlanmagan va ko‘plab rivojlangan mamlakat aholisini g‘aflatda qoldirdi. Mana shu tariqa Ommaviy Qorni To‘q Tarbiyasiz Inson paydo bo‘ldi”. Znaneskiy va Tomas tomonidan qo‘yilgan va yarim asr o‘tgandan keyin A.N.Strugasskiy tomonidan ko‘rib chiqilgan muammo hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Polshalik sotsiolog va uning amerikalik hamkasbi tomonidan AQSh da muhojirlikda yashagan polyak dehqonlari hayotidan olingan faktlarni tadqiq etilishi natijasida ma’lum bo‘ldiki, tabiiy patriarxal muhitdagi mavjud sotsial guruhga xarakterli bo‘lgan an’anaviy poydevorlar turmush sharoitlari o‘zgarishlari sababli «o‘pirilib keta boshladi». Ammo nafaqat yangi turmush sharoitlari va Amerika har doim mustahkam bo‘lgan oilaviy aloqalarni, balki polyak dehqonlarining axloqiy negizlarini ham kuchsizlantirdi. Tomas va Znaneskiy bu negizlarninng kuchsizlanishini ko‘chib kelgan polyak dehqonlarida yangi hayotiy stimullarning paydo

bo‘lishi, ularni jamoaviy birdamlikning eski yo‘l-yo‘riqlaridan voz kechish va shaxsiy daromadlarni katta miqdorda oshishiga imkon beradigan yangi yo‘l-yo‘riqlarga o‘tishlari bilan bevosita tushuntirib berishadi. O‘z Vatanlarida polyak dehqonlari qon-qarindoshlikka asoslanib yashashgan, ularning muhitida individualizmning namoyon bo‘lishi jamoa tomonidan qattiq qoralangan. Polyak jamoasida diniy axloq qoidalari haddan tashqari talabchanligi bilan farqlanganligini, ularga amal qilish hozirda Polshada yuqori avtoritetga ega bo‘lgan rim-katolik cherkovi tomonidan nazorat qilinganligini ta’kidlab o‘tamiz.

Butun jamiyatga taalluqli bo‘lgan alohida sotsial qatlamlardagi o‘zgarishlarni bir yoki bir nechta omillarning (gap bu yerda turmushning moddiy sharoilari haqida ketgandi) belgilovchi roli bilan tushuntirish mumkin emas, ular butun sotsial tizimning o‘zgarishi bilan bog‘langan. Muhojirlikda polyak dehqonlari sifat jihatdan boshqa sotsial tizimga tushib qolishgan. Biroq sotsial struktura transformasiyasi ichki sabablar (“Polyak dehqoni Yevropada va Amerikada” ko‘rib chiqilgandek boshqa sotsial muhitga ommaviy ko‘chish holatidan ko‘ra, boshqacha tipda) natijasida amalga oshishi mumkin. Bu kabi ichki sabablar va jarayonlar sifatida inqiloblar, islohotlar (ham samarali, ham samarasiz), totalitar tuzumning hujumi bilan siyosiy tizimning deformasiyasi namoyon bo‘lishi mumkin. Barcha bu holatlarda axloqiy-yetik muhit o‘zgaradi va qadriyatlar tizimi almashinuvi ro‘y beradi.

Sotsial amaliyot muammosini hal qilishning «strategiyasi»ni metodlari asosi sifatida Tomas va Znaneskiy fikricha, ma’lumotlarning ikki tipini – “ijtimoiy hayotning obyektiv mavjud bo‘lgan madaniy elementlari» va ularninng o‘zaro aloqasidagi “sotsial guruh a’zolarining subyektiv xarakteristikasi”ni tushunib etish bo‘lishi kerak. Aynan shuning uchun ular sotsiologiya fanining kategoriyalar apparatiga instrumentar tushunchalar sifatida “sotsial qadriyatlar” va “sotsial yo‘l-yo‘riqlar” tushunchalarini kiritishgan. Bu tushunchalarni ular qadriyatlar va yo‘l-yo‘riqlar deb ko‘pincha qisqartma shaklda ishlatishgan. Sotsial qadriyatni Tomas va Znaneskiy “sotsial guruh a’zolari uchun” empirik mazmun ega bo‘lgan ma’lumot deb hisoblashadi, bu empirik mazmun (meaning) faoliyatning obyekti bo‘lib kelishi mumkin. Qadriyat o‘zi yerishadigan ahamiyati orqali ijtimoiy guruh a’zolari faoliyati bilan har doim bog‘langan.

Yo‘l-yo‘riq – bu “sotsial dunyoda individning real va mumkin bo‘lgan faoliyatini belgilaydigan individual ong jarayoni. Shunday qilib, sotsial yo‘l-yo‘riq shaxsiy nuqtayi nazarda (aspektda) sotsial

qadriyatlarning o‘ziga xos ikkinchi nusxasi hisoblanadi: bu faoliyat qanday shaklda amalga oshirilishidan qat’i-nazar, u har doim ular o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘indir”. Shunday qilib, Tomas va Znaneskiyning uqtirishicha, sotsial yo‘l-yo‘riq (attitude) orqali iidividlarning guruh (yoki jamiyat) a’zolari sifatida ma’lum xatti-harakatni sotsial jihatdan qabul qilish vositalarini belgilab beradigan u yoki bu qadriyatlarga nisbatan subyektiv oriyentasiyalaridir. Polyak dehqonlarining birlamchi guruhlarini tadqiq etishning vazifalaridan biri sifatida Znaneskiy kishilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir asosida yotgan elementar sotsial yo‘l-yo‘riqlarni aniqlashda deb bildi. U bu yo‘l-yo‘riqlarning o‘zgarish sabablari va qonunlarini aniqlashga harakat qildi.

Qadriyatlar dunyosiga nimalarni kiritish mumkin? Znaneskiy va Tomas bu masalada o‘quvchilarga mumtoz fanning qoidalariga muvofiq asosli klassifikatsiyani taqdim etishmaydi va “Metodologik qaydnomalar» deb nomlangan asarda qandaydir «eklektik» xatoni ko‘rish mumkin, ya’ni sotsial qadriyatlar toifasiga ham moddiy, ham ma’naviy tartib hodisalari kiritilgan. Qadriyatlar sifatida ro‘yxatda “oziq-ovqat mahsulotlari, ko‘mir, instrument, tanga, she’r, universitet, afsona va ilmiy nazariya” ko‘rsatilgan. Ammo o‘zining “Sotsiologiya metodi” kitobida u o‘z fikrlarini tamomila to‘ldiradi. “Iqtisodiy, texnik, diniy, estetik va boshqalardan farq qiluvchi» sotsial qadriyatlar to‘g‘risida gapirayotib, u insonning o‘zini ham sanab o‘tadi. Bu mavzuning rivojlanishida Znaneskiyning gumanistik yondoshuvini ta’kidlab o‘tish lozim. Bu aytilgan fikrlar 1934-yilda Yevropada fashizm vujudga kelgan va ikkinchi jahon urushi yaqinlashib kelayotgan davr edi. Alohida shaxs esa totalitar hokimiyat uchun biror bir ahamiyat kasb etmay qolgandi.

Olim qadriyatlar to‘g‘risida gapirganda, u tafakkur obyektlari va tajriba ma’lumotlarini nazarda tutadi. Ayni paytda kishilik dunyosining tuzilmasi to‘g‘risidagi tasavvurga muvofiq qadriyatlar inson uchun ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarnigina xarakteristikalarini ifodalaydi, obyektning pozitiv va negativ baholash subyekt tomonidan uni ma’lum maqsadlarda, hatto bu maqsadlar istak tarzida bo‘lsada, amalga oshiriladi, deb u o‘z fikriga aniqlik kiritadi. Uning ustiga, Znaneskiy fikricha, ham negativ, ham pozitiv qadriyatlarni o‘rganish faol, konstruktiv faoliyat nazariyasi asosida amalga oshishi mumkin. Polyak olimining dialektik yondoshuvini quyidagicha ifodalash mumkin: qadriyatlar inson faoliyatining ma’lumotlari bo‘lib hisoblanadi va ular na tabiiy obyektlarga, na biror-bir subyektiv jarayonlarga asoslanadi. Ular harakat jarayonida insonlar tomonidan tuzilgan va qayta tuziladi.

4. Znaneskiy o‘z yondoshuvini naturalistik yo‘nalishga qarama-qarshi qo‘yib, uni kulturalizm (madaniyashunoslik) deb ataydi. Bu yondoshuv doirasida “madaniyat sohasiga” tegishli bo‘lgan jarayon “tabiiy tizimlarning” oqibati yoki o‘xshashligi sifatida qaraladi. U naturalizmni sotsiologik realizmning shakli sifatida uning namoyon bo‘lishlaridan biri – tabiiy evolyutsiya nazariyasining madaniy jarayonlardagi ishtirokini tamomila inkor etadi. Madaniyat dunyosiga tabiiy evolyutsiyaning mahsuli va insonning tabiiy muhitga moslashuvi instrumenti sifatida qaralmasligi kerak: “Biz o‘zimizning oliy intellektual, estetik me’yorlarini buzmasdan, uzoq yillar davomida konstruktiv va tanqidiy faolligimiz, son-sanoqsiz urinish va talofatlarimiz evaziga erishilgan namunalarni inkor etmasdan, naturalistik dunyoqarashni qabul qila olmaymiz”. Va keyinroq, “yuz minglab yillar davomida madaniy hayotning shunchalik ko‘p odat va an’analar to‘planganki, inson tabiatni madaniyat prizmasi orqali qabul qiladi”.

Ammo Znaneskiy voqelikni tabiat dunyosi va madaniyat dunyosiga bo‘linishidan qoniqmaydi. Znaneskiyning madaniyashunosligi ikki holat asosiga qurilgan: Birinchidan, sotsial tadqiqotlardagi “inson koyeffitsiyenti” (thye humanistic coyefficiyent) ni hisob-kitob qilish zarurligi; ikkinchidan, bu sotsial harakatning indeterministik konsepsiyasi holatidan. Birinchi dastlabki tezis narsalarni naturalistik tushunishdan qadriyatlarni madaniy tushunishni ajratishni belgilab beradi va qadriyatlarni narsalarga tiklanishi mumkinligini inkor etadi; ikkinchisi esa madaniy tizimlar rivojlanishini tadqiq etishda determinizm tamoyilidan voz kechishga olib boradi.

“Inson koyeffitsiyenti”ni aniqlab, Znaneskiy o‘z e’tiborini sotsial harakatlarning o‘ziga xosligiga, ularni mexanik va biologik harakatlardan farqlanishiga qaratadi. Sotsial harakatda ikki turdagi o‘zgaruvchanlik – “sharoitlar majmui”, harakatni amalga oshirgunga qadar mavjud bo‘lgan voqelik va harakatni amalga oshirayotganlarning “faol irodasi” bo‘ladi. Uning nuqtayi nazaricha, sotsial harakat induktiv asosda empirik ma’lumotlar sifatida o‘rganilishi kerak: “Insonning har qanday harakatiga nisbatan birlamchi empirik faktlar – uning harakatiga reaksiya javobi qaytaradigan kishilar tajribasi bilan to‘ldiriladigan harakatdagi shaxsning tajribasi hisoblanadi. Fikrlarni ifodalash, poyemalar yozish, ... pul ajratish, ...biror mansabdor shaxsni tanlash, diniy rasm-rusumlarga amal qilish – bularning barchasi empirik ma’lumotlardir. Bu gapiruvchi bilan tinglovchi, omonatchi bilan bankir, saylovchi bilan saylanayotgan shaxs, e’tiqod qiluvchilar bilan ritual ishtirokchilari o‘rtasidagi tajribada

shakllanadi. Bu harakatlarni induktiv o‘rganishni istayotgan tadqiqotchi ularni insoniyat agentlari tajribasida va reagentlar harakatida qanday namoyon bo‘lgan bo‘lsa, shunday qabul qilishi kerak, ...bu ma’lumotlar ularni o‘rganayotgan kishilarning insoniy koyeffitsentiga ega. Insoniy koyeffitsent kishilarning tajribasiga bog‘liq bo‘lmagan tabiiy ma’lumotlardan farqlanadi”. “Insoniy koyeffisent”ni hisob-kitob qilishning zarurligini Znaneskiy insonlarning xatti-harakatiga tegishli bo‘lgan tabiiy faktlar yoki obyektlarni naturalistik tushunadigan faktlardan nafaqat mazmun jihatidan, balki harakat subyekti va tadqiqotchi tomonidan beriladigan mazmun bilan ham farqlanishi bilan asoslaydi. “Agar olim insoniy koyefitseiyntni e’tibordan chiqarsa va madaniy tizimni tabiiy tizim shaklida (ya’ni kishi tajribasi va inson faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda) o‘rganishga harakat qilsa, u holda u o‘z tadqiqoti uchun tanlagan reallik bilan umumiy jihatga ega bo‘lmagan, bir-biri bilan o‘zaro aloqasi yo‘q tabiiy hodisa va jarayonlarni ko‘ra oladi”.

Sotsial faoliyatni tadqiq yetayotib, Znaneskiy dilemmaga duch keladi: sotsiologik nazariyani tuzishdagi texnologik oriyentasiya undan determinizm tamoyilini qabul qilishni talab yetardi, ayni bir paytning o‘zida uning falsafasining antinaturalistikligi esa uni inkor etishni taqozo yetardi. “G‘arb sivilizatsiyasining inqirozi” deb nomlangan asarida u bu dilemmani quyidagicha izohlagandi: “Biz jamiyatni ma’lum vaqt oralig‘ida butunlik holida o‘rganganimizda biz sotsial voqelikning takrorlanmaydigan va ijodiy, takrorlanuvchan va sababiy asoslangan tomonlarini teng ravishda hisobga olishimiz kerak. Ijodiy faoliyat va sababiy jarayonlar birgalikda mavjud bo‘ladi, ratsional tartibsiz hayotda paydo bo‘ladi va bir-biri bilan kesishadi, bu kabi tadqiqotlar sistematik ilmiy sintez darajasiga borishi mumkin emas”. Znaneskiy bu metodologik qiyinchilikni aylanib o‘tishga harakat qiladi. Uning fikricha, inson ijodiy faoliyatining barcha noaniqliklariga qaramay, sotsial harakatlar yuqori darajadagi muntazamlik (doimiylik) bilan xarakterlanishi mumkin. Ijtimoiy munosabatlarning muvofiqligi va sotsial sharoitlarning barqarorligi paytida insonlarning sotsial guruh doirasidagi ko‘nlab harakatlari ma’lum ma’noda tartiblashgan va ularning natijalari ko‘proq yoki ozroq darajada belgilangan bo‘ladi. Bu vaziyatlarda sotsiologiya ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishini aniq bashorat qila olishga qodir, bu esa unga sotsial amaliyot uchun yaxshi tavsiyanoma bo‘ladi.

Zamonaviy sotsiologiya fanida Znaneskiyning fanga qo‘shgan hissasi yuksak baholanadi (uni hatto Maks Veber bilan tenglashtiriladi), lekin uning gumanistik sotsiologiya maktabi alohida e’tibor qozonmadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1**.** Znaneskiyning falsafiy va sotsiologik asarlarini aytib bering.

2. Znaneskiy sotsiologiyasining falsafiy asoslari nimadan iborat edi?

3. Znaneskiy jamiyatga tabiiy-ilmiy jihatdan qarashga qanday munosabatda bo‘lgan?

4. Sotsiologiyaning predmeti va vazifalarini Znaneskiy qanday tushuntirib beradi?

5. Znaneskiy sotsiologiyaning metodologik muammolarini qanday bayon etadi?

6. Znaneskiy va Tomaslar sotsial xarakterning nechta turini ajratib ko‘rsatdilar?

7. Znaneskiy sotsial harakatlarni qanday izohlaydi?

8. Qadriyatlar dunyosini Znaneskiy qanday tushuntiradi?

9. Znaneskiyning sotsiologik nazariyasida madaniyat qanday o‘rin tutadi?

13-MAVZU. P.SOROKIN “ANALITIK” NAZARIYASI

REJA:

1. Pitirim Sorokinning sotsiologik nazariyasi.
2. Pitirim Sorokinning «integral falsafasi».
3. Pitirim Sorokin madaniyatning uch turi haqida.

1. Pitirim Sorokinning nomi u tanlagan fanni anglatuvchi belgi sifatida tarixda qolgan. G‘arbda u XX asr sotsiologiya klassigi sifatida tan olinib, O. Kont, G. Spenser, M. Veber bilan bir qatorda turadi.

Pitirim Aleksandrovich Sorokin 1889-yil 21-yanvarda Vologod guberniyasining Turya qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning otasi Aleksandr Prokopevich hunarmand bo‘lib, cherkovni ta’mirlash ishlari bilan shug‘ullangan. Pitirimning onasi Pelageya Vasilevna dehqon bo‘lgan. Pitirim oilada o‘rtancha farzand edi. U o‘n yoshida katta akasi Vasiliy bilan ichkilikbozlikka chalingan otasini tark yetib, daydi ustalar hayotini kechirishgan. 1902-yilda Pitirim bu hayotini o‘zgartirishga harakat qiladi va Gamskdagi ikki sinfli maktabga o‘qishga kiradi.

O‘n besh yoshliida Sorokin eserlar partiyasiga a’zo bo‘ladi va aktiv inqilobchiga aylanadi. Maktabdagi ikki yil Pitirimning dunyoqarashini o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. 1906 yilda Sorokin birinchi marta Kishinyov qamog‘iga tashlanadi. Ammo, qamoqda uning jadal intellektual mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish imkoni bor edi. Yosh inqilobchining

inqilobiy fikr klassik namoyondalari (Marks, Lenin, Lavrov, Mixaylovskiy) va sotsial -falsafa vakillari (Darvin, Spenser, Kont) ishlari, fikrlari bilan tanishuvi Sorokinning fikrlari va g‘oyalarining shakllanishadi muhim ta’sir ko‘rsatgan.

1909-yilda P.A.Sorokin Sankt-Peterburg psixonevrologik institutiga o‘qishga kiradi. Bu davrda mazkur ilm dargohida XX asr boshining mashhur olimlari - Ye.V.De Roberti va M.M.Kovalevskiylar birinchi sotsiologiya kafedrasini ochishdi. P.A.Sorokin M.M. Kovalevskiyning shaxsiy kotibi bo‘lgan.

1912-13-yillar qishida u diplom ishi va keyinchalik asar sifatidagi ishi «Jinoyat va jazo, jasorat va mukofot»ni yozadi. M.M.Kovalevskiy kitobning so‘z boshida quyidagi so‘zlarni yozgan: «Kelajakda rus sotsiologik kutubxonasida «Jinoyat va jazo, jasorat va mukofot» asari muallifining qalamiga mansub bir qator asarlar bo‘ladi».

Sorokin universitetni tugatishi bilan professir unvonini olish uchun jinoiy huquq va sud kafedrasida qoldiriladi. 1915-yilda magistr imtihonlarini topshiradi. 1917-yil yanvar oyidan u Petrograd universitetining privat-dosent unvonini oladi. 1916-yilda institut professorlari M.M.Kovalevskiy nomidagi Sotsiologik jamiyatni tashkil etishadi. U keyinchalik Petrograd universitetida sotsiologiya kafedrasining tashkil etilishiga asos bo‘ladi.

1917-yil Sorokinning jadal siyosiy faoliyati uni yetuk sotsiolog sifatida shakllanishida muhim davr hisoblanadi. Inqilob va fuqarolik urushi yillari olimni jamiyatning «normal», ya’ni nisbatan barqaror va «falokatli», ya’ni barqaror bo‘lmagan (urush, ocharchilik, epidemiyalar, inqiloblar) davrlarini o‘ranishiga turtki bo‘ldi.

Fevral iqilobi davrida Sorokin o‘z ilmiy faoliyatini butkul to‘xtatib, siyosatchi sifatida namoyon bo‘ldi. U Davlat Dumasi, Muvaqqat hukumat faoliyatida ishtirok etdi, «Xalq ishi» va «Xalq irodasi» gazetalarida muharrirlik qildi. Sorokin ma’lum muddat **A**.F. Kerenskiyning shaxsiy kotibi bo‘ldi. Bu davr mobaynida u «Millatlar avtonomiyasi va davlat birligi», «Boshqaruv shakli», «Sotsial tenglik muammosi», «Urush sabablari va tinchlik sari yo‘l», «Sotsial izm mohiyati» kabi bir qator siyosiy-sotsiologik asarlar yozdi.

1918-yil 2-yanvarda navbatdagi marta qamoqqa olindi. Ammo bu safar Leninga suiqasd qilishda ayblanib, bolsheviklar inqilobiy hukumati tomonidan xibsga olindi. Siyosiy faoliyatiga chek qo‘ygan Sorokin o‘zini ilm va ilmiy faoliyatga baxsh etadi. U Petrograd universitetida dars berishni boshlaydi. 1919-yilda Sorokin Rossiyadagi birinchi sotsiologik

fakultetni tashkil etadi va uning birinchi dekani bo‘ladi. Shu yillarda u huquq va sotsiologiya bo‘yicha darsliklar yozadi.

1922-yil yozida mamlakatdagi vaziyat jadal o‘zgaradi. Burjua professurasi o‘qitish va ayniqsa, fanni boshqarish faoliyatidan chetlashtiriladi. 1922-yil avgustida Sorokin Moskvada safarda bo‘ladi. Bu paytda Petrogradda bir qator olimlarni hibsga olishadi. FK xodimlari Sorkinning Petrograddagi uyini ham tintuv qilishadi. Olimning Moskvada bo‘lgani uni qamoqdan asrab qoladi.

Mazkur yilning 23-sentabrida Sorokin rafiqasi bilan mamlakatni butun umrga tark etadi. Berlinda qisqa muddat bo‘lgach, u Chexoslovakiya prezidenti Masarikning taklifi bilan Pragaga keladi. Sorokin bu yerda yangi bir qator jurnallarni tashkil etishda ishtirok etadi, ko‘plab ma’ruzalar o‘qiydi va nashr uchun beshta asarini tayyorlaydi. Bu yerda olim asosiy mehnati hisoblangan «Inqiloblar sotsiologiyasi» asrini yozishga kirishadi. 1923-yil kuzida Pitirim Sorokin Amerika sotsiologlari Ye. Xayes va Ye. Rossning taklifi bilan bir umrga AQShga ko‘chib o‘tadi. Shu davrdan boshlab olim dunyoviy mashhurlikka erishadi.

Sorokinning tilni o‘rganishiga bir yildan kam muddat kerak bo‘ladi. 1924-yil yoz oylaridan Minnesota universitetida ma’ruzalar o‘qishni boshlaydi. Shu bilan birgalikda, u Illinoys va Viskonsindagi universitetlar bilan ham hamkorlik qiladi. Sorokin o‘z g‘oyalarini amalga oshirishi va rivojlantirishi uchun Garvard universiteti unga 10 ming dollarlik grant ajratadi. Olim bir qator rus yemigrant olimlari va garvardlik talabalarini o‘z ishiga jalb qiladi. Uning yozishicha, talabalari orasida Robert Merton eng iqtidorlisi bo‘lgan. Natijada 1937-1941-yillar davomida Sorokinning to‘rt tomlik «Sotsial va madaniy dinamika» asari chop etiladi.

1964-yil 75 yoshli Sorokin Amerika sotsiologik assotsiatsiyasining raisi etib saylanadi. Olim umrining so‘nggi ikki yili og‘ir xastalikda o‘tadi. 1968 yilning 11- fevralida Sorokin Vinchesterdagi uyida (Kembrij yaqinida) vafot etadi. Shu yilning o‘zida Amerika sotsiologik assotsiatsiyasi har yili eng yaxshi sotsiologik kitob uchun beriladigan Pitirim Sorokin nomidagi mukofotni joriy etadi.

2. Pitirim Sorokin dunyoqarashida integralizm[7] tamoyillari avval boshidan, uning ilk asarlaridayoq mavjud bo‘lgan. Ammo uning integratsiya va integratsion jarayonlarni tushunishi vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, ijodining so‘ngida bir butun integralizm falsafasiga aylandi.

[7] Интеграция – лотинча integratio сўзидан олинган бўлиб, тикланиш, бирлашиш маъноларини беради. Бу жараён натижасида ўзаробоғлиқ ва бир-бирини тўлдириш асосида махсус элементларнинг тизимда бирлашуви, ягоналиги ва бирлигига эришилади.

Sorokin o‘zining «Sotsiologiya tizimi» asarida mohiyatan sotsial statikaning turli darajalari bo‘yicha integratsiyaning iyerarxiyasini ko‘rsatishga harakat qiladi. Integratsiyani u sotsial butunlikdagi turli xil o‘zaro ta’sir va aloqadagi elementlarning birlashuvini ta’minlovchi mexanizm, jarayon va omillar birligi sifatida tushunadi.

Sorokin sotsial statika darajalarini (individlararo, elementar, kumilyativ guruhlar darajasi va ularning birligi sifatida jamiyat) turli integratsiya mexanizmlariga ega bo‘lgan individlarning ijtimoiy o‘zaro aloqalarining darajalari sifatida tasvirlaydi. Bunda mazkur darajalarning integratsiya mexanizmlari bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Biroq Sorokin integralizmning nisbatan yaxlit, hajli va ko‘p qirrali konsepsiyasini nisbatan yechimi yozilgan asarlarida ko‘rsatgan. Bu asarlarining birida u «mening falsafam – integralizm», deya ta’kidlagan. Bu konsepsiya o‘z ichiga integral haqiqat (integral fanning asosi), inson (integral mavjudot sifatida) va yuksak integral qadriyat tushunchalarini olgan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Yangi integral bilish nazariyasiga muvofiq bilishning kamida uch kanali mavjud: hissiy, ratsional hamda hissiy va ratsionaldan yuqori. Sorokin bo‘yicha, haqiqat mana shu uch kanal, ya’ni hissiyot, aql va intuitsiya vositasida hosil bo‘ladi. Shuning uchun u bitta kanal orqali olingan haqiqatga nisbatan to‘liqroq va mukammalroq haqiqat sanaladi. Insonni esa Sorokin «ajoyib integral mavjudot» sifatida ta’riflaydi.

Sorokin shuningdek, reallikni neorganik, organik va superorganik (madaniy) hodisalardan iborat degan xulosani beradi. Shundan madaniy hodisa mohiyat sifatida noorganik va organik holisalarni o‘zgartirish kuchiga ega bo‘ladi. Superorganik dunyo madaniy dunyoning ideologik (mazmun, fan, texnika, din, falsafa, huquq, ahloq, turli nazariyalar), moddiy (modiiy madaniyat), shaxsiy (sotsiomadaniy shaxslar va sotsiomadaniy guruhlar sifatida barcha individlar) va bixevioristik (individlarning barcha ochiq xatti-harakatlari, marosimlari, odatlari, udumlari, qilmishlari) hodisalaridan tarkib topgan.

Sorokinningg fikricha, yuqorida keltirib qtilgan murakkab tizimli integratsiyalashgan jamiyat sotsiomadaniy tizim inqirozini engishning eng muqobiy tarixiy strategiyasi sanaladi. Sorokin integralizmni kelajakdagi jamiyat tuzumining paradigmal asosi sifatida talqin qilgan.

Ammo Sorokin integral jamiyat qurilishining muhimligini nafaqat tasvirlab, asoslaydi, balki buni keltirib chiqaradigan strategiyani o‘rganishga harakat qiladi. Uning asosida g‘oyalar olamida alturistik

muhabbatning tarqalishi fikri yotadi. Olim umrining so‘nggi yillarini altruistik muhabbatni o‘rganish va targ‘ib qilishga bag‘ishlagan.

3. Pitirim Sorokin sivilizatsiyalarninng ratsional nazariyasini yaratgan. Unga ko‘ra, madaniyat qadriyatlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Qadriyatlar vositasida jamiyat integratsiyalashadi va o‘z institutlarining o‘zaro aloqasini ta’minlaydi. Madaniyat inson intilishlarining quvvati va yo‘nalishini aniqlab beradi. Faqatgina sivilizatsiya rivoji jarayonini tushunish orqali insoniyat sotsial va madaniy rivojlanishini to‘g‘ri baholash va kerakli yo‘nalishga burish imkonini beradi.

Sorokin zamonaviy sivilizatsiyalarning rivojlanishida uch tendensiyani ko‘rsatgan. Ulardan birinchisi – ijodiy kuchlar markazining ko‘chishi. Mazkur markazlar insoniyat tarixida doimi ravishda ko‘chib turishgan. Shunday ko‘chishlarning so‘nggisi va mashhuri G‘arbiy Yevropanikidir. Endilikda uning kuchi qolmadi va ijodiy tashabbus Amerika mintaqasiga o‘tmoqda. Ikkinchi tendensiya sekin-astalik bilan sensualistik madaniyatning pasayishida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, sensualistik madaniyat inson sezgi organlari qabul qilgan reallikdan boshqa reallik va qadriyatlar mavjud emasligi g‘oyasiga asoslanadi. Paydo bo‘ladigan integral madaniyat mavjud reallik va qadriyat tuganmas va biz ularni ifodalaydigan tushunchalarga ega emasligimizdan kelib chiqadi. Shunday qilib, Sorokinning fikricha, apokaliptik falokat bo‘lmasa, integral madaniyat insoniyatga yangi ijodiy yeraga kirishda ko‘maklashadi.

Insoniyat oldida asrlar davomida bir savol turgan: «Haqiqiy va tugal qadriyatning tabiati qanaqa?». Bu savolga uch xil javob berilgan. Birinchi javobda tugal haqiqiy qadriyat hissiy hisoblangan. Undan boshqa reallik va hissiy bo‘lmagan qadriyatlar esa mavjud emas. Mazkur fikr asosida yirik supersistema sensitiv tizim paydo bo‘ldi**.** Ikkinchi javob esa tugal haqiqatni hissiyot va aqldan yuqori xudoda (Braxma, Dao va boshqa xudolar) ko‘rishgan. Hissiy yoki boshqa turli reallik yoki qadriyatlar sarob yoki quyi, soyasimon soxta reallik sanaladi. U ideasion tizim nomini olgan. Uchinchi javobda tugal haqiqiy qadriyat «ko‘p qiyofali abadiyat» sanaladi. U barcha farqlarni sifatiy va miqdoriy jihatdan qamrab oladi. Inson aqli esa chegaralangan bo‘lgani uchun uni bir butun holida qamrab ololmaydi. Mazkur «ko‘p qiyofali abadiyat»tasvirlab bo‘lmaydi. Inson faqatgina uning uch jihatiga minimal darajada yaqinlashishi mumkin: ratsional (mantiqiy), hissiy, hissiy va ratsionaldan yuqori. Mazkur uch jihat real va «ko‘p qiyofali abadiyat» uyg‘un ravishda birlashgan. Uning

hissiy, hissiy va ratsionaldan yuqori jihatlari real sanaladi. U Xudo, Dao, nirvana, muqqaddas yo‘qlik kabi nomlar bilan atalishi mumkin.

Shunday qilib, XI-XII asr oxiri o‘rta asr Yevropasida biz ideasion tizim hukmronligini ko‘rishimiz mumkin. Uning asosiy xristianlik ramzi sifatida Muqaddasi uchlik namoyon bo‘lgan. U tugal va haqiqiy reallik va qadriyat sifatida ko‘rilgan. Mazkur ramz o‘rta asrlarda hukmron bo‘lgan «fan», san’at, huquq, axloq, iqtisod, siyosat, falsafa tomonidan ham e’lon qilingan. Ilohiyot yoki teologiya fanlar podshosi hisoblangan va boshqa fanlar unga bo‘ysungan.

Ammo Sorokinning fikricha, XVI-XX asrlar Yevropa madaniyati butkul boshqacha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Mazkur davrda unda ko‘proq sensitiv super tizim hukmron edi. Din va ilohiyot esa o‘z ta’sirini yo‘qotgan edi. Ilohiyotdan yiroq sensitiv fan yuqori obyektiv haqiqatga aylandi. Chunki ular amaliy qabul qilinib, tekshirilgan edi.

Miloddan avvalgi V asr Yunon madaniyati yoki XIII asr Yevropa madaniyatini ko‘rganimizda ularda idealistik madaniy super tizim hukmronligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur madaniyat tugal va haqiqiy reallik va qadriyat sifatida «ko‘p qiyofali abadiyat»ni ko‘radi. U qisman hissiy, qisman, ratsional, qisman hissiy va aqldan yuqori holatda qabul qilinadi.

Sorokinning madaniy super tizimlar to‘g‘risidagi ta’limoti sivilizatsiyalar tipologiyasi sanaladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. P. Sorokinning falsafiy-sotsiologik dunyoqarashini shakllanishiga ta’sir etgan omillarni bayon eting.
2. P. Sorokinning asosiy asarlari haqida ma’lumot bering
3. P. Sorokinning sotsiologik nazariyasining mohiyati nimadan iborat edi?
4. Sorokin o‘zining «Sotsiologiya tizimi» asarida qanday g‘oyani ilgari suradi?
5. P. Sorokin sotsiologik nazariyasida strata tushunchasini mazmunini tushuntirib bering.
6. P. Sorokinning «integral falsafasi»ni mohiyatini yoritib bering.
7. P. Sorokinning integral bilish nazariyasini bayon eting
8. P. Sorokin madaniyatning uch turi haqida qanday fikr bildirgan?

14-MAVZU. SOTSIOLOGIYADA PSIXOANALITIK YO‘NALISH

REJA:

1. Zigmund Freydning tadqiqotlari va ilmiy asarlari
2. Zigmund Freyd tomonidan psixoanalizning yaratilishi
3. Zigmund Freydning erkin assotsiasiyalar usuli
4. Tushlar ta’biri xususida Zigmund Freyd nazariyasi

1. Buyuk olimning to‘liq ismi Sigizmund Shlomo Freyd. U Yakob Freyd va Amaliya Natanson oilasida dunyoga kelgan. «Mening hayotim va psixoanaliz» maqolasida Zigmund Freyd shunday yozgan: «Men 6-may 1856-yilda Freyburgda Moraviyada, hozirgi Chexoslavakiyadagi kichik shaharchada tug‘ilganman. Mening ota-onam yahudiy va mening o‘zim ham yahudiyman. Otam tarafidan bo‘lgan qarindoshlarim haqida shuni bilamanki, ular Reyn yerlari, ya’ni Kyolnda yashashgan. XIV yoki XV asrlarda yahudiylarning navbatdagi ta’qib qilinishi tufayli oila Sharqqa ko‘chib o‘tgan va XIX asr mobaynida Litvadan Galisiya orqali nemis tilida so‘zlashuvchilar yerlariga, Avstriyaga kelishgan».

Yakob Freyd 1815-yil Galisiyadagi Tismenisya shaharchasida tug‘ilgan va u yerda hayotining ilk 25 yilini o‘tkazgan. U o‘sha yerda uylanib, Freydning ikki akasi - Emmanuyel va Filipp tug‘ilishgan. Amaliya Natanson esa Ukrainada Broda shahrida dunyoga kelgan, ammo Odessada yashagan.

Hayotining ko‘p qismini Freyd Venada o‘tkazadi. 17 yoshida u gimnaziyani a’lo darajada bitirgan, 1873-yil kuzida esa Vena universitetiga o‘qishga qabul qilingan. 1876-yil martida Freyd o‘qishdagi muvaffaqiyati uchun stipendiyaga yerishadi va bu unga Triyestdagi laboratoriyada ishlash imkonini bergan. Mazkur laboratoriyani tashkil etgan professor Karl Klaus Freydga o‘z tadqiqotlarida ishtirok etish imkonini beradi.

1938-yil Avstriyaning Germaniyaga qo‘shilishidan so‘ng natsistlarning yahudiylarni taqib qilishi boshlandi. Freyd qiyin vaziyatda qoladi. Uning qizi Annani hibsga olishadi, Freydni esa gestapoda so‘roq qilishadi. Shundan so‘ng olim Uchinchi reyxni tark etishga qaror qiladi. Ammo hukumat uni mamlakatdan chiqarishga oshiqmasdi. U gestaponing tahqirlovchi tashakkur xatiga imzo qo‘yishga va reyx hukumatiga Germaniyani tark etish uchun 4000 dollar to‘lashga majbur bo‘lgan. Freyd bemori va shogirdi bo‘lmish Gretsiya va Daniya malikasi Mari Bonapartning yordami tufayligina rafiqasi, qizi va o‘z hayotini saqlab,

Londonga ketishga muyassar bo‘lgan. Freydning ikki opasi esa konsentrasion lagerga jo‘natilib, 1942-yil o‘sha yerda vafot etishgan.

Chekish oqibatida kelib chiqqan og‘iz bo‘shlig‘i saratonidan aziyat chekkan olim 1939 yil davolovchi shifokori va do‘sti Maks Shurdan yevtanaziyani amalga oshirishni so‘ragan. Evtanaziya, ya’ni bemorning xohishiga ko‘ra uni og‘riqlardan forig‘ qilish uchun abadiy uxlatish g‘oyasi o‘sha kezlarda juda mashhur bo‘lgan. Freyd katta miqdordagi morfin moddasining unga qilinishi oqibatida 23-sentyabr 1939-yil olamdan ko‘z yumdi.

Zigmund Freydning asosiy asarlari:

1. «Tushlar ta’biri» (1900)
2. «Leonardo da Vinchining yerta xotiralaridan biri» (1910)
3. «Totem va tabu» (1913)
4. «Psixoanalizning o‘tkazilishi bo‘yicha ma’ruzalar» (1916-1917)
5. «Lazzatlanish tamoyilining narigi tomoni» (1920)
6. «Moisey va monoteizm» (1939)

2. XIX asr so‘ngida psixologiya va psixiatriya navbatdagi inqirozni boshdan kechirardi. Yangi ilmiy davolash va tekshirish usullari gipnotik ishontirish usuli bilan bog‘liq edi, psixik buzilishlar esa noaniqligi bilan ajralib turardi. Chunki mazkur kasallikning qat’iy nazariyasi bo‘lmagan. Freydning hamkasbi venalik psixiatr Yozef Breyer jazava muammolari bilan shug‘ullanib, olimni insonning ruhiy kasalliklari bemorning psixikasi boshdan kechirgan jarohatlovchi kechinmalar bilan bevosita bog‘liqligi fikrining tug‘ilishiga turtki beradi.

Ko‘p olimlar tushlarni o‘tmishdagi voqealarning mexanik xotira tufayli birikkan tizimi yoki ma’nosiz fantastik obrazlar sifatida tushunishgan bo‘lishsa-da, Freyd tushni shifrlangan xabar deb bilgan. Tushning u yoki bu qismi bilan bog‘liq bo‘lgan assotsiatsiyalarni tahlil qilish orqali Freyd bemorning ruhiy kasalligining etiologiyasi haqida fikr yuritgan. Chunki bemorlar o‘z kasalligining kelib chiqish sababini bilishganida odatda tez tuzalib ketishadi.

Freyd yoshlik kezlarida gipnoz va undan ruhiy kasallarga yordam berishda foydalanishga qiziqadi. Keyinchalik esa u gipnoz usulidan voz kechadi va erkin assotsiatsiyalar usuli hamda tushlar tahlilini amaliyotda qo‘llay boshlaydi. Mazkur metodlar Freyd psixoanalizining asosi hisoblanadi. Freydni jazava (isteriya) holati ham qiziqtirgan. Bugungi kunda uni konversion sindrom deb atashadi.

Ilk bora Freyd «psixoanaliz» tushunchasini 30-mart 1896-yil Nevrologik Jurnalda chiqqan fransuz tilidagi nevrozlarning kelib chiqishi

to‘g‘risidagi maqolasida ishlatgan. 1900-yilda u o‘zining ilk mustaqil asari «Tushlar ta’biri»ni chiqaradi. Mazkur asar bemorning tushlarini o‘rganish orqali nevroz holatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Erkin assotsiatsiyalar usulini qo‘llagan holda u bemorlarning ko‘pchiligida nevrozlarning asosiy sababi bostirilgan jinsiy mayillar (**libido**) degan xulosaga kelgan. Libido rivojlanishining buzilishi natijasida u qondirilmaydi va psixik kasalliklar tarzida namoyon bo‘ladi. Qondirilmagan mayil, shuningdek, nojinsiy maqsadlarga yo‘naltirilishi mumkin (sublimatsiya). Mazkur konsepsiyaga muvofiq bostirilgan jinsiy istaklar nafaqat tush va nevroz holatlarida, balki adabiyot, san’at va boshqa inson ongi mahsullarida namoyon bo‘lishi mumkin.

Freydning 1920 yilgacha yozilgan asarlarida nevrozlar ongsiz ravishdagi «lazzatlanish tamoyili» va ongli holdagi o‘zini himoyalash hissi o‘rtasidagi ziddiyat tufayli kelib chiqadi deyilgan. «Men va U» asarida Freyd inson psixikasida uch tarkibiy komponentni ajratadi - U (Id), Men (Yego) va Superego.

«U» ongsiz mayil, qiziqish, intilishlarni o‘z ichiga oladi. «Men», aksincha, reallik tamoyilidir. «Superego» esa insonning sotsial normalarni o‘zlashtirishi natijasida paydo bo‘ladi. Mazkur sotsial normalar ham inson psixikasida ongsiz darajaga o‘tib, vijdon va aybdorlik kabi tuyg‘ularning kelib chiqishaiga olib keladi.

3. XIX asr tanqidiy tafakkuriga qarama-qarshi tarzda Freyd psixik jarayonlarni kuzatishda onglining nazoratchi rolidan voz kechishni taklif qildi. Uning fikricha, ong u qadar muhim hisoblanmagan begona fikrlarni ular tadqiqotchining diqqat markaziga tushgunga qadar olib tashlaydi. Ammo tadqiqotchi uchun ruhiy jarayonni o‘rganishda aynan shu fikrlar muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Freyd shuning uchun erkin assotsiatsiyalar usulidan foydalandi. Bunda bemorlar o‘zlarini bo‘sh qo‘yib, xayollariga nima kelsa, o‘shani aytishlari kerak bo‘lgan. Freyd fikricha birinchi, tasodifiy fikr tadqiqotchi uchun aynan kerak bo‘lib, u xotiralarning yoddan ko‘tarilgan davomi hisoblanadi.

Keyinchalik, u bu har doim ham shunday bo‘lmasligi mumkin deb aytib o‘tadi. Bemorda paydo bo‘lgan fikr yoddan ko‘tarilgani bilan aynan bir xil bo‘lmasligi uning ruhiy holati bilan izohlangan. Bemor maylni his qilganida unda ikki qarama-qarshi kuch harakatlanadi: bir tomondan uning ongli ravishda unutilgan narsani yeslashga intishishi va ikkinchi tomondan esa bunga qarshilik.

4. Freyd tushlar orqali jadal psixik hayot ochiladi deb o‘ylagan. Tushlar tahlili undagi har bir tushda mavjud bo‘lgan yashirin ma’no va anglanmagan haqiqatni ochib berishdan iboratdir. U qanchalik chigal bo‘lsa, u shunchalik ko‘p ma’no anglatadi. Mazkur hodisa psixoanaliz tilida qarshiliklar deb ataladi. Qarshiliklar, ya’ni to‘siqlar vositasida ongsizlik o‘zini himoyalaydi. Qarshiliklar ongsizlikni tushunarsiz, xavotirli fikrlarni esa shaklan o‘zgartirish (deformaesiya) orqali ongli dunyodan ajratadi. Tushlar yashirin istak va чohishlarni turli belgilar orqali namoyon qiladi. Bolalarning tushlarida uning haqiqiy va yashirin mohiyati o‘rtasidagi farq deyarli bo‘lmaydi.

Freydning «Tushlar ta’biri» asari tush inson hayotining davomi ekanini isbotlaydi. Uning mazkur asardagi bosh fikri quyidagidan iborat: tush tashqi tomondan tushunarsiz va undagi voqealar o‘zaro bog‘lanmagan bo‘lgani uchun, ko‘pincha, g‘alati va hatto fantastik deb baholanadi, ammo aslida u faqatgina psixoanaliz vositasida aniqlanadigan muhim ma’noga ega.

Freyd yaqinlari, do‘stlari, bemorlari va o‘zining tushlarini tadqiq etish natijasida tushlar ko‘pincha, kun davomida inson boshdan o‘tkazgan voqea va hodisalar asosida bo‘ladi degan xulosaga kelgan. U tush elementlari inson tajribasi mahsuli bo‘lib, uning ongsizligiga tushirilganini isbotlaydi. Mazkur elementlar orasida u Edip kompleksini bolalar hayotida muhim o‘rin tutuishini ko‘rsatgan. U yaqin odamlarning vafot etishi sodir bo‘lgan tushlarda namoyon bo‘ladi. Edip kompleksi bolalarning qarama-qarshi jins vakillariga intilishi va o‘z jinsidagidan qo‘rqishi bilan xarakterlanadi. Hayotda u psixik ziddiyatlarda namoyon bo‘ladi. U tushlarda bolaning o‘z ota-onasiga o‘lim tilashida ko‘rinishi mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Zigmund Freydning tadqiqotlari va ilmiy asarlari haqida ma’lumot bering.
2. Inson ruhiyatining ongsiz qatlamlari Zigmund Freyd tadqiqotlarida qanday tadqiq etiladi?
3. Z. Freyd tomonidan psixoanalizning yaratilishini bayon eting.
4. Freydning asarlarida nevrozlar qanday izohlanadi?
5. Z. Freydning erkin assotsiatsiyalar usulini mazmunini ochib bering
6. Tushlar ta’biri xususida Z. Freyd nazariyasi
7. Freyd tushlar orqali nimani ochib berishga harakat qilgan?
8. Freyd nazariyasida Edip kompleksi nimani anglatadi?

15-MAVZU. HOZIRGI ZAMON G‘ARB SOTSIOLOGIYASIDAGI ASOSIY NAZARIYALAR

REJA

1.Hozirgi zamon G‘arb sotsiologiyasining asosiy yo‘nalishi.
2.Funksional nazariya.
3.Konflikt nazariya.

XX asr G‘arb falsafasi va sotsiologiyasi bir biri bilan uzviy bog‘liqdir. Hozirgi zamon G‘arb sotsiologiyasining asosiy yunalishlarini bilmay turib, G‘arb sotsial falsafasining xilma-xil okim va maktablari mohiyatini tushunib bo‘lmaydi.

Hozirgi zamon G‘arb sotsiologiyasi strukturasi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan uch soha yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bularning birichisi sotsial falsafiy konsepsiyaning Freyd sotsiologiyasi, P.Sorokining integral, industrial va postindustrial jamiyat nazariyasi va hokazoni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi soha tor ma’nodagi sotsiologiya bo‘lib, u akademik sotsiologiyani o‘z ichiga oladi. Akademik sotsiologiya uchun fundamental ilmiy muammolarga qiziqkish, qadriyatli mulohozakorlikdan holi bo‘lish (ideologik betaraflik) va empirik faktlarga tayanish xosdir.

Sotsiologik bilimning uchinchi sohasi g‘oyatda keng bo‘lib, u amaliy sotsiologiyani o‘z ichiga oladi. Uning vakillar sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish va ijtimoiy hayotning turli sohalari ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash, ma’muriy organlar uchun tavsiyalar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi.

Hozirgi zamon G‘arb sotsiologiyasi uchun eng umumiy muammo jamiyatning o‘zligini saqlashi, rivojlanishi va uning barqarorligini ta’minlash muammosidir.

Quyidagi sotsiologik nazariyalar:

1.fuknsional
2.konflikt
3.o‘zaro ta’sir
4.ayirboshlash
5.etnometodologiya G‘arb jamiyatida keng tarqalgan.

Har bir nazariya u yoki bu sotsiologik maktab vakilining qkarashlariga muvofiq ravishda yana qator ko‘rinishlariga ega.

Endi ularga qisqacha to‘xtalamiz.

1.FUKNSIONAL NAZARIYA. Uning taniqli vakillar Z.Dyurkgeym, T.Parsons, R.Merton va boshqalar bo‘lib, ular jamiyatga uning o‘zligini saklashi va rivojlanishini ta’minlaydigan funksiyalar nuqtayi nazaridan qaraydilar.

Bu funksiyalar asosini sotsial ish harakatining yagona aktlari tashkil etadi. Unda “aktyor inson” muayyan rollarni bajaradi. Rollarni bajarishda xulq-atvorning madaniy namunalari katta ahamiyat kasb etadi.

T.Parsonsning fikricha, jamiyat sotsial sistema bo‘lib, uning amal qilishi uchun: birinchidan, sistema uni tashkil etuvchi ”aktyor”larning yetarli miqdorga ega bo‘lishi va aktyorlar rollarida muvofiq harakat qilishlari: ikkinchidan sotsial sistema tartib intizomni ta’minlaydigan madaniyat namunalariga tayanish zarur.

Quyidagi ikki sotsial mexanizm.

1.Sotsiallashish (ya’ni shaxslar tomonidan jamiyatdagi muayyan sotsial qadriyatlarning o‘zlashtirilishi va qabul qilish)

2.Jamiyat tomonidan sotsial nazoratning o‘rnatilishi muayya normalarga amal qilishni talab etilishi tufayli shaxs sotsial sistema bilan uyg‘unlashadi.

Bu mexanizmlar sotsial guruhlarning paydo bo‘lishiga olib keladi: sotsial guruhlar esa jamiyat barqarorligi ta’minlaydi. Bunday qarashlar R.Merton tomonidan keskin tanqid qilindi. U bunday jamiyatni mavhum va xayoliy jamiyat deb atadi. U o‘rtacha darajadagi nazariyalarni, turlicha ta’sirlarni xilma-xil shakllarning yashash va vujudga kelish jarayonlarini tushuntirishga imkon beradigan nazariyalar ishlab chiqishni taklif etdi.

2.KONFLIKT NAZARIYASI. Uning vakillari, G.Zimmel, R.Darenford va boshqalar bo‘lib, ular konfliktga sotsial butunlik yoki uning tarkibiy qismlarini saqlash uchun xizmat qiladigan sotsial jarayonlardan biri deb qaraydilar.

Bu nazariya tarafdorlari turli konfliktlarning vujudga kelish sabablarini, funksiyalarini, faoliyatini va namoyon bo‘lishini o‘rganadi. Konfliktlar bir-biri bilan to‘qnashadigan guruhlarning jipslashuviga, sotsial sistemalarning rivojlanishi va mustahkamlashini ta’minlaydilar.

Konflikt nazariyasi jamiyatning rivojlanish to‘g‘risida umumiy tasavvur bera olmaydi, u faqat sotsial sistemalar rivojlanishidagi bitta bo‘lakni ko‘rsatadi, xolos lekin shunga qaramay konflikt nazariyasi konfliktlarning sotsial jarayonlariga ta’siri, guruhlarning institutlashuvi to‘g‘risidagi ko‘plab qimmatli ma’lumotlarga ega.

3.O‘ZARO TA’SIR NAZARIYASI. Uning eng yirik vakili Jord Gerberd Mid bo‘lib, u kishilar tabiatdan ojizlanadilar, ular yashab qolish

uchun o‘zaro hamkorlik qiladilar va guruhlarga birlashadilar, deb hisobalydi. O‘zaro ta’sir nazariyasining eng muhim tushunchalari rol va status (makom)dir. Rol bu shaxsning turli sotsial kategoriyalari (ishchi dehqon va hokazo)ga qo‘yiladigan talablarga muvofiq bo‘lgan xulq-atvordir. Status inson bajarilishi zarur bo‘lgan huquq va majburiyatlar majmuasidir. Rollarning bajarilishi orqali statusga tormogi amal sifatida qaraydilar: shaxs uning doirasida o‘z rollarini bajaradi.

O‘zaro ta’sir nazariyasining ojiz tomoni shundaki unda statuslar normalar sohasida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni oldindan payqashga va kishilar xulq atvorida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni tushuntirishga imkon bermaydi.

4.AYIRBOSHLASH NAZARIYASI. Uning vakillari Freyzer, Malinovskiy, Jorj Xomans bo‘lib, ular jamiyat kishilar o‘rtasidagi moddiy va ma’naviy ne’matlarni ayirboshlash hisobiga yashaydi deb hisoblaydilar. Ayirboshlash nazariyasi bixeviorizm (hayvonlar xulq atvorini insongan nisbatan ta’qib etish) nazariyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Munosabatlarning eng muhim turi psixologik o‘zaro ta’sirdir. Bu nazariya kishilarning gruppaviy psixik reaksiyalarini va ularning o‘zaro ta’siri to‘g‘risida juda ko‘p qimmatli ma’lumotlarga egadir.

5.ETNOMETODOLOGIYA. G‘arb sotsiologiyasida yangi yunalishdir. Bu nazariyadagi bosh masala kishilarning hayot faoliyatini ta’minlash va ularning muammolarini hal qilish uchun kishilar tomonidan foydalaniladigan metodlarni aniqlashdir.

Hozirgi zamon G‘arb sotsiologiyasining metodologik asoslari va sotsiologik tafakkurining asosiy konsesiyalari to‘g‘risida to‘laroq tasavvurga ega bulish uchun sotsiologik tafakkurning kategoriyalari bilan yaqindan tanishish maqsadga muvofiqdir.

Sotsiologik tafakkur kategoriyalarning bir qismi turli falsafiy konsepsiyalar bilan bog‘liqdir. Masalan, Freydimz Zigmunt Freyd ta’limotining madaniyat hodisalari, ijod jarayoni va bir butun jamiyatni izohlash uchun qo‘llashga intiladigan maktab va oqimlarning umumiy nomidir.

Freydizm asosiy e’tiborini jamiyat rivojlanishidagi ongsiz tabiiy-psixik jarayonlarga qaratadi. Bu nazariya jamiyat va shaxsning psixologik nuqtayi nazaridan talqin etishga harakat qiladi.

Pozitivizm vakillari sotsiologik bilim sistemasini tabiiy ilmiy metodologiya asosida kurashga intiladilar. Pozitivizm rivojlanishning ilk bosqichi uchun ijtimoiy hayot hodisalariga naturalistik yonlashish xosdir.

Nepozivizm pozivitizm vujudga keladi. Uning sotsiologiyadagi asosiy prinsipi:

1.Sotsial hodisalar tibbiy va sotsial tarixiy voqelik uchun umumiy bo‘lgan qonunlarga bo‘ysunadi:

2.Sotsial tadqiqot metodlari ham xuddi tabiatshunoslik metodlari singari aniq, qat’iy va obyektiv bo‘lishi kerak.

3.Inson xulq-atvorining subyektiv jihatlari kuzatish uchun qulay holatlar bo‘lsagina tadqiq etilishi kerak.

4.Ilmiy tushuncha va xulosalarning haqliligi va voqeylik bilan taqqoslash orqaligina aniqlanishi kerak.

5.Barcha sotsial sohalar sifatli tasvirlanishi va ifodalashini kerak.

6.Sosiolik fan sifatida qadriyat mulohazakorlikdan va mafkuradan holi bo‘lish kerak.

STRUKTURALIZM. Bu nazariya asosini munosabatlar majmuasi sifatidagi strukturani tahlil qilish tashkil etiladi.

Strukturalizm Amerika sotsiologiyasida ikkinchi jahon urushidan keyin hukmronlik qilayotgan yo‘nalishdir. Uning bosh vazifasi sotsial sistema barqarorligi ta’minlaydigan mexanizm va strukturani o‘rganishdir.

SIMVOLIK INTERAKSIONAZIM. Hozirgi zamon G‘arb sotsiologiyasidagi nazariy-metodologik yo‘nalishdir. Bu nazariyaga ko‘ra jamiyat va shaxs individlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni majmuasida qaror topadi. Etnometodologiya sotsiologiyaning bir soxasi bo‘lib u etnoslar va millatlararo munosabatlarning genezisi fuknsiyalari va rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi, ularning tadqiq etishning asosiy metodologik prinsiplarini ishlab chiqaradi.

Fenomologik sotsiologiya. Bu oqim tarafdorlari jamiyatni kishilarning jamiyat to‘g‘risidagi tasavvurlari majmuasi bilan aynanlashtiradilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1.Hozirgi zamon G‘arb sotsiologiyasining asosiy yo‘nalishini sanab bering.

2.Sotsiologiyada funksional nazariyani tushuntirib bering

3.Konflikt nazariya qanday g‘oyani ilgari suradi?

4. Ayirboshlash nazariyasini tushuntirib bering

5. Sotsiologiyada strukturalizm qanday nazariya?

6. Simvolik interaksionizmni mohiyatini tushuntirib bering

7. Fenomologik sotsiologiya qanday ta’limot?

16- MAVZU. RAMZIY (SIMVOLLI) INTERAKSIONIZM NAZARIYASI

REJA

1. Ramziy (simvolli) interaksionizm va uning kelib chiqishi
2. Konsensus va mojaro.
3. Zamonaviy dunyoning istiqbollarida konsensusning ahamiyati

Ramziy (simvolli) interaksionizm boshqa har qanday nazariy yondashuvlarga ko‘proq ahamiyat beradi. Middan keyin uni ko‘plab olimlar rivojlantirishdi, va u Amerika Qo‘shma Shtatlarida funksionalizmga qarama-qarshi tushunchaga aylandi. Strukturalizm kabi, simvolli interaksionizmning tug‘ilishi til muammosi bilan bog‘liqdir, lekin Mid uni alohida yo‘nalish bo‘yicha rivojlantirdi. Timsollar Mid ta’kidlashicha, aynan til insonga ongli mavjudotga aylanish, o‘zining individualligini ko‘rish imkoniyatini berdi, ushbu jarayonning hal qiluvchi elementi timsoldir. Timsol yana qandaydir narsani ifodalovchi narsadir. Sossyur qo‘llagan misolga amal qilgan holda, «daraxt» so‘zi simvol bo‘lib, uning yordamida biz muayyan predmet, daraxtni tasavvur yetamiz. “Bu tushunchani tushunib olgach, deydi Mid, hattoki hech qanday daraxt ko‘rinmayotgan bo‘lsa ham, biz daraxt to‘g‘risida o‘ylashimiz mumkin”. Bizlar ushbu predmet to‘g‘risida simvolik tarzda o‘ylashni o‘rgandik. Timsollik tafakkur, faqatgina bizning tajribamizda bevosita ko‘rinadigan, yeshitadiganlar bilan cheklanishdan bizlarni ozod qiladi. Odamlar, hayvonlardan farq qilgan holda, simvollar bilan to‘la dunyoda yashaydi. Bu bizning o‘zimizni idrok etishimizga tegishlidir. (Hayvonlar, insonlardagi kabi shaxsiy «men» hissiyotiga ega emasdir). Bizlarning har birimiz o‘z o‘zini anglashga yetamiz, chunki biz o‘zimizga tashqaridan qarashga o‘rganamiz - o‘zimizni boshqalar ko‘rayotgandek ko‘ramiz. Bola boshqalar «sen» deb ataydigan obyektni (O‘zini) ifodalash uchun «men» so‘zidan foydalana boshlasa, unda o‘z-o‘zini anglashga asos paydo bo‘ladi. Timsoliy interaksionizm tarafdorlari ta’kidlashganidek kishilar o‘rtasidagi barcha o‘zaro ta’sirlar simvollar bilan almashishni taqozo qiladi. Boshqalar bilan ta’sirlanmay turib, ushbu kontekstga qanday xulq-atvor turi mos kelishi va o‘zgalarning maqsadlarini qanday izohlash kerakligini tushunishga, biz doimo kalit qidiramiz. Timsoliy interaksionizm shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvning tafsilotlariga va ushbu tafsilotlar boshqalar tomonidan gapirilganda yoki bajarilganda qanday qilib ma’no berishiga diqqatimizni qaratadi. Masalan, tasavvur etaylik

yerkak va ayolning birinchi uchrashuvi. Ehtimolki, ularning ikkalasi ham bir-birini baholashga va agarda uchrashuvlarida etaditan bo‘lsa, o‘z munosabatlarining rivojlanish variantlari yehtimolliklariga uchrashuv vaqtining ko‘p qismini sarflashadi. Ulardan hech biri buni o‘ta ochiq holda qilmaydi, aslida bunda nima ro‘y berayotganligini anglashadi. Ikkalasi ham o‘zining shaxsiy xulq-atvoridan tashvishlanadi, chunki ular o‘zini yaxshi tomondan ko‘rsatgisi keladi; lekin, shuni bilgan holda ularning har biri yonidagining xulq-atvoridagi haqiqiy qirralarni ko‘rishga harakat qiladi. Shunday qilib timsoliy (simvolli) talqinning murakkab va zo‘rga ko‘zga tashlanadigan jarayonlari ikki kishining o‘zaro ta’sirini shakllantiradi. Timsoliy interaksionizm g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaydigan sotsiologlar, odatda o‘zlarnning diqqatini kundalik hayot vaziyatlaridagi shaxslararo o‘zaro ta’sirga jamuljam etishadi. Bu turdagi tadqiqotlar orasida Irving Goffman ishlari ayniqsa qiziqarli bo‘lib, u «Ijtimoiy o‘zaro ta’sir va kundalik 800 hayot» deb ataluvchi, 4-bobda qaralgan. Middagi faqat quruq va abstrakt nazariy konsepsiyaga Goffman yorqinlik va jonlilik baxsh etdi. Natijada Goffman va boshqa omillar tufayli timsoliy interaksionizm vakillari tomonidan bizning kundalik hayotimiz tabiatiga tegishli bo‘lgan, ko‘plab kashfiyotlar yaratildi. Biroq timsoliy interaktsionizm kichik miqyosdagi hodisalarga juda kuchli ravishda diqqatni qaratganligi sababli tanqidga uchraydi. Bu yo‘nalishda ishlagan olimlar yirik miqyosdagi strukturalar va jarayonlarga to‘qnash kelganda har doim qiyinchilikni boshidan kechirishgan, bu yirik miqyosdagi hodisalardan asosan quyidagi ikki yo‘nalishga diqqatni qaratgan.

Marksizm Funksionalizm, strukturalizm va timsoliy interaksionizm sotsiologiya sohasidagi ahamiyatga ega bo‘lgan yagona an’analar emas, chunki bu uchta yo‘nalish shunga o‘xshash holdagi nazariy yondashuvlarni tasniflashning yagona usuli hisoblanmaydi. Bunday o‘xshash doiradan chekkaga chiquvchi, nisbatan ta’sirchan yondoshuvlardan biri marksizmdir. Ma’lumki, barcha markschilar o‘z tadqiqotlarini u yoki bu darajada Marks asarlari bilan bog‘lashadi, lekin uning g‘oyalarini ifodlovchi ko‘plab boshqa yo‘nalishlar ham mavjud bo‘lib, bugungi kunda markscha yo‘nalishdagi maktablar ko‘pincha nazariy jihatdan xilma-xil qarashlarga amal qiladilar. Keng ma’noda olganda, marksizmni yuqorida tavsiflangan uchta yondoshuvga mos keladigan yo‘nalishlar bo‘yicha ajratish mumkin. Ko‘pgina markschilar ochik yoki ochiq bo‘lmagan holda tarixiy materializmning funksionalizm ko‘rinishiga amal qilishadi. Bu yo‘nalishdagi marksizm strukturalizm ta’siriga uchragan marksizmdan tubdan farq qiladi. Ushbu keyingi nuqtayi

nazarni taqdim yetuvchi nisbatan mashhur mualliflardan biri fransuz tadqiqotchisi Lui Altyusserdir. O‘z navbatida nomlari keltirilgan kishilar faoliyatidan faol ijodiy xususiyatni tan oluvchi markschilar qarashlaridan tubdan farq qiladi. Bu yo‘nalishdagi faqat ba’zi mualliflargina timsoliy interaksionizmning ta’siriga uchrashdi, lekin ular tomonidan yaratilgan bu istiqbol chizgilari ham interaksionizmga o‘xshash bo‘ldi. Marksizmning barcha yo‘nalishlari sotsiologiyadagi markschi bo‘lmagan an’analardan tubdan farq qiladi. Ko‘pchilik markschi mualliflar marksizmni sotsiologik tahlil va siyosiy islohotlar yagona «paketi»ining bir qismi sifatida olib qaraydi. Marksizm, ularning e’tiqodi bo‘yicha, tub siyosiy o‘zgarishlar dasturini ishlab chiqishi lozim. Bundan tashqari markschilar, boshqa sotsiologlardan, ayniqsa funksionalizm vakillaridan farq qilmagan holda, jamiyatning sinfiy bo‘linishi, sinfiy mojarolar, shuningdek hokimiyat va mafkura muammolariga alohida ahamiyat berishadi. Marksizmni sotsiologiya doirasidagi qandaydir yondoshuv emas, balki sotsiologiya bilan birgalikda mavjud bo‘lgan sotsial va gumanitar konsepsiyalar majmui, deb qarash ma’qulroqdir, chunki sotsiologiya bilan marksizm bir-biri bilan kesishgan holda ko‘pincha bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Nomarksistik sotsiologiya va marksizm har doim o‘zaro ta’sir va o‘zaro muxolifat munosabatlarida bo‘lib kelishgan. Nazariy dilemmalar ushbu to‘rtta nazariy jihatlarning nisbiy qadr-qimmati qanday? Ularning har biri o‘zining ashaddiy tarafdorlariga ega, lekin shu narsa ayonki ba’zi bir munosabatlarda ushbu konsepsiyalar bir-birini to‘ldiradi. Funksionalizm va marksizmning ko‘pchilik yo‘nalishlari ijtimoiy guruhlar yoki jamiyat hayotidagi yirik miqyosli jihatlarni o‘rganishga jamuljam etilgan . Ular “Jamiyat o‘zining yaxlitligini qanday ta’minlaydi?” yoki “Ijtimoiy o‘zgarishlarning asosiy sabablari qanday?” kabi asosiy savollarga prinsipial jihatdan javob beradilar. Boshqacha aytganda, timsoliy interaksionizm ijtimoiy hayotning shaxsiy tomonlari bilan nisbatan ko‘proq bog‘langandir. Strukturalizm esa o‘z e’tiborini asosan ijtimoiy faoliyatning madaniy xususiyatlariga qaratganligi bilan boshqa yondoshuvlardan farq qiladi. Shunday qilib, sotsiologiya muammolarini ko‘rib chiqishda barcha nazariyalarning mevalaridan muayyan darajada foydalaniladi, biroq muayyan munosabatlarda ular bir-biriga ochiqdan-ochiq zid kelishi mumkin. Doimiy bahslar va munozaralarning manbai bo‘lgan, bir qancha asosiy nazariy dilemma — savollar mavjud bo‘lib, ularning bir qismi individlar va ijtimoiy institutlar faoliyatini izohlashning umumiy muammosi bilan bog‘langandir.

Timsoliy interaksionizm To‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir to‘liq chiziqlap bilan, to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalar yo‘l-yo‘l chiziqlar bilan ko‘rsatilgan. Sossyur o‘z g‘oyalarining bir qismini bevosita Dyurkgeymdan olganligi noaniq bo‘lsa ham, lekin, bir qator sohalarda ularning qarashlari qisman mos tushadi. Midning Veberga hech qanday borliq joyi bo‘lsamada, Veber g‘oyalaridagi inson faoliyatining maqsadli, anglangan xususiyati timsolli interaksionizmning asosiy mavzulari bilan ochiqdan-ochiq o‘xshashlik xususiyatiga ega.

Birinchi dilemma kishi faoliyati va ijtimoiy tuzilma masalalari bilan bog‘langan. U esa quyidagidan iborat: biz o‘z hayotimizning turli holatlariga faol ta’sir ko‘rsatuvchi, ijodiy boshlashichni qanday darajadagi tuliq qadr-qimmatli tashuvchilarmiz. Ehtimol, bizning xatti-harakatlarimizning katta qismi ixtiyorimizdan tashqaridagi qandaydir fundamental ijtimoiy kuchlar ta’sirinint natijasidir? Bu masalaga munosabat har doim sotsiologlarni farqlab kelgan va farqlab kelmokda. Xususan, timsoliy interaksionizm inson xulq-atvorining faol ijodiy tashkil yetuvchilarini ajratib ko‘rsatadi.

2. Ikkinchi nazariy dalil jamiyatdagi konsensus (kelishuv) va mojarolar bilan bog‘langandir. Bunda bir qator nuqtayi nazarlarga ko‘ra, ayniqsa funksionalizmga yaqinligiga ko‘ra, birinchi o‘ringa kishilik jamiyatiga xos bo‘lgan tartib va uyg‘unliklar qo‘yiladi. Ushbu qarash tarafdorlari, masalan, Talkott Parsonsning hisoblashicha, jamiyatlar vaqt o‘tishi bilan qanchalik o‘zgarmasin, undagi vorisiylik va konsensus nisbatan tabiiy xususiyatlardir. Boshqa sotsiologlar, ayniqsa Marks va Veber ta’siriga berilganlar esa, ijtimoiy konfliktning yorqin tabiatga egaligini ta’kidlashadi. Ularning hisoblashicha, ijtimoiy hayot uchun manfaatlar tarqoqligi, ziddiyat va kurash xosdir. Odamlar asosan bir-biri bilan tinch yashashga moyildir deb ta’kidlash xato. Hattoki, ochiqdan-ochiq qarama qarshilik bo‘lmaganda ham jamiyatdagi manfaatlarning tub farqi saqlanadi va u muayyan faol mojaroga aylanib ketishi mumkin.

3. Uchinchi dilemma, umuman olganda inson faoliyati yoki jamiyat xarakteristikalari bilan emas, balki zamonaviy ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘langan. Bu yerda gap zamonaviy jamiyatlar tabiatining o‘ziga ta’sir ko‘rsatuvchi omillari to‘g‘risida boradi: bu dilemma Marksgacha bo‘lgan va markscha yondoshuvlar o‘rtasidagi tafovutlardan kelib chiqadi. U quyidagi masala atrofida jamlangan: zamonaviy dunyoning holati Marks tomonidan ajratib ko‘rsatiladigan iqtisodiy omillar, xususan, kapitalistik ishlab chiqarish mexanizmlari bilan qanday darajada belgilanadi? Boshqa tomondan, muqobil omillar

(ijtimoiy, siyosiy va madaniy) zamonaviy davrda ijtimoiy rivojlanishni qanday darajada belgilashi mumkin?

4. Nazariyada to‘rtinchi fundamental muammo ham mavjud bo‘lib, u ortodoksal konsepsiya doirasida yuzaga kelishi yehtimoldan uzoq bo‘lsa ham, lekin uni bundan keyin rad etish mumkin emas. Bu muallifning xizmati shundaki, u sotsiologik tahlilga gender tushunchasini kiritdi. O‘tgan davrlarda sotsiologiya bilan shug‘ullangan barcha mashhur olimlar erkaklar edi, ular o‘z asarlarida inson mavjudoti erkak va ayol jinsiga bo‘linishiga amalda e’tibor berishmagandi. Individlar, ularning tadqiqotlarida erkak va ayol sifatida emas, balki “o‘rta jinsga” tegishli, abstrakt ishtirokchilar sifatida qaraladi. Chunki ananaviy sotsiologiyada gender muammosining qo‘yilishida amalda hech narsaga tayanib bo‘lmaydi, bu muammo, ehtimol, hozirgi vaqtdagi to‘rtta muammodan eng murakkabidir. Gender muammosi bilan bog‘liq, nazariy muammolardan eng muhimlaridan biri quyidagichadir: biz gender ta’limotini umumiy sotsiologik kategoriya sifatida kiritishimiz lozimmi? Yoki yehtimol, gender muammosini turli vaziyatlarda yerkaklar va ayollar xulq-atvorini belgilovchi, bir qator o‘ziga xos omillarga bo‘lib o‘rganmoq ma’qulroqdir? Agarda boshqa tomondan qaraydigan bo‘lsak, barcha madaniyatlarda ham erkaklar va ayollar ijtimoiy xulq-atvorini ajratib turuvchi xususiyatlar mavjudmi? Yoki, Gendercha bo‘linishni boshqa ijtimoiy tafovutlar atamalarida (masalan, sinfiy bo‘linishda) tushuntirish mumkinmi? Ushbu dalillarning har birini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Tuzilma va xatti-harakat Dyurkgeym tomonidan ko‘tarilgan, keyinchalik boshqa mualliflar tomonidan ham tadqiq qilingan muhim mavzulardan biri, bizlarni o‘z a’zolari sifatida birlashtiruvchi jamiyat, haqiqatan ham, bizning faoliyatimizni cheklab qo‘yadimi? degan masalada, Dyurkgeymning ta’kidlashicha, jamiyat individ ustidan ustuvorlik xususiyatiga egadir. U oddiygina individual aktlar summasiga qaraganda, bir muncha kattaroq narsadir, shuning uchun ijtimoiy strukturani tadqiq etgan holda moddiy muhit strukturalari bilan taqqoslaganda, “shafqatsiz” yoki “berahm” bo‘lgan xususiyatlarga duch kelasiz. Bir qancha yeshiklari bo‘lgan xonadagi kishini tasavvur yetaylik. Xonaning qurilishi individning xatti-harakatlar yehtimolligi doirasini cheklaydi. Devorlar va yeshiklarning joylashuvi, masalan, chiqish va kirish joyini belgilaydi. Dyurkgeym fikricha ijtimoiy tuzilma bizning faoliyatimizni shunga o‘xshash holda tartibga soladi. U bizning individual xatti harakatlarimizga chegara qo‘yadi. Ushbu nuqtayi nazar Dyurkgeymning mashhur qaydlarida shunday ifodalangan: Men qachonki

aka-uka, yer yoki fuqaro sifatida o‘z burchimni amalga oshirayotgan bo‘lsam, bunda men qonun va urf-odat tomonidan belgilangan, menga va mening xatti-harakatlarimga nisbatan tashqi bo‘lgan majburiyatlarni ijro yetaman. Shunga o‘xshash banda dindor tug‘ilgan kunidan boshlab, tayyor holda e’tiqod va diniy hayot amaliyotiga duch keladi, agar ular ungacha ham mavjud bo‘lgan bo‘lsa, demakki, ular undan tashqarida mavjud bo‘ladi. O‘z fikrlarimni ifodalash uchun men qo‘llaydigan belgilar tizimi, qadrlarni tulash uchun men foydalanadigan pul tizimi, o‘z tijorat faoliyatimda men qo‘llaydigan kredit mexanizmlari, o‘z kasbim kuchi tufayli men bajaradigan tartiblar — bularning barchasi va shunga o‘xshash narsalar mening foydalanishimdan qat’iy nazar amal qiladi. O‘z navbatida, agarda jamiyatning har bir a’zosiga murojaat qiladigan bo‘lsak unda ko‘rsatilgan, qayd yetib o‘tilganlar ularning har biriga nisbatan adolatlidir. Dyurkgey nuqtayi nazari ko‘plab tarafdorlarga ega, lekin u jiddiy tanqidlarni keltirib chiqardi. Agarda, ko‘plab individual aktlarning jami bo‘lmaydigan bo‘lsa, unda “jamiyat” nima? — deb so‘rashadi tanqidchilar. Agarda biz qandaydir guruhni o‘rganayotgan bo‘lsak biz jamoaviy moxdatni emas, balki faqatgina bir-biri bilan turli shaklda o‘zaro ta’sirlanuvchi individlar guruhini ko‘ramiz. “Jamiyat” faqatgina ko‘plab individlardan iborat bo‘lib, ular bir-biriga nisbatan tartibga solingan xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Ushbu nuqtayi nazarga muvofiq (asosan timsoliy interaksionizm tarafdorlari tomonidan taqdim etiladi), bizlar inson bo‘lganimizning kuchidan maqsadga yo‘naltirilgan holda xatti harakatda bo‘lamiz va madaniy mazmunlarga to‘lib-toshgan dunyoda yashaymiz. Ijtimoiy hodisalar ushbu nuqtayi nazarga muvofiq “narsalarga” uncha ham o‘xshash emas, chunki ular timsoliy ma’nolarga bog‘liq bo‘lib, bular bilan o‘zimizning xatti harakatlarimizga ma’no beramiz. Bizlar jamiyatning mahsullari emas, balki uning yaratuvchilarimiz. Baholash ushbu ziddiyatlarning qachondir tugab qolishi ehtimoldan xolidir, chunki u zamonaviy mutafakkirlar inson faoliyatini tushuntirishga birinchi marta muntazam holda o‘rgangandan buyon mavjuddir. Undan tashqari, ushbu bahs faqatgina sotsiologiya bilan chegaralanmaydi, u ijtimoiy fanlarning barcha sohalari omillarini qamrab olgan. Siz qaysi nuqtayi nazarni haqiqatga yaqinroq deb hisoblashni o‘zingiz hal etishingiz zarur. Bari bir keltirilgan nuqtayi nazarlardagi tafovutlarni oshirib ko‘rsatish zarur emas. Albatta, ushbu yondoshuvlarning hech biri mutlaq haqiqtga ega bo‘lolmaydi, lekin ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni osongina ko‘rish mumkin. Ma’lumki, ba’zi bir jihatlardan Dyurkgeym nuqtayi nazari afzalroqdir. Sotsial

institutlar har qanday individlardan ilgari keladi, shubhasizki, shu bilan birga ular bizlarni chegaralash imkoniyatiga ega. Masalan, men Britaniyada mavjud bo‘lgan pul tizimining ixtirochisi emasman. Agarda, men pulga sotiladigan tovarlar va xizmatlarni hohlasam, undan foydalanishni xohlashim yoki xohlamasligimdan qat’i nazar, uni tanlash imkoniyatiga ega emasman. Pul tizimi ham, boshqa an’anaviy institutlar kabi, jamiyatning har qanday alohida olingan a’zosiga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘ladi va uning faoliyatini tartibga soladi. Boshqa tomondan esa, xuddi fizik olam kabi, bizga nisbatan jamiyat “tashqi” hisoblanadi, deb o‘ylash, oshkora xato hisoblanadi. Agarda, bitta odam qolmagan holda ham fizik olam mavjud bo‘lgan bo‘lur edi, lekin shunga o‘xshash holatni jamiyatga nisbatan ham qo‘llash ochiqdan-ochiq aytganda, yaramaydigan holdir. Jamiyat har bir individ uchun alohida olinganiga nisbatan tashqi hisoblanadi, lekin u bu ta’rif bo‘yicha barcha individlar uchun tashqi bo‘lolmaydi. Bundan tashqari, Dyurkgeymning “sotsial faktlari” bizning faoliyatimizni chegaralashi mumkin, lekin ular uni determinantlash imkoniyatiga ega emas. Men, agarda qatiy ahd qiladigan bo‘lsam, pullardan foydalanmagan holda yashashim mumkin, lekin bunday qarorda ehtimol menga juda qiyin bo‘ladi. Inson atrofida ro‘y berayotgan voqealarga oddiygina passiv holda javob bermasligi kerak balki doimo tanlashi lozim. “Strukturaviy” va “faoliyat” yondoshuvlari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, bizning kundalik faoliyatimizda ijtimoiy tuzilmani faol tarzda yaratishimiz va o‘zgartirishimizni anglashga yordam bergan bo‘lar edi. Masalan, men tomonimdan pul tizimidan foydalanish dalili unchalik ahamiyatga ega bo‘lmagan, lekin ushbu tizim mavjudligini qo‘llab quvvatlashdagi zaruriy hissadir. Agarda barcha odamlar, yoki ularning ko‘pchiligi, qandaydir bir vaqtda pullardan foydalanishdan voz kechish to‘g‘risida qaror qabul qiladigan bo‘lsa, unda pul tizimi barbod bo‘ladi.

Konsensus va mojaro

Konsensus va mojaro muammolaridagi nuqtayi nazarlarni taqqoslashda yana Dyurkgeym jamiyatni o‘zaro bog‘liq, qismlar majmui sifatida qaraydi, ko‘pchilik funksionalistlar jamiyatni o‘zaro chambarchas bog‘langan, stukturalardan tarkib topgan, o‘zaro birlashtirilgan bir butunlik sifatida olib qaraydi. Bu Dyurkgeymning “ijtimoiy dalillarning” majburiy “tashqi” xususiyati to‘g‘risidagi fikrlariga juda mos keladi. Lekin analogiya bu yerda binoning devorlari bilan emas, balki inson tanasi bilan o‘tkaziladi. Inson tanasi turlicha ixtisoslashgan a’zolardan tashkil topgan bo‘lib (miya, yurak, o‘pka, jigar va hokazo), ularning har biri

organizm hayotini qo‘llab-quvvatlashga o‘z hissasini qo‘shadi. A’zolar bir-biri bilan uyg‘unlikda ishlashi lozim, aks holda organizm hayoti xavf ostida qoladi. Dyurkgeym fikricha (Parsons fikricha ham) jamiyat hayotida ham shunga o‘xshash holat yuz beradi. Jamiyat mavjudligi davom etishi uchun uning ixtisoslashgan institutlari (siyosiy tizim, din, oila, ta’lim tizimi) bir-biri bilan uyg‘unlikda ishlashi lozim. Shunday qilib, jamiyatning mavjudligi kooperasiyaga ham bog‘liqdir, bu esa o‘z navbatida jamiyat a’zolarining asosiy qadriyatlarga nisbatan umumiy konsensusi (kelishuvi)ni taqozo qiladi. Mojarolar muammosini tadqiq etadiganlar boshqacha nuqtayi nazarni ko‘zda tutadilar. Ularning asosiy qoidalarini, misol sifatida Marks tomonidan keltirilgan, sinfiy mojaro tushunchasi misolida, osongina namoyish etish mumkin. Marks fikricha, jamiyat teng bo‘lmagan resurslarga egalik qiluvchi sinflarga bo‘linadi, chunki kuchli darajada ifodalangan tengsizlik mavjudligi sababli manfaatlar tafovuti ko‘zga tashlanib, u sotsial tizimga tarqalgan hisoblanadi. Manfaatlar mojarosi muayyan vaqtda sinflar o‘rtasidagi faol kurashga aylanib, tub o‘zgarishlar jarayonini vujudga keltirishi mumkin. Ushbu yondoshuvning barcha tarafdorlari ham, sinflarga Markschalik ahamiyat berishmagan edi. Ba’zan mojarolar vujudga kelishida ahamiyatli bo‘lganlar, masalan, irqiy guruhlar o‘rtasidagi yoki siyosiy fraksiyalar o‘rtasidagi munosabatlar asos sifatida qaraladi. Lekin, mojarolashgan guruh qanday bo‘lishidan qati nazar, jamiyat dastavval tangliklarga to‘lib-toshgan deb qaraladi va hattoki bir muncha barqaror ijtimoiy tizim ham antogonistik guruhlarning barqaror bo‘lmagan muvozanati sifatida qaraladi.

Tuzilma va xatti-harakat borasidagi bahslar kabi mojaro va konsensus bilan bog‘liq bo‘lgan munozaralar qachonlardir tugaydi, deb aytishimiz qiyin. Shunga qaramasdan, qarama qarshi pozitsiyadagilar bilan konsensus o‘rtasidagi tafovut aslida ko‘ringaniga qaraganda ancha chuqurroqdir. Ushbu ikkita pozisiyani bir-biriga butunlay mos kelmaydi, deb bo‘lmaydi: har qanday jamiyat asosiy qadriyatlarga nisbatan muayyan darajadagi yagonalikka egadir va har qanday jamiyatda shubhasiz nizolar mavjudligi taqozo qilinadi. Bundan tashqari sotsiologik tuzulishdagi asosiy qoidalardan biri ijtimoiy tizimlar ichida konflikt va konsensus o‘rtasidagi aloqalarni tadqiq etishdir. Turli guruhlar amal qiladigan qadriyatlar va ularning a’zolari ko‘zlagan maqsadlar ko‘pincha umumiy va qarama-qarshi manfaatlar aralashmasini aks ettiradi. Hattoki sinfiy nizolar Markscha izohlanishda ham antagonistlar bilan bir qator umumiy manfaatlarga ega. Ya’ni, kapitalistlar o‘z korxonalari uchun ishchi

kuchiga ehtiyoj sezadi, ishchilar esa xuddi shunday darajada, ularga maosh to‘laydigan kapitalistlarga ehtiyoj sezadi. Bunday vaziyatlarda ochiq nizo uzoq muddat davom yeta olmaydi, ma’quli shuki, ikkala tomon uchun ham umumiylik o‘zaro tafovutdan oshib ketadi, aslida esa ba’zan teskarisi ham ro‘y berishi mumkin. Nizo va konsensusni tahlil etishda vujudga keladigan foydali tushuncha qadriyatlar va e’tiqodlar mafkurasi bo‘lib, kuchsizroq guruhlarga nisbatan kuchliroq guruhlar pozisiyasini saqlab qolishga yordam beradi. Hokimiyat, mafkura va nizolar har doim chambarchas bog‘langandir. Ko‘pgina nizolar hokimiyat yuzasidan vujudga keladi, chunki jamiyat muayyan imtiyozlar hosil qiladi. Hokimiyatga ega bo‘lganlar o‘zining etakchiligini salqlb qolish maqsadida mafkuraviy vositalarni qo‘llashi mumkin, lekin zaruriyat bo‘lganda ular kuch ishlatishga qodirdirlar. Masalan, feodal davrlarida aristokratlar hokimiyati quyidagi g‘oya bo‘yicha ushlab turilardi, ya’ni kishilarning bir qator oz qismigina hukmronlik qilish uchun tutiladi; lekin aristokratiya hukmdorlari, kimki ularning hokimiyatiga qarshilik qilishga jur’at yetsa, ularga nisbatan albatta zo‘ravonlik ishlatishardi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ramziy (simvolli) interaksionizm nazariyasi qachon yaratilgan?
2. Ramziy (simvolli) interaksionizm nazariyasining mohiyati nimadan iborat?
3. Timsollar Mid tomonidan qanday tushuntiriladi?
4. Tuzilma va xatti-harakatlar kim tomonidan o‘rganilgan?
5. Konsensus va mojaro
6. K. Marks sinfiy mojaro tushunchasini qanday bayon etgan?
7. Nizo va konsensusni tahlil etishda vujudga keladigan foydali tushunchalar haqida ma’lumot bering.
8. Zamonaviy dunyoning istiqbollarida konsensusni ahamiyatini tushuntirib bering.

GLOSSARIY

Avtoritet – boshqa insonlarning xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini boshqarish uchun berilgan, qonuniylashtirilgan huquq.

Agnostitsizm - Bilishni inkor etadigan ta'limot.

Analitik sotsiologiya –jamiyatning rivojini faqatgina madaniy tizimlarning almashinishi doirasida vujudga keluvchi jarayon sifatida qaraydigan, P.Sorokin asos solgan sotsiologik konsepsiya.

An'anaviy xatti-harakat – M.Veberga ko‘ra, egallangan odatlar, an'analar asosida kelib chiqadigan xatti-harakat.

An'analar – o‘tmishdan foydaliligi jihatidan insonlar qabul qiladigan, avloddan-avlodga o‘tadigan madaniy norma va qadriyatlar, ko‘nikmalar.

Assimilyatsiya – ozchilikning ko‘pchilik aholi ichiga singishib ketishi, bunda ozchilik aholi hukmron madaniyat me'yorlari va qadriyatlarini qabul qiladi.

Affektiv xatti-harakat – M.Veberga ko‘ra, hissiyot va emotsiyalarga asoslangan xatti-harakat.

Barqarorlik (ijtimoiy)– jamiyatdagi tinch-totuvlik va uni mustahkamlash uchun shart-sharoitning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, kuchlar va siyosiy partiyalar o‘rtasidagi hamjihatlik vaziyati; davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy kelishuv holatining muttasil davom etishi va h.k.

Bilish – tasavvur, tushuntirish va eslab qolishni qamrab oladigan tafakkur jarayoni.

Geografik maktab – Jamiyat hayotida geografik muhitning hal qiluvchi rolini ilgari suruvchi "bir omil" pozitivistik-naturalistik maktablaridan biri.

Demokratiya – fuqarolarga siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish va boshqaruv organlariga o‘z vakillarini saylash imkonini beradigan siyosiy tizim.

Dialektik sotsiologiya – G.Gurvich asos solgan, sotsiologik muammolarni tushuntirishda faqatgina inson ongiga xos bo‘lgan dialektikadan foydalanishni ilgari suruvchi yo‘nalish.

Jamiyat – muayyan hududda istiqomat qiluvchi, yagona siyosiy hokimiyatga itoat qiladigan va o‘zlarini boshqa qo‘shni guruhlardan farqlaydigan odamlar guruhi.

Jamoaviy harakat – muayyan joyda to‘plangan ko‘p miqdordagi odamlar tomonidan o‘z-o‘zidan kelib chiqib bajariladigan harakatlar.

Ijtimoiy guruh – har bir a’zosi boshqalariga nisbatan taqsimlangan kutilmalar asosida ma’lum bir tarzda o‘zaro xatti-harakat qiluvchi individlar yig‘indisi.

Ijtimoiy jarayon – strukturaviy yoki funksional jihatdan bir-birni taqozo yetuvchi ijtimoiy hodisalar turkumi.

Ijtimoiy institut – ma’lum bir hayot muhitida insonlarning o‘zaro xatti-harakatlarini idora yetuvchi va unda rol va statuslarni belgilovchi rasmiy va norasmiy qoidalar, tamoyillar, me’yorlar, o‘rnashmalarning barqaror yig‘indisi.

Ijtimoiy me’yor – ijtimoiy xatti-harakatni umumiy boshqarib turuvchi qatori sifatida namoyon bo‘luvchi qoida.

Ijtimoiy sanksiya – ijtimoiy aktor hatti-harakatining ijtimoiy rollar talablari doirasida yon-atrofdagilar tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi yoki jazolanishi ko‘rinishida namoyon bo‘luvchi oqibati.

Ijtimoiy nazorat – ijtimoiy tizimning uni tashkil etuvchi elementlarining o‘zaro xatti-harakatlarini normativ idora vositasida tartibga solishni ta’minlovchi o‘zini-o‘zi idora etish usuli.

Ijtimoiy fikr – taraqqiyotning turli muammolari, xususiyatlari to‘g‘risida turli xil ijtimoiy guruh yoki qatlamlarga mansub kishilarning munosabatini o‘rganish natijasida hosil qilingan tasavvurlar yig‘indisi.

Ijtimoiy o‘zgarishlar – ijtimoiy guruh yoki jamiyatning tayanch tuzilmalaridagi o‘zgarishlar.

Ijtimoiy qatlam – ijtimoiy jihatdan bir xil bo‘lmagan, jamiyatda alohida ijtimoiy guruhlar, ularning belgilanishi, sinfiy bo‘linish ifodasi.

Ijtimoiy harakat – ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirish yoki to‘sqinlik qilish uchun jalb etilgan odamlarning katta guruhi.

Integratsiya – lotincha integratio so‘zidan olingan bo‘lib, tiklanish, birlashish ma’nolarini beradi. Bu jarayon natijasida o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldirish asosida maxsus elementlarning tizimda birlashuvi, yagonaligi va birligiga erishiladi.

Interaktsionizm – ing. interaction – o‘zaro ta’sir

Irqiy-antropologik maktab – irqni ijtimoiy tarix, jarayon, harakatning bosh hamda asosiy subyekti deb talqin qiluvchi reaksion ta’limot.

Islohot – mavjud ijtimoiy tuzum asoslariga putur etkazmasdan ijtimoiy hayotning biron-bir sohasini o‘zgartirish, har qanday yangilikni joriy etish.

Ichkaridan kuzatish – guruh yoki hamjamiyatlar faoliyatida sotsiologning o‘zi ishtirok etishini nazarda tutuvchi tadqiqot usuli.

Kolumbiya maktabi – sotsiologiyada miqdoriy va sifatiy metodlarni ilgari surgan neopozitivizm maktabi.

Liderlik – individ tomonidan guruh liderligiga xos layoqat va sifatlarning namoyon etilishi.

Madaniyat – jamiyat uchun xos bo‘lgan qadriyatlar, me’yorlar va moddiy ishlab chiqarish.

Manfaat – individ yoki ijtimoiy guruhning u yoki bu ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq yo‘nalganligi.

Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlari, orzu-istak va maqsad-muddaolari ifodalangan g‘oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi.

Maqsadli oqilona xatti-harakat – M.Veberga ko‘ra, tashqi dunyo predmetlariv va boshqa odamlarga o‘z maqsadiga erishish yo‘lidagi shart-sharoit yoki vosita sifatida qaraydigan, oqilona yo‘naltirilgan xatti-harakat.

Mentalitet (*lot*. mens – aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan, ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati.

Mexanistik maktab – jamiyatni statistik qismlardan tashkil topgan agregat sifatida mexanika, fizika, yenergetika va h.k. metodlar asosida o‘rganish g‘oyasini ilgari suruvchi “bir omil” pozitivistik-naturalistik maktablaridan biri.

Me’yorlar – muayyan ijtimoiy birlik doirasida qabul qilingan xulq-atvor qoidalari.

Millat – til, ma’naviyat, milliy o‘zlikni anglash, ruhiyati, urf-odatlar, an’analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi ijtimoiy aloqalar bilan bog‘langan mustaqil subyekt sifatida o‘ziga xos moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning yetnik birligi.

Neopozitivizm – sotsiologiyaning asosiy vazifasini inson xulq-atvorini sotsial voqea-hodisa sifatida tabiiy fanlarda tan olingan metodlardan foydalangan polda o‘rganishdan iborat, deb qaraydigan yo‘nalish.

Neofreydizm – Z.Freydning psixoanalizi asosiga qurilgan, lekin undan farqli ravishda asosiy e’tiborni ongsizlik yoki psixik jarayonlardan ko‘ra sosiumdagi shaxs yoki shaxslararo munosabatlarga qaratgan yo‘nalish.

Obyekt (*lot*. objiyect – narsa) – subyektning bilish va amaliy faoliyatida unga qarama-qarshi turadigan narsa.

Obyektiv reallik – inson ongiga bog‘liq bo‘liagan, undan tashqaridagi moddiy olam.

Olomon – qiziqishlarining umumiyligiga ko‘ra yopiq makonda vaqtinchalik to‘plangan insonlar yig‘indisi.

“Organik” sotsiologiya – G.Spenser tomonidan asos solingan jamiyat va tabiatning aynanligiga asoslangan sotsiologik konsepsiya.

Plebissit – xalqning fikrini olish, alohida muhim masalalarni aholi o‘rtasida ovozga qo‘yish (referendum)

Pozitiv usul – O.Kontga ko‘ra, ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usuli yordamida to‘plangan empirik ma’lumotlarni tahlil qilish.

Pozitivizm (*lot.*positius – mavjudlik**)**– O.Kont asos solgan, ijobiy bilimlarni alohida mavjud bo‘lgan maxsus fanlarning natijasi va ularning uzviy birlashmasi natijasi sifatida qarovchi yo‘nalish.

Predmet – inson faoliyati va bilish jarayonida obyektlar dunyosidan ajratib qaralgan ma’lum bir yaxlitlikni ifodalovchi tushuncha.

Prinsip – turli ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar va bilimlar majmuining asosi, poydevori, har qanday xatti-harakat, xulq-atvor va faoliyatning boshlang‘ich qoidalari.

Prognoz – biror bir hodisaning kelajakdagi holati haqidagi ilmiy tadqiqotlarga asoslangan ehtimoliy mulohaza.

Propaganda (lot. yoyish, tarqatish) – keng ma’noda: ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo‘lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g‘oya va qadriyatlarni targ‘ib etishdir; tor ma’noda: mafkura va siyosatni targ‘ib etishga qaratilgan faoliyatdir.

Psixoanalitik sotsiologiya – Z.Freyd asos solgan, insonning sotsial faoliyatida ongsiz impulslarning hal qiluvchi rolini tan oluvchi yo‘nalish.

Ramziy (simvolik) interaksionizm – sotsial xatti-harakatni faqatgina uni amalga oshiruvchi insonning nuqtayi nazaridan kelib chiqib o‘rganish g‘oyasini ilgari suruvchi yo‘nalish.

Ratsionalizm-lotincha rationalis-ongli, ratio-ong, aql so‘zlaridan olingan.

Sanksiya – rag‘batlantirish yoki jazolash turlari bo‘lib, ular yordamida ijtimoiy maqbul bo‘lgan xulq-atvor me’yorlari mustahkamlanadi.

Sakralizasiya - Insonlar, buyumlar va voqea hodisalarni diniy jihatdan muqaddaslashtirish

Siyosat – hokimiyat hukumat faoliyati mazmuni va mohiyatiga ta’sir o‘tkazish uchun qo‘llaydigan vositalar.

Sotsial dinamika – O.Kontga ko‘ra, sotsiologiyaning ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi qismi.

Sotsial statika – O.Kontga ko‘ra, sotsiologiyaning ijtimoiy tizimlarning shart-sharoiti va funksional qonuniyatlarini o‘rganuvchi qismi.

Sotsiologizm – E.Dyurkgeymning sotsial faktlarni predmet sifatida o‘rganishga asoslangan sotsiologik konsepsiyasi.

Sotsiologiya – jamyatning strukturasi, uning elementlari va mavjud bo‘lishi shart-sharoitlarini, shuningdek ushbu strukturada amalga oshadigan ijtimoiy jarayonlarni o‘rganuvchi fan.

Spekulyasiya - tajribaga asoslanmagan, quruq muhokama;

Spirutualizm - ruh voqelikning birlamchi asosi, materiyadan mustaqil mavjud bo‘lgan alohida nomoddiy substansiya deb hisoblovchi falsafiy qarash. falsafiy termin sifatida fransuz olimi V. Kuzen (1792—1867) ishlatgan. Xudoning mavjudligiga va jonning abadiyligiga ishonuvchi barcha diniy e’tiqodlar o‘zining mohiyatiga ko‘ra S. ga kiradi. XIX—XX asrlarda fransuz va italyan falsafasidagi bir necha maktab va oqim S. deb atalgan. Idealizmning sinonimi sifatida ham ishlatiladi.

Struktura (*lot*. structura – tuzilish) – sistemaning tuzilishi va ichki formasi, mazkur sistema elementlari o‘rtasidagi barqaror o‘zaro aloqalarning birligini ifodalovchi tushuncha.

Strukturaviy-funksionalizm – T.Parsons va R.Mertonlar tomonidan asos solingan, madaniyatning turli shakllarini ular elementlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni topish asosida o‘rganuvchi yo‘nalish.

Subyekt (*lot*. subjectus – asosiga qo‘ymoq) – amaliy faoliyat va bilim bilan bog‘liq bo‘lgan, obyektni bilishga qaratilgan faollik manbai.

Tavsiflash – ifodalashning tanlangan tizimi yordamida tajribaga asoslangan sotsiologik tadqiqotlar natijalarini qayd etish va bu natijalarni fan tushunchasida ifodalashdir.

“Tanqidiy” sotsiologiya – Frankfurt maktabi vakillarining Xorkxaymerning “jamiyatning tanqidiy nazariyasi”ga asoslangan sotsiologik konsepsiyasi.

Tafakkur – predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlaydigan, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlarni aks yettiradigan bilishning ratsional bosqichi.

Tashqi kuzatish – tadqiqot obyektini o‘ziga xosligi jihatidan sezdirmay anglangan va anglanmagan, tasodifiy yoki rejali shakllarda amalga oshiriladagan kuzatish turi.

Taqlid nazariyasi – G.Tard asos solgan, elementar sotsial munosabatlarni e’tiqod va xohishni birovga o‘tkazish jarayoni, deb hisoblashga asoslangan nazariya.

Tizim – o‘zaro munosabat va aloqada bo‘lgan, muayyan yaxlitlikni hosil qiluvchi ko‘p qismlar majmui.

Totalitarizm – siyosiy boshqaruv shakli, unda butun hokimiyat uning siyosatidan norozi bo‘lganlarni terror qiluvchi, o‘zining sodiq odamlariga tayanuvchi diktator qo‘lida jamlanadi.

Turmush tarzi – ijtimoiy guruhlar, elat, xalq, millatlarning kundalik hayotini ifodalovchi tushuncha.

Tushunish – obyektiv olamdagi narsa va hodisalar haqida tasavvur, tushuncha, hukmlar hosil qilish va ularni ongdagi mavjud bilimlar bilan bog‘lashdan iborat aqliy jarayon.

“Tushunuvchi” sotsiologiya – M.Veberning “ideal tip” nazariyasi asosiga qurilgan sotsiologik konsepsiyasi.

Tushuncha – narsa va hodisalarning umumiy muhim belgilarini aks yettiruvchi tafakkur shakli.

Umumlashtirish – narsa va hodisalarning o‘xshash hamda muhim belgi va xususiyatlarini, bog‘lanishlarini fikran muayyan tushunishga birlashtirish jarayoni va uning natijasi.

Fenomen (*yun*. phainomenon – yuz beruvchi) – 1) ko‘zga ko‘rinib turgan hol; 2) noyob, kam uchraydigan hol, yoki buyuk, yagona bo‘lgan inson; 3) hissiy bilish, tajribada berilgan ma’lum bir holni anglatuvchi atama.

Fenomenologik sotsiologiya – Ye.Gusserlning fenomenologik falsafasi asosiga qurilgan, sotsial hodisalarni individlar ongidagi jamiyat haqidagi tasavvurlar bilan tenglashtirishga harakat qiluvchi yo‘nalish.

“Formal” sotsiologiya – G.Zimmelning sotsiologiyani xususiy ijtimoiy fanlarning bilish nazariyasi sifatida qarovchi konsepsiyasi.

Frankfurt maktabi – Xorkxaymerning “jamiyatning tanqidiy nazariyasi” asosiga qurilgan, xarakterni hal qiluvchi o‘ringa qo‘yuvchi maktab.

Freydizm – jamiyatni tushuntirishda Z.Freydning psixologik ta’limotidan foydalanishga intiluvchi turli-tuman yo‘nalishlarning umumiy nomi.

Funksiya (*lot*. functia – amalga oshirish, bajarish) – faoliyat, ba’zi sistemalar doirasidagi obyektning unga mansubligi va roli; obyektlar o‘rtasidagi aloqalar ko‘rinishi bo‘lib birining o‘zgarishi ikkinchisining

ham o‘zgarishiga olib keladi, bunda ikkinchi obyekt dastlabkisining funksiyasi deyiladi.

Fuqarolik jamiyati – mazkur mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turmushini o‘z ixtiyori asosida qurishga to‘la erkinlikni kafolatlovchi ma’lum ijtimoiy tizim.

Xalq – lug‘aviy ma’noda el, elat, millat, aholi, xaloyiq, bir guruh kishilar ma’nolarini anglatish uchun qo‘llaniladigan tushuncha.

Xarizma – (yun. charisma – iltifot, xudo lutfi) – xudo lutfi hisoblangan boshqalarga o‘xshamaydigan yuksak qobiliyat yoki noyob iste’dod.

Xususiyat – predmet va hodisalarning boshqa predmet va hodisalardan farqini yoki ular bilan umumiylikni ifodalovchi kategoriya.

Chikago maktabi – U.Tomas tomonidan asos solingan, sotsiologiyaning vazifasini keng qamrovli muammolarni tabiiy fanlar metodlari asosida o‘rganishdan iborat degan g‘oyani ilgari suruvchi neopozitivizm maktabi.

Shaxs – alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy mohiyatni o‘zida mujassamlashtirgan individ.

Ekzistensial sotsiologiya (*lot*. yexsistentia – mavjudlik**)–** sotsiologiyaning hayotning mazmuni, shaxsiy erkinlik, mas’uliyat muammolarini o‘rganuvchi yo‘nalishi

Elita (*fr*. yelite – eng sara) – har qanday ijtimoiy tuzilmaning boshqaruv, madaniyat va fanni rivojlantirish funksiyalarini amalga oshiruvchi oliy, imtiyozli qatlami.

Elita nazariyasi – V.Pareto asos solgan, a’zolarining qobiliyati va iste’dodiga ko‘ra jamiyatda yuqori pog‘onani egallovchi guruh haqidagi nazariya.

Empirik tadqiqotlar – sotsiologiyaning har bir sohasida o‘tkaziladigan faktologik tadqiqotlar.

Erkin assosiatsiyalar usuli – Z.Freyd asos solgan. birinchi, tasodifiy fikrni tadqiqotchi uchun ahamiyatli deb qarovchi metod.

Etnometodologiya – G.Garfinkel asos solgan, sotsial va madaniy hodisalarni o‘rganishda antropologlarning primitiv madaniyat va jamoalarni tadqiq etish metodlaridan foydalanishni yoqlovchi yo‘nalish.

E’tiqod – (ishonch, iymon) – muayyan maqsad, qadriyatga ishonch, shu asosda shakllangan tafakkur.

Ehtiyoj – inson talablari asosida paydo bo‘ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog‘liq ekanligini ifoda yetuvchi holat.

O‘z-o‘zini bilish – ijtimoiy tadqiqotlar jarayonida odamlarning o‘z xatti-harakatlari sharoitlari va vaziyatlarini tushunishi va anglashining o‘sishi, bu vaziyatni o‘zgartirishga imkon yaratadi.

Qadriyatlar – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan tushuncha; individ yoki guruhlarning nima yaxshi va nima ma’qul emasligi to‘g‘risidagi tasavvurlari.

Qadriyatli oqilona xatti-harakat – M.Veberga ko‘ra, insonning e’tiqodida belgilangan ma’lum bir xulq-atvor ko‘rinishidan kelib chiqadigan xatti-harakat.

Qo‘shilib kuzatish – tadqiqotchining uzoq vaqt davomida obyekt bilan sotsial muhit tarkibiga kirib, uni muntazam tarzda kuzatishi.

G‘oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga ta’sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr.

Haqiqat – inson ongida voqelikning to‘g‘ri, haqqoniy aks etishini ifodalaydigan tushuncha.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Aliyev B., Rafiqov G‘., Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. Sotsiologiya. (O‘quv qo‘llanma). –Toshkent: TDYuI nashriyoti. 2006.

2.Sotsiologiya //O‘quv qo‘llanma. Ubaydullayeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzayev O.B. va boshq. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.

3.Sotsiologiya. Ma’ruzalar kursi. Aliqoriyev N.S, Bekmurodov M.B., Ota-Mirzayev O.B., va boshq. – Toshkent, 2001.

4.Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriyev N.S va Ubaydullayeva R.T tahriri ostida) – Toshkent: 1999.

5.Ubaydullayeva R.T. Sotsiologiya tarixi. Toshkent. - 2010-y

6. Ritser Dj. Sovremennыye sotsiologicheskiye teorii. 5-ye izd. — SPb.: Piter, 2002. - 688

7. Richard T.Shatfer. Sotsiology in modules.New York. 201

8.Cragun Ryan T., Cragun Deborah. Introduction to Sociology. Wikibooks.org. 2012

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2018. -46 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

3.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 491 b.

4.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi/ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 05-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-3775-son Qarori. – Toshkent, 2018.

6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi nashriyot. 1993.

7. Veber M. Izbraniye proizvedeniya. – Moskva.: «Progress». 1990.

8. G‘aniyeva M.X. Etnosotsiologiya. Uchebnoye posobiye dlya stud. vыsshix uchebnыx zavedeniy. – Tashkent: «Universitet». 2006

9. Garadja. V.I. Sotsiologiya religii. – Moskva.: «Infra-M».2005

10.Giddings E. Sotsiologiya. – Toshkent.: 2002

11.Sovremennaya zapadnaya sotsiologiya. Slovar. – Moskva.:«Progress». 1990.

12.Kravchenko A.I. Sotsiologiya. – Moskva.:«PERSE-Logos». 2006

13. Sotsiologiya. Aliqoriyev N.S, Bekmurodov M.B., Ota-Mirzayev O.B., va boshq. – Toshkent, 2001

15. Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriyev N.S va Ubaydullayeva R.T tahriri ostida) – Toshkent.: 1999

16. Saitxodjayev H.B. Sotsiologiya. Ma`ruzalar kursi. –Toshkent.: «Akademiya noshirlik markazi», 2008

17.Xolbekov A.J., Idirov U.Yu. Sotsiologiya: izohli lug‘at-ma’lumotnoma.–Toshkent.: Ibn-Sino nomidagi nashriyot. 1999

18.Xolbekov. A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent.:«Akademiya», 2007.

19.Ubaydullayeva R.A., Ota-Mirzayev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). –Toshkent.: «Ijtimoiy fikr». 2001

20. Farfiyev B.A, Nurullayeva U..N Sotsiologiya tarixi. (Uslubiy qo‘llanma). Toshkent.: «Universitet», 2009.

21.Giddens A. Sociology. 3rd ed. – Cambridge: Polity press, 1998.

22.Karl-Heinz Hillman. Wörterbuch der Soziologie. – Stuttgart.: Kröner, 1994

Internet saytlari:

38.http://www.ziyonet.uz

39.http: www.lib.socio.msu.ru

40.http: www.socioline.ru

41.http: www.socio.rin.ru

42.http: www.sociologos.narod.ru

43.http: // www.sociol.com/

44.http: // www.nitehwk.com/ alleycat-fag. html

45.http: // www.sci. econ./

46.http: // www.sci. anthropology/

47.http: // www.sci. environment

MUNDARIJA

1-mavzu. Sotsiologik nazariyalarning vujudga kelishining g‘oyaviy-nazariy va ijtimoiy-iqtisodiy zaminlari 5
2-mavzu. Ogyust Kont va pozitiv sotsiologiyaning paydo bo‘lishi 17
3-mavzu. Gerbert Spenser va uning tarixiy evolyutsion sotsiologik sistemasi 29
4-mavzu. Sotsiologiyada pozitivistik-naturalistik maktablar 35
5-mavzu. Psixologik-sotsiologik nazariyalar 41
6-mavzu. F.Tyonnisning sotsiologik nazariyasi 50
7-mavzu. G.Zimmelning formal sotsiologik nazariyasi 56
8-mavzu. E.Dyurkgeymning sotsiologik nazariyasi 61
9-mavzu. M.Veberning sotsiologik nazariyasi 67
10-mavzu. V.Pareto sotsiologik ta’limoti 81
11-mavzu. Sotsiologiyada neopozitivistik yo‘nalish 87
12-mavzu. F. Znaneskiyning sotsiologik nazariyasi 93
13-mavzu. P.Sorokin “analitik” nazariyasi 112
14-mavzu. Sotsiologiyada psixoanalitik yo‘nalish 118
15-mavzu. Hozirgi zamon g‘arb sotsiologiyasidagi asosiy nazariyalar 122
16- mavzu. Ramziy (simvolli) interaksionizm nazariyasi 126
Glossariy 135
Foydalanilgan adabiyotlar 143

ZAMONAVIY SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR

O‘quv qo‘llanma

ISBN 978-9910-9728-8-1

Muharrir: Gulbahor Rahimova
Musahhih: Dilfuza G‘aybullayeva
Tex.muharrir: Hayitboy Amirdinov

Nashriyot tasdiqnomasi:
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

Bosishga ruxsat etildi: 10.01.2022 yil.
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/16.
“Times New Roman ” garniturasi. Ofset bosma usuli.
Hisob nashriyot t.: 9,2. Shartli b.t.: 8,4.
Adadi: 50 nusxa. Buyurtma 157.

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti.
Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy.